

8 2021

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


**ILMIY
AXBOROTLARI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ILMIY-NAZARIY JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL



ANIQ FANLAR
TABIIY FANLAR
FALSAFA
PEDAGOGIKA
PSIXOLOGIYA
IJTIMOIY-GUMANITAR
FANLAR

ISSN 2181-9580

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY**

2021

8-son

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil
30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro 'yxatga olingan.*

MUNDARIJA

Raximov Z.T. Oliy kasbiy ta’limda talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari	4
Rahimova F.N. Multimedia vositalari asosida oliy ta’lim muassasasida talabalarni ijtimoiy tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari	12
Turikova L.M. Ta’lim tizimida inson resurslari menejmenti	16
Xasanov A.R. Blended learning asosida ta’lim tizimini tashkil etish	22
Samatova G.B. Arifmetik amallarning xossalardan masalalar yechishda foydalanish	32
Алимова Ф.А., Каххоров О.С. Дифференциация, как средство повышения мотивации при обучении раздела электролиз	40
Rafiqov F.M. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan oliy matematika o‘z ichiga olgan sohalar	45
Mardonqulov J.A. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilari metodik tayyorgarligining hozirgi holati	50
Karimbayeva L.S. O‘zbekistonda maxsus ta’lim tizimida olib borilayotgan islohatlar	57
Nazarova F.Sh. Asqad Muxtorning “Insonga qulluq qiladurmen” hikoyasida shaxs konsepsiysi	64
Абдуллаева Н.М. Особенности организации интегрированных уроков В начальной школе	69
Boboev F.S. O‘zbekistonda sovet hokimiyatiga qarshi kurashning kuchayishida yer-suv islohotining ta’siri (1925-1929-yillar)	76
Akbarova S.A. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	84
Almardanova S.B. Talabalar kasbiy shakllanishining psixologik jihatlari	89
Ahmedov A.M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish metodikasi	93
Sharafutdinova X.G. Oilada shaxslararo munosabatlar destruksiyasi	100
Ли Е.В. Философский анализ некоторых видов мышления	105
Muxammadiyeva X.K. Boshlang‘ich ta’limda didaktik jarayonlarni tashkil qilishning mohiyati, holati va muammolari	112
Toshpulatova D.K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali bosqichlari	117
Musurmonova A.A. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar vositasida o‘quvchilar lug‘at boyligini boyitish metodikasi	123
Nizomov F.M. Abduqayum Yo‘ldoshevning “Yulduzning yo‘li” qissasida ruhiyat talqini	130

Хисматова Х.Ф. Образование в вузах в век цифровизации	135
Xolmirzayev X.D. Dunyolarga tarqab ketgan to‘qson olti urug‘imsan	141
Xidoxyodjaeva X.T. Shaxsda o‘zini o‘zi bilish rivojlanishining psixologik xususiyatlari	147
Tashmetova Sh.X. Zamонавиј шароитда та’лим-тарбија јаряонини модернизатсијалаш	153
Xalilova F.A. Oliy ta’lim muassasalarida “Elektr texnik materiallar” fanini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish	158
Xasanov A.A. Muloqot kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llari	164
Sharipova A.M. Zoologiya fanining vazifalari va o‘qitilishining ahamiyati	170
Raxmatova D.N., O‘razova M.Y. Maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida gigiyenik omillarning samaradorligi	177
Mamatqulova M.V. Pedagogika oliv o‘quv yurti talabalarining ijodiy qobiliyatlarini o‘quv faoliyatida rivojlantirishning pedagogik shartlari	181
Davronov N.K. Yosh voleybolchilarning tezkorlik sifatini harakatli o‘yinlar orqali rivojlantirishning nazariy asoslari	188
Файзиева Г.У. Актуализация феномена жизнестойкости в современном мире	194
Jo‘rayeva S.N., Karimova M.H. Harbiy xodimlardagi mardlik fenomenlarining professiogrammasidagi o‘rni	201
Sarimsakova D.M. Sotsiolingvistik kompetensiyani mustaqil ta’lim vositasida rivojlantirishning pedagogik shart - sharoitlari	205
Махмудова Н.А. Эффективность профессиональной деятельности менеджеров по продажам и их психологические особенности	214
Adxamova I.A. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida tadbirkorlik fazilatlarini rivojlantirish	220
Safarova M.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini shakllantirish	225
Gulyamova A.A. Nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda bilish jarayonlarini takomillashtirish usullari	234

**OLIY KASBIY TA'LIMDA TALABALAR KASBIY
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

**Raximov Z.T. - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori**

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda kasb ta'limi bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalarining o'quv-bilish motivatsiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini va o'qitishning yangi shakl, noan'anaviy metodlari orqali ularning samarali ta'lim olish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, o'quv bilish faoliyatiga innovatsion yondashuv asosida ulardagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Kasb, ta'lim, jarayon, samaradorlik, amaliyot, mazmun, sifat, takomillashtirish, ta'lim-tarbiya.

**ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Рахимов З.Т. - профессор Каршинского инженерно-экономического
института, доктор философии по педагогическим наукам**

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования механизмов развития учебно-познавательной мотивации студентов и системы активизации их эффективного образовательного процесса посредством новых форм, нетрадиционных методов обучения, развития у них профессиональной компетентности на основе инновационного подхода к учебной познавательной деятельности.

Ключевые слова: профессия, образование, процесс, эффективность, практика, процесс, содержание, качество, совершенствование, выполнение действий.

**FACTORS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL
COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER PROFESSIONAL
EDUCATION**

**Rakhimov Z.T. - professor at Karshi Institute of engineering and
economics, doctor of philosophy in Pedagogical Sciences**

Annotation. In the article, the directions of Bachelor's degree in vocational education today are interpreted as the development of educational-cognitive motivations of students and the improvement of the system of activation of their effective educational processes through new forms of teaching, non-traditional methods of teaching, the development of professional competence in them on the basis of innovative approach to education.

Key words: profession, education, process, efficiency, practice, process, content, quality, improvement, implementation of actions.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoniga yuqori intellektual texnologiyalar, ilm-fanning eng ilg'or yutuqlarini tatbiq etish, ta'limning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishga kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Ta'lim va tarbiya masalasi barcha davrlarda eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi vazifalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yuqori malakali, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq.

Hozirgi kunning talabi faqat ma'lum bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki predmetni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv-bilish faoliyatiga innovatsion yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivoj toptirishdan ham iboratdir. *Kasbiy kompetentlik* – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi xisoblanadi [1]. Shuning uchun o'qituvchi predmetning mazmuniga qarab talabalarda malaka va kompetensiyalarni rivoj toptirish kerakligini bilishi muhimdir.

Kasbiy ta'lim umumiy ta'limdan o'zining ta'lim maqsadi, o'rgatish maqsadi, o'zlarining dasturlari va dastur mazmunining tanlanishi, o'qitishda amaliy faoliyat bilan bog'lanish (ustaxonalarda kengash, korxonalarda ishlash va o'qitish usullari) va boshqalar bilan farq qiladi. Kasbiy ta'limda kasbiy fanlar dasturini ishlab chiqishda kasbiy tavsifnomalaridan kelib chiqadi. Umumta'lim va kasbiy ta'lim jarayonlari asosida bir-biriga o'xhash bo'lsada, chunki ko'p xollarda bir xil didaktik prinsiplar, metodik usullar qo'llaniladi, kasbiy ta'limda nazariy va amaliy o'qitish jixatlari bilan tubdan ajraladi. Chunki bu yerda ta'lim jarayoni ko'pincha ishlab chiqarish bilan birgalikda olib boriladi, u yerda ular o'rganiladi, ishlab chiqariladi, faoliyat ko'rsatiladi.

Kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv jarayonga tayyorgarligi quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- kasb bo'yicha kasbiy tavsiflarni, amaliy kasbiy ta'lim sohasiga tegishli ma'lumotlar, qo'llanmalar, spravochniklar, dasturlar, texnik va pedagogik adabiyotlarni o'rganish;

- pedagogik konferensiylar va ilg‘or tajriba maktablari ishlarida ishtirok etish; ilg‘or korxonalarda ish tajribasini o‘rganish;
- o‘quv - ishlab chiqarish ishlaridan namunalar tayyorlash.
- o‘quv darslarida, mehnat muhofazasi me’yorlari va qoidalari talablariga mos holda o‘quv ustuxonalari, laboratoriyalari, o‘quv ishlab chiqarish maydonchalarini o‘quv yiliga tayyorlashda ishtirok etish;
- moslamalar, jihozlar, ko‘rsatmali qo‘llanmalar hamda ta’limning texnik vositalarini tayyorlash va ta’mirlashni o‘rganish.


Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari har bir talabada o‘quv-bilish faoliyati bilan bирgalikda barcha aql-idrok, fikrlash sifatlarini ham rivojlantirishga harakat qilishlari shart. Rivojlantirish masalasi haqida gap ketar ekan, asosan, talaba shaxsning psixik sifatlarini rivojlantirishni ham nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bu sifatlar intellekt, diqqat, xotira, fikrlash va bilish qobiliyatlaridir[2]. Fikrlashni rivojlantirish: muhim belgilar va xususiyatlarni ajrata bilishni, voqelikdagi hodisalar o‘rtasida aloqa va munosabatlar o‘rnatish va hokazolarni shakllantirish yagona, umumiy belgilarni aniqlash mahoratini rivojlantirish, o‘rganiladigan material rejasini tuzish, biror qurilma va shu kabilarning ishlash prinsipini bilib olish; faktlarni tasniflash malakalarini rivojlantirish, umumlashma xulosalar chiqarish, umumiy va muhim belgilarni, bog‘lanish va munosabatlarni belgilash, bilimlarni amalda qo‘llash mahoratini o‘stirish; fikrlashning ijodiy komponentlarini rivojlantirish-nostandart yechimlarni topa bilish.

Umumkasbiy politexnik malakalarni rivojlantirish konstruktiv-texnik malakalarni rivojlantirishni eng turli-tuman vazifalarni hal qilishga shablon tarzda emas ijodiy yondoshishni, shart-sharoitlarni analiz qilish, umumlashmalar qilish, asosiy fikrlar tuzish, ularni eksperiment qilish, modellashtirish eskizlashtirish va hakozo; tashkiliy-texnologik malakalarni o‘stirish-faoliyat vazifasini aniqlab olish, biror murakkab vaziyatda yo‘l topa olish, zarur vositalar tanlash, ish rejasini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan rejani baholash,pribor va asboblardan foydalana bilish malakalarini baholash, o‘z xatti-harakatini tartibga solish va nazorat qila bilish mahoratini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi[3].

O‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish lozim darajadagi sur’at bilan ishslash, o‘qish, yozish, hisoblash chizish, konspekt olish, o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorlik, uyushqoqlikni rivojlantirish, ta’limining zarur metodlaridan foydalanish, xotirada saqlab qolish, materialni ma’no jihatidan guruhlariga ajratib, tayanch nuqtalariga e’tibor qaratish kabi harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan. Iroda va mustaqillikni rivojlantirish tashabbusini, o‘z kuchiga ishonchni rivojlantirishga; qat’iyatlikni o‘stirish, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qiyinchiliklarni yenga bilish malakasini rivojlantirish; mustaqil harakat qilish malakasini o‘stirish; bilimlarni egallash, qanday harakat qilish faoliyatini shakllantirish, uni qanday amalga oshirish

va birovning yordamisiz o‘z-o‘zini nazorat qila bilish va hokazolarni rivojlantirishga qaratilgan.

Bilish malakalarini o‘stirish malakalarini shakllantirishni, bilimlarni tayyor holda qabul qilish va fikrlashni eng asosiysini ajratib ko‘rsatishni, rejada, tezislar tuzishni, konspekt olishni, kuzatishni, o‘lchashni, tajribalar o‘tkazishni; qisman izlanuvchanlikdan iborat bilish faoliyati, malakasini o‘stirish-qisman muamolar qo‘yish, gipotezani ilgari surish, uni hal qilishni; izlanuvchanlikdan iborat (ijodiy) bilish faoliyatini o‘stirish-muammoni mustaqil ravishda ko‘rish, uni shakllantirish gipotezalarini ilgari surish, dalillarni asoslashni aks ettiradi. Bugungi kunda talabalarning o‘quv-bilish motivatsiyalarini rivojlantiruvchi mexanizmlarni va o‘qitishning yangi shakl, noan’anaviy metodlari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, o‘quv bilish faoliyatiga innovatsion yondashuv asosida ulardagи kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llash usullari mavjud bo‘lib, ular kasb ta’lim jarayonini mazmunan takomillashtirishni, ta’lim-tarbiya sifatini talab darajasiga olib chiqish harakatlarini bajarishni taqozo qiladi.



1-rasm. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar

Mazkur pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi talabaning ruhiy-intellektual layoqatga ega bo‘lib borishini ta'minlaydi. Buning natijasida talabada umumiyl va mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ijobiy munosabat

shakllanib, o‘z ustida ishslash, o‘ziga bo‘lgan ishonchga egalik, o‘z-o‘zini rivojlantira olishi, fikrini erkin bayon etishi, o‘z fikrini dadil himoya qilishi, ijtimoiy va kommunikativ kompetentlikka egalik kabi sifatlar namoyon bo‘ladi.

Kasb ta’limi sohasida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantrish bugungi kunda dolzarb ekanligini hisobga olgan holda, sohaga oid barcha bilimlarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv va malakani shakllantirish va rivoj toptirish nihoyatda muhimdir[4].

Bilim – nazariy va amaliy faoliyat natijasida o‘rgangan, esda saqlab qolingan, qabul qilingan va fikrlashtirilgan hodisa va predmetlar haqidagi tushunchalar tizimidir.

Bilimlar o‘z navbatida tizimli va tizimsiz, nazariy va amaliy, keng va tor, chuqur va yuzaki, moslanuvchan va shablonli, mustahkam va mustahkam bo‘lmagan turlariga bo‘linadi. Bularning ichida kasbiy ta’lim natijasida hosil bo‘ladigan nazariy va amaliy bilimlarni oshirish mumkin.

Amaliy bilim esa texnika va texnologiya sohasidagi jarayonlarning aloqasini, hodisasini va boshqalarning to‘g‘ridan to‘g‘ri amaliy faoliyatga kiritilganligini bildiradi.

Malaka – bu o‘quvchining avtomatik ravishda yo‘naltirilgan holda birorta ishni baholash qobiliyatidir.

Ko‘nikmalar: aqliy (xotira va fikrlash), sensorli (qabul qilish ko‘nikmasi), dvigatelli harakati.

Ko‘nikma - yangi sharoitda insonning (mutaxasisning) ishni sifatli, keraklihajmda va ajratilgan – belgilangan vaqtida bajarish qobiliyatidir.

Ko‘nikmani shakllantirish bu kasbiy ta’limning majburiy oxirgi maqsadi bo‘lib, bu ko‘nikma o‘qish, amaliyot jarayonida bosqichma-bosqich shakllanib boradi.

Shakllangan ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va takomillashishini ta’minlovchi asosiy omillari:

- ko‘nikma va malakalarning ongli tushunib va mustahkam shakllanishi.
- ularni shakllantirishda o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanilishi.
- xatolarning oldini olish, ularni o‘z vaqtida tuzatish, yani noto‘g‘ri ish usullariga yo‘l qo‘ymaslik.
- topshiriqlarni bajarishda sekin-asta eng oddiy ish harakat usullaridan murakkab ish harakatlariga o‘tib borish.
- mashqlar uchun ajratilgan vaqtdan to‘g‘ri foydalanish.
- malakalar to‘liq shakllangunicha mashqlar davom ettirish.
- talabalarning e’tiborliligi.
- mashqlarning muntazam ravishda o‘tkazilishi.

An'anaviy ta'lim shunday mexanizmga asoslangan ediki, unga ko'ra bir qarashda ta'lim oluvchilarning o'z ustida ishlashlari, qo'shimcha bilimlarni o'zlashtirish maqsadida mustaqil harakat qilishlariga hojat yo'qdek. Biroq, mana shu holatning o'zi ularga yangi bilimlarga ega bo'lish orqali erkin fikrlash, mushohada yuritish, o'z nuqtayi nazarlarini ilgari surish, turli nazariya va qarashlarni o'zaro taqqoslash, to'g'ri qaror qabul qilish, o'z g'oyalarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo'lishdan mahrum etardi.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil o'qib-o'rganish, erkin fikrlash, muayyan g'oyalarni ilgari surish, amaliy izlanishlarni olib borish, murakkab vaziyatlarda muammoni to'g'ri, oqilona hal qilishda jiddiy to'siqlarga duch kelishi keyingi bosqich ta'limiga zarur darajada tayyor bo'lmasliklari, mutaxassis sifatida to'la shakllanmasliklariga olib keldi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi[5]. Talabalar tomonidan tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha umumiy va kasbiy fanlar asoslarining puxta o'zlashtirilishi ularni mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli qilib tayyorlash imkonini beradi. Mutaxassis sifatida talabalarning to'laqonli shakllanishi faqat o'qituvchi va uning faoliyatigagina emas, balki o'quv mashg'ulotlari jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishlariga ham bog'liq. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Oliy ta'lim muassasasida kasb-hunar ta'limi talaba va madaniyat o'rtaсидаги muayyan munosabatlarni o'rnatadi, muayyan tarzda ikkinchisini o'zgartiradi, shuningdek, uning maqsadi va mazmuni, kasbiy ta'lim strategiyasi, uning xarakteri va o'zaro ta'sir shakllari bilan talabalarning faoliyatini belgilaydi[6].

Oliy kasbiy pedagogik ta'limga bo'lgan zamonaviy talablar kelajakdag'i o'qituvchini rivojlanishning subyekt pozitsiyasini ta'minlaydigan texnologiyalardan foydalangan holda professional ta'limni maxsus tashkil etish zarurligini belgilaydi. Bu pedagogik vazifalarni talabanining shaxsiy ma'nosiga aylantirish imkonini beruvchi shaxsiy va faol yondashuvni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchisi kasbiy tayyorgarlikni shaxsiylashtirish, o'qituvchilar va talabalarning shaxsiy tajribasining pedagogik hamkorligiga qo'shilishi bilan bog'liq bo'lgan noyob shaxs sifatida qaraladi.

Kasbiy faoliyatni rivojlantirishning dastlabki bosqichida professionallikning asosiy belgisi kasbiy mahoratni o'z kasbiy vazifalarini malakali va ijodiy bajarish qobiliyati sifatida namoyon etadi. Kasbiy mahorat-bu mahorat shakllanishining muayyan darajasidir.

Kasbiy kompleks hodisa sifatida insonning nafaqat o'z vazifalarini ijodiy bajarish, balki o'z asosiy kuchlarining professional faoliyatida o'z-o'zini anglash,

ko‘nikmalarni keng dunyoqarash yondashuvi bilan birgalikda tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega. Zamonaviy professional o‘z kasbini o‘zining keng ijtimoiy aloqalari to‘plamida, unga va uning vakillariga qo‘yiladigan talablar, uning mazmuni va o‘ziga xosligi, professional vazifalar doirasida harakat qilish va ularni o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda hal qilishga tayyor bo‘lishi kerak.

Nazariy bilim va amaliy ko‘nikma va ko‘nikmalarning birligi prinsipi barcha fan bloklarini va ta’limning barcha bosqichlarini o‘rganishda amalga oshirilishi kerak: pedagogik va o‘quv amaliyotlari jarayonida faktlarni to‘plash va ularni turli fanlardan nazariy mashg‘ulotlar jarayonida tushunish; didaktikani, ta’lim nazariyasi va metodologiyasini o‘rganish; ularni pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llash, texnik fanlar blokini o‘rganish, ularni texnologik amaliyotlarda qo‘llash. Ilmiy nazariyani o‘zlashtirish amaliyotning zarur shartidir, bu esa o‘z navbatida dastlab olingen bilimlarni mustahkamlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, nazariyani yanada tushunish va rivojlantirish uchun dastlabki asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bu o‘qituvchining professional malakasini shakllantirishda amaliyotning yagona ahamiyati emas, bu motivatsiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va kasbiy ahamiyatga ega bilimlarni rivojlantirishga motivatsion va qiymat munosabatlarini shakllantirishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi shu qadar bog‘liqki, u talabalarning kasbiy malakasi va malakasini shakllantirishning yaxlit jarayonida umumiy yo‘nalish bo‘lishi kerak.

Biz kasbiy malakanini ta’lim bilan emas, balki faoliyat bilan bog‘lash maqsadga muvofiqdir degan fikrni qo‘llab-quvvatlaymiz. Faoliyat odamlarning butun aloqa tizimini o‘z ichiga oladi: ularning o‘zaro ta’siri, tajriba almashish, bilim olish. Faoliyat o‘z ishtirokchilarining faoliyatini rag‘batlantiradigan sa’y-harakatlarning kooperatsiyasini tashkil etadi va u o‘z navbatida ularning shaxsiy rivojlanishi va o‘zini takomillashtirish uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi

Shaxsning yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligi va ijodiy faoliyat qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadi, unda inson o‘zining professional va shaxsiy fazilatlarini maksimal darajada namoyon etadi.

Mutaxassisning malakasi mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- intellektual-bilim qobiliyati, insonning bilim va tajribani o‘rganish va ulardan foydalanishga tayyorligini, muammoli vaziyatlarda oqilona xulq-atvorni, yetarli maqsadlarni belgilash va maqsadlarga samarali erishish, vazifalarni bajarish, taklif etilayotgan faoliyat me’yorlariga rioya etishga tayyorligini ochib beradi;

- amaliy - konvertatsiya qilish qibiliyatları va ko‘nikmalari, yuqori darajadagi texnika va mehnat texnologiyasiga ega bo‘lish;

- madaniy va axloqiy qadriyatlarning ustunligiga asoslangan

Kasb-hunar ta’limi va ta’limni rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqilgan tendensiyani hisobga olgan holda, nafaqat professional pedagogik faoliyatni amalga

oshirish uchun, balki boshqa har qanday mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni olish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini ta’minlashdan iborat[7].

Talabalarning ijodiy salohiyati muammoli ta’lim sharoitida faol shakllandi, chunki o‘quv ma’lumotlarining muammoli mantiqiy tuzilishi uning ichki qabul qilinishi va tushunilishiga, mazmun jihatidan, ta’lim jarayonining sxemalari nuqtayi nazaridan tizimlashtirish va mantiqiy asoslash jarayonini maqsadli va g‘ayratli tarzda rivojlantirishga olib keladi. Bu o‘z navbatida, kasbiy bilimlarni rivojlantirish va umumlashtirishga, kompetensiyalarni shakllantirishga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, zamonaviy sharoitda kasb ta’limi yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi, o‘z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o‘zlashtirishga intilishi, o‘quv axborotlarini faol o‘zlashtirishi talab etilmoqda. Binobarin, global axbortlashuv ijtimoiy subyektlar, xususan, istalgan ma’lumotni ixtiyoriy ravishda o‘zi uchun qulay sharoit va joyda turli axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda. Garchi shunday holatda ma’lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng bo‘lsa-da, biroq, shaxs tomonidan bu tahlitda o‘zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo‘lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma’lumotlarning muayyan sohalar bo‘yicha tizimli, izchil, uzlusiz hamda maqsadga muvofiqli o‘zlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar

1. Drapeau, Patti. Sparking Student Creativity : Practical Ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving. Alexandria: ASCD, 2014. Accessed October 10, 2016. ProQuest ebrary.
2. Зеер Э.Ф. Психологиуа профессионалного образованиуа : учебник для студ. учреждений высш. проф. образования / Э.Ф.Зеер. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Издательский центр «Академида», 2013. — 416 с.
3. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jayev A.A. Kasbiy pedagogika. Darslik. Toshkent “Voris” nashriyoti – 2020. 517-b.
4. Raximov Z.T. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent “Voris” nashriyoti – 2020. 242-b.
5. Raximov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta’lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida. “Zamonaviy ta’lim” журнали 2019-yil № 7-son 3-8-b.
6. Rakhimov Z.T. Development of professional competence of educator. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 10, 2019. P. 99-106.
7. Xodjaboyev A.R., Xusanov I. Kasbiy ta’lim metodologiyasi.- T.: “Fan va texnologiya”, 2007.-192 b.

**MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA OLIY TA'LIM
MUASSASASIDA TALABALARNI IJTIMOIY TARBIYALASHNING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Rahimova F.N. - Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada multimedia vositalari asosida oliy ta'lismuassasasida talabalarni ijtimoiy tarbiyalashning o'ziga xos usullaridan foydalanib ta'lism berish va yoshlarni tarbiyalashda insonparvarlikni shakllantirish hamda ularni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirish haqida so'z boradi:

Kalit so'zlar: multimedia vositalari, ijtimoiy tarbiya, insonparvarlik, ta'lism.

**ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ
ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ
МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ**

**Рахимова Ф.Н. - преподаватель Кокандского государственного
педагогического института**

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование гуманности в воспитании молодежи в вуу на основе мультимедийных средств с использованием специфических методов социального воспитания и правильной организации их досуга.

Ключевые слова; мультимедиа, социальное образование, гуманитарные науки, образование.

**PECULIARITIES OF SOCIAL EDUCATION OF STUDENTS IN
HIGHER EDUCATION ON THE BASIS OF MULTIMEDIA**

Rahimova F.N. - Teacher of Kokand State Pedagogical Institute

Annotation. This article deals with the formation of humanism in the education of young people in the higher education institution on the basis of multimedia using specific methods of social education and the proper organization of their leisure time:

Key words: multimedia, social education, humanities, education.

Jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar insonlarning bo'sh vaqtini, hordiqni tashkil qilish va uni amalga oshirish sohasi uchun

kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq qator murakkab muammolarni hal etish zaruratini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan, jamiyatda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, insonning o‘zi mustaqil amalga oshirish, o‘z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini amalga oshirish va o‘zini mustaqil rivojlantirishi uchun makon sifatida bo‘sh vaqtning ijtimoiy roli va ahamiyati tufayli yoshlarning ijtimoiy tarbiyasining tubdan yangi shakllari, metodlari va vositalarini belgilashning muqarrarligi juda aniq shakllarda ko‘rinib turibdi.

So‘nggi yillarda oliy o‘quv yurtlarida jamiyat taraqqiyotining yangi shart-sharoitlariga javob beradigan talabalarni tarbiyalash konsepsiysi ishlab chiqarilmoqda va amalga oshirilmoqda. Tarbiyani insonparvarlashtirish tamoyilini nafaqat o‘quv kurslari mazmunini shakllantirish, balki talabalarga individual kasbiy maqsadlarga erishish imkoniyatlarini ta’minlash orqali amalga oshirish imkonini berish bilan ularning ehtiyojlariga yo‘naltirish imkonini ham beradi. Oliy ta’limning yangilangan mazmuni va shakllarining mazmuni va maqsadi talabaning kasbiy ta’limi kasbga tayyorlashning jarayoniga ham, o‘z kasbiy shakllanish jarayoniga ham ongli munosabatini shakllantirishdan iborat bo‘lib, u nafaqat o‘qitishni, balki yangi ijtimoiy texnologiyalarni o‘zlashtirishni, ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatda ishtirok etish tajribasini orttirishni ham o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim muassasalarini nafaqat talabalarni tayyorlashga (ta’lim berishga), balki ularning shaxsiy pozitsiyasini, hayotiy ideallar tizimini, jamoatchilik bilan munosabatlarda o‘z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini amalga oshirish usullari va shakllarini shakllantirishga qaratilgan. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida talabalarga tarbiya berishning turli konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda. Ular ta’limni insonparvarlashtirish tamoyilini nafaqat individual kasbiy maqsadlarga erishish, balki ularni ijtimoiy shakllanish imkoniyatlarini ta’minlash bilan talabalarning ehtiyojlariga e’tibor qaratish imkonini beradi. Shu asnoda, talabalar shaxsini o‘zini anglash va o‘zini mustaqil rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy tarbiyaning tubdan yangi shakl, metod va vositalarini belgilab olish muqarrarligi ancha yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Olim V.I. Juravlevning fikriga ko‘ra, ijtimoiy tarbiya vositasini “avvaldan atayin tarbiyaviy jarayonga kiritilgan muhit predmeti yoki hayot vaziyati” deb ta’riflash mumkin. Moddiy yoki ma’naviy madaniyatning har qanday obyekti quyidagi shart-sharoitlarda tarbiya vositasi funksiyasini vazifasini bajarishi mumkin. Birinchidan, u tarbiyalanuvchi shaxsining ichki dunyosining rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan axborot, ma’lumot bilan aloqador; ikkinchidan, u (ma’lumot) obrazli, ko‘rgazmali-natija beruvchi (ta’sir ko‘rsatuvchi) yoki belgi-ramz shaklida o‘zlashtirish predmeti sifatida ajratib olingan; uchinchidan, o‘zining ma’lumoti bilan birga, obyekt tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti va birgalikdagi faoliyatiga kiritilgan (P.I. Pidkasistiy). Tarbiya vositalari oliy ta’lim muassasasi talabalari hayotiga yangi, hali o‘zlashtirilmagan madaniy qadriyatlar sifatida kiradi. Ular ilgari to‘plangan

madaniy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan, oilaning jamoatchilik fikri, atrofdagi aholi va talabaning mustaqil faoliyati muvaffaqiyati bilan ta’minlangan hayotiy tajribalar bilan uchrashadi. Shaxsning ichki dunyosiga kirgan yangi madaniy qadriyatlarni to‘plangan tajriba baholaydi, shundan so‘ng ular bu qadriyatlarni o‘zlashtiradi yoki rad etadi. Madaniyatni o‘zlashtirishning asosiy shartlaridan biri ta’lim vositalarining talabalar turmush sharoitiga tegishlilicha mos kelishidir.

Mavjud zamonaviy vaziyatni hisobga olgan holda ijtimoiy tarbiyada oliy ta’lim muassasasi doirasida mul’timedia vositalari asosida salohiyatlaridan samarali foydalanish zarur, chunki u talabalarning shaxsiy tashabbuskorligini namoyon qilish, shaxsni ijtimoiy munosabatlarda yo‘naltirish (o‘z yo‘lini topishga yo‘l-yo‘riq, tayanch berish) va ijtimoiy-kommunikativ o‘zaro faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shu bois multimedia vositalari orqali talabalarda, ijtimoiy pedagogik faoliyatlarini ya’nada takomillashtirish maqsadida, ularni dars faoliyatidan tortib bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkillash kasbiy mahoratlarini rivojlantirishni maqsadida multimedia vositalari faoliyatiga yanada e’tibor berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bo‘sh vaqt sohasiga nisbatan XX asrning 50-yillarida fransuz sotsiolog J. Dyumazede “bo‘sh vaqt hordiqning tamadduni” nazariyasi kontekstida “ijtimoiy-madaniy animatsiya” atamasini birinchi bo‘lib qo‘llagan. Tashkil qilingan hordiq sohasiga murojaat qilib, Dyumazede “ijtimoiy-madaniy etakchilik” iborasini ishlatgan va keyinchalik uning o‘rniga “ijtimoiy-madaniy animatsiya” atamasini qo‘llagan. Keyinchalik bu atama ilmiy va amaliy so‘zlashuvda mustahkam o‘rnashib, dam olish tashkilotchisi kasbining nomini anglatadi.

“Multimedia” atamasi deyarli ingliz tilida so‘zlash manbalaridan kirib boradigan lotinizm, deyarli bir xil transkripsiyada kiradi. Bu lotin so‘zlarini ularidan sodir bo‘ladi “mulyum” (ko‘p) va “OAV, MEDIA” (Mentemorlik, vositalar, usul). Shunday qilib, tom ma’noda “multimedia” “ko‘plab muhitlar” degan ma’noni anglatadi. “Multimedia” tushunchasi inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llaniladi. Kompyuter sohasi saytlar, gipermast tizimlar, kompyuter grafikasi, kompyuter animatsiyasi va boshqalarni ishlab chiqish. ommaviy axborot vositalarida - jurnalistika, shu jumladan, Internet jurnalistika, nutq va ijtimoiy aloqa va boshqalar; Sanoatda tarmoq sanoatida kompyuter animatsiyasi, kompyuterda video taxrirlash, ovoz rejasi, film va boshqalar. Demak, ushbu atama bunday professional kishining o‘ziga xos tomonlarini aks ettirishi bilan qiziqarli ekan. Animator (animator) qiziqarli va xilma-xil, ijtimoiy foydali faoliyat uchun sharoit yaratishga harakat qiladi, odamlarni u bilan shug‘ullanishga chorlaydi va undaydi.

Olima V.G. Bocharovaning fikriga ko‘ra, multimedia vositalari asosida bo‘sh vaqt sohasidagi faoliyatlarni uyushgan guruh va uning a’zolarini ijtimoiy munosabatlar va madaniy shakllanish darajasida rivojlantirish jarayonini ta’minlagan

holda ijodiy izlashni tashkil etish bilan bog'liq kasbiy faoliyat sifatida qarash mumkin. Ijtimoiy munosabatlar deganda, turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi shaxslararo va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatishni anglashiladi. Madaniy shakllanish deganda, yangi madaniy qadriyatlarga kirish tushuniladi va "madaniyat" tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Ushbu istiqbol, nuqtayi nazardan, animatorning ijtimoiy va madaniy vazifalari bir biriga yaqinlashadi va u shaxsning samarali ijtimoiylashuvi jarayonini amalga oshiradi.

A.I. Luchankin va A.A. Sniskny kabi olimlar multimedia vositalari asosida faoliyatning ta'rifini bolalar o'smirlar va yoshlar bilan madaniy-dam olish ishlari bo'yicha maxsus tashkil qilingan, madaniyat orqali ta'lim uchun, san'at va muloqot, bo'sh vaqt pedagogikasi texnologiyalariga ixtisoslashgan faoliyat sifatida taklif qilishadi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda multimedia vositalari asosida faoliyat inson shaxsining barkamol rivojlanishini faol yordam berishga yo'naltirilgan. Shunga asoslanib, uning asosiy vazifalari quyidagilardir: mustaqil faoliyatining turli usullariga, shu jumladan, erkin ijodiy dam olishning yangi shakllarini ixtiro qilishga bo'lgan rag'batlantirilganlikni motivatsiyani shakllantirish; qiziqishlar (manfaatlar) asosida boshlang'ich guruhlarni tashkil qilish; turli yosh toifalaridagi insonlarni ijodiy muloqot orqali ushlab turish; umumxalq bayramlari va tadbirlarini tashkil qilish.

So'nggi paytlarda, turizm sohasida multimedia vositalari asosida faoliyatga katta e'tibor qaratilmoqda. Mohiyati predmetlar, hodisalar haqida yangi ma'lumot olish, atrofimizdagi dunyo haqida yangi bilim va taassurotlarni mustahkamlash, aqliy, intellektual, jismoniy, hissiy va ma'naviy takomillashtirishdan iborat bo'lgan turistik multimedia vositalari asosida amaliyotini harakatga jalb etishga katta ahamiyat beradi, shaxsning ijodiy salohiyatini faollashtirish uchun real imkoniyat beradi. Bunda badiiy ijodning an'anaviy turlari va janrlaridan odamlar o'rtasidagi "jonlantirish va ruhlantirishning" asosiy turlari sifatida foydalilaniladi. Shuning uchun turistik multimedia vositalari asosida faoliyat madaniy hordiq chiqarish sohasida mustaqil yo'nalish hisoblanadi. Turizmda multimedia vositalari asosida faoliyat, yuqori sifatli multimedia vositalari asosida dasturlari ijtimoiy, madaniy axborotni uzatish uchun ko'p funksiyali loyiha bo'lib xizmat qiladi, estetik-madaniy qadriyatlarni saqlashga, axborotni to'plash va estetik tajribani o'zlashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

- 1 Egamberdiyeva N. Ijtimoiy Pedagogika. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi Tosh-2009.
2. Afanasev VG. Jamiyat: tizimli, bilim va boshqaruv. Moskva, 1981;
- 3 Азаров Ю.П. Искусство воспитывает. - м.: просвещение, 1985.

4. Крайсин ЛП. Сҳет ел соъзларининг изоҳли луғати. Москва, 2001; 856.
5. Леонтиев АН. Фаолият, онг, сҳахсият. Москва, 1975; 304.
- 6 Рожков м.и. теория и методика воспитания / м.и. рожков, л.в. байбородова. - м., 2004.
7. Тезис ... ыандил. пед. фанлар. Волгоград, 1998 йил;
- 8 Ушинский к.д. человек как предмет воспитания. Педагогическая антропология. : педагогика, 1974.

TA'LIM TIZIMIDA INSON RESURSLARI MENEJMENTI

Turikova L.M. - A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rGANISH va istiqbollarini belgilash ilmiy tadqiqot institutining dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lif tizimida inson resurslarini samarali boshqarishda inson omiliga alohida e'tibor qaratish hamda ijtimoiy va huquqiy masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: bilim oluvchilar, informal o'qitish, faollik, mas'uliyat, notiqlik, liderlik, adolatlilik, natijadorlik.

УПРАВЛЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Турикова Л.М. - доцент НИИ изучения проблем и перспектив народного образования имени А.Авлони

Аннотация. Эта статья посвящена эффективному управлению человеческими ресурсами в системе образования, уделяется особое внимание человеческому фактору, а также социальным и правовым вопросам.

Ключевые слова: учащиеся, неформальное обучение, активизм, ответственность, публичные выступления, лидерство, справедливость, эффективность.

HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN THE EDUCATION SYSTEM

Turikova L.M. - Associate Professor of the Research Institute for the Study of Problems and Prospects of Public Education named after A. Avloni

Annotation. This article focuses on effective human resource management in the education system, with a focus on the human factor as well as social and legal issues.

Key words: learners, informal learning, activism, responsibility, public speaking, leadership, fairness, efficiency.

Hozirgi davrda har bir mamlakat ta’lim - tarbiyani rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishayotganligi va bunda inson omilining roli ortib borayotganligi kuzatilmoxda. Jamiyat taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o’ziga xos xususiyatga egaki, unda jismoniy kuch emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, ijodiy fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa inson resurslarining samarali boshqarish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish zaruriyatini tug’dirmoqda.


O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g’ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Eng katta boylik - bu aql zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir[1]!” Albatta ta’lim - tarbiya masalasi ko’tarilganda ko‘proq yoshlarimizni befarqlik yoki loqaydlikda ayplash, ularni internet o‘yinlari bilan ko‘proq band bo‘lishlarini, vaqtlarini bexuda o‘tkazishlarini biz kattalar tomonidan qoralash holatlari yo‘q emas. Ammo yoshlarni shu holatga tushurmaslik uchun biz qanday alternativ variantlarni ularga ko‘rsatyapmiz. Biz ularga internet mahsulotlaridan qiziqroq bo‘lgan mashg‘ulotlarni taqdim qilsakkina ularni bo‘sh vaqtlarini samarali va foydali o‘tkazishga hissa qo‘sishimiz mumkin. Demak, yoshlarimizni har bir daqiqa vaqtini unumli o‘tkazishlarida asosan biz kattalar mas’ulmiz. Shu sababli ham bugungi jamiyatda kattalarni o‘qitish dolzarb masalaga aylanib qolmoqda. “O‘qitish” deganda, faqat ta’lim muassasalardagi o‘qitishni nazarda tutmasligimiz kerak, aksincha hayot davomida muntazam ravishda o‘z bilimlarini takomillashtirib borish har bir shaxsning asosiy vazifasiga aylanishi zarur. Lekin “kattalarni o‘qitish” yoshlarni o‘qitishga nisbatan ancha murakkab jarayon hisoblanadi. O‘quvchilar ko‘p holatlarda ota - onasi va ustozlarini yo‘naltirishi va majburiy ta’lim bo‘lganligi uchun maktablarga borishadi. Darslarda ham intizom talablarini bajargan holda o‘tirish kerakligini tushunishadi.

Katta yoshdagilar esa biror - bir yo‘nalishda qisqa kurslarda yoki o‘quv markazlarida bilim olmoqchi bo‘lsalar, albatta, pedagogdan yangiliklar, qiziqarli dars o‘tish uslubini kutadilar. Agar dars yoqmasa, shu zahoti auditoriyani tark etishni boshlaydi. Chunki u vaqt qimmatini biladi va hayotiy tajribaga ega bo‘lganligi uchun pedagoglarni tanlash va taqqoslash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Ammo ushbu pedagog auditoriyani ushslash, darsni muvaffaqiyatli tugatish, asosiysi o‘tilgan o‘quv kursdan natija olishi uchun o‘z faoliyatiga tanqidiy nazar solishi lozim.

Katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish butun umr davomida o‘qitishning markaziy tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim berish hamda o‘qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan barcha shakllarini o‘z ichiga oladi, shuningdek, rasmiy, norasmiy va informal o‘qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqida: “Chindan ham, agar biz ta’limni o‘zgartirsak, ta’lim insonni o‘zgartiradi. Inson o‘zgarsa - butun jamiyatimiz o‘zgaradi ”- deb ta’kidladi[5].

Darhaqiqat, ta’limni o‘zgarishi bu jarayonning ishtirokchilari bo‘lgan pedagoglarning innovatsion pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari, kreativ yondoshuvlari, o‘z ustida ishlashlari ya’ni “o‘zini o‘zi o‘qitish” tamoyiliga amal qilishlari bilan bog‘liqdir. Bugungi zamонавиy pedagog jamiyatdagi o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra olishi va to‘g‘ri talqin qilgan holda yosh avlodni kelajak to‘g‘risidagi qarashlarini o‘zgartira olishi lozim. Yoshlar uchun pedagogning fikr mulohazalari qiziqarli bo‘lishi, ularning kelajakda yetuk, malakali inson bo‘lib yetishishlariga albatta o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Lekin bugungi pedagoglarimiz qanchalik o‘quvchi - yoshlarni yoki talabalarni dars jarayoniga jalb qilmoqdalar? Agar o‘quvchi o‘z vaqtida barcha darsda berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarayotgan va intizom talablariga rioya qilayotgan bo‘lsa-yu, ammo darslar ular uchun zerikarli bo‘layotgan bo‘lsa kim aybdor? Ushbu savollarga javob qidirishda yuqorida keltirilgan Prezident Sh.Mirziyoyev fikrlari qanchalik o‘rinli ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz.

Davlatimiz tomonidan qanchalik sharoitlar yaratilmasin, ta’lim muassasalari yangitdan qurilib, jihozlanmasin o‘qituvchilarining dars o‘tish uslubida o‘zgarish bo‘lmas ekan ta’lim sifati haqida gapirishdan foyda bo‘lmaydi. Chunki ta’lim jarayoni intellektual jarayon. Bunda ta’lim jarayoni ishtirokchilari bo‘lmish o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida fikrlar, g‘oyalar, bilimlar, tajribalar almashadi. O‘qituvchi “bilimlar” dunyosi bilan “bilim oluvchi” o‘rtasidagi asosiy ko‘prik vazifasini o‘taydi. Agar bu ko‘prik mustahkam bo‘lmasa, bilim oluvchiga ma’lumotlar yetib bormaydi.



1-rasm. “Bilimlar” dunyosi bilan “bilim oluvchi” munosabatlari.

Quyida bugungi zamон талабидаги педагог қандай бўлиши кераклиги хақида фикр юритамиз. Бунинг учун рақобатбардosh педагогнинг қасбиш ва шахсиy fazilatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Shaxsiy fazilatlar xodimni shaxs sifatida tavsiflaydi. Bir lavozimga da’vogarlar bir xil ijobjiy fazilatlariga ega bo‘lganda, ular muhim ahamiyat қасб etadi. Shaxsiy fazilatlar xodimning ishga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatib beradi[3].

1 jadval. Xodimning ayrim қасбиш ва шахсиy sifatlari.

Kasbiy sifatlar	Shaxsiy sifatlar
Bilimli	Faollik
Tahlilchi	Mas’uliyatli
Natijadorlik	Adolatli
Yangiliklarga moslashish	Notiqlik Liderlik

Pedagoglarning shaxsiy ва қасбиy sifatlarini tahlil qilish tashkilot rahbarlari учун juda muhim husoblanadi. Chunki, inson xarakteri bilan tug‘iladi va bu xarakterlar uning hayoti davomida yordam berishi yoki halal berishi tabiiy hol. Maktablarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarni ham fazilatlari turlicha. Darsni ham aynan o‘z xususiyatidan kelib chiqib o‘tadi. Ayrim o‘qituvchilarni fazilatidagi ayrim salbiy jihatlari tufayli o‘quvchilar uni qabul qilishmaydi. Qanchalik bilimli bo‘lmashsalbiy sifatlarini tufayli darsda natija bo‘lmashligi mumkin. Ammo o‘zi imtihon topshirsa yoki ma’ruzalar qilganda bilimli tajribali mutaxasisligini ko‘ramiz. Afsuski ko‘p rahbarlar xodimlarning faqatgina қасбиy sifatlariga ko‘proq e’tibor berib, shaxsiy sifatlarning mehnat samaradorligiga salbiy ta’sir qilishini inobatga olmaydilar. Shuningdek, har bir педагог xodim o‘zining tug‘ma va o‘zlashtirma sifatlarini tahlil qilishi maqsadga muvofiq. Buni ta’lim muassasalarida trening shaklida tashkil qilish mumkin. Misol учун, тренер pedagoglarga doskaga рақобатбардosh педагогнинг sifatlarini yozishni aytadi. Tabiiyki, pedagoglar navbat bilan o‘zlari bilgan 20 dan ortiq sifatlarni yozishadi. So‘ngra тренер pedagoglar yordamida yozilganlarni ichida qaysilari shaxsiy ва qaysilari қасбиy hamda tug‘ma va o‘zlashtirilgan sifatlarni ajratadi

2-rasm. Raqobatbardosh pedagogning shaxsiy ва қасбиy sifatlari tahlili учун макет.

Yuqorida keltirilgan sifatlarni давом ettiradigan bo‘lsak, қасбиy sifatlarga nisbatan shaxsiy sifatlar salmog‘i ko‘pligiga guvoh bo‘lamiz. Misol учун, liderlik yoki ijodkorlik qobiliyatini bolalarda yoshligidan kuzatish mumkin. Ammo pedagogik mahorat, kreativ yondashuv, kompetensiya o‘zlashtiriladigan ва қасбиy

sifatlarga kiradi. Ya’ni 90 foizga yaqin sifatlar shaxsiy va o’zlashtirma, 10 foiz sifatlar kasbiy va tug‘ma sifatlarni tashkil qiladi. E’tibor bering, pedagogning 90 foiz sifatlari shaxsiy va o’zlashtirma ekanligi har bir pedagogda raqobatbardosh mutaxassis va zamonaviy pedagog bo‘lish imkoniyati bor degani. Faqatgina xodim mana shu 90 foiz keltirilgan sifatlar ustida ishlashi lozim bo‘ladi. Ya’ni doskada keltirilgan sifatlardan qaysi biri unda bor yoki yo‘qligini belgilab chiqishini o‘zi ham yetarli bo‘ladi. Ushbu trening pedagoglarimizni shaxsiy va kasbiy sifatlarini tahlil qilishga va o‘z ustida ishlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta’lim muassasasi rahbarlari uchun ham bu mashg‘ulot xodimlarni boshqarishda foydali bo‘ladi. Chunki amaliyotda ishga qabul qilish jarayonida ma’lumotnama, diplom va mehnat daftarchasiga qarab xodimga baho berish holatlari ko‘p kuzatiladi. Ishga kirgandan keyin intizomni buzish holatlari yuzaga kelib, mehnat nizolari boshlanganda rahbarlar juda og‘ir ahvolga tushib qoladilar. Shuning uchun ham bugungi davrda ko‘plab sohalarda ishga qabul qilish tartiblari ishlab chiqilgan. Ayrim yirik tashkilotlarda esa “HR menejment” bo‘limi tashkil qilingan va bu bo‘lim faqat kadrlar siyosatini yuritadi. Mazkur bo‘lim “Kadrlar bo‘limi” dan tubdan farq qiluvchi zamonaviy yo‘nalishdir. Amaliyotda “Kadrlar bo‘limi” faqat hujjatlarni rasmiylashtirish, buyruqlar va farmoyishlar tayyorlash, ya’ni ish yuritish bilan shug‘ullanadi. “HR menejment” bo‘limi esa tashkilotga kerakli mutaxassislarini qidirib topib, maxsus intervyudan o‘tkazadi. Qaysi bo‘limga qanday mutaxassis yetishmayapti yoki mutaxasislar uchun qanday kompetentsiyalarni o‘zlashtirishga ehtiyoj bor, xodimlar samara berishi uchun qanday mexanizmlar zarur kabi savollar ustida ishlaydi. Ya’ni kadrlarga oid barcha vakolatni “HR menejment” bo‘limi olib boradi. Rahbar umumiy boshqaruvni amalga oshirib, kadrlar siyosatiga aralashmaydi va bu holat judayam ularga qulaylik tug‘diradi.

Bugungi kunda maktablarga ham inson resurslarini boshqarish bo‘yicha “Kadrlar bo‘yicha menejer” lavozimi kiritilgan[4]. Kadrlar bo‘yicha menejerlar maktablarda kadrlarga oid ish yuritishlari, buyruqlarni chiqarishlari va kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashlari kerak. Ammo ular ko‘plab ta’lim muassasalarda kotibalik vazifasini bajarmoqdalar. Ularga lavozim yo‘riqnomasida belgilangan vazifalardan tashqaridagi ishlarga jalb qilinishini ham kuzatish mumkin. Ularni haqiqiy Kadrlar bo‘yicha menejer darajasiga olib chiqish uchun mazkur yo‘nalishda o‘quvlar tashkil qilinishi, mehnat munosabatlari sohasida amaliy uslubiy yordam ko‘rsatilishi zarur. Kadrlar bo‘yicha menejer “HR menejment” ya’ni inson resurslarini boshqarish malakasiga ega bo‘lishini yana bir sababi, ushbu lavozimga oliy ma’lumotli, huquqiy savodxonligi yetarli bo‘lgan, ishga qabul qilinadigan pedagoglarning bilimini, salohiyatini baholay oladigan kadrlar olinmayotganligi va bu lavozimga belgilangan ish haqini kamligi. Agar kelgusida mazkur muammolar

yechimiga ko‘proq e’tibor qaratilsa, maktab rahbarlar uchun ancha yengillik yaratilgan bo‘lar edi.

“Xalqimiz hamisha ustozlarni e’zozlab, ularning hurmat-izzatini joyiga qo‘yib kelgan. “Ustoz otangdek ulug” degan hikmatli naql ham bejiz aytilmagan. Endi ana shu so‘zlarni qog‘ozda emas, amalda qaror toptiradigan, o‘qituvchi - muallimning qadr - qimmatini joyiga qo‘yadigan payt keldi”[3].

Pedagoglarning qadr-qimmatini yanada ko‘tarilishida, ularning faqat xizmat vazifasi bilan shug‘ullanishlari katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 177 - moddasida ish beruvchi xodimdan uning mehnat vazifalari doirasiga kirmaydigan ishlarni bajarishni, qonunga xilof yoki xodim va boshqa shaxslarning hayoti va sog‘ligi uchun xavf tug‘diruvchi, ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar qilishni talab etishga haqli emasligi belgilangan. Ammo amaliyotda o‘qituvchining ish faoliyatiga ta’sir qiluvchi va xalaqit beruvchi tashkilotlar ko‘pligidan e’tirozlar yo‘q emas[1].

Maktablardagi yana bir muammolardan biri, o‘qituvchilar lavozim shtatlariga emas dars soatlari bo‘yicha ishga qabul qilinmoqda. Bitta fandan bir nechta o‘qituvchi umumiy belgilangan o‘quv soatlarini bo‘lib berilishi hisobiga ishlamoqdalar.

O‘quv soatlari ish hajmi hisoblanadi va 1 ta lavozimga mo‘ljallangan ish hajmi bilan ta’milnishi kerak. Bir tomondan ko‘proq pedagoglarni jalb qilinishi minimal darajada bo‘lsa ham ularga daromad manbai bo‘lmoqda, ikkinchi tomonidan esa kim asosiy lavozimda? degan savolga javob yo‘q. Chunki mehnat qonunchiligi bo‘yicha asosiy lavozimdagи xodimlar va o‘rindosh, soatbay yoki fuqaroviylar huquqiy shartnomasi asosida ishlaydigan xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzish va bekor qilish tartibi tubdan farq qiladi. Mehnat shartnomasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi[1]. Fuqaroviylar huquqiy shartnomasi esa Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi. Hattoki, Mehnat shartnomasini rasmiylashtirishda ham qaysidir toifadagi xodimlarga imtiyozlar mavjud, qaysidir toifadagi xodimlar sinov muddatisiz ishga qabul qilinishi belgilanishi kerak.

Aksariyat maktablarda tuzilgan mehnat shartnomalarida ana shu kabi xotoliklarni kuzatish mumkin. Ko‘plab o‘qituvchilarda esa mehnat shartnomasining ikkinchi nusxasi mavjud emas. Bularning hammasi ish beruvchilar va pedagog xodimlarning huquqiy savodxonligi yetarli emasligidan dalolat beradi. Shuningdek, pedagog xodimlarning kafolatlangan mehnat sohasidagi huquqlari buzilish xavfini oshiradi. Oxirgi yillarda o‘qituvchilarni nufuzini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan ko‘plab qonun hujjatlarini ijrosini samarali ta’milnishi, pedagog xodimlarning jismoniy yoki iqtisodiy holatini emas balki intellektual salohiyatini inobatga olgan holda boshqarish ta’lim sifatiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T. “Adolat”, 2014. VI –bob.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/5013007>.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 24-b.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 228-b.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. Vatanimiz mustaqilli - biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi. <https://president.uz/uz/lists/view/4596>.
6. Миронова Н.А., Гурьянов В.В., Клячин А.О. Управлениэ человеческими ресурсами. Ҳуман ресоурсэ манагемент. Международный журнал прикладных наук и технологий. «Интеграл», №1. 2019.
7. Dulebohn J.H. Human resource metrics and decision support: A classification framework / J.H. Dulebohn, R.D. Johnson // Human Resource Management Review. – 2013. – T. 23. – C. 71–83.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020 - yil 28-maydagи 136-sonli buyrug‘i.
9. <https://zhazhda.biz/base/lichnye-i-delovye-kachestva-rabotnika>.

TALABALARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Akbarova S.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda ekologik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb muammo ekanligi va ularga qo‘yiladigan talablar yoritilgan. Ularning nazariy, huquqiy hamda tarixiy asoslari tahlil etilgan, bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik kompetentlik, ekologik faoliyat, ekologik muhit, ekologik psixologiya, ijtimoiy faoliyat, ekologik bilim, atrof-muhit, tabiat, ekologik muammolar, tabiiy resurslar ekologik ta’lim, tarbiya, ekologik madaniyat

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Акбарова С.А. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье подчеркивается, что формирование и развитие экологического мировоззрения в нашей стране являются актуальной проблемой и предъявляются к ним требования. Проанализированы их теоретические, правовые и исторические основы, вопросы развития экологической компетентности будущих учителей.

Ключевые слова: экологическая компетентность, экологическая деятельность, экологическая среда, экологическая психология, социальная деятельность, экологические знания, окружающая среда, природа, экологические проблемы, природные ресурсы.

THEORETICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE IN STUDENTS

Akbarova S.A. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article emphasizes that the formation and development of an ecological worldview in our country is an urgent problem and requirements are imposed on them. Their theoretical, legal and historical foundations, issues of the development of the ecological competence of future teachers are analyzed.

Key words: ecological competence, ecological activity, ecological environment, ecological psychology, social activity, ecological knowledge, environment, nature, ecological problems, natural resources.

Mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati oliv ta’lim tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ta’lim-tarbiyaga yangicha tizimli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining XI bob 50-moddasida “Fuqorolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar va XII bob 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boyliklar, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”[3, 17-19-b.] deb ta’kidlanadi. Shu bilan birga, tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish deb nomlangan 4-moddasida

quyidagicha yoritilgan: “Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar va muassasalar, fermerlik va kooperativ xo‘jaliklar, shuningdek, ayrim shaxslar xo‘jalik boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak: ...barcha turdag'i ta’lim muassasalarida ekologiya o‘quvining majburiyligi” [5. 160-b].

Mamlakatimizda ekologik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga mutasaddi davlat tashkilotlari, ommaviy institutlar, maxsus ekologik harakatlar faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida qaralmoqda. Respublikamizda ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish va shaxs ekologik dunyoqarashini ilmiy-pedagogik kompleksni shakllantirish masalalari kun tartibiga qo‘yilgan. “...Bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga dahldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”. Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash barchamizning burchimiz hisoblanadi, shuningdek “ekologiya sohasidagi ishlar ahvolini yaxshilash”[1; 17-19-b.] bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun yurtimizda shaxs ekologik dunyoqarashi va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikni ilmiy tadqiq etish, xalqaro ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masala qilib belgilangan[2; 570-b.].

Bu borada, ekologik muommolarni hal qilishni, uni yechimi ishlab chiqish oldimizda turgan muhim masalardan biri hisoblanib kelinmoqda. Shu o‘rinda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 12-iyulda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’rurzasida, “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur”, deb ta’kidlagan edi.

Ekologik dunyoqarash shakllanishini o‘rganishning umumfalsafiy masalalari, sodda bo‘lishiga qaramay: qadimiy afsona, rivoyat, asotir, ertak, masal, qo‘sish, dostonlar va boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik tarixiy yozma manba “Avesto”da ular nisbatan sistemalashgan. Shu o‘rinda “Avesto” da ...yangi kanallar qazish, ariq-zovurlarni tozalash, yerlarni o‘z vaqtida ekishga tayyorlash mo‘l hosil olishning asosiy garovidir. Shuningdek, “cho‘lga suv chiqazib, yerning sho‘rini yuvib, zahini qochirib, yerga ishlov bergenlar” – eng mo‘tabar insonlar hisoblanadi. Hatto podshoh Jamshid Tangri Uzoq vaqt ishlov bermay va ekin ekilmay qolgan yer eng baxtsiz zamindir deb keltirib o‘tilgan. [6. 11-14-b.] Shuningdek, islom dini manbalari “Qur’oni Karim” va “Hadisi sha’rif”dagi ilohiy o‘git va aqidalar ekologik dunyoqarash tadqiqotining ma’naviy ildizlarini, manbalarini tashkil qiladi. Ekologiya borasida sharq mutafakkirlari ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan. Jumladan, O‘rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq

allomalaridan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, "Saydana", "Mineralogiya", "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlarida uchraydi. Olim "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" asarida Eronning turli tropik o'simliklari va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yilfasllarining almashinushi bilan bog'liq ravishda o'zgarishini misollar bilan tushuntirgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)ning eng yirik asari "Boburnoma"dir. Unda shoirning ko'rgan-kechirganlari, borgan joylarining tabiatni, boyligi, odamlari, urf-odatlari, hayvonoti, o'simliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keragicha ma'lumot topa oladi. Asar muhim atamalar va toponimik manbalarga boy. Unda yer, suv, havo, turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zları ko'plab topiladi. "Boburnoma"ni o'qigan va o'rgangan har bir kishi uni tabiat va geografiyani yaxshi bilgan o'lkashunos olim yozgan degan xulosaga keladi. Bobur o'lkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, ularning qadriga yetgan va ular bilan hamisha maslahatlashgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) ham o'z asarlarida ekologiya borasida fikrlarini bildirib o'tgan. Xususan, "Tib qonunlari" asarida, kishi organizmiga tashqi muhit ta'siri muhimligini bilgan alloma ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikr bayon etgan, ya'ni u kasallikni yuqishi masalasini hal etishga yaqinlashgan edi. Bular moxov, qo'tir, chechak, vabo isitmasi, yiringlagan yaralar kabi kasalliklardir. Xususan, bular odamlarning turar erlari tor bo'lganda, ya'ni aholi zinch yashagan joylarda shuningdek, shamol va boshqalar orqali tarqaladi, deb aytib o'tilgan.

Ekologik ta'lim respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturiga kiritilgan o'quv jarayonida ekologik tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish va boshqa ekologik ixtisosliklar bo'yicha talaba yoshlarga bilim berilmoqda. Bu borada bir qator ilmiy ishlar bajariilib kelinmoqda.

Yu.Shodimetovning "Ijtimoiy ekologiyaga kirish" darsligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy hamda tabiiy qarashlarning mohiyati, ijtimoiy ekologiyaning shakllanishi va rivojlanishi,

inson-ekologiyasi ijtimoiy ekologiyaning mintaqaviy muommolari, ekologik siyosat kabilar nazariy jihatdan ishlab chiqilgan[4; 5-b.].

O‘zbekistonlik mutaxassis Sh. Avazovning fikriga ko‘ra, odamlar ekologik toza texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo‘lmasa, ekologik cheklovlar talablariga rioya qilishga intilmasa va faol ishtirok etsa, hech qanday texnik vositalar atrof-muhit holatini yaxshilay olmaydi va ijtimoiy va ekologik muammolarni amaliy hal etishga ko‘maklasholmaydi. Bunday o‘zgarishlar faqat jamoat ongini o‘zgartirish, ekologik g‘oyalar, bilimlar va majburiyatlarni jamiyat va har bir inson hayotiga kirib borish bilan amalga oshiriladi, bu bir qator davlat hujjalariha ham qayd etilgan [5; 160-b.]. A.Nig‘matovning “Ekologiya huquqi” darsligida ekologiya huquqining tushunchasi, rivojlanish bosqichlari,predmeti, ekologik-huquqiy munosabat va ekologik-huquqiy mexanizm,ekologiya huquqi manbalari, boshqaruv ekologik kadastr, nazorat va ekspertiza, javobgarlik, yarlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish, suv va suvdan foydalanishni ekologik-huquqiy tartibga solish, yer osti boyliklarini, o‘simgilik dunyosini, o‘rmonlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish kabi masalalar nazariy jihatdan asoslangan[7;].

Xulosa qilib, talabalarga ekologik ta’lim berishda biz tabiat bilan jamiyat orasidagi munosabatlarni ilmiy asoslab tushuntirib birlashtirishimiz, ekologik muammolarni tahlil etish haqida kelajak avlodga bilim berishimizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimni takomillashtirishimizni talab etadi.

Adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” Toshkent- “O‘zbekiston”- 2018. 17-19-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 570-b
3. Mirziyoyev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoelektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. 2017 yil 12 iyul. <http://uza.uz>
4. Xo‘janazarov O‘.E., Sh.T.Yakubjonova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish T:2018. 3-b
5. Avazov Sh. Qishloq maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarini o‘lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiyalash. ped.fan.nomzod.diss. T; 1993. 160-b
6. A.To‘xtayev “Ekologiya” T: O‘qituvchi 1998. 11-14-b
7. A.Nig‘matov “ Ekologiya huquqi”(Akademik-letsiy va kasb-hunar kollejlari uchun darslik).T:2003

**BLENDED LEARNING ASOSIDA TA'LIM TIZIMINI TASHKIL
ETISH**

Xasanov A.R.– Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim tizimini Blended learning asosida tashkil qilish hamda o‘quv jarayonini boshqarish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim muhiti, Blended learning, aralash ta’lim, an’anaviy va elektron ta’lim, o‘quv faoliyati.

**ОРГАНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ
BLENDED LEARNING**

**Хасанов А.Р. - преподаватель информатики Кокандского
государственного педагогического института**

Аннотация. В статье рассматривается организация системы образования на основе Vlended Learning и управление учебным процессом.

Ключевые слова: среда электронного обучения, совместное обучение, смешанное обучение, традиционное и электронное обучение, учебная деятельность.


**ESTABLISHMENT OF EDUCATION SYSTEM BASED ON
BLENDED LEARNING**

**Khasanov A.R. - is a teacher of informatics the Kokand State
Pedagogical Institute**

Annotation. This article discusses the organization of the education system on the basis of Vlended learning and management of the educational process.

Key words: E-learning environment, Vlended learning, mixed education, traditional and e-learning, learning activities.

Zamonaviy ta’lim jarayonini tubdan isloh qilish, ta’lim oluvchining auditoriya va ma’ruza yuklamalari mustaqil ishning hissasini oshirish orqali kamaytirilishini talab qiladi. Bu holda ta’limning asosiy markazi ta’lim beruvchidan ta’lim oluvchining mustaqil faoliyatiga o’tadi. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar nisbatini aniqlashda mustaqil ishni tashkil etishga e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.



1-rasm. Blended learning

OTM da mustaqil ishning auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘qitish jarayonini tashkil qilish ta’lim berish asosi hisoblanadi. Ta’lim muassasasida talabalar davom etadigan mustaqil ta’lim olishga tayyor bo‘lishi kerak. Mustaqil ishlar shu maqsadga erishishning vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Mustaqil o‘qish insonning mustaqil fikrash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ta’lim jarayoni talabaning o‘z xohishi bilan mustaqil bilim olishiga olib kelmaydi, balki ta’lim oluvchining o‘qituvchi tomonidan tizimli boshqariladigan faoliyati hisoblanadi. Bunday faoliyat malakali mutaxassislar tayyorlashning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Berilayotgan axborot talaba tomonidan bilim olishga qiziqish uyg‘otganda, zarurat bo‘lganda faol qabul qilinadi. O‘rganilayotgan fanning murakkablik darajasi bir xil bo‘lgan tarkibi talabaning tasavvur qilish uslubi, qabul qilish motivi va qiziqishi bo‘yicha turlicha o‘zlashtirilishi mumkin. Talabaning aniq bir fanga qiziqishi, o‘qish va ilmiy faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Elektron ta’limda tinglovchilar mustaqil, erkin va ixtiyoriy bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bevosita aloqa bo‘lmaganligi uchun talabalarning o‘zlashtirish darajasi bevosita uning intellektual tomonlariga bog‘liq, ko‘rgazmalilikning keng imkoniyatlaridan foydalanish, ya’ni eshitish, ko‘rish, idrok qilish, esda saqlab qolish, tushunish fikrashda texnik jarayonlarning faol ishtiroki yordamida egallanayotgan bilim mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Blended learning modeli talabalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- online rejimida o‘quv materiali bilan xohlagan vaqtida tanishish;
- sinov testini topshirib bilimini sinash;
- nazorat testini topshirish;
- o‘tilgan mashg‘ulotlarga mos qo‘srimcha manbalar bilan tanishish;
- audio va video yozuvlardan, animatsiya va simulyatsiyalardan foydalanish;
- e-maildan foydalanish va forumlarda ishtirok etish;
- ma’ruzadan tashqari o‘qituvchi-talaba va talabalar o‘rtasida muloqot tashkil etish.

aralash ta’lim modeli

- -online rejimida o‘quv materiali bilan xohlagan vaqtda tanishish.
- -sinov testini topshirib bilimini sinash;
- -nazorat testini topshirish;
- -o‘tilgan mashg‘ulotlarga mos qo‘srimcha manbalar bilan tanishish;
- -audio va video yozuvlardan, animatsiya va simulyatsiyalardan foydalanish;
- -e-mail dan foydalanish va forumlarda ishtirok etish;
- -ma’ruzadan tashqari o‘qituvchi-talaba va talabalar o‘rtasida muloqot tashkil etish.

An’anaviy ta’lim elementlari ming yillardan beri mavjud, biroq aralash ta’lim paydo bo‘lganiga hali 10 yilcha ham bo‘lgani yo‘q. Shu sababli bu ta’lim turlarini aralash tarzda olib borish maqsadga muvofiq[5].

Auditoriya soatlarini qisqartirishda ta’lim beruvchi asosiy e’tiborni talaba o‘qituvchi rahbarligi va nazorati ostida bajaradigan mustaqil ishlarga qaratiladi. Bu ish auditoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik, alohida mavzular bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqish, yozma nazorat ishlarini bajarish, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi. Auditoriya va mustaqil ish, ya’ni joriy nazorat, talabaning umumta’lim bilimlari, ya’ni kirish nazorati va berilgan fan o‘rganilgandan so‘ng o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish o‘quv jarayoni pedagogik texnologiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Blended learning usulida turli texnologiyalar va vositalar axborotning o‘quv materialiga kiritilishiga yordam beradi. Internet esa har bir elementning o‘z o‘rnida ishlatilishiga imkon beradi. Talaba ma’lumotlarni xohlasa kitobdan, xohlasa Internetdan o‘zi uchun qulay vaqtda, joyda o‘qishi mumkin. Video-ma’ruzalar passiv, o‘qish esa – faol jarayon hisoblanadi. Asosiy matnga qo‘srimcha qilib turli maqolalar, hisobotlar ilova qilinishi mumkin. Ba’zan talabalardan axborotni o‘zlari izlashlari talab etiladi. Agar ular mos axborotni topa olishmasa, o‘qituvchining o‘zi axborotlarni web-saytiga joylab qo‘yadi. Matnlar HTML, DOC, AVI, MP3 formatlarida berilishi ham mumkin.

Rasmlardan matnlarni qulay va mantiqli bo‘lish uchun foydalaniladi. Biroq, rasmlar qo‘llanilganda, axborotni yuklash muammosi paydo bo‘ladi. Shu sababli, ular Internetga yuklash qulay bo‘lgan formatlarda chop etiladi (JPEG, GIF va h.k.)

Aralash ta’limda talabalarni qiziqtirishi uchun ma’lumotlar aniq strukturaga ega bo‘ladi. Har bir mashg‘ulot 3 qismidan – dastlabki, hozirgi va keying bosqichlardan iborat bo‘ladi.

“Hozirgi” bosqichi bevosita muloqot qilinadi (seminar, forum va h.k.). Bu jarayonda o‘qituvchi talabalarning berilgan mavzu bo‘yicha savollarini va izohlarini kuzatib boradi.

Bu bosqichda o‘qituvchi xohlasa ma’ruza shaklida ma’lumotlarni bayon qilib berishi ham mumkin.

Talaba “hozirgi” bosqichga tayyor bo‘lishi uchun u oldingi darsning materialini to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lishi mumkin. Dars yakunida materiallar testlar, savollar va amaliy masalalar yordamida mustahkamlanadi.

“Dastlabki” bosqichda talaba o‘qituvchi yoki boshqa talabalar bilan birgalikda muloqotga, darsga tayyorlanadi. Buning uchun o‘qituvchi albatta biror topshiriq berishi zarur. Shunday qilinsa dars vaqtida ortiqcha takrorlanishlar bo‘lmaydi va dars samarali bo‘ladi. Shunda talabalar dars vaqtida faqat ma’lumot olibgina qolmasdan, murakkab masalalarni yaxshi tushunib oladi.

“Keyingi” bosqichda i bevosita muloqot qilinadi (seminar, forum va h.k.). Bu jarayonda o‘qituvchi talaba dars materialini mustahkamlaydi (test, uy ishi va h.k.). O‘qituvchi avval talabalarning savollariga javob beradi va keyin bajarilgan ishlarga izoh beradi. Bunda u talabalarni keying mavzuga qiziqtirib yo‘naltiradi.

Shunday qilib, bu bosqichlar har bir darsda takrorlanadi. Talabalar shunday yo‘l bilan ortiqcha muhokamalarga, keraksiz va oldindan ma’lum materiallarni takror tinglashga vaqtlarini ketkazmasdan darslarda amaliy ish, muloqot, loyihalarni ishlash uchun ko‘proq vaqt to‘plashadi. Ma’lumotni ajrata bilish, mustaqil ishlash, nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish kabi ko‘nikmalarni orttirishadi[6].

Hozirgi kunda blended learning (aralash ta’lim, an’anaviy va elektron ta’lim) texnologiyasi rivojlanmoqda, natijada o‘quv materialining bir qismi elektron kurs shaklida, qolgani esa, auditoriyadagi mashg‘ulot shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bunday ta’lim talabalardan o‘z o‘quv jarayonini boshqarishni, yuqori darajada tashkilotchilikni, ma’lum qobiliyatlarni, uquvlarni, ta’lim olish jarayoni natijalarini baholashni talab etadi. Bundan tashqari, talaba o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun uni mustaqil ravishda umumlashtirishi, bajarilgan o‘quv ishlari va topshiriqlarni bajarishdagi faoliyatini tahlil qilishi va baholashi kerak. Shunday qilib, talaba o‘qituvchi bilan birga nazorat ishlarini bajarishga qay darajada tayyor ekanligini mustaqil baholashi lozim.

2-rasm. Blended learning o‘quv jarayoni



Elektoron ta’limda tinglovchlar mustaqil, erkin va ixtiyoriy bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi; talaba va tinglovchi o‘rtasidagi aloqa hissiy munosabatlardan holi bo‘lganligi uchun tinglovchilarning o‘zlashtirish darajasi bevosita uning intellektual tomonlariga bog‘liq; ko‘rgazmalilikning keng imkoniyatlaridan foydalanish yahni eshitish, ko‘rish, idrok qilish, esda saqlab qolish, tushunish mushohada qilishda texnik jarayonlarning faol ishtiroki yordamida egallanayotgan bilim mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Elektron ta’limda asosiy e’tiborni o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratiladi. Chunki o‘quv-uslubiy materiallarning sifati masofadan o‘qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O‘qish tartibi quyidagicha: o‘qituvchi kurs bilan tanishtiradi va topshiriqlar beradi. O‘quvchi ko‘rsatilgan manbalar bilan ishlab topshiriqlarni bajaradi va o‘qituvchiga yuboradi. O‘qituvchi uni tekshiradi, zarur holda ko‘rsatmalar beradi. Shu tartibda kurs mavzulari o‘rganiladi. Muzokara internet xizmatlari orqali amalgalashadi. O‘qish jarayonida talaba elektron darsliklardan, elektron kutubxona va forumlardan, videokonferensiyalardan, online kurslaridan va Web-sahifalardan foydalanadi. Bu individuallik o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi va uni o‘qishda faollikka, ijodiy yondashuvga rag‘batlantiradi. Ularni to‘g‘ri tashkil etish, o‘qitish sifati va samarasini belgilaydi[2]. Shu bilan birga mustaqil o‘zlashtiriladigan materialning tushinilish darajasini davriy ravishda baholab borish kerak. Shu sababli, o‘quv faoliyatini boshqarish jarayonining asosiy qismi o‘z-o‘zini nazorat qilish hisoblanadi va o‘quv materili yaxshi o‘zlashtirilganligiga ishonch hosil qilinadi. Ta’lim jarayonida bilim, o‘quv va malakalarni talabaning o‘zini-o‘zi baholash usuli pedagog bilan o‘zaro aloqaning kamayishi hisobiga katta ahamiyat kasb etadi. Talaba o‘quv dasturi o‘zini qoniqtirishiga ishonch hosil qilishi kerak. Agar o‘z-o‘zini nazorat qilish uquvlari ishlab chiqilmagan bo‘lsa, talaba faoliyatidagi xatolarni o‘qituvchi tuzatishi va tashqi nazoratga o‘rganib qoladi.

Metodik va test materiallar mavjud bo‘lganda talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilishi va baholashi ta’limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi va u quyidagilarga imkon yaratadi:

- talabaga o‘quv faoliyatini rejallashtirish;
- maqsad qo‘yish va o‘qish muammolarini hal qilish;
- o‘quv materialini tizimlash;
- asosiy g‘oyalarni va ikkinchi darajalilardan asosiysini ajratish;
- natijalarni baholash, test o‘tkazish va axborotlarni qiyoslash orqali o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida natijalarni baholash va o‘zini baholash.

Respublikamiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o‘qitish ishlarini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqoza etmoqda. Elektron ta’lim jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun blended learning (aralash ta’lim, anahnaviy va elektron ta’lim) asosida ta’lim

tizimi tashkil etishni yo‘lga qo‘yish ta’lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta’lim an’anaviy va modul tizimida o‘qitish ishlarini takomillashtirish, ommalashtirish, aralash ta’lim bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o‘rganish aralash ta’lim milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldaggi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.
2. Р.Хамдамов, Н.Тайлақов, У.Бегимқулов, Ж.Сайфиев “Электрон университет, электрон вазирлик, масофавий таълим технологиялари” Услубий қўлланма Тошкент, ЎзМЕ давлат илмий нашриёти. 2011.
3. Михаил Федорович Меняев “Информационные технологии управления Учеб.пособ. Москва, “Издательский Омегал”, 2003
4. S.Tursunov, I.Nazarov Ta’limda axborot texnologiyalari Darslik Toshkent: “Adabiy ot uchqunlari” , 2020. 2tom, - 300 b.
5. Mansvelt, J., Suddaby, G., O’Hara, D., & Gilbert, A. (2009). Professional development: Assuring quality in e-learning policy and practice. Quality Assurance in Education, 17(3), 233-249. doi:
6. Swenson, P. W., & Redmond, P. A. (2009). Online, hybrid, and blended coursework and the practice of technology-integrated teaching and learning within teacher education. Issues in Teacher Education, 18(2), 3-10.

ARIFMETIK AMALLARNING XOSSALARIDAN MASALALAR YECHISHDA FOYDALANISH

Samatova G.B. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarni masala yechishga o‘rgatish - buning asosida arifmetik amallarni tanlash hamda ularni bajarishni o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish, masalalarni yechishda o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan asosiy o‘rinda berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni o‘zlashtirishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: arifmetik amallar, masalalar yechish, qo‘shishga doir, arifmetik amallarga doir masalar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СВОЙСТВ АРИФМЕТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ПРИ РЕШЕНИИ ЗАДАЧ

**Саматова Г.Б. - преподаватель Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. В статье говорится об обучении студентов решать задачи и на этой основе развивать умение выбирать арифметические действия и учиться их выполнять, усваивать взаимосвязь между заданными числами и искомым числом, которые должны играть ключевую роль в решении задач.

Ключевые слова: арифметические действия, решение задач, сложение.

**USE OF PROPERTIES OF ARITHMETIC ACTIONS IN SOLVING
PROBLEMS**

Samatova G.B. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article talks about teaching students to solve problems and, on this basis, develop the ability to choose arithmetic operations and learn how to perform them, learn the relationship between given numbers and the desired number, which should play a key role in solving problems.

Key words: Arithmetic operations, problem solving, addition, arithmetic operations.

Davlatimiz rahbari shu yilning yanvar oyidagi Oliy majlisga murojaatnomasida har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo‘nalishini aytgan edilar. Joriy yilda matematika ana shulardan biri sifatida belgilandi. Bu xalqimizni ham, ilmiy jamoatchilikni ham g‘oyat quvontirdi. Chunki matematika yurtimizda chuqur tarixiy asosga ega va bugungi kunda taraqqiyot uchun g‘oyatda dolzarb. 2020-yilning 7-mayidagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. Shu nuqtayi nazardan biz o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini va matnli masalalarni o‘rganishda muammoli vaziyatdan chiqish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini takomillashtirish chora tadbirlari haqida quyida keltirib o‘tdik.

O‘quvchilarni o‘quv muammolarini hal qilishga jalgan etish — ularning mantiq qonunlarini egallashlari uchun ajoyib vositadir, chunki muammoli vaziyat yaratish, uni darsda hal qilish — o‘quvchilarni haqiqatdan (sodda ma’lumot ustida bo‘lsa ham) ilmiy-tadqiqot ishlariga tortishdir.

Har qanday bilib olish faoliyati tadqiqot muammosining qo‘yilishidan boshlanadi. Birinchi sinf o‘quvchilari arifmetik amallarning 4 ta xossasini o‘rganadilar va ulardan foydalanib, 1001 ichida qo‘sish va ayirishga doir misol va masalalar yechadilar. Arifmetik amallarning xossalari ongli ravishda o‘zlashtirib

olgandagina, bolalar ko‘pchilik masalalarni analiz qiladigan va yecha oladigan bo‘ladilar[1].

1) (a+b)+s (yig‘indiga sonni qo‘shish).

Amaliy mashqlar yig‘indiga sonni har xil yo‘l bilan qo‘shish: yo avval yig‘indini hisoblab, keyin unga sonni qo‘shish, yo sonni birinchi qo‘shiluvchiga qo‘shib, keyin natijaga ikkinchi qo‘shiluvchini qo‘shish, yoki sonni ikkinchi qo‘shiluvchiga qo‘shib, keyin natijaga birinchi qo‘shiluvchini qo‘shish mumkinligini tushunib olishda o‘quvchilarga yordam beradi. O‘qituvchining ko‘rsatgan mashqidan so‘ng o‘quvchining o‘zi shu xossaning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilmog‘i lozim[2].

Buning uchun parta ustiga, masalan, 4 ta uchburchak, 2 ta doira, 3 ta kvadrat yoyiladi va har xil usullar bilan hamma geometrik shakllarning umumiy miqdori topiladi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida uchburchaklarga doiralarni yaqinlashtiradilar va ikkalasini birgalikda sanaydilar, undan so‘ng kvadratlarni yaqinlashtirib, keyin shakllarning hammasi yana sanaladi; shakllar bir – biridan ajratilib avvalgi holiga keltiriladi, keyin uchburchaklarga avval kvadratlar undan so‘ng doiralar yaqinlashtiriladi; uchinchi martada doiralarga kvadratlar va so‘ngra uchburchaklar yaqinlashtiriladi. O‘quvchilar hamma hollarda ham natija bir xil chiqishini aniqlaydilar. Shu xil amaliy mashqlardan keyin (6 – 8 mashg‘ulot) sonni yig‘indiga qo‘shish xossalariغا doir masala va misollar yechishga kirishadilar.

Masala. “Bir bolaning 6 ta rangli va 1 ta qora qalamni bor edi. U yana 2 ta qalam sotib oldi: Bolaning qalamlari nechta bo‘ldi?”

O‘quvchining mulohazasi. “Bolada 6 ta rangli, 1 ta qora qalamni bor edi, demak unda (6+1) qalamni bor, oldingi qalamlarga 2 ta qalam qo‘shib; (6+1)+2 (qalam) deb yozaman. Hammasi nechta bo‘lganini topish kerak. Noma’lum sonni “x” bilan belgilab, sonli formula tuzaman: $x=(6+1)+2$ ”.

Endi o‘qituvchi quyidagicha suhbat o‘tkazadi: O‘quvchi qanday qalamlarni sotib olishi mumkin edi? (Har qanday rangli qalam, qora qalam.)

Agar bolaning sotib olgan qalamlari istalgan xilidan bo‘lsa, unda masala bunday yechiladi:

$$x=(6+1)+2$$

$$x=7+2$$

$$x=9$$

agar bola qora qalamlarni sotib olgan bo‘lsa, unda qora qalamlarni rangli qalamlardan ajratib qo‘yish va masalani boshqa usul bilan quyidagicha yechish mumkin.

$$x=(6+1)+2$$

$$x=6+(1+2)$$

$$x=6+3$$

$$x=9.$$

Agar bolaning sotib olgani rangli qalamlar bo'lsa, unda masala uchinchi usul bilan yechiladi:

$$x = (6+1)+2$$

$$x = (6+2)+1$$

$$x = 8+1$$

$$x = 9.$$

Qanday usul bilan yechmaylik, natija bir xil bo'ladi. Yig'indini songa qo'shish ham o'quvchilar bilan taxminan shu xilda hal qilinadi.

Masalalar to'plamlarida mana shu xossalarga oid har xil usullarni tushuntirishga yordam beradigan masalalar kam bo'lganidan, o'qituvchilar e'tiboriga bir qancha masala havola qilamiz.

1. Tarelkada 4 ta qizil, 2 ta oq olma bor. Unga yana 3 ta olma qo'shildi. Tarelkadagi olma nechta bo'ldi?

2. Zuhrada 10 ta katakli va 6 ta chiziqli daftar bor edi. U yana 4 ta daftar sotib oldi. Zuhraning daftari nechta bo'ldi?

3. Bolalar bog'chasing bir gruppasida 10 ta prujinali mashina va 6 ta traktor bor edi. Yana 4 ta o'yinchoq sotib olindi. Gruppaning o'yinchoqlari qancha bo'ldi?

4. Zamira ertalab 20 dona bayroqcha yasadi. Kunduzi u yana 7 ta qizil va 3 ta ko'k bayroqcha yasadi. Zamira hammasi bo'lib qancha bayroqcha esadi?

5. Bir bolada 2 ta shar bor edi. Bayramda unga 4 ta qizil va 3 ta sariq shar sovg'a qilishdi. Boladagi sharlar nechta bo'ldi?

2) (a+b)-s (yig'indidan sonni ayirish)

Amaliy mashqlar yuqorida bayon etilganlarga o'xshash o'tkaziladi. Masalani quyidagi tartibda muhokama qilish mumkin:

O'quvchilar bilan birinchi masala bo'yicha o'tkaziladigan suhbat. Tarelkada nima bor? Qanday olmalar bor? (Qizil va oq olmalar.) Masalada yana nimalar ma'lum? (3 ta olma yeyilgani.) Nimani bilish talab qilinadi? Bolalarga olmani turlicha olib yeyish mumkinligini tushuntirish lozim. Masalan, olmalarni faqat birinchi tarelkadan yoki faqat ikkinchi tarelkadan, yoki ham birinchi, ham ikkinchi tarelkadan olish mumkin.

O'quvchilar bilan keyingi masalalar bo'yicha o'tkaziladigan suhbat. Masalani tuzib bo'lgandan keyin o'qituvchi quyidagicha savollar beradi: pomidorni faqat birinchi tarelkadangina olish mumkinmi? (Yo'q?) Nega? (Yetmaydi.) 5 ta pomidorni qayerdan olamiz? (Ikkala tarelkadan.) Bolalar bilan birgalikda birinchi masala uch xil usul bilan, ikkinchisi bir usul bilan yechiladi.

O'quvchilarga masaladagi sonlarni o'zgartirib, uni ikki (bir) usul bilan yoki aksincha uch (ikki) usul bilan yechishni tavsiya qilish mumkin.

Masalan, bolalarga quyidagi masala beriladi. “Bir tarelkada 8 ta olma, ikkinchi tarelkada 10 ta olma bor, 6 ta olma yeyildi. Ikkala tarelkada nechta olma qoldi?” O‘quvchilar bu masalani uch usul bilan yechadilar.

- 1) $x=(8+10)-6$
- 2) $x=(8-6)+10$
- 3) $x=8+(10-6)$

Birinchi usul ustidagi mulohaza: “Bizga birinchi tarelkada 8 ta, ikkinchida 10 ta olma borligi ma’lum. Olmalar yeyila boshlandi. Olmalarni ikkala tarelkadan olishdi. 6 ta olma yeyildi. Dastlab hammasi bo‘lib nechta olma borligini bilamiz, undan so‘ng yig‘indidan yeyilgan 6 ta olmani olib tashlaymiz. 12 ta olma qoladi”.

Ikkinci usul ustidagi mulohaza: ”Bizga birinchi tarelkada 8 ta, ikkinchida 10 ta olma borligi ma’lum. Olmalar yeyila boshlandi. Olmalar faqat birinchi tarelkada olindi. 6 ta olma yeyilgandan so‘ng birinchi tarelkada 2 ta olma qoldi. Ikkinci tarelkada 10 ta terilmagan olma bor. Hammasi bo‘lib 12 ta olma qoldi”.

Uchinchi usul ustida o‘tkaziladigan mulohaza, ikkinchi masala ustida o‘tkazilgan mulohazaga o‘xshaydi. Bu masalani uch usul bilan yechgandan so‘ng o‘qituvchi quyidagi topshiriqni beradi. “Masaladagi son ma’lumotlarni shunday o‘zgartiringki, masala faqat ikki yo‘l bilangina yechiladigan bo‘lsin”

Javoblar: 8 sonini 5 bilan almashtirish mumkin, chunki u 6 dan kam, 10 sonini esa o‘zgartirmay qoldirish mumkin.

10 sonini 4 soni bilan almashtirib, 8 sonini o‘zgartirmay qoldirish mumkin.

6 sonini 9 bilan almashtirish mumkin, u 8 dan ko‘p.

O‘quvchining birinchi javob ustidagi mulohazasi. “Agar birinchi tarelkada 5 ta olma, ikkinchisida 10 ta olma bo‘lsa, unda 6 ta olmani faqat ikkinchi tarelkadan yeyish mumkin ($10 - 6$); birinchidan esa olish mumkin emas; unda faqat beshta olma bor: yoki ikkala tarelkadan olib yeyish mumkin. Ikkinci javob ustidagi mulohaza birinchinikiga o‘xshaydi”.

Uchinchi javob ustidagi mulohaza: ”Birinchi tarelkada 8 ta, ikkinchida 10 ta olma borligi bizga ma’lum. Agar 9 ta olma yeyish kerak bo‘lsa, unda uni faqat ikkinchi tarelkadan olish mumkin, birinchida olish mumkin emas, yetmaydi yoki tarelkadan olish kerak”.

So‘ngra o‘qituvchi quyidagi topshiriqni beradi: “Sonlarni shunday o‘zgartiringki, masala faqat bitta usul bilangina yechiladigan bo‘lsin”.

Javoblar: 6 sonini 12 bilan almashtirish mumkin;

8 sonini 5 bilan, 10 sonini esa 4 bilan almashtirish mumkin. Ya’ni har bir qo‘siluvchi 6 dan kam bo‘lishi kerak. (Ana shunda yechishning birinchi usuligina yaroqli bo‘ladi.)

Boshqa masala: “Bolalar bog‘chasiga 4 kg uzum va 5 kg olxo‘ri sotib olindi. Tushlik ovqatda 8 kg meva yeyildi. Qancha meva qoldi?”

Bolalar bu masalani faqat bitta usul bilan yechish mumkinligini aniqlashadi.

$$x = (4+5) - 8.$$

O'qituvchi masala faqat ikki usul bilan yechiladigan qilib sonlarni o'zgartirishni buyuradi.

Javoblar: 4 sonini 9 bilan almashtirish mumkin, chunki u 8 dan katta, 5 soni esa o'zgartirmay qoldiriladi.

5 sonini 10 bilan almashtirish mumkin. 4 va 8 sonlari esa o'zgarishsiz qoldiriladi.

O'qituvchi masala 3 usul bilan yechiladigan qilib, sonlarni o'zgartirishni buyuradi.

Javoblar: 4 sonini 9 soni bilan, 5 ni esa 10 soni bilan almashtirish va 8 sonini o'zgarishsiz qoldirish mumkin. (Bunday shartlarda masala uch usul bilan yechiladi.)

$$x = (9+10) - 8$$

$$x = (9 - 86) + 10$$

$$x = 9 + (10 - 8).$$

8 sonini 3 bilan almashtirish mumkin, chunki u 4 va 5 sonlaridan kam.

4 sonini 6 bilan, 8 sonini 4 bilan almashtirish, 5 sonini esa o'zgarishsiz qoldirish mumkin va hokazolar. Lekin bolalar masalalardagi sonlarni o'zgartirganda bu sonlarning haqiqatga to'g'ri kelishini (unga yaqin bo'lishini) doimo kuzatib borishi kerak.

Sotib olindi – 18 m va 12 m

Ishlatildi 11 m

Qoldi – x m Hovlida 6 ta o'g'il bola va 10 ta qiz bola o'ynab yuribdi. 5 ta qiz uylariga ketishdi. Nechta bola qoldi?

Birinchi masalani uch usul bilan yechishni, keyin sonlarini o'zgartirib faqat ikki va nihoyat bir usul bilan yechiladigan holga keltirish buyuriladi.

Ikkinci masalani uch usul bilan yechish mumkinmi? Nega mumkin emas? (Chunki faqat qizlar ketib, 10 ta qiz o'rniغا 5 tasi qoldi.) Bu masalani necha usul bilan yechish mumkin? (Ikki usul bilan.)

1. Sinfda 20 ta parta bor. Sinfga 4 ta yangi parta kiritib 5 ta eskisi chiqarib tashlandi. Sinfdag'i partalar qancha bo'ldi?

2. Ushbu sonli formula bo'yicha masala tuzing va uni yeching.

$$x = (12+4)-5.$$

Bolalar masalalarni sonli formulalar shaklida tuzishda qiynaladilar. O'qituvchi, buning qanday bajarilishini batafsil tushuntirishi va keyin u o'quvchidan masalani tuzishda ovoz chiqarib mulohaza yuritishni talab qilishi kerak.

Masalan. Quyidagi sonli formula bo'yicha masala tuzing.

$$x = (10 - 4)+5.$$

O‘quvchining taxminiy mulohasi: “Noma’lumni topish uchun, avval men 10 dan 4 ni olishim va chiqqan ayirmaga 5 ni qo‘sishim kerak. Masalani markalar haqida tuzaman. Agar 10 dan 4 ni olish kerak bo‘lish, u holda menda 10 ta marka bor va men 4 ta markani ukamga berdim keyin onam menga 5 ta marka berdi”.

Boshqa bir masala tuzamiz. Quyidagi sonli formula bo‘yicha masala tuzing:
 $x=10 - (4+5)$.

O‘quvchi formulani ko‘zdan kechirib, mana bunday xulosa chiqaradi.

“Oldin 4 ga 5 ni qo‘sishim kerak. 9 chiqadi. Keyin 10 dan 9 ni olish kerak. Masalani daftarlari haqida tuzaman. Valining 4 ta, Po‘latning 5 ta daftarlari bor. Ularda hammasi bo‘lib 9 ta daftar bor. Yana 10 dan 9 ni olish kerak. Stolda 10 daftar bor edi”. Shunday qilib, masala tuziladi: “Stolda 10 ta daftar bor edi. 4 ta daftarni Vali, 5 tasini Po‘lat oldi. Stolda nechta daftar qoldi?”

Bu formula bo‘yicha tuzish mumkin bo‘lgan yana bir nechta masalalar keltiramiz.

“Ko‘chada 10 ta mashina turibdi. Ulardan 4 ta bir tomonga, 5 tasi ikkinchi tomonga qarab jo‘nab ketdi. Ko‘chada nechta mashina qoldi?”

“Qodir 10 ta misol yechishi kerak edi. Oldin u 4 ta misol, keyin esa yana 5 ta misol yechdi. Qodir yana qancha misol yechishi kerak?”

“Sobir 10 ta bayroqcha yasadi. U 4 ta bayroqchani ko‘k rangga, 5 tasini esa qizil rangga bo‘yadi. U yana nechta bayroqcha bo‘yashi kerak?”

3) a - (b+s) (sondan yig‘indiniyirish)

Amaliy mashg‘ulotlar vaqtida o‘quvchiga 10 ta (3 ta oq va 7 ta qizil) doirani parta ustiga yoyib qo‘yish, keyin 2 ta, yana 3 ta doirani parta ostiga olib qo‘yish buyuriladi. O‘quvchilardan bu ishni mustaqil bajarishni talab qilish va keyin qanday bajarganini so‘rab ko‘rish lozim. O‘quvchilar doirachalarni turli miqdorda olib qo‘yadilar. Ba’zilar istagancha 5 ta doirani surib qo‘yadilar, boshqalari oldin oqlarni (3 ta) keyin 2 ta qizil doirani olib qo‘yadi. Uchinchilar esa yana boshqacha olib qo‘yishadi. O‘qituvchi har xil yechimlarni ko‘radi va keyin o‘quvchilar bilan birga sondan yig‘indini qanday ayirish haqida xulosa chiqaradi. Bitta – ikkita masala bilan chegaralanib bo‘lmaydi, chunki bu o‘quvchilar bilimida formalizmga olib keladi. Har bir bola sondan yig‘indini ayirishning har xil variantlari borligini tushunib yetmog‘i zarur. Faqat shundagina masala yechishga kirishish mumkin[3].

Quyidagi masala uch usul bilan yechiladi. (Pomidorlar salatga va sho‘rvaga bir vaqtida olindi; yoki oldin salatga, keyin qolganidan sho‘rvaga olindi; yoki oldin sho‘rvaga, keyin qolganidan salatga olinadi) 8 sonini 2, 3, 4 yoki 1 soni bilan almashtirib bo‘ladimi? Nega bo‘lmaydi? Xulosa: pomidorlar 2 yoki 3 dan ko‘p yoki shu sonlar yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak. Aks holda ham sho‘rva, ham salatga pomidorlar bir vaqtida olib bo‘lmaydi.

O‘quvchining mulohazasi: “50 tiyin bor edi. Unga narsalar olindi. 20 tiyinga non, 15 tiyinga somsa olindi.”

Hammasi bo‘lib (20+15) tiyin sarf qilindi. Qancha pul qolganini bilish uchun 50 tiyindan (20+15) yig‘indini olish kerak.

Bu masalani yana ikki usul bilan yechish mumkin. Oldin non do‘koniga borib non olindi. Pulini to‘lab (50-20) tiyin qaytarib olindi. Keyin esa somsa sotib olindi. (50-20)-15 (tiyin) qoldi. Noma’lumni “x” bilan belgilab sonli formula yozamiz. $x=(50-20)-15$. Uchinchi hol, ya’ni oldin somsa sotib olingan hol uchun ham shu xilda mulohaza yuritamiz.

1. Garajda 40 avtomobil turibdi. Oldin 11 mashina keyin yana 19 mashina ishga chiqib ketdi. Garajda nechta mashina qoldi?

2. tuqli, palto va shapka uchun 44 so‘m to‘landi. Palto 28 so‘m, shapka 5 so‘m turadi. tuflining bahosi qancha?

3. Zulfiyada 20 tiyin bor edi. U maktab oshxonasidan 4 tiyinga somsa, 5 tiyinga bulochka va 3 tiyinga bir stakan choy oldi. Unda qancha pul qoldi? U yana 5 tiyinga konfet ola oladimi?

4. Quyidagi formulalar bo‘yicha masala tuzing va ularni yeching.

$$x=30-(7+9).$$

$$x=50+(50-14).$$

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bunday tuzilgan masalalar bilan bir qatorda har xil tipdagi sodda va oldin o‘tilgan murakkab masalalarni ham yechish zarur.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bo‘lajak o‘qituvchilarining arifmetik amallarning xossalardan masalalarni yechishda foydalanishdagi metodik tayyorgarligini yanada oshirishning asosiy negizini quyidagi sifat ko‘rsatkichlari tashkil etadi: psixologik pedagogik bilim, matematik metodik tayyorgarlik, shuningdek, elektron ta’lim resurslaridan to‘liq foydalana olishi kabi sifatlar asosida metodik tayyorgarlik namoyon bo‘ladi[4].

Masalalarni yechishni o‘qitishdagi metodik tayyorgarlikni oshirish jarayonida talaba qiziqishlari, moyilliklari, layoqati, ta’lim muassasalarining ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Ergashev J.B. “Kompyuterli matematik tizimlar- o‘qitishning yangi axborot texnologiyalari sifatida”, “Pedagogik ta’lim” ilmiy-uslubiyt jurnal, Toshkent, 2009y, №2.

2. Ergasheva M.B. ”Feature of methodological preparation of future elementary school teachers in teaching mathematical problems”. Boston.USA.april 11-12.2019.

3. Samadova G.TDPU ”Yuqori sinflarda matematika o‘qitishni takomillashtirish” Ucheniy XXI veka.Dekabr.2020
4. M.A. Bantova,G. V. Bel’tyukova. A. M. Polevshikova. ”Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”1983.
- 5 J.Ikromov.L.Levenberg. ”Matematika darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish” 1978.

ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РАЗДЕЛА ЭЛЕКТРОЛИЗ

**Алимова Ф.А. - доцент Ташкентского государственного
педагогического университета**

**Каххоров О.С. - магистр Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам применения дифференцированного подхода при обучении химии, в частности при изучении раздела «Электролиз».

Дифференцированный подход к обучению школьников, основанный на личностно-ориентированном характере образования – наиболее перспективная и эффективная педагогическая технология обучения. Такой подход позволяет более эффективно работать с теми учащимися, у которых невелик интерес к изучению химии, помогает им достигнуть базового уровня образования, а также реализует желание сильных и заинтересованных учащихся добиться высоких результатов.

Ключевые слова: электролиз расплавов, металлы, окислительно-восстановительные реакции, электрод, дифференцированное обучение, разноуровневые задания, индивидуальные способности.

ELEKTROLIZ BO‘LIMINI O‘RGANISHDA MOTIVATSIYANI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA FARQLANISH

**Alimova F.A. Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti
Kaxxorov O‘S. –Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti**

Annotasiya. Ushbu maqola kimyo fanini o‘qitishda, xususan, “Elektroliz” bo‘limini o‘rganishda differensial yondashuvni qo‘llashga bag‘ishlangan. Maktab o‘quvchilariga ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan, tabaqalashtirilgan yondashuv eng istiqbolli va samarali pedagogik o‘qitish texnologiyasidir. Shunga asosan, kimyoni

o‘rganishga unchalik qiziqmaydigan o‘quvchilar bilan yanada samarali ishslash imkonini beradi, ularga asosiy bilimlarni egallahsha yordam beradi.

Kalit so‘zlar: eritmalar, metallar, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, elektrad, differensial o‘qitish, ko‘p darajali vazifalar, individual qobiliyat.

DIFFERENTIATION AS A MEANS OF INCREASING MOTIVATION WHEN LEARNING THE ELECTROLYSIS SECTION

Alimova F.A. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University

Kakhkhorov O.S. - Master of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. A differentiated approach to teaching schoolchildren based on a personality-oriented nature of education is the most promising and effective pedagogical teaching technology. This approach allows you to work more effectively with those students who have little interest in studying chemistry, helps them to achieve a basic level of education, and also realizes the desire strong and motivated students to achieve high results. This article is devoted to the application of a differentiated approach in teaching chemistry, in particular when studying the section "Electrolysis".

Key words: electrolysis of melts, metals, redox reactions, electrode, differentiated learning, multilevel tasks, individual abilities

Согласно постановлению Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева “О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям “химия” и “биология””, в стране планируется кардинально повысить качество и уровень преподавания этих предметов в школах, повысить уровень обучения в вузах, внедрение в учебный процесс современных педагогических технологий. В нем также отмечается об определении уровня знаний по предметам “химия” и “биология” *осуществлять в дифференцированном порядке[1]*.

Объективная реальность нашего времени – необходимость использования эффективных форм и методов обучения. Традиционные приемы во многом устарели, не способны обеспечить мотивацию обучения, сотрудничество и эффективную обратную связь учителя и учащихся, возможность действенного управления учебным процессом. Чтобы достичь поставленных задач, необходимо совершенствовать и находить новые методы обучения, обращать большое внимание на средства повышения эффективности преподавания[2].

Дифференцированный подход в традиционной системе обучения организационно состоит в сочетании индивидуальной, групповой и фронтальной работы. Данный подход необходим на всех этапах обучения, то есть на этапах усвоения знаний, умений, это является существенным положением методики обучения.

Принцип дифференцированного подхода дает возможность создавать обучающую систему, обеспечивающую потребности каждого студента с учетом его индивидуально-типологических особенностей. Традиционное обучение учеников не позволяет раскрывать их индивидуальные способности и особенности.

Важная предпосылка осуществления дифференцированного подхода к учащимся — направленность обучения на формирование личности ученика, которая предполагает действенное внимание к каждому, его творческой индивидуальности на каждом занятии. В привитии интереса необходим и коллективный, и индивидуальный подходы: поставить перед группой цель, помочь каждому включиться в учебный труд[3].

Деятельность учащихся по усвоению (присвоению) знаний, добытых наукой, принципиально не отличается от деятельности первооткрывателей. Они также должны представлять микрообъекты, то есть создавать мысленные образы. Однако самостоятельно учащиеся этого сделать не могут. Им надо помочь, предлагая деятельность с материальными моделями молекул, атомов, ионов, кристаллов. Это помогает сформировать понимание (понятие) объекта изучения. Когда понимание сформировано, студент может записать понятое в виде знаковых моделей – химических формул и уравнений. Формирование содержательных знаний, раскрывающих сущность понятий, связанных с веществом и химическими реакциями, требует определенной логики раскрытия каждого понятия.

Эффективность образовательного процесса возрастает, если обучение ведется на доступном уровне с учетом возрастных и индивидуальных особенностей мыслительной деятельности слушателей, уровня их подготовленности и развития. Поэтому, при изучении материала, обучаемым необходима индивидуальная помощь для успешного продвижения в учебе с учетом результатов, полученных в ходе проведения диагностических срезов, с чего, на наш взгляд, и должен начинаться учебный процесс[4].

Главной целью дифференциации является преодоление, сглаживание противоречия между усредненным подходом ко всем учащимся и индивидуальностью каждого ребенка

При этой форме каждая группа учеников работает над выполнением заданий, соответствующих их учебным возможностям.

Дифференцированное обучение можно использовать на всех этапах урока: при проверке и закреплении знаний, работе с книгой, проведении практических работ, решении задач[5].

Например, при изучении раздела электролиз ставятся следующие цели:

Обучающая: обобщить и углубить знания о сути электролиза расплавов и растворов. Формировать умения составлять уравнения электролиза расплавов и растворов не инертных электродов. *Развивающая*: продолжить формирование умений самостоятельно определять цели своего обучения, соотносить свои действия с планируемыми результатами; развивать умения строить логическое рассуждение, включающее установление причинно-следственных связей; вырабатывать умения сравнивать, обобщать, делать выводы; развитие умение работать со схемами; осуществлять контроль своей деятельности в процессе достижения результата.

Воспитательная: способствовать формированию ответственного отношения к учению.

В ходе изучения новой темы учитель с учащимися, во-первых, разбирают понятие электролиза. Во-вторых, знакомятся с видами электролиза – электролизом расплавов и электролизом растворов. Рассматривают особенности каждого из них. И, в-третьих, знакомятся с основными областями применения электролиза.

Одним из условий организации дифференцированной самостоятельной работы при обучении данной темы, является применение дифференцированных заданий, которые различаются по сложности, по познавательным интересам, по характеру помощи со стороны учителя [6].

Группа учащихся на протяжении всего занятия разделена на 3 группы. При уровневой дифференциации ученикам предлагается одинаковый объем материала, но устанавливаются разные критерии требований к его усвоению. Приведем примерные варианты заданий различного уровня сложностей:

Задания первого уровня

1. Щёлочь – один из продуктов электролиза в водном растворе:

1) KCl 2) CuSO₄ 3) FeCl₂ 4) AgNO₃

2. При электролизе водного раствора нитрата калия на аноде выделяется:

1) O₂ 2) NO₂ 3) N₂ 4) H₂

3. Водород образуется при электролизе водного раствора: 1) CaCl₂ 2) CuSO₄ 3) Hg(NO₃)₂ 4) AgNO₃

Задания второго уровня

1. Электролиз 400 г 20 %-го раствора поваренной соли был остановлен, когда на катоде выделилось 11,2 л (н.у.) газа. Степень разложения исходной соли (в %) составляет:.....

2. Провели электролиз 100 г 10 %-ого раствора сульфата хрома (III) до полного расходования соли (на катоде выделяется металл). Масса (в граммах) израсходованной воды составляет:.....

Задания третьего уровня

1. Установите соответствие между формулой соли и продуктами электролиза водного раствора этой соли, которые выделились на инертных электродах: к каждой позиции, обозначенной буквой, подберите соответствующую позицию, обозначенную цифрой.

Формула соли

А. Na_2CO_3

Б. AlCl_3

В. NaCl

Г. NaNO_3

Продукты электролиза

1.металл и хлор, 2.металл и кислород

3.водород и кислород, 4.водород и азот

5.водород и углекислый газ

6.водород и хлор

2. Установите соответствие между исходным веществом и продуктами электролиза этого вещества, образовавшимся на инертных электродах. К каждой позиции, обозначенной буквой, подберите соответствующую позицию, обозначенную цифрой.

Исходное вещество

А.раствор CuSO_4

Б.расплав NaCl

В.раствор NaCl

Г.раствор NaOH

Продукты электролиза

1. Cu и O_2

2. H_2 и Cl_2

3. Na , H_2O и O_2

4. Na и Cl_2 5. H_2 и O_2

Такие задания помогают не только закрепить знания, но и усвоить практически значимую информацию[7]. Существует несколько важных условий, при выполнении которых можно рассчитывать на успешное и эффективное выполнение уровневой дифференциации. Первое заключается в том, что обязательные результаты обучения должны быть открытыми для всех учеников. Поэтому, несмотря на то, что даны задания разного уровня сложности, все учащиеся вовлечены в процесс и результаты их деятельности открыты для всех. Анализ результатов исследования позволяет сделать вывод, что повышению качества и результативности учебного процесса будут способствовать более широкое использование дифференцированного обучения:

- использование разноуровневых заданий при выполнении домашнего задания, включение проверочных заданий различных по форме и содержанию информации в виде таблиц, графиков и диаграмм, учет знаний, которые учащиеся получают вне школы из различных источников;

-использование заданий, проверяющих различные виды деятельности, с преобладанием заданий на применение знаний для объяснения практического значения электролиза;

-усиление внимания к выявлению ошибочных представлений учащихся, установлению причин их возникновения и разработке корректирующих методик;

-расширение интеграции естественнонаучных знаний, полученных при изучении различных предметов, и разработка единых подходов к формированию основных естественнонаучных понятий, изучаемых в различных курсах;

-изменение акцентов в учебной деятельности учащихся: более широкое использование в обучении видов деятельности, направленных на интеллектуальное развитие учащихся за счет уменьшения доли репродуктивной деятельности.

Литература

1. Постановление Президента Республики Узбекистан “О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям “химия” и “биология” от 12.08.2020
2. Унт И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения. М.: "Педагогика", 2010.-56с.
3. Кирсанов А.А. Индивидуализация учебной деятельности как педагогическая проблема. Казань, 2002. -120-1263 с
4. Клевчена М.С Психологические проблемы дифференцированного обучения // Актуальные проблемы дифференцированного обучения. -Мн., “Народная света”, 2007. -110-114с.
5. Рыжова, В.Н. Дифференциация обучения как важный фактор развития познавательных интересов школьников / В.Н. Рыжова // Научно-практический журнал “Завуч”. – 2003. – № 8. – С. 47-51.
6. Чернобельская, Г.М. Методика обучения химии в средней школе. Учебник для студентов высших учебных заведений / Г.М. Чернобельская. - М.: ВЛАДОС, 2000. – 52-54 стр.
7. Хомченко Г.П., Хомченко И.Г. Сборник задач по химии. М.: Новая волна, 2002. 125-130 стр.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QITILADIGAN OLIY МАТЕМАТИКА О‘З ИЧИГА ОЛГАН СОХАЛАР

Rafiqov F.M. – Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Oliy ta’lim muassalaridagi birinchi bosqich talabalarining oliy matematika fanini o‘qitishda kasbiy pedagogik va metodik tayyorgarlik jarayonidagi

muammolar hamda ularni bartaraf etish usullari, shuningdek, tabiiy fanlarda matematika fani bo‘yicha tabiiy fanlarga bog‘lanishini amalga oshirish, talabalarning bilim va malakalari sifatiga ta’siri masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy fanlar tizimida oliv matematika fanini psixologik-pedagogik, texnik texnologik, kasbiy monografik, intervyyu anketa, proporsiya, matematik aparat, reaksiya tenglamasi.

НАПРАВЛЕНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКИ В БОУ

**Рафиков Ф.М. - преподаватель Кокандского государственного
педагогического института**

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы в процессе профессиональной педагогической и методической подготовки студентов высших образовательных учреждений при обучении высшей математике и методы их решения, а также влияние связи студентов с естественными науками на качество знаний и вопросы умений и навыков.

Ключевые слова: психолого-педагогическая, технико-технологическая, профессиональная монография высшей математики в системе естествознания, опросный лист, пропорция, математический аппарат, уравнение реакции.

FIELDS OF HIGHER MATHEMATICS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Rafikov F.M. - teacher of Kokand State Pedagogical Institute

Annotation. The article discusses the problems in the process of professional pedagogical and methodological training of students of higher educational institutions in teaching higher mathematics and methods for their solution, as well as the influence of students' connection with the natural sciences on the quality of knowledge and issues of skills.

Key words: psychological-pedagogical, technical-technological, professional monograph of higher mathematics in the system of natural sciences, interview questionnaire, proportion, mathematical apparatus, reaction equation.

Oliy matematika o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan kurs bo‘lib, o‘z ichiga oliy algebra va matematik tahlil kabi matematik sohalarni oladi. Oliy matematika alohida fan sohasi emas, balki ta’lim sohasining bir predmetidir.

Oliy matematika - texnika, iqtisod, qishloq xo‘jaligi va boshqa maxsus o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan matematika bo‘limlaridan iborat kurs. Oliy matematika kursiga, asosan, analistik geometriya, oliy algebraning ayrim kiyim lari, differensial hisob, integral hisob, differensial tenglamalar kiradi. XX asrning 70-yillarida Oliy matematikaga matematik statistika, ehtimollar nazariyasi, chiziqli dasturlash va boshqa sohalar ham qo‘shildi. Ba’zan, matematikaning o‘rta maktab dasturiga kiritilmagan qismi Oliy matematika deb tushuniladi.

Chiziqli algebra-matematikaning chiziqli fazolar va ularning chizikli akslantirishlarini o‘rganuvchi bo‘limi. Chiziqli algebraning rivojlanishi XIX asrda chiziqli tenglamalarning umumiy nazariyasi vujudga kelishi bilan boshlandi. Chiziqli tenglamalarni o‘rganish jarayonida qo‘llana boshlagan aniqlovchi vektorlar, matritsalar kabi tushunchalar matematikada o‘zaro qo‘shish va skalyarga ko‘paytirish mumkin bo‘lgan obyektlar alohida o‘rin tutishini anglashga, ularni boshqa konkret xossalardan ajralgan hodata o‘rganishga olib keldi. XIXasr oxirida ikkinchi tartibli sirtlarning tenglamalarini kanonik ko‘rinishga keltirish masalasi Chiziqli algebra masalasidan iborat ekanligi aniqlangach, chiziqli algebra ko‘p o‘lchovli fazo analitik geometriyasi bilan qo‘shilib ketdi va chiziqli, kvadratik formalar, chiziqli almashtirish va akslantirish, Yevklid fazosi, proyektiv fazo tushunchalari bilan boyitildi. Differensial geometriya va mexanika ehtiyoji bilan Chiziqli algebrada vektorlarni umumlashtiruvchi chiziqli formalarni umumlashtiruvchi chiziqli formulalar tushunchalari kiritildi. Chiziqli algebraning algebrasi, yarim chiziqli algebra kabi bo‘limlari vujudga keldi[1].

Matematik analiz - matematika sohalaridan biri. Matematik analiz takomillashib va rivojlanib boruvchi apparatga ega bo‘lib, bu apparat asosini differensial va integral hisob tashkil qiladi. Matematik analiz o‘ziga xos tadqiqot ob’yektiga, o‘ziga xos tadqiqot uslubiga, asosiy tushunchalarning ma’lum majmuasiga ega. Matematik analiz matematikaning bo‘limi sifatida XVIII-asr oxirida shakllandi. Matematik analizning tadqiqot predmeti funksiyalardan yoki o‘zgaruvchi miqdorlar orasidagi bog‘lanishlardan iborat. Matematik analizning asoschilarini I. Nyuton va G. Leybnitslardir[2].

Analitik geometriya-geometriya bo‘limi; unda sodda geometrik nuqtalar, to‘g‘ri chiziqlar, tekisliklar, ikkinchi tartibli egri chiziqlar va sirtlar koordinatalar usuli asosida algebraik vositalar bilan o‘rganiladi. Koordinatalar usulining mohiyati quyidagicha: a tekislikda o‘zaro perpendikulyar Ox va Oy to‘g‘ri chiziqlarni chizamiz, ularda musbat yo‘nalishlarni, koordinata boshi O nuqtani va masshtab birligi ye ni tanlab olamiz. Bu holda tekislikda to‘g‘ri burchakli Dekart koordinatalar tizimi Ox berilgan deyiladi; Ox abssissalar o‘qi, Oy esa ordinatalar o‘qi deyiladi. Tekislikdagi ixtiyoriy M nuqtaning holati OMx va OMy kesmalarning uzunliklari x va y bilan bir qiymatli aniqlanadi. Abssissasi x va ordinatasi y bo‘lgan M nuqta

$M(x,y)$ kabi belgilanadi. Shua tekislikda biror chiziq olingan bo'lsa, unga tegishli nuqtalarning va faqat shu nuqtalarning koordinatalari $463G'(x, y)=O$ tenglamani qanoatlantirsa, bu tenglama L chiziq tenglamasi deyiladi. Tekislikdagi to'g'ri chiziqlar, ikkinchi tartibli egri chiziqlar (ellips, parabola, giperbola) batafsil o'rganiladi. Fazoda ham Dekart koordinatalar tizimi kiritiladi va turli chiziqlar, tekisliklar, ikkinchi tartibli sirtlar ularning tenglamalari vositasida o'rganiladi. R. Dekartnt "Geometriya" (1637 yil) kitobida birinchi marta to'la bayon etilgan. P. Ferma, G. Leybnits, I. Nyuton, L. Eyler katta hissa qo'shganlar[3].

Vektor xossalari -matematikaning vektor ustida bajariladigan amallari va bu amallarning xossalarini tekshiradigan bo'limi. Vektor hisob 19-asrda fizika, mexanika talablari asosida vujudga keldi va rivojlandi. Ingliz matematigi U. Gamilton, nemis matematigi G. Grasman, ingliz fizigi J. Maksvell vektor hisob taraqqiyotiga katta hissa qo'shishdi. Amerika fizigi J. Gibss vektor hisobni hozirgi ko'rinishga keltirdi. Vektor hisob vektorlar algebrasi va vektorlar analizidan iborat. Vektorlar algebrasining qoidalari odatdagি algebra qoidalardan tubdan farq qiladi: ular vektor miqdorlarining fizik xossalarini ifodalarydi. Masalan, ikki kuchning teng ta'sir etuvchisini parallelogramm qoidasi bo'yicha topish mumkinligini nazarda tutib, tomonlari qo'shiluvchi vektorlardan iborat parallelogramm diagonalini tasvirlovchi yangi c vektorga kuchlar parallelogrami - bir nuqtadan chiqqan a va b vektorlarining yig'indisi deyiladi: $OS = s = a + b$. Ayirish amaliga teskaridir: $a - b = a + (-b)$; bu ayrim vektorlar parallelogramining ikkinchi diagonali tasvirlaydi. Ikkitadan ortiq vektoring yig'indisi "zanjir" qoidasi asosida aniqlanadi: birinchi vektor oxiriga ikkinchi vektor, ikkinchisining oxiriga uchinchisi qo'yiladi. Birinchi vektor boshini eng so'nggi vektor oxiri bilan tutashtiruvchi vektor yig'indini beradi. Vektorlarni qo'shish amali o'rin almashtirish va guruhash qoidalari bo'ysunadi: $a + b = b + a$; $a + (b + c) = (a + b) + c$. Bir tekislikda yotmagan uchta vektor yig'indisi shu vektorlardan yasalgan parallelipiped diagonalini tasvirlovchi vektordan iborat. Vektorlarni qo'shish, ayirish va songa ko'paytirish amallari chiziqli amallar deyiladi. Vektoring dekart koordinatlari uning uchta dekart o'qidagi proyeksiyalaridan iborat. Mexanika va fizikaning ko'p masalalari nuqtaning skalyar va vektor tabiatli funksiyalarini kiritishni talab etdi. Masalan, bir tekis isitilmagan jismning temperaturasi nuqtaning skalyar funksiyasidir, oqib turgan suyuqlik moddasining tezligi nuqtaning vektor funksiyasidir[4].

Ehtimollar nazariyasi ilk bor qimor o'yinlari oqibatida vujudga kela boshladи. Odamlar avvaliga uni fan sifatida emas bo'lgan o'yinlardagi holatlar oqibatida tushunib yetdilar. Ehtimollar nazariyasi -biron bir tasodifiy hodisalarning ro'y berish ehtimoliga ko'ra ular bilan qandaydir tarzda bog'langan boshqa tasodifiy hodisalarning ro'y berishi ehtimollarini topish bilan shug'ullanadigan matematika sohasi. Biror hodisaning ro'y berish ehtimoli, mas, teng ekanligi uncha ahamiyatli

emas, chunki odam ishonchli natijaga erishishni xohlaydi. Shu nuqtayi nazardan biron bir A hodisa ro'y berish ehtimoli 1 ga ancha yaqinligi haqidagi xulosalar katta ahamiyatga ega. Bunday hodisa amalda muqarrar ro'y berishi ishonchli bo'lgan hodisa deb hisoblanadi. Ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bunday hodisalar, odatda A hodisa ko'p sonli tasodify, bir-biri bilan sust bog'liq bo'lgan omillar ta'sirida ro'y beradi yoki bermaydi, degan farazga asoslanadi. Shuning uchun Ehtimollar nazariyasini ko'p sonli tasodify omillarning o'zaro ta'siridan paydo bo'ladigan qonuniyatlarni aniqlaydigan va o'rganadigan mat. bo'limi deyish mumkin. Tabiatshunoslikda muayyan shartlar majmui 5 bilan shu shartlar bajarilganda ro'y bergenini yoki ro'y bermaganini aniq aytish mumkin bo'lgan A hodisa orasidagi bog'lanish qonuniyatini bayon etishda quyidagi 2 sxema ishlatiladi: 1) shartlar majmui 5 bajarilgan har bir holda A hodisa ro'y beradi. Mas, klassik mexanikaning qonunlari boshlang'ich shartlar va jismga ta'sir etuvchi kuchlar berilganda jism harakati bir qiymatli aniqlanishini tasdiqlaydi; 2) shartlar majmui 5 bajarilganda A hodisa ma'lum $R(A/5)=r$ ehtimol bilan ro'y beradi. Mas, radioaktiv nurlanish qonunlari har bir radioaktiv modda uchun berilgan vaqt oralig'ida bu modda N ta atomi yemirilishining ma'lum ehtimoli borligini tasdiqlaydi. Ikkinci sxema bilan ifodalanuvchi qonuniyatlar statistik qonuniyatlar deyiladi. Tug'ilish va o'lim bilan bog'liq statistik qonuniyatlari ham (mas, o'g'il tug'ilishi ehtimoli 0,515 ekanligi) avvaldan ma'lum[5].

XIX-asr oxiridan boshlab fizika, kimyo, biologiya va boshqalar fanlarda ko'plab statistik qonuniyatlar kashf etiladi. Turli sohalardagi statistik qonuniyatlarni Ehtimollar nazariyasi usullari bilan o'rganish hodisalarning ehtimollari hamma vaqt ba'zi oddiy munosabatlarni qanoatlantirishga asoslangan. Shu oddiy munosabatlar asosida hodisalarning ro'y berish ehtimollari xossalari o'rganish Ehtimollar nazariyasi predmetini tashkil qiladi.

O'zbekistonda Ehtimollar nazariyasi XX-asrning 20 - yillaridan boshlab V.I.Romanovskiy tashabbusi va bevosa ishtiroti bilan rivojlna boshladi. T.A.Sarimsoqov, S.X. Sirojiddinov, T.A. Azlarov, Sh.K. Farmonov, A.N. Nagayev, N.U. G'ofurov, T.M. Zuparov kabi olimlarning Ehtimollar nazariyasiga oid tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika matematekaningning eng taraqqiy etgan tarmoqlaridan biridir[6].

Adabiyotlar

1. Гнеден ко Б.В., Курс теории вероятностей, 5 изд., М, 1969;
2. Прохоров Ю.В., Розанов Ю.А., Теория вероятностей, 2 изд., М., 1973;
3. Феллер В., Введение в теорию вероятностей и её приложение. Пер. с англ. 2 изд., М., 1967;
4. Сармисаков Т.А., Основи теории процессов Маркова, М., 1951;

5. Сиражиддинов С.Х., Пределнме теоремн для. однородных сепей Маркова., Т., 1955;
6. Сиражиддинов С.Х., Азларов Т.А., Зупаров Т.М., Аддитивнме задачи с растувдим числом слагаеммх, Т., 1975.

BO'LAJAK MATEMATIKA O'QITUVCHILARI METODIK TAYYORGARLIGINING HOZIRGI HOLATI

**Mardonqulov J.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti
izlanuvchisi**

Annotatsiya. Yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar, respublikamizda so'ngi yillarda sezilarlik darajada umumiylar o'rta ta'limga bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni o'zgartirdi. Bitiruvchidan bugungi kunda bu nafaqat ma'lum bilimlarga ega bo'lish, balki ko'nikmalar shakllanganligi eng muhim omil sifatida qarash kerakligini anglatmoqda. Shu ma'noda maqolada bo'lajak matematika o'qituvchilarini metodik tayyorlashning o'ziga xoc xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: matematika, metodika, o'qitish texnologiyasi, metodik tayyoragarlik.

THE CURRENT STATE OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE MATHEMATICS TEACHERS

Mardonkulov J.A. - researcher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The social changes that have occurred in our country in recent years have significantly changed the requirements for graduates of general secondary education. Today, for a graduate, this means not only having certain knowledge, but also considering the formation of skills as the most important factor. In this sense, the article analyzes the specifics of the methodological training of future mathematics teachers.

Key words: mathematics, methodology, training technology, methodical preparation.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МАТЕМАТИКИ

**Мардонкулов Ж.А. - исследователь
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. Социальные изменения, произошедшие в нашей стране за последние годы, существенно изменили требования к выпускникам общего среднего образования. Сегодня для выпускника это означает не только наличие определенных знаний, но и рассмотрение формирования навыков как наиболее важного фактора. В этом смысле в статье анализируется специфика методической подготовки будущих учителей математики.

Ключевые слова: математика, методика, технология обучения, методическая подготовка.

Jamiyatning zamonaviy taraqqiyoti, inson hayoti hamda faoliyatining turli sohalarida jahon tizimlarining globallashuvi va integratsiyalashuvi, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, kasb egalarining o‘z sohasining yetuk mutaxassis sifatida shakllanganligiga tobora yuqori talablar qo‘ymoqda. Yuzaga kelgan kasb raqobati matematika o‘qituvchilarining shaxsiy fazilatlari va uning kasb faoliyatiga jamiyat talablarida bir qator o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Shunga bog‘liq ravishda mehnat bozorida raqobatbardosh o‘qituvchiga, intellektual, muloqot, axborot va boshqa sohalarda asosiy kompetensiyalar to‘plamiga ega shaxsga ehtiyoj yuzaga keldi.

Ta’lim jarayoni, birinchi navbatda, har bir bo‘lajak matematika o‘qituvchisini professional darajada, ta’lim-tarbiya berish bilan birga yosh avlodning kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishini ta’minlashiga, hozirgi zamon talabi bilan hamnafas bo‘lib, qisqa muddatda aniq qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini shakllantirishga erishishi, qo‘srimcha ravishda kasb-hunar egallashi tamoyili asosida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi siyosati milliylik xarakteriga egaligi, tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan iqtisodiyotning turli jabhalari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Hozirgi ta’lim jarayonida talaba-yoshlarning erkin fikrlesh qobiliyatlarini shakllantirishga erishishni ta’minlashi kerak. Jahonda ro‘y berayotgan pandimeya, turli tabiiy ofatlar sharoitida ta’limning nafaqat kunduzgi, kechki (smenali), masofaviy (onlayn), eksternat shakllarida kadrlar tayyorlanayotganligi, integratsiyalashuv va globallashuv jarayoniga bog‘liq holda ta’limning mazmun-mohiyati informatsion muhit ta’sirida o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu sababli bo‘lajak matematika o‘qituvchilari oldiga muhim vazifa – o‘z-o‘zini idrok etish salohiyati, yangi intellektual darajaga ega bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida vazifa siqilib qo‘yilmoqda. Bunday tayyorlangan kadrlar nazariy tafakkur yuritish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishlari bilan birga o‘zining pedagogik faoliyatida keljak avlodga ta’lim berishda juda katta ma’sulyat, pedagogga xos bo‘lgan umumiy

psixologiya, umumiy pedagogika, ta’limda axborot texnologiyalari, o‘qitish metodika va o‘z kasbining mohir mutaxassisi bo‘lishi lozim.

Shu ma’noda bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Chunki, umumiy o‘rtta, professional ta’lim mussasalarida tahsil olayotgan o‘quvchi-yoshlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘qitish va tarbiyalash, fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ularda malakani to‘g‘ri shakllantirish jarayoni aynan matematika fani o‘qituvchilaridan juda katta mahorat va matonat talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida ”gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan so‘ng mamlakatimiz ta’lim tizimida, xususan, ta’lim tizimida keng qamrovli ijobjiy o‘zgarishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi PQ-5157-son qarori bilan respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan o‘qitishning kredit-modul tizimi joriy qilindi. Matematika ta’lim yo‘nalishi malaka talabi, o‘quv rejasi va yangi o‘quv dasturlari (sillabuslar) ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich ta’lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta’lim standarti va yangi o‘quv dasturlari asosida o‘qitishning kredit-modul tizimiga asoslangan darsliklarning yangi avlodni yaratildi. O‘quvchi-yoshlarni zamonaviy darsliklar bilan to‘liq ta’minlashga erishish uchun barchashart-sharoitlar yaratib berildi.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim tizimi oldiga yangicha metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan pedagog-kadrlarni tayyorlash vazifasi qo‘yildi. Pedagog-xodim va o‘qituvchilarni tayyorlashda psixologik-fiziologik o‘ziga xosliklarini hisobga olish, shakllantirish va rivojlanadirish tajribasini egallashi lozimligi asosan diqqat markazida bo‘lishi kerak. Ma’lumki, bo‘lajak matematika o‘qituvchisining ta’lim jarayonidagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish ustuvor o‘rin egallaydi. Buning uchun talabalardan, oliy ta’lim muassasalarida pedagogika, psixologiya, metodik turkumdagini va matematikani nazariy jihatdan o‘rgatishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlarni olib boruvchi professor-o‘qituvchilardan, zamonaviy talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, chuqr bilim, zamonaviy dunyo qarashga va puxta metodik tayyorgarlikka ega shaxs bo‘lgan moderator, tyuter va zarur bo‘lsa arator bo‘lish talab etiladi.

Hozirgi kunda an’anaviy o‘qitish o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar, masofaviy ta’lim shakllarni, o‘qitishda aralash ta’lim (gibrodusullar) egallamoqda, nafaqat egallamoqda, balki bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Shu nuqtainazardan, talaba-yoshlarlarning egallagan bilimi, ko‘nikma va malakalarini muntazam nazorat qilish, ularning olayotgan bilimlaridagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida to‘ldirib borish,

iqtidorli talaba-yoshlardagi intellektual salohiyatning muntazam rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga qiziqtirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tajribalarni boyitish, istiqboldagi va maqsadli rejalarini ishlab chiqish, o'quv-tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan hamda pedagogika fanining ilg'or yutuqlaridan muntazam foydalanish, ya'ni, ta'lim jarayoniga masofaviy ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari elementlarini olib kirish, ulardan samarali foydalanish, o'qituvchilarining ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishini yo'lga qo'yish, matematika o'qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakalarini muntazam oshirib borishda innovatsion metodlardan foydalanish, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida qayta tayyorlash va malaka oshirish, stajirovka, doktorantura tahsil olishlarini yo'lga qo'yish kabi vazifalar dolzarb tus olmoqda. Ta'limga oid o'quv-me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham uzlusiz ta'limning barcha bo'g'inlari uchun matematika o'qituvchilarini tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Matematika fani o'qituvchilarining metodik tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan asosiy talablarni ko'rib chiqamiz. N.V.Amosova fikricha, mutaxassis:

- o'z kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini his qiladi;
- ilmiy-insonparvar dunyo qarashga ega;
- ilmiy bilishning shakl va metodlarini hamda ularning evolyutsiyasini biladi, jahonda yuz berayotgan ta'limga oid o'zgarishlar va yangiliklarni bilish va uni o'zlashtirishning turli metodlariga ega bo'ladi;
- jamiyat taraqqiyotida ilm-fan qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunadi;
- axborotlarni qidirish, qayta ishslash va foydalanishning innovation usullardan xabardor, axborot oluvchi uchun ularni moslashtirish va sharhslash qobiliyatiga ega bo'ladi;
- ilm-fan taraqqiyoti va o'zgarib borayotgan ijtimoiy amaliyot sharoitida o'z nuqtainazarini qayta ko'rib chiqish, ishslashning innovation shakl va metodlarini tanlashga qodir bo'ladi;
- turli fanlararo bilim sohalarida ishslashga psixologik va metodik tayyorlangan bo'ladi;
- odam shaxsi rivojlanish davrida o'ziga xos davr sifatida bolalikning ahamiyatini his qiladi[1].

Afsuski, hozirgi kunda ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy madaniyati shakllanishini, pedagogik faoliyatga oidnazariy va amaliy ko'nikmalarini yetarli emasligi sababli, ayrim hollarda ta'lim dasturlarini talaba-yoshlarning to'liq o'zlashtirilishida sezilarli darajada ta'minlay olmayapti. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish amaliyoti ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilgan, mavjud an'anaviy pedagogik ta'lim tizimida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, undagi

ayrim muammo va kamchiliklarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bizning fikrimizcha, unda turli darajalilik, mobillik, moslashuvchanlik, uzlusizlik, uzviylik, ko'p qirralilik yetishmaslik holatlarini kuzatish mumkin bo'ladi. Oxirgi paytlarda respublikamizdagi pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash uchun ishlab chiqilayotgan o'quv rejalarda "ko'p fanlilik" (fanlar sonini ko'payib ketganligi) kabi muammolarga ro'para kelishayotgani, bunda talabalar bir vaqtning o'zida ko'pincha bir-biri bilan yaxshi bog'lanmagan, fanlarning o'qitilishi va tarkibi shakllantirilishida ba'zan uzviylik va uzlusizlik tamoyillarining ishlamasligi, bir-ikkinchisini takrorlovchi o'nikkitagacha mustaqil o'quv fanlarini o'rganishiga to'g'ri keladi. Bu borada bundan 20 yillar oldin shu sohada ilmiy izlanish olib borgan olim Yu.K.Babanskiy ham o'z firklarini keltirgan [2]. Ko'p fanlilik bilan birqatorda o'qituvchi tayyorlashning "elementlar bo'yicha" tendensiyasi rivojlanib, u alohida elementlar, qismlardan tarkib topib, ularning har biri tegishli fanga oid nazariy ma'lumotlar hamda u belgilab beruvchi nazariy bilim, ko'nikma va malakalardan vujudga keladi.

Nafaqat matematika o'qituvchisini tayyorlash, umuman pedagog-kadrlarni tayyorlash yuzasidan olimlarning fikricha, fanlar sonining ko'p bo'lishi, auditoriya mashg'ulotlarining keskin ko'paytirish holatlari amaliyotda shaxsning butun ijodiy salohiyati yuzaga chiqishini ta'minlamay olmaydi, "chunki talabalar tomonidan turli fanlar bo'yicha o'zlashtirilayotgan bilimlar ko'pincha yaxlit ilmiy manzara hosil qilmaydi, chunki o'zaro bog'langan emas, balki alohida elementlar ko'rinishida taqdim etiladi" [3].

Ijodiy shaxsni tayyorlashga to'sqinlik qiladigan kamchiliklar qatoriga nafaqat psixologik-pedagogik o'quv fanlari o'qitilishida uzlusizlik yo'qligini, balki quyidagilarni ham kiritishimiz mumkin:

- metodik, ixtisoslashtirilgan va gumanitar fanlar o'rtasida fanlararo aloqadorlik yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;
- mehnat faoliyatiga taalluqli ta'lim shakllarining optimal nisbatini belgilash muammosi haliham hal etilmaganligi, ma'ruza, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar hamda mакtabda amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblik avvalgidek ko'zga tashlanib turishi;
- kasbiy tayyorgarlikning nazariy va amaliy qismi o'rtasidagi optimal nisbat masalasi hanuz hal etilmaganligi;
- oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonda kasbiy-shaxsiy shakllanishga, shuningdek, texnologik yangiliklar (bilim, ko'nikma va malakalarga integrasiyalashuv qobiliyatini shakllantirish, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va boshqalardan foydalanish)ni joriy etishga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi, shiddat bilan rivojlanayotgan jahon ta'lim muhitida kadrlar tayyorlash sifatiga alohida etibor qaratish kerakligi namoyon bo'layotganligi;

– ijtimoiy, boshqaruv, axborot-muloqot kompetensiyalari shakllanishiga imkon beruvchi fanlararo o‘quv fanlarini o‘rganish amaliyoti deyarli mavjud emasligi;

– oliv ta’limning o‘quv dasturlarida nafaqat matematika o‘qituvchilari va boshqa sohadagi mutaxassislarni kasbga tayyorlashning integrativ jihatlariga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganligi nazariy tayyorgarlik qanchalik chuqurlashtirilmasin, unga qanchalar ko‘p o‘quv soatlari va fanlar ajratilmasin, uning o‘zi kelgusi pedagogik faoliyatning ilmiy asosi bo‘la olmaydi. Bunga to‘sinqilik qiluvchi omil, N. V. Amokova ta’kidlaganidek, birinchi navbatda, “elementlar bo‘yicha fikrlash” bo‘lib, u fikr erkinligiga, ijodiy izlanishga, erkin improvizatsiyaga, tarbiyalanuvchilar bilan muloqot amaliyotida shaxsning butun salohiyati namoyon bo‘lishiga imkon bermaydi. Bu borada boshlang‘ich sinf matematika o‘qituvchilarini tayyorlashda ilmiy izlanish olib borgan, o‘z tadqiqot ishida matematika o‘qituvchilarini tayyorlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan M.Toshpo‘latovaning nomzodlik dissertatsiya ishida ham ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammoli holatlar pedagog-xodimlarni tayyorlashning ekstensiv tizimiga taalluqli bo‘lib, bunda uning kasb faoliyatini takomillashtirish yo‘lidagi barcha urinishlar faqatgina miqdoriy parametrlarning o‘zgarishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu an’anaviy tizimni o‘zgartirmasdan turib, o‘qituvchilar tayyorlashni tubdan o‘zgartirish mumkin emas bugungi kunda o‘z isbotini ko‘rsatmoqda.

An’anaviy o‘qitish metodikasi asosida ta’lim olayotgan talaba mashg‘ulotlarda ko‘pincha eshitadi, ko‘radi, eslab qoladi, takrorlaydi, misol, masala va mashqlardan ishlab ko‘rsatilgan namunalar asosda boshqa turdag‘i misol va masalalarni ishlab egallagan nazariy bilimlarini amaliy jihatdan qo‘llab ko‘rgan holda o‘zining bilim, ko‘nikma va malakasini mustahkamlaydi. Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatni qo‘yish, faraz va uning yechimini ilgari surish, muammolarga yechim topishning optimal yo‘llarini izlab topish, aloqa va munosabatlar o‘rnatishiga deyarlitо‘g‘rikelmaydi. Shuning uchun hamma tematika turkumida fanlarda o‘qitishda talabalarga o‘qitishning faol shakllari va metodlaridan mohirona foydalanish talab etiladi. Ayrim hollarda professor-o‘qituvchilarda bu sohada liderlik mahorati yetishmaydi yoki talaba-yoshlarning kumiridagi shakllangan shaxs sifatida namuna bo‘lolmaydi.

Metodik tayyorgarlik amaliyotida allaqachon ishlab chiqilgan mazmunga ega turli harakatlar (tahlil, baholash, tarkiblash)ni bajarishga yo‘nalganlik sezilib turadi. Talabalarning kamdan-kam hollarda ta’lim jarayonini mustaqil loyihalashiga yoki uning muayyan o‘quv vaziyatlari bilan bog‘liq tarkibiy qismlarini tuzishiga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, hozirgi kunda nafaqat mazmun bilan ishlashga, balki amaliyotga qo‘llashga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilari ta’limning ko‘rgazmali-mazmuniy paradigmasi amal qilgan sharoitda tayyorgarlikka ega bo‘lgan; “ular tuzilishi va mazmuni o‘quv fani mantig‘i bilan belgilab berilgan nazariy kurslarni tinglashga, matematik ta’limning o‘zgargan talablari bilan bog‘liq holda mavjud bilimlarini mustaqil to‘ldirish va chuqurlashtirish bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish metodlarini egallash o‘rniga “oliy ta’lim muassasasida barcha ma’lumotlarning” maqsadiga mutanosib bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallahsgan[4]. Shuni ham ta’kidlash kerakki talabalarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda quyidagi qarama-qarshiliklarmavjud:

- mavjud metodik tajribani o‘zlashtirish bilan rivojlantiruvchi ta’limni ta’minlash hamda takomillashtirish o‘rtasidagi nomutanosibliklar;
- pedagogkadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish metodikasi va mutaxassislik fanlari o‘rtasidagi qarama-uzulishlar(shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va uzlusiz ta’limda matematik fanlar turkumida fanlarni o‘qitishmetodlari o‘rtasida, kompetensiyaviy yondashuvgaacoslangan DTCdag‘i matematika fani uchun belgilangan kompetensiyalar va oliy ta’lim muassasasidagi metodik tayyorgarlikda matematika o‘qitish metodika, matematika va informatika, amaliy matematika ta’lim yo‘nalishlaridagi matematika va uni o‘qitish metodikasi o‘rtasida uzviyliklar va boshqalar.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari 5110100-“Matematika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalarining zamonaviy kasbiy metodik tayyorgarligining maqsadlari va mazmunidagi muhim o‘zgarishlarga qaramay, talabalar bugungi kun talablariga javob bermaydigan darslik, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari olimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv adabiyotlari qisman foydalangan holda shug‘ullanishda davo metmoqda. So‘nggi o‘n yilichida Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishining malaka talabi, o‘quv rejasi va fanlar tarkibi bir necha marta o‘zgorganini ta’kidlash joiz. Oliy ta’lim muassasasi uchun psixologiya, pedagogika va matematika o‘qitish metodikasi bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini ularda qandaydir tarzda matematika o‘qituvchisi, ijodiy shaxsni kamol toptirish bilan bog‘liq masalalar akc ettirilganligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, bu quyidagilarni qayd qilishga imkon berdi:

- psixologiya va pedagogika bo‘yicha ko‘plab qo‘llanmalarda shaxsning ijodiy komponentlaridan faqatgina ijodiy qobiliyat ko‘rib chiqilgan; ijodiy tafakkurni shakllantirish haqida juda kam so‘z yuritilgan;

– pedagogika bo‘yicha va boshqa qo‘llanmalarda algoritmik fikrleshni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan, bunda tadqiqot tavsifidagi o‘quv topshiriqlariga (kuzatish, tajriba, eksperiment, adabiyotlardan javob qidirish va boshqalar), taqqoslash, tahlil va belgilarni umumlashtirish, ta’limda muammoli metodlardan

foydalanish kabilarga ham muayyan e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin. Ta'lif jarayoni paradigmasi va maqsadlari o'zgargan hozirgi sharoitda mutaxassilik fanlarini o'qitish hamda mutanosib texnologiyalar ta'siri ostida tub o'zgarishlar yuz bergan oliy ta'linda buning o'zi mutlaqo yetarli emas[5];

Adabiyotlar

1. Амосова П.В. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике: Дисс... док.пед.наук., Астрахань, 1999. – 410 с.
2. Бабанский Ю.К. Педагогика. – Москва: Просвещение, 1988 – 322 с.
3. Амосова П.В. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике: Дисс... док.пед.наук., Астрахань, 1999. – 410 с. 28-ст.
4. Амосова П.В. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике: Дисс... док.пед.наук., Астрахань, 1999. – 410 с. 28-ст
5. Бесспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: изд-во Инст.проф.обр. Мин образования России, 1995.

O'ZBEKISTONDA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR

Karimbayeva L.S.-Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida maxsus ta'lif tizimida olib borilayotgan islohatlar, maktabgacha ta'lif tizimidagi yangiliklar yoritilgan.

Kalit so'zlar: maxsus ta'lif, inklyuziv ta'lif, maktabgacha ta'lif, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lif tashkiloti.

РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Каримбаева Л.С.- магистр Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. В статье описаны реформы в системе специального образования в Республике Узбекистан, нововведения в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: специальное образование, инклюзивное образование, дошкольное образование, многопрофильная специализированная дошкольная организация.

REFORMS IN THE SPECIAL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Karimbayeva L.S.-Master of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article describes the reforms in the system of special education in the Republic of Uzbekistan, innovations in the system of preschool education.

Key words: special education, inclusive education, preschool education, multidisciplinary specialized preschool education organization.

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il - qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatlari bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimida uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan islohatlar bugungi kunda jamoatchiligidan, balki butun mamalakatlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda ta’lim – tarbiya tizimini rivojlantirish, yangilash va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarildi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev „Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘s sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxthi bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan edilar. Bundan tashqari yana yurtboshimiz yoshlar forumida ishtiroki davomida, “O‘z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmisin! Yoshlik – umrning eng bebafo davri. Ilm o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang! Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota bobolaringiz ko‘rgan to‘siq va qiyinchiliklarni ko‘rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib, voyaga yetayapsizlar. Yuksak maqsad yo‘lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo‘lishingiz kerak. Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas’uliyatni, tom ma’nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat’iy ishonaman” deb ta’kidlagan edilar[1; 11-b.].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda korreksion – pedagogik yordamni rivojlantirish tizimini tashkil etish mazmuni “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida” Konvensiyasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun hamda nogironlikka bo‘lgan zamonaviy yondashuvlardan kelib

chiqqan holda maxsus ta’lim mazmunining yangilanushi bilan belgilanadi. Bu borada qator ishlar o‘z yechimini kutmoqdaki, bular pirovardida alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy hayotga erta uyg‘unlashuvlari muammosini hal qilishi lozim. Hozirgi kunda O‘zbekistonda korreksion-pedagogik yordamni rivojlantirish tizimi mavjud bo‘lib xalq ta’limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta mакtab-internat mavjud bo‘lib, ularda 20610 nafar bola ta’lim olmoqda. Shuningdek, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan va uzoq muddatli davolanishga muhtoj 13 437 nafar bolalar uyda ta’lim olmoqda. Alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta’lim berishga muhtoj bolalarning ta’limi 2 ta ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasida amalga oshirilmoqda[2]. Ma’lumki, u yoki bu yo‘nalishdagi faoliyatni amalga oshirish uning qonuniy negiziga tayanishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41 – moddasida, “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiyligini ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb belgilab qo‘yilgan. Bu ham bo‘lsa yosh avlodga berilayotgan katta imkoniyatlardan biri desak bo‘ladi. Hozirgi kunda 11 yillik umumiyligini ta’lim bepul amalga oshirilmoqda.

Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrdagi 61/106-sonli Rezolyutsiya bilan qabul qilingan va 2008-yil 3-may kuni kuchga kirgan. Konvensiya O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 2009-yil 27-fevral kuni imzolangan va 2021-yil 7-iyunda O‘RQ-695-sonli Qonun bilan ratifikatsiya qilingan edi. Ushbu xalqaro shartnomada bugungi kunda 184 ta davlat ishtiroy etadi. Konvensiya 50 moddadan iborat bo‘lib, unda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va asosiy erkinliklari, jumladan ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalanish, ta’lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, bo‘sh vaqtini o‘tkazish, dam olish va sport bilan shug‘ullanish, yetarlicha turmush sharoitiga ega bo‘lish va ijtimoiy yordam huquqlari e’tirof etilgan va ularni amalga oshirishning huquqiy kafolatlari belgilangan.

“Bola huquqlari to‘g‘risda Konvensiya” - bolalar huquqi to‘grisidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo‘lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to‘la va birinchi hujjat. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda bir ovozdan qabul qilingan. Konvensiya 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi.

Deklaratsiya “Insoniyat o‘zida mavjud bo‘lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur” deb e’lon qilgan edi. Konvensiya esa ushbu Deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlardagi bolalar huquqlari to‘g‘risidagi qonunlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya dunyoning barcha mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, asosiy

maqsadi bolalar manfaatlarini mumkin qadar himoya qilishdan iborat. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat.

Mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2007-yil 23-noyabrda, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risda” qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur qonunning 28 – moddasida nogiron bolalar, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam olishga bo‘lgan huquqi kafolatlari belgilab berilgan. Bunda nogiron bolalar tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega bo‘lib, bu profilaktika, davolash-tashxis qo‘yish, reabilitatsiya, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordamini, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli shartlarda ta’minlanishni va boshqa yordam turlarini o‘z ichiga oladi. Nogiron bolalar davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul tibbiy-ijtimoiy yordam olish va o‘z uylarida parvarish qilinish huquqiga ega. 29 – moddasida esa jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari bo‘yicha ta’lim muassasalarida o‘qish va tarbiyalanish hamda o‘z jismoniy, aqliy qobiliyatları va xohishlariga mos bo‘lgan ta’lim olish huquqiga ega. Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo‘lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va nogiron bolalarning ota-onalari o‘z xohish-istagiga ko‘ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim (umumta’lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega[3].

“Ta’lim to‘g‘risda”gi qonunning 5-moddasida “Jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi” deyilgan. 20 – moddasida esa „Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma – xillagini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilga. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi”. 55-moddasida “Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va mакtabdan tashqari ta’lim olishini ta’milaydi. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etiladi. Ta’lim oluvchilarni ushbu ta’lim muassasalariga yuborish va ularidan chetlatish ota – onasining yoki tibbiy –

psixologik – pedagogik kamissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi” deya belgilab qo‘yilgan.

Respublikamizda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini muhofaza qilish maqsadida 2020-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi senati tomonidan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari tog‘risida”gi qonun m’qullandi . Mazkur Qonunnig maqsadi nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu qonunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash sohasini tartibga solish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotida to‘la huquqli tarzda ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, fuqaroni nogironligi bo‘lgan shaxs deb e’tirof etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya va abilitatsiya qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning sog‘lig‘ini saqlash va ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishi, ushbu shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat qilishi va bandligi o‘z ifodasini topgan.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan shaxslarning turmush darajasini yaxshilash, ularga ko‘rsatilayotgan turli xizmat turlarini ko‘lамини oshirish, ta’lim sifatini yanada oshirishga qaratilgan chora – tadbirlar tizimiga e’tibor qaratilmoqda. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” ishlab chiqildi. Uning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi “ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”dir. Unga ko‘ra uzuksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish,maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish kerakligini nazarda tutadi.

Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganlaridek “Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” deb qoldirgan oltin satrlari har qaysi zamon va makonda o‘z isbotini topmoqda. Shu barobarida imkoniyati cheklangan shaxslarni hayotga moslashishlari uchun biz ham birdek mas’ul bo‘lishimiz kerak. Maktabgacha ta’lim tizimi uzuksiz ta’limning

boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoyini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda yosh avlodga ta’lim-tarbiya ishini erta boshlash maqsadida 2017-yil 30-sentabrda PF-5198-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsdida “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3305 O‘zbekiston Respublikasining Qarori qabul qilindi . Bu qarorga binon Respublikamizda yangi vazirlik “Maktabgacha ta’lim vazirligi” tashkil topdi. Vazirlik tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Maktabgacha ta’lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta’lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta’lim boshqarmalari hamda ularning shahar va tuman bo‘limlari kiritildi. Farmonda qayd etilishicha, so‘nggi 20 yil davomida O‘zbekistonda davlat maktabgacha ta’lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroqqa kamaydi, bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish esa bor-yo‘g‘i 30 foizga yaqinroqni tashkil etgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi talablarga javob bermaydi, deyiladi farmonda. Amaldagi tizimda bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha ishonchli ta’lim modellari, ularni ijtimoiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi rivojlangan davlatlar tajribalariga asoslangan davlat dasturlari mavjud emas. Davlat MTMLarida aksariyat pedagogik kadrlar o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lib, bu bolalarni maktab ta’limini tayyorlashni yetarli darajada ta’minlanmasligiga olib kelmoqda. Yangi vazirlikning asosiy vazifalari bosqichma-bosqich barcha bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish, mamlakatda o‘zaro raqobat qiluvchi davlat va nodavlat MTMLari tarmog‘ini yaratish, amaliyotga maktabgacha ta’lim va bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini joriy etishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, to‘laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o‘sishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog‘lomashtirishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida 2019-yil 13-mayda Vazirlar Mahkamasining „Maktabgacha ta’lim faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori tasdiqlandi[4].

Ushbu qarorga muvofiq “Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va qo‘shma tipdagisi maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida” nizom ishlab chiqlidi. Ushbu Nizom ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining qo‘shma tipdagisi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining

maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlar hamda javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning faoliyati jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning maktabgacha ta’lim olishiga, shuningdek, ularni tarbiyalash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan.

Barcha mamlakatlarda hozirgi kunda inklyuziv ta’lim tushunchasi ommalashmoqda. Buning provardida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishi yotmoqda. Shu sababli 2020-yil 13-oktabr kuni PQ-4860 sonli „Alohidat“ ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori imzolandi. Ushbu farmonga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning joriy holati va mavjud muammolari, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari, konsepsiyanı amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar o‘z aksini topgan.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi - ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalahtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish, inklyuziv ta’lim dasturlari asosida zamonaviy darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini yaratish kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ta’lim va tarbiya jaroyoniga bo‘lgan e’tibor so‘nggi yilar mobaynida yana ham kuchaygan. Shunga muvofiq qonunlar, qarorlar, farmoyishlar qabul qilindi. Yosh avlodni ta’lim-tarbiyalash, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash juda murakkab jarayondir. Bunda defektologlardan yuksak mahorat, kuchli bilim, bolarga bo‘lgan muhabbat sifatlari shakllangan bo‘lishi zarur.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi Ozbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, № 11

2. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Ozbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5712, 29.04.2019

3. <https://www.lex.uz/docs/-1297315> “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risi”da O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘RQ-139. 07.01.2008

4.<https://lex.uz/ru/docs/-4333062> Maktabgacha ta’lim faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 391. 13.05.2019

5. <https://lex.uz/docs/-5044711> Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori.PQ-4860. 13.10.2020

ASQAD MUXTORNING “INSONGA QULLUQ QILADURMEN” HIKOYASIDA SHAXS KONSEPSIYASI

Nazarova F.Sh. – Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yetuk ijodkorlaridan biri Asqad Muxtorning inson konsepsiyasini yaratishdagi badiiy mahorati haqida so‘z yuritiladi. Adibning nasriy asarlarida, shu bilan bir qatorda hikoya janridagi asarlarida ham juda teran falsafiy talqin zamiridagi shaxs talqiniga alohida urg‘u berilgan. Ana shu tushunchalar zamiridagi qarashlar tahliliy yondoshuvlar asosida adib ijodiga tahliliy munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: badiiylik, inson konsepsiysi, talqin, ruhiyat, badiiy konflikt, obraz yaratish, ijodkor olami.

КОНЦЕПЦИЯ ЛИЧНОСТИ В РАССКАЗЕ АСКАДА МУХТАРА “INSONGA QULLUQ QILADURMEN”

**Назарова Ф.Ш. - научный сотрудник Самаркандского
государственного университета**

Аннотация. Один из ведущих писателей узбекской литературы Аскад Мухтор известен своими художественными способностями в создании концепции человека. Прозаические произведения автора, как и его работы в жанре рассказа, подчеркивают трактовку человека, лежащую в основе очень глубокого философского толкования. Взгляды, лежащие в основе этих концепций, выражаются в аналитическом подходе к творчеству писателя.

Ключевые слова: Искусство, концепция человека, интерпретация, психика, художественный конфликт, создание образа, творческий мир.

THE CONCEPT OF PERSONALITY IN THE STORY “INSONGA QULLUQ QILADURMEN” BY ASQAD MUKHTOR

Nazarova F.Sh. - Researcher of Samarkand State University

Annotation. One of the leading writers of Uzbek literature, Askad Mukhtor, is known for his artistic skills in creating the concept of man. The author's prose works, as well as his work in the story genre, emphasize the interpretation of the person at the heart of a very deep philosophical interpretation. The views underlying these concepts are expressed in the analytical approach to the work of the writer on the basis of analytical approaches.

Key words: art, the concept of man, interpretation, psyche, artistic conflict, image creation, the creative world.

Asrlar davomida shakllanib taraqqiy etib kelayayotgan badiiy adabiyot turli davrlarda o‘ziga xos poetik o‘zgarishlarni yuzaga chiqarib kelmoqda. Shu jihatdan XX asrning birinchi yarmida yuksalgan nasriy asarlarning poetik talqinida ham davr va inson konsepsiyasini kuzatish mumkin. Davr muammolari bilan bir qatorda insonning ruhiy ma’naviy olamini, uning xarakter shakllanish jarayonida ijtimoiy muhitning ta’siri yoki inson shaxsidagi ijobiy va salbiy xarakter qirralarining ifodasining talqini yetakchilik qilgan.

O‘zbek adabiyotidagi mavjud janrlar taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘sghan, tarjima asarlari bilan ham shuhrat qozongan yetuk ijodkorlardan biri Asqad Muxtordir. Adibning har bir asari o‘ziga xos badiiy mukammal asarlar qatoridan o‘rin olishining boisi ham, adibning ijodni, uning mashqqatini teran va izchil anglaganligi bilan izohlash mumkin.

Adibning nasriy asarlarida davr va inson muammosining go‘zal talqinlari yetakchilik qilsa, nazmiy asarlarida inson ruhiyatining tuyg‘u va kechinmalarining go‘zal talqinini kuzatish mumkin. Bularning zamirida tinimsiz izlanish va mashaqqatli mehnatni ham, ijod va ijodiy jarayonga muhabbat bilan yondashish deb qarash mumkin. Adibning nasriy asarlarida inson konsepsiyasining qo‘yilishi bejiz emas. Har qanday asarda shaxs xarakter qirralari talqin etilar ekan, uning zamirida makon va zamonda harakat etuvchi inson qismati yetakchilik qiladi.

Adabiyotshunos Hakimjon Karimov qayd qilganidek: “Yozuvchi o‘z g‘oyasini – tendensiyasini aniq bir formulada, qoidada, nazariy fikrda berishi, izohlashi joiz emas, u qarashlarini voqealar zamiriga singdirib yuborishi kerak. Biroq

yozuvchining tendensiyasi bir fikr hamda qarash bilan bilan cheklanmaydi, u ko‘p tarmoqli, hayot kabi keng bo‘ladi. U o‘z qarashlarini, insoniyatga asari orqali aytmoqchi, kishi ongiga singdirmoqchi bo‘lgan fikrlarini faqatgina voqelik orqali emas, balki jamiyatning eng qudratli va go‘zal mavjudoti bo‘lgan inson orqali beradi” [1, 19-b.]. Asosli qayd qilinganidek ijodkor qaysi mavzuda yoki qaysi davrni talqin etishidan qat’iy nazar, inson qismati, uning xarakter qirralari orqali uning qiyofasini aks ettirish bilan bir qatorda davr muammolarini, inson botinidagi ziddiyatlari, ruhiy-ma’naviy borlig‘ini ochib berishga intiladi.

Iste’dodli adib Asqad Muxtorning “Insonga qulluq qiladurmen” hikoyasida tarixiy shaxslar qiyofasi, ularning ruhiy-ma’naviy olami juda go‘zal talqin etilgan. Hikoyaning o‘ziga xosligi, unda tarixiy voqelik talqini ufurib turmasa-da, asar qahramonlarining botiniy olamiga singdirib yuborilganki, bu ham ijodkorning badiiy mahoratidan dalolat beradi.

Yozuvchi talqinlariga e’tibor qarataylik: “Quyosh subh yoqasini chok etib, ko‘k maydonida jilva ko‘rguzgach, Sohibqiron Qur’oni karimni lahv ustiga qo‘ydilar. Kun saraton burjida edi, shiddati beedad. O‘nda sahnida davlatpanohning oq chodirlari shukuh-u as’asa ila charaqlab kunga yuz tutdi” [2, 1-bet]. Talqinlarga nazar tashlar ekanmiz, asar xronotop talqinidan boshlangan. Erta tongdagi vaqt kategoriyasi orqali o‘quvchni diqqatini jalb qilmoqda. Buning zamirida makon va zamonning hamohangligini kuzatamiz. Makon orqali tarixiy hayotni yoki uzoq o‘tmishni qalamga olish baraborida insonni, uning qiyofasini, davrning murakkab ziddiyatlarini talqin uchun asos qilib olgan: “Shu mahal xirgohning ko‘rinishxona yo‘lagida soch-soqoli o‘sinq, darveshona xirqa ustidan kumush fo‘ta bog‘lab, unga esa tug‘ro bezagi taqqan bir kimsa paydo bo‘lib, mangu ko‘zlarini yerdan olmay, shohona ostonaga qarab o‘taverdi. Chodirning davlatxona qanotida Sohibqironga ko‘rinish bermoq uchun muntazir o‘ltirgan kazo-kazo sultanat ustunlari, fuzalo-yu ulamo, sipohsolor-u no‘yonlar, xos-u ra’iyatdan kelgan kalontar-u kadxudolar – biri hayratda, biri g‘azabda, noiloj qarab qoldilar” [2; 1-b.]. Sohibqiron Amir Temurdagi insoniy fazilatlar o‘z davridayoq tarixiy manbalarda asosli qayd etib qoldirilgan. Bu o‘rinda ham, ijodkor Amir Temurning o‘ziga xos fazilatini, insoniylik xususiyatiga ega bo‘lgan shaxslarni ajrata olishi, ular bilan muloqot qilishi, fikr almashishi bejiz emas edi. Ana shundagina xalqning hayoti, ularning turmush darajasi, insoniy fazilatları, dushmanning maqsadini ham anglashga harakat qiladi. Natijada, haq va haqsizlikni,adolat va adolatsizlikni o‘z xayollarida anglashga harakat qiladi. Raiyatning turmushi, uning o‘ziga xos hayoti, ulardagagi mavjud harakatlarning yuzaga chiqish sabablarini anglashga intilardi. Bu esa Amir Temurning hayotdagi o‘rnini, sultanatdagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilar edi. Darvesh bilan Amir Temur uzoq suhbatlashdi, Iso alayhissalomning dunyoga kelishi, davr hukumdarlarining fojalari, qirg‘inlari haqidagi afsonaviy xarakterdagi hikoyatlarni

tinglar ekan: “- Bas qil, mug‘anniy... – dedilar Sohibqiron. – Fahmladikkim bizning go‘dakligimiz afsonalarig‘a shama qilursen” [2; 2-b.]. “Devona” bilan suhbatlashar ekan, qalb qaridagi istaklari, orzu armonlari xayolan ko‘z o‘ngidan birma-bir o‘tdi. Hayotning murakkabliklarini, kurashlarning zamiridagi adolat-uadolatsizliklarni yana-da, teranroq anglashga intilganligini his etamiz. Devona bilan suhbatlashar ekan, hayotning naqadar murakkabligini, aksincha, inson xarakterining ham murakkabligini yanada teranroq anglay boshlaydi. Albatta, ijodkor bu o‘rinlarda, Amir Temurning ruhiyati bilan bir qatorda insoniy fazilatlar egasi ekanligiga urg‘u bergen. U atrofidagilar yoki saroy a’yonlarining qutqusiga uchmasligini, adolat va haqiqatni qaror topishiga ishonishini kuzatamiz. Chunki Amir Temurdek buyuk siymo Devonaning gaplaridan hayot haqiqatini teranroq anglar edi: “Baribir el, amir Temur Olloh taoloning barguzidasidur, derlar. Zero, Zuhal ila Mushtariy burjida tavallud topibsenkim, Olloh toborak eru ko‘kni shul soatda yaratmishdir. Nujumotning bu holati har sakkiz yuzlikda bir kelurkim, alarning chehrasida nuri ilohiy zuhur o‘lnay. Avvalo Iskandari Zulqarnayn, andin so‘ngra Muhammad alahissalotu vassalam va dag‘i sen, qiblagoh... – Abas bu, nag‘masoz! Hisobda g‘alat ketding. Avvalo Iskandari sohibqiron kalimai shahodatdin bexabar mushriktur, bizning qatorimizdan emas”. Anglashilmoqdaki, Sohibqiron Amir Temur o‘zini oddiy insonlar qatorida ko‘rishni istaydi. Maqtovlardan ko‘klarga ko‘tarilgan emas. Uning qalbining qaerlaridadir, hayotiy haqiqatning yuzaga chiqarish naqadar murakkabligini his etib turadi. Undagi insoniylikning zamirida ham adolatsizlikka qarshi kurashishi, u oddiy darvesh bo‘lsin, haq so‘zini tan olar, to‘g‘ri so‘zlagani uchun ham jazolardan ozod etilardi. Buning zamirida hukumdorlik bilan bir qatorda, el-ulusni, raiyatni shu yo‘lga boshlashi, haqiqat uchun kurashlarda toblanishini ko‘ramiz. Devonaning har bir so‘zini tinglar va o‘zicha xulosalar chiqarishga intilar ekan: “- Ha... olam sehrlidur. Sohibqiron. Uning tarixi sening jangu jadallaringdangina iborat emas. Anda ruhiyat, fusunkor afsonayu ilohiy hikmatlar...” mavjudligini qayd qilganda dahshatga tushmaydi. Oddiy suhbatdosh kabi tinglaydi. Bu esa uning qalbidagi iztiroblarni qayta jonlanishiga sabab bo‘ladi.

Ijodkorning badiiy mahorati ham, Amir Temurning buyuk hukumdorligidan ko‘ra uning insoniy fazilatlari talqiniga alohida diqqat qilganligi bilan izohlash mumkin. Shuning uchun ham, adabiyotshunos Sanjar Sodiqov shunday yozadi: “Asqad Muxtor bilimdon va chuqr o‘ylaydigan yozuvchi edi. Shuning uchun u o‘z asarlarida umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlashga, ya’ni mafkura qoliqlarini jinday bo‘lsa-da yorib chiqishga uringan”[3; 506-507-b.]. Haqli ravishda ta’kidlanganidek, Asqad Muxtor o‘z davridayoq, murakkab jamiyatning mafkuraviy tayziqlarini, belgilangan qoliqlarini chetlab o‘tishga intilganligini yaratgan asarlaridagi talqinlar bilan izohlash mumkin. Adibning “Chinor” romanidagi polifonik talqinlar zamiridagi ramziy ma’no ifodasi bilan ham asoslash mumkin. Adibning turfa xil janrdagi asarlari

zamirida insonni anglash, uning turfa xil muhitdagi xarakter qirralarining ifodasini kuzatish mumkin. Biz tahlilga tortgan hikoya zamiridagi shaxs konsepsiyasining o‘ziga xos talqinlarida inson qismati, uning ruhiy-ma’naviy olami ifodasi yetakchilik qiladi.

Sohibqiron Amir Temurning Devona bilan suhbatlashar ekan, uning qalbidagi istiroblari yuzaga chiqa boshlaganligini his etadi. Ammo Devonaga gap uqtirsa-da, uning so‘zlariga juda asosli javob berar, har bir bayon qilgan fikrini isbotlab berar edi. Uning notiqligidan emas, odam va olamni teran anglaganligi unga nisbatan hurmatini oshishiga sabab bo‘ladi. Sohibqiron anglaydiki, haqiqat barcha narsadan ustun, unga qarshi borib bo‘lmasligini his etadi. “– Ha... Olam sehrlidur. Sohibqiron. Uning tarixi sening jang-u jadallardangina iborat emas. Anda ruhiyat, fusunkor afsonay-yu, ilohiy hikmatlar... – Sening tungi navolaring... – Ore, bari omuxtadurkim...” Bu mulohazalarning asosida sohibqiron Amir Temurning yetuk insoniy fazilati bilan bir qatorda, odam va olamni anglashga bo‘lgan intilishini kuzatamiz. Axir, Sohibqironning bir Devona bilan shubatlashishidan mani nedur, – deya, savol berguvchilar ham mavjud edi. Ammo Sohibqiron uning darveshona kiyinishidan emas, aksinch, mulohazalarida olam-olam ma’no borligi uchun u bilan suhbatlashar, mulohazaga kirishardi. Adib bu kabi talqinlar orqali insoniylikni ulug‘lashga, insonning qadri uning ilmi bilan, mulohazalari bilan namoyon bo‘lishiga urg‘u beradi.

Turk olimi Ismoyil Aka o‘zining “Buyuk Temur davlati” nomli asarida Sohibqironning o‘z davrining o‘ta bilmlı, fidoiy inson, meribon ota, buyuk millatparvar shaxs ekanligini ta’kidlab shunday yozadi: “mutlaq hokimiyat tushunchasida bo‘lgan Temur qurultoy bilan ish yuritishga ahamiyat bermagan. U bir ishni qilishni istarkan, o‘zini haqli ko‘rsata bilmoq uchun Qur’oni Karimdan oyatlar keltirib, o‘z ishining to‘g‘riligini isbotlar edi. Shundayin bir hukumdar bilan suhbatda ulamoning doim diqqatli, hushyor turishi zarur edi” [4, 111-b.], – deb qayd qilib o‘tishida ham, tarixiy asoslar mavjudligini ta’kidlamoqchimiz. Tahlillar davomida bunday qarashlarni keltirishimizga asosiy sabab, Sohibqiron Amir Temurning o‘z davrida ulamolar, buyuk ma’rifatparvarlar, zamonasining etuk insonlariga juda katta hurmat bilan qaraganligini qayd etib o‘tmochimiz. Yozuvchi Asqad Muxtor talqinidagi Devona obrazida ham, ma’lum ma’noda tarixiy haqiqat mavjuddir. Adibning bu hikoyasida davr va inson muammosiga yondoshishida o‘ziga xos badiiy mahorati namoyon bo‘lgan. Ijodkorning nuqtayi nazari asosida badiiy qahramonning o‘ziga xos betakror xarakter qirralari falsafiy talqinlar zamirida o‘z ifodasini topgan.

Adabiyotlar

1.Karimov H. Kechagi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiysi (70-80-yillar). Monografiya. – Toshkent, “Yangi nashr”, 2018. – 320 b.

2. Asqad Muxtor. Insonga qulluq qiladurmen. Hikoyalar. www.ziyouz.com. kutubxonasi.
3. Sodiq Sanjar. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. – Toshkent, O‘qituvchi, 2019. – 720 b.
4. Ismoyil Aka. Buyuk Temur davlati (Tohir Qahhor tarjimasi). – Toshkent, “Cho‘lpon” ., 2018.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Абдуллаева Н.М.- преподаватель Ташкентского государственного
педагогического университета
доктор философии по педагогике (PhD)**

Аннотация. В данной статье говорится о межпредметной и внутрипредметной интеграции, ее эффективной системы усвоения и путях углубления межпредметных связей в целях повышения эффективности образования.

Ключевые слова: внутрипредметная интеграция, межпредметная интеграция, эффективность образования, проблемы интеграции, креативное мышление.

BOSHLANG‘ICH SINFDA INTEGRATSIYALANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

**Abdullaeva N.M. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,
Pedagogika fanlari doktori (PhD)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada fanlararo integratsiya, uning samarali assimilyatsiya tizimi va ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish yo‘llari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: subyektlararo integratsiya, subyektlararo integratsiya, ta’lim samaradorligi, integratsiya muammolari, ijodiy fikrlash.

FEATURES OF THE ORGANIZATION OF INTEGRATED LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL

**Abdullaeva N.M. – teacher Tashkent State Pedagogical University
Doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences**

Annotatsion. This article talks about intersubject integration, its effective system of assimilation and ways to deepen intersubject communications in order to increase the effectiveness of education.

Key words: intersubject integration, effective system of assimilation, effectiveness of education, problem of integration,creativity

В повышении эффективности обучения в начальных классах, воспитательной значимости учебных предметов наряду с другими методическими приёмами большое значение имеет использование межпредметных связей.

Понятие "межпредметные связи" в научно-методической литературе характеризуется по-разному. В "Педагогической энциклопедии" оно определяется как взаимная согласованность учебных программ по различным предметам[2]. Межпредметные связи учитывают общее между предметами, как в содержании, так и в учебно-воспитательном процессе. Систематическое и целенаправленное осуществление межпредметных связей позволяет перестраивать весь процесс обучения, то есть они выступают как современные принципы, которые ведут к интеграции (объединению, слиянию в известных пределах в одном учебном предмете обобщенных знаний той или иной области). Под интеграцией понимается сближение и связи наук, составление отдельной системы в единое целое[3] .

Проблема интеграции по-прежнему остается актуальной в современном образовании. Системный подход является основой интеграции знаний. Понятия "система" и "интеграция" близки.

Интеграция – объединение в целое каких-либо элементов. Применительно к системе обучения интеграция предполагает создание у школьника целостного представления об окружающем мире[4].

Современные науки, в том числе и педагогика, отличаются несовершенством терминологического аппарата. То же самое относится и к понятию "интеграция", которое исследователи практикуют неоднозначно. С одной стороны, считают, что это процесс объединения каких-либо частей в целое, но с другой стороны, отличается многообразные пути достижения интеграции многообразны[5] .

Окружающий мир предстает перед нами как единое целое. При его изучении необходимо знать его компоненты, определяющие структуру и связи между ними. Использование интеграции знаний в образовании позволяет выделять компоненты содержания образования, соответствующие целостным представлениям о явлениях и процессах, происходящих в окружающей среде. Интеграция в обучении проявляется в том, что суммарное воздействие

образовательных компонентов на обучающихся во много раз активнее и предпочтительней, чем влияние каждого из них отдельно, что обеспечивает позитивный результат обучения[6].

Частным случаем проблемы интеграции выступают интегрированные уроки, призванные обеспечить единый подход учителей определенных учебных предметов к решению общих учебно-воспитательных задач на основе обобщения .

Это позволяет решать существующие в предметной системе противоречия между разрозненным усвоением знаний учащихся по предметам и необходимостью их комплексного применения на практике, в трудовой деятельности и жизни человека.

Идея интеграции образования все настойчивее заявляет о себе и заставляет педагогов искать эффективные пути ее реализации. На сегодняшний день обозначился ряд различных подходов и направлений в данной области: интеграция через поиск межпредметных связей; тематическое планирование по принципу одновременного прохождения сходных тем в разных учебных дисциплинах; разработка новых учебных курсов, соединяющих в себе информацию из разных предметов. Все это свидетельствует о необычной актуальности самой проблемы интеграции.

Предметная система обучения в школе ориентирует учащихся на дифференцированное усвоение знаний из различных областей. Потоки информации и ее объемы так велики, что становится трудно своевременно и качественно отслеживать необходимую информацию по любому из направлений научного знания. Большая часть информации остается невостребованной.

В связи с этим важно показать пути получения знаний через интеграцию. Это позволит обучаемым самостоятельно оперировать необходимыми в жизни знаниями и консолидировать содержание учебного материала в целое для разрешения проблемной ситуации.

Системный подход в педагогике обеспечивает рассмотрение школьного образования как открытой системы, функционирующей по законам систем. Интеграция знаний может выступить одним из путей мобильности и вариативности содержания образования[7] .

При организации интегрированного обучения появляется возможность показать мир во всем его многообразии с привлечением из знаний разных отраслей: литературы, музыки, живописи, что способствует эмоциональному развитию личности ребенка и формированию его творческого мышления. Методика интегрированного урока обеспечивает деятельность учителя и ученика на уровне субъектных отношений, в результате которых возникают

возможности для совместного творчества и саморазвития участников образовательного процесса[1].

Перестройка процесса обучения на основе осуществляемых межпредметных связей сказывается на его результативности: знания приобретают качества системности, умения становятся обобщенными, комплексными, усиливается мировоззренческая направленность познавательных интересов учащихся, более эффективно формируется их убежденность и достигается всестороннее развитие личности .

В целях обеспечения внутренней динамики интеграции определены дидактические особенности интегрированных технологий (ориентация на учащегося, управление познавательной деятельностью, концентрация внимания, сотрудничество, творчество) и тематика учебных предметов, базовые понятия и знания, умения и навыки обучающихся, цели обучения (образовательные, воспитательные, развивающие), направленные на повышение эффективности начального образования;

уточнены критерии оценки эффективности начального образования посредством интегрированного обучения (разработка базовых концепций от простого к сложному, использование проблемных ситуаций и адаптивных методов, представление компактных, всеобъемлющих наборов данных) при использовании вертикальной и горизонтальной интеграции родного языка, математики и естественных наук;

совершенствована методическая составляющая дидактической модели организации интегрированных процессов обучения в начальном образовании в соответствии с интенсивностью обратной связи (подготовка, проектирование, реализация, итоговая) интеграции (адаптивная, практическая, обобщенная, рефлексивная);

совершенствованы методические приемы использования интегрированной технологии обучения во внеклассном чтении (преемственность, постепенная реализация, целостность, результативность) посредством простых понятий, навыков и умений, приобретенных в 1-2 классах и проектирования интеграционной карты в целях развития творческих представлений в 3-4 классах.

В Международной стандартной классификации образования начальное образование выделяется как наиболее важный этап непрерывного образования, и этот факт ставит перед педагогами задачу освоения интегрированной системы обучения.

Во всем мире проводятся научные исследования по использованию интегративной педагогики для повышения качества и эффективности начального образования, реализации комплексного подхода к интеграции

учебных процессов. Особую важность приобретает содержание начального образования за счет использования внутрипредметной, межпредметной и транспредметной интеграции, а также внедрения модульной интеграции при систематизации учебных материалов по принципу концентрации. В этом процессе важно выбрать модель обучения, определить типы коммуникации, разработать информационные и управленческие системы, спланировать деятельность учащихся, разработать комплексные уроки, основанные на рациональном выборе форм, методов и средств обучения.

В нашей республике проводятся широкомасштабные реформы, направленных на повышение качества образования и профессиональной подготовки, в частности, на повышение конкурентоспособности будущих учителей начальных классов, а также на усиление комплексной учебно-методической поддержки начального образования. В то же время существует острая необходимость в уточнении механизмов методики использования интегрированных образовательных технологий и улучшения педагогических условий для организации и проведения интегрированных уроков. Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определяет такие важные задачи, как «Поддержка и реализация творческого и интеллектуального потенциала молодого поколения, формирование здорового образа жизни среди детей и молодежи, широкое вовлечение их в физическую культуру и спорт»[8]. Это требует уточнения содержания, дидактических и методических требований, а также организационных форм использования интегрированных технологий обучения в целях повышения эффективности начального образования.

Общество постоянно нуждается в людях высокообразованных, творческих, инициативных, способных мыслить по-новому, умеющих принять самостоятельные нестандартные решения. И школа, воспитывая, обучая должна отвечать требованиям времени[9].

В Концепции развития системы образования Республики Узбекистан указано, что образование является главным средством сохранения и трансляции культуры будущим поколениям. Через образование человек удовлетворяет личностные потребности в самообразовании .

В настоящее время перед общеобразовательной школой поставлена серьезная задача улучшения качества обучения и воспитания учащихся. Решающее значение в развитии ребенка принадлежит на занятиях, способствующих обучению усвоению знаний, формированию умений и навыков, предусмотренных программой обучения в начальной школе[10] .

В начальной школе, как известно закладывается фундамент для последующих этапов образования. Перед начальной школой стоят предельно точные образовательные цели и задачи: заложить основы всестороннего

развития детей, обеспечить формирование прочных навыков беглого, осознанного, выразительного чтения, счета, грамотного письма, развитой речи, культуры поведения. Эти требования определяют важность формирования у учащихся навыков рациональной организации учебного труда, учебных навыков, которые в совокупности обеспечивают надежное основание для последующей учебно-познавательной деятельности школьников, способствуют приобретению глубоких и прочных знаний[11].

Проблемы межпредметных связей и организации интеграционного обучения стали предметом научных исследований таких ученых Узбекистана как, Р.А.Мавлонова, Р.Сафарова, Э.Турдикулов, М.Мирқосимова, А.Мусурмонов, П.Мусаев, А.Ч.Чориев, Х.А.Абдурахмонова, Р.Бурхонов, Т.Нуридинов, Т.Даянаева, А.Саломов, Я.Хайдаров, Б.Хусанов, М.Аширова, Ш.Юсупова. В исследованиях этих ученых изучались различные аспекты и принципы межпредметных связей, их применение при изучении определенных дисциплин и требования к содержанию образования на основе междисциплинарных подходов с научно-практической точки зрения.

Ученые изучили вопросы повышения эффективности занятий в начальных классах по родному (русскому) языку и вопросы организации совместной деятельности по пониманию и усвоению грамматических понятий, а также исследованы преимущества и возможности использования интегрированных технологий в обучении. Они посвящены различным аспектам подготовки учителей, включая подготовку к инновационной и педагогической деятельности, доступ к информационным и коммуникационным технологиям в образовании, создание интегрированной среды.

За последнее время усилилось внимание к двум взаимосвязанным тенденциям школьного обучения – дифференциации и интеграции.

Продолжительное время школьник получал знания в основном посредством изучения дифференцированных учебных курсов. Однако очень часто у одного ребенка школьные знания так и остаются разрозненными сведениями, искусственно расчленившимися по предметному признаку. В результате этого ученик не воспринимает целостно ни учебный материал, ни тем более картину окружающего мира.

Потребность преодолеть указанное противоречие привела педагогическую общественность к активному поиску межпредметных связей, к попыткам их использования в дифференциированном обучении.

Интеграция и дифференциация – это взаимо обратные процессы. Они взаимодополняют диалектически равновесное состояние целостной системы любого уровня. Именно поэтому в идеале на всех ступенях образования нужно

стремиться к созданию системы, оптимально сочетающей идеи интеграции и дифференциации.

В начальной школе роль интегрирующего звена осуществляют сам учитель, который обучает детей всему: и арифметике, и грамоте, и начальному пониманию природы, и многому-многому другому.

Различные способы осуществления интеграции не могут быть абстрактно хорошими или плохими. Суть проблемы заключается в том, чтобы не отвергать один из них и применять другой, а ввести систему интеграционных мер с учетом возрастных (физиологических и психологических) особенностей учащихся всех уровней образования. Такая постановка проблемы, как кажется, должна удовлетворить признанному многими факту, что интеграция на разных ступенях обучения имеет свои особенности[12].

В чем же заключается суть интеграции в обучении? Применительно к системе обучения можно выделить два значения понятия “интеграция”: во-первых, это создание у школьника целостного представления об окружающем мире (здесь интеграция рассматривается как цель обучения); во-вторых, это нахождение общей платформы сближения предметных знаний (здесь интеграция – средство обучения).

Интеграция как цель обучения должна дать ученику те знания, которые отражают связанность отдельных частей мира как системы, научить ребенка с первых шагов обучения представлять мир как единое целое, в котором все элементы взаимосвязаны. Реализация этой цели может начаться уже в начальной школе. Интеграция- также средство получения новых представлений на стыке традиционных предметных знаний. В первую очередь, она призвана заполнить незнание на стыке уже имеющихся дифференцированных знаний, установить существующие связи между ними. Она направлена на развитие эрудиции обучающегося, на обновление существующей узкой специализации в обучении." В то же время интеграция не должна заменить обучение классическим учебным предметам, она должна лишь соединить получаемые знания в единую систему.

Сложность проблемы заключается в динамическом развитии интеграции от начала к концу обучения. Если в начале наиболее целесообразно усвоить “немного обо всем”, затем необходим синтез разрозненных знаний и умений, то к концу обучения необходимо знать “все о немногом”, т. е. это уже специализация, хотя и на новом, интеграционном уровне.

Анализ литературы показал, что на сегодняшний день ни в одном педагогическом словаре, педагогической энциклопедии или справочнике нет сформулированного определения понятия “интеграция”, хотя в педагогической,

методической литературе широко используется очень большое количество терминов, связанных с корнем слова “интеграция”, например: интегрированные и интегративные курсы, интегрированное обучение, интегрированный урок и т.п.

Литература

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. На пути к открытию мира / Е.Б. Евладова, Т.Н. Петракова, А.Ю. Пентин, Ю.В. Чечеткин // Нач. школа.- 1991.- №6.- С.82-86.
3. Шабалина З. // На пути обновления начальной школы // Нач. школа. – 1989. - №7. – С. 78-79.
4. Педагогическая энциклопедия. -Педагогика, 1966.- 1560 с.
5. Светловская Н.Н. О деятельностном подходе в обучении или о том, чему и как учить младших школьников. // Нач. школа. – 1990.-№9.-С.2-5
6. Шалова Г.И. Активизация учения школьников. – М.: Педагогика, 1982.-С.211.
7. Зверев И.Д. Интеграция межпредметных связей в общем и региональном экологическом образовании. // Региональные системы экологического образования/ Под ред. Л.П. Симоновой, А.Н. Захлебного, Н.В. Скалона. -М., Тобол.- 1998.- С. 144.
8. Ильенко Л.П. Опыт интегрированного обучения в начальных классах// Нач. школа.-1988.-№9.-С.31-38.
9. Шаталова Е.В. Использование малых форм фольклора в обучении математики // Начальная школа. – 1998. – № 1.
10. Максимова В.Н. Межпредметные связи в учебном процессе, его совершенствование. – М.: Просвещение, 1984.- 155с.
11. Шаталова Е.В. Использование малых форм фольклора в обучении математики // Начальная школа. – 1998. – № 1.
12. Семья Ф.Ф. Взаимосвязь уроков математики и природоведения // начальная школа – 1987. – № 12.

**O‘ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI
KURASHNING KUCHAYISHIDA YER-SUV ISLOHOTINING TA’SIRI
(1925-1929-yillar)**

**Boboev F.S. – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti doktaranti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yer-suv islohotining amalga oshirilishi va unga aholi turli qatlaming munosabati tahlil qilindi. Shuningdek, shu davrda respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda ularning sovet hokimiyatiga qarshi kurashning kuchayishiga ko'rsatgan ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: yer-suv islohoti, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, Turkiston fronti, sovet hokimiyati, bolshevik, qo'rboshi, qurolli harakat.

**ВЛИЯНИЕ ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНОЙ РЕФОРМЫ В УСИЛЕНИИ
БОРЬБЫ ПРОТИВ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ
(1925-1929 гг.)**

**Бобоев Ф.С. – докторант Института истории Академии наук
Узбекистана, доктор философии по историческим наукам (PhD)**

Аннотация. В данной статье проанализировано проведение земельно-водной реформы в Узбекистане и отношение к ней различных слоев населения. Также изучены социально-экономические процессы в республике и их влияние на усиление борьбы против советской власти в этот период.

Ключевые слова: земельно-водная реформа, социально-экономические процессы, Туркестанский фронт, Советская власть, большевик, курбashi, вооруженное движение.

**THE IMPACT OF THE LAND AND WATER REFORM IN
STRENGTHENING THE STRUGGLE AGAINST THE SOVIET
GOVERNMENT IN UZBEKISTAN
(1925-1929)**

Boboev F.S. – doctoral student at the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in historical sciences

Annotation. This article analyzes the implementation of land and water reform in Uzbekistan and the attitude of various segments of the population to it. Also, the socio-economic processes in the republic and their impact on the strengthening of the struggle against the Soviet government during this period were studied.

Key words: land and water reform, socio-economic processes, Turkestan front, soviet power, bolshevik, kurbashi, armed movement.

Insoniyat har doim hayotda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni tezda qabul qilmagan yoki unga insoniyatning moslashuvi biroz qiyin

kechgan. Jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar insonlar ongida har xil talqinda yetib borgan. Bu har bir tarixiy davrda namoyon bo‘ladigan jarayondir. Xuddi shu singari Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyati o‘rnatilgach esa jamiyat hayotida ham katta o‘zgarishlar amaliyotga tatbiq etildi. Buni ham mahalliy aholi orasida qabul qilish xilma-xil kechdi. O‘z navbatida bu o‘zgarishlar ham mahalliy aholi ongiga majburan singdirildi. Bolsheviklarning yuritgan siyosatidan norozi bo‘lgan aholi ularga turli usullarda qarshilik ko‘rsatdi. Mazkur noroziliklar hatto qurolli kurashga aylanib ketishgacha bordi. Bolsheviklarning g‘oyalarni qabul qilmagan aholi vakillari o‘z e’tiqodidan voz kechmadi va unga sodiq qoldi. Lekin mahalliy aholi vakillarining milliylik, uzoq yillik urf-odatlar, asriy an’analar, yer egaligi uchun kurashi va eng asosiysi o‘z e’tiqodiga sadoqatliligi juda qimmatga tushdi. Biroq bolsheviklar targ‘ib qilgan g‘oyalarga ergashgan, hatto uning ishtirokchisiga aylangan kishilar ham bor edi. Sovet hokimiyati o‘zining yangi tartib qoidalarini joriy etishda va mahalliy aholini o‘z tomoniga og‘dirib olishda asosan kuchli targ‘ibot va tashviqot ishlari hamda zo‘ravonlik siyosati orqali erishdi.

Tarixiy jarayonlardan ma’lumki, turli millat va elatlar hamda davlatlar o‘rtasida yer-suv masalasi kurashning asosiy kulminatsiyalaridan biri sanalgan. Bundan farqli ravishda Bolsheviklarning agrar reformalari ham davlat va xalqlar o‘rtasida kurashni keltirib chiqargan omillardan biridir. Chunki insoniyatning hayot tarzi qadimdan bevosita yer va suv munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson o‘zinig hayotini suvsiz tasavvur qila olmaganidek, yerga ham shunchalik bog‘lanib qolgan. Yer bu – hayot uchun barcha zaruriy ne’matlarni beradigan, insonni yashashini va turmush tarzini davomiyligini ta’minlaydigan asosiy vosita edi. Shuning uchun ham yer va suv masalasida kurashlar qadimda, hozir va kelajakda ham davom etib keladi. Bunga dunyoning bugungi kundagi siyosiy manzarasi ham guvohlik beradi. Shuningdek, siyosatchilarning taxminlaricha, kelajakda suv muammosi uchinchi jahon urushini keltirib chiqarishi mumkinligini ilgari surilmoqda.

O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosatining amalga oshirilishi O‘zbekiston SSRdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning kuchayishiga olib keldi. O‘rta Osiyo respublikalaridagi barcha jarayonlar Markazdan boshqarilib, ulardagи mavjud vaziyat hamisha ham hisobga olinmas edi. Shu kabi salbiy holatlar ko‘p hollarda sovet hokimiyatiga qarshi kurashning kuchayishiga sabab bo‘lib keldi. Shunday omillardan biri bu – 1925-1929-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohoti edi. Agrar islohotlar amalga oshirilgunga qadar ham O‘rta Osiyoda yer va suv masalasida milliy nizolar ko‘p uchrab turgan. Masalan, yevropaliklar bilan mahalliy xalqlar o‘rtasida, tub joy xalqlarining bir-birlari bilan hamda turli urug‘lar orasida bu jarayon kuzatiladi[1].

Biroq sovet hokimiyati yer-suv islohotini boshlashi bilanoq bu jarayon boshqacha tus oldi. Birinchidan, ilgari turli xalqlar, elatlar va urug‘lar o‘rtasida mavjud bo‘lgan kurash endi ularning birlashuvi asosida bolsheviklar hokimiyatiga qarshi qaratildi. Ikkinchidan esa, turli ijtimoiy guruhlari (boylar va kambag‘allar) o‘rtasida ziddiyatni keltirib chiqardi. Shunday qilib, jamiyatdagi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar natijasida sovet hokimiyatiga qarshi norozilik yuzaga keldi va qo‘zg‘olonga aylandi. Bu kurash keng ko‘lamda, namoyish, qo‘zg‘olon va qurolli harakat shaklida namoyon bo‘ladi. Noroziliklarni qurolli harakat shaklida tus olishi bolsheviklarning barcha harbiy kuchlarini va jazo organlarining faoliyatini kuchaytirishga majbur qildi. Asosan harbiy kuch va kuchaytirilgan jazo mexanizmi orqali aholining noroziliklari bostirib borildi.

Yer-suv islohoti yillarda sovet hokimiyatiga qarshi norozilik harakatlarini kuchayishida ma’lum darajada O‘rta Osiyo rayonlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning og‘irligi ham ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, 1925-1926-yillarda O‘zbekiston SSRning Surxondaryo, Qashqadaryo vohasi va Tojikiston ASSRda(Tojikiston ASSR – 1929-yil oktabrga qadar O‘zbekiston SSR tarkibida bo‘lgan) qurg‘oqchilik va hosilsizlik natijasida aholi orasida ochlik va non tanqisligi kuchaydi[2]. Ushbu hududlarda aynan shu yillarda sovet hokimiyatiga qarshi kurash kuchli davom etayotgan edi. Turkiston fronti qo‘mondon Avksentevskiy 1926-yil 16-fevraldagagi harbiy-siyosiy kengashda vaziyatning murakkablashib borishida joylardagi ochlik muammosi katta ta’sir ko‘rsatayotganligi hamda ayni paytda Surxondaryo va Tojikiston ASSRning barcha rayonlarida ochlik kengayib borayotganligi, oxirgi paytda esa 300 kishining ochlikdan o‘lganligini qayd etadi[3].

Chunki sovet hokimiyatiga qarshi kurashning eng kuchaygan davrda iqtisodiy va ijtimoiy ahvol tahlil qilinsa, o‘sha joyda vaziyatning juda keskin holatda ekanligi kuzatiladi. Ya’ni, aholini og‘ir turmush tarzi ularning bolsheviklar targ‘ib qilgan yangi jamiyatga ishonishi va ko‘nikishi qiyin kechdi. Chunki mahalliy aholi kutgan ijobiy o‘zgarishlar amalga oshish o‘rniga vaziyat yanada keskinlasha bordi. Buning natijasida esa kurash ko‘لامи yanada kengaya bordi. Sovet harbiylari aholining og‘ir ahvolini yaxshilamasdan, ularga hukumatning iqtisodiy ko‘magini kengaytmasdan qurolli harakatni bostira olishmasligini yaxshi anglagan. Hamda bu masalada ular o‘zlarining bir necha yig‘ilishlarida aholiga iqtisodiy yordam berish taklifini ilgari surgan. Faqatgina harbiy bosim va kuchaytirilgan jazo choralarini orqali sovet hokimiyatiga qarshi kurashni butunlay barham berib bo‘lmashdi. Turkiston fronti qo‘mondoni Avksentevskiy 1926-yil 16-fevralda qizil armiyaning faoliyatini tahlil qilib Tojikiston ASSRda qariyb 6-7 yil mobaynida arzirli natijaga erisha olmaganligini ta’kidlagan edi[4].

Shunday muammolar mavjud bo‘lgan bir paytda sovet hokimiyati tomonidan 1926-yilda yer-suv islohotining boshlanishi qurolli harakat ko‘lamining yanada

kuchayishiga ta'sir ko'rsatdi. Bunday kurashdan albatta yerlari davlat hisobiga musodara qilinadigan barcha ijtimoiy guruhlar manfaatdor edi. Shuning uchun ham yeridan ajralishni istamagan va bu siyosatning qurbaniga aylangan ko'plab aholi vakillari sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatga ishtirok etdi. Bu esa o'z navbatida kurash ko'laming yana ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Tojikiston ASSRda Ibrohimbek rahbarligida bu holat 1926-yilning iyun oyida avj oldi[6]. Biroq uning muhojirlikka ketishga majbur qilinishi vaziyatni tubdan o'zgartirdi, Tojikiston ASSRdagagi kurash deyarli to'xtadi. Agar bolsheviklar Ibrohimbekning qarshiliginini sindirmasa agrar islohotlarni amalga oshirishda ancha murakkabliklarga duch kelishini yaxshi anglar edi. Shuningdek, yer-suv islohotidagi muhim yana bir jihat shuki, ortiqcha yerlar garchi yersiz va kambag'al dehqonlarga bo'lib beriladi, deb hukumat o'zining qarorlarida belgilasa-da, biroq aholining bir qismi esa birovdan tortib olingan yerlarni olishdan bosh tortgan holatlar kuzatiladi. Aynan shunday jarayon O'zbekiston SSR (Farg'ona, Samarqand, Zarafshon oblastlarida) va Turkmaniston SSRda ko'p qayd etiladi[6]. Misol uchun, Samarqand uezdining Oqtosh qishlog'i kambag'allari qishloq yig'inida "begonaning yeridan foydalangandan ko'ra ochlikdan o'lganimiz afzal", degan edilar[7]. Sovet hokimiyatining bu reformalarini tub joy aholi vakillari qabul qilishi qiyin kechdi. Birinchidan, shu davrdagi vaziyatdan kelib chiqilsa, aholi orasida islom dini va shariat qonun-qoidalalarining ustunligi, shuningdek, birovdan tortib olingan yerlarni olishni va undan foydalanishni aholi andesha qilib o'ziga loyiq ko'rмаган. Ikkinchidan esa, o'zining mol-mulkidan mahrum bo'lishni istamagan boy va aholining o'ziga to'q qismi sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibotni kuchaytirgan. Bu ikki holat birlashgan holatda, asrlar mobaynida shakllangan yer egaligining tugatilishiga qaratilgan bolsheviklarning siyosatiga qarshi kurashni kuchaytirdi.

Shuningdek, 1926-yilda O'zbekiston SSR Sovetlari MIK Jinoyat kodeksining 80-moddasiga qo'shimcha kiritdi, unda yer maydonini yashirgan yoki qishloq xo'jalik asboblari soni haqida noto'g'ri ma'lumot bergenlik uchun 3 yilgacha muddat bilan ozodlikdan mahrum etilib, mol-mulki musodara qilinishi nazarda tutilgan edi. Bu qishloq aholisining juda keng qatlamlari orasida, hatto dehqonlarning eng kambag'al qismlari orasida qoralandi[8]. Bu jarayonda ayniqsa diniy ulamolar ham faol targ'ibot ishlarini olib bordi. Ularning targ'ibotlari aholining Bolsheviklar siyosatiga qarshi norozilik kayfiyatini oshirdi. Chunki ular ham jamiyatdagi o'z mavqeini saqlab qolishga harakat qilar edi. Ularning aholini kurashga chorlovlari bevosita qurolli guruhlarning saflarini kengayishiga, bu esa kurash dinamikasining ko'tarilishiga olib keldi.

Yer-suv islohoti O'zbekiston SSRning barcha oblastlarida bir paytning o'zida amalga oshirilmay, turli yillarda o'tkazildi. Dastlab 1925-1926-yillarda Tojikiston

ASSRda, 1927-yildan Zarafshon, 1928-1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm oblastlarida o'tkazild[9].

Zarafshon oblastida mazkur siyosat katta noroziliklarga sabab bo'ldi. Doimiy ravishda reformani bekor qilishni talab qilgan qo'zg'olonlar bo'ldi. 1926-yilning oktyabr va noyabr oylarida Zarafshon oblastining G'ijduvon va Vobkent rayonlarida yer-suv islohotiga tayyorgarlik ishlariga qarshi qurolli guruhlar tuzilib, sovet hokimiyatiga qarshi kurashdi[10]. Biroq bu namoyish va qo'zg'olonlar oblastda keng ko'lamma qurolli harakat tusini olmadi. Chunki bu yerda kurashga rahbarlik qiladigan yetakchi qo'rbosehilarning faoliyati asosan 1926-yilning yozida tugatildi. Shuning uchun ham bu jarayon O'zbekiston SSRning boshqa oblastlari singari qurolli harakatga aylanib ketmadi. Shuningdek, oblast ilgari Buxoro amirligining asosiy qismi bo'lganligi uchun ham sovet hokimiyatiga qarshi kuchlar ko'p bo'lishi mumkinligi inobatga olinib, sovet hokimiyatiga qarshi qaratilgan har qanday faoliyat doimiy ravishda nazoratga olindi. OGPUning 1926-yil 25-oktyabrdagi ma'lumotida keltirilishicha, yer islohoti o'tkazilishidan norozi bo'lgan turli guruhlar Eski Buxoroda yig'ilib 1) targ'ibotni kuchaytirish orqali yer-suv islohotini amalgalashirilishiga qarshilik ko'rsatish; 2) bu tadbirlarning shariatga qarshi ekanligini aholiga tushuntirish; 3) islohoti hokimiyatda bo'lgan ruslar va tatarlarning ishi ekanligini aholiga targ'ib qilish; 4) aholini ommaviy ravishda islohotdan noroziliginini uyg'otishga kelishib olingan[11].

Shunday qilib, O'zbekiston SSRda yer-suv islohotiga qarshi ommaviy qo'zg'olonlar avj oldi. Bunga faqatgina yer-suv islohoti emas balki, shu paytdagi g'alla tayyorlash kampaniyasi, non tanqisligi, kuzgi hosilni yig'ish, paxta terish, soliq siyosati kabi omillar ham ta'sir ko'rsatdi. Masalan, 1928-yilning may oyida Farg'ona okrugi Buvayda rayoni aholini yer-suv komissiyasining qaroridan norozilik bildirib, 2000 kishilik qo'zg'olonchilar okrug ijroiya komitetining binosini o'rab olishdi[12]. O'zbekiston SSRda 1929-yildagi kurashning asosiy markazi Farg'ona vodiysi edi. Sovet hokimiyatiga qarshi kurashda Andijon okrugida hatto dehqonlardan tashqari qishloqlardagi ayrim partiya va komsomollar a'zolari ham qochib qo'zg'olonchilar safiga qo'shilganligi qayd etilad[13]. Bu aslida sovet hokimiyatiga xizmat qilgan kishilarning ham norozilik belgisi edi. Ahvol borgan sari yanada keskinlasha bordi. Yer-suv islohotining oxirgi yillari va kollektivlashtirishning boshlanishi arafasidagi vaziyat sovet hokimiyatiga qarshi kurashni yana qaytadan avj olishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon 1929-yil aprelda Tojikiston ASSRda Fuzayl Maxsum, Farg'ona vodiyisida Yormat Maxsum, Andijon okrugida Mirvali Miryusupovlarning faoliyatida namoyon bo'ladi. Aholining bolsheviklar siyosatidan noroziligi ushbu guruhlarning kengayishini ta'minladi[14].

Yer-suv islohotining o'tkazilishi va unga qarshi norozilik harakatlarini yuzaga kelishi faqatgina O'zbekiston SSRga xos jihat emas. Bu jarayon boshqa O'rta Osiyo

respublikalarida ham bir xil kechdi. Masalan, mazkur islohot natijasida 1927-1928-yillarda Junaidxon boshchiligidagi Turkmaniston va Xorazm vohasini keng ko'lamli qo'zg'olon qamrab oldi. Bundan tashqari, agrar sohadagi o'zgarishlarga qarshi kurash Qirg'izistonni ham cheklab o'tmadidi. Bu yerdagi harakatlar asosan Janubiy Qirg'izistonda kuzatiladi. Bu ko'pincha 1927-yilda Jonibek Qozining faoliyatida namoyon bo'ladi. 1929-yilda esa O'rta Osiyo respublikalarining barchasida qurolli harakat yana qaytadan kuchaydi. Lekin sovet hokimiyatiga qarshi bu kabi kurashlar qisqa fursatlarda qizil armiya tomonidan bostirilib, qo'zg'olon qatnashchilari esa qattiq jazolarga mahkum etib borildi.

Bolsheviklarning O'rta Osiyoda yuritayotgan siyosatini cheklash maqsadida tashkil etilgan qo'zg'olonlarning mag'lubiyatga uchrashiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi: birinchidan, bu davrda xalqning og'ir ahvolga tushib qolishi natijasida, qurolli harakat shaklida kurash olib borish uchun guruhlarni moddiy ta'minlash imkoniyati, ot va qurol-yarog' zaxirasi cheklandi. Ikkinchidan esa, qizil armiyaga asir tushgan yoki taslim bo'lgan qurolli harakatning tajribali rahbarlari va ishtirokchilari sovet hokimiyati tomonidan aksariyati qatl etildi hamda qattiq qamoq jazosiga hukm qilindi. Shuningdek, mol-mulki musodara qilinib, jazoni o'tab bo'lgach esa bir necha yil mobaynida siyosiy huquqlardan ham mahrum etildi. Qattiq jazo siyosatining amalga oshirilishi aholini kuchli qo'rquv holatiga keltirib qo'ygan edi. Shu kabi xususiyatlar bilan kurashning oldingi yillaridan biroz farq qildi. Shu davrda garchi shunday og'ir va murakkab vaziyat bo'lishiga qaramasdan qo'rboshilarning guruhlari borgan sari ko'payib borganligi kuzatiladi.

O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari A.Toshmuhamedovning 1929-yil 9-dekabrdagi "O'zbekiston SSR hududida bosmachilik harakati" nomli hisobotida keltirilishicha, 1929-yil 1-yanvardan to 8-dekabrgacha O'zbekiston SSR hududida 104 ta guruh va ularning tarkibida 1554 nafar yigitlar harakat olib borgan. 1929-yilning dekabr oyiga qadar 40 ta guruh va ularning 743 nafar yigitlari tugatildi. Toshmuhamedovning fikricha, oldingi yillarga qaraganda 1929-yilda qurolli guruhlarning o'sishi 85 %ni tashkil qilgan[15].

O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish natijasida kolxozlarning tuzilishi, dehqonlarning majburiy suratda jamoa xo'jaliklariga kiritilishi Farg'ona vodiysida ozodlik kurashini qaytadan avj oldirib yubordi. Farg'ona okrugida 1930-yilda siyosiy ahvol nihoyatda keskinlashib, bu ommaviy chiqishlarning qurolli qo'zg'olonga o'sib chiqish xavfini tug'dirdi. Biroq sovet harbiylari tomonidan bu qo'zg'olonlar ham bostirildi[16].

Xullas, O'zbekiston SSRda yer-suv islohoti ta'sirida sovet hokimiyatiga qarshi kurash natijalari quyidagilardan iborat:

1. Mazkur islohot dastlab 1925-1926-yillarda Tojikiston ASSRda amalga oshirilganligi uchun bu yerda sovet hokimiyatiga qarshi faol kurash olib borayotgan

Ibrohimbekning harakatlarini kuchayishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Garchi Surxondaryo va Qashqadaryo vohasida yer-suv islohoti keyingi yillarda amalgam oshirilgan bo'lsa-da, O'zbekiston SSR va Tojikiston ASSRda kurashning umumiy rahbari Ibrohimbek bo'lganligi uchun ularni bir-biridan ajratib bo'lmas edi. Shuning uchun ham Tojikiston ASSRdagi vaziyat doimiy ravishda Surxondaryo va Qashqadaryo vohasida ta'sir ko'rsatib turdi. Shuningdek, Ibrohimbek ham kurashni yanada faollashtirish uchun aholi orasida turli murojaatlar orqali va boshqa usullar bilan dehqonlarni safarbar qilib turdi.

2. Keyingi yillarda islohot natijasida ham aholining noroziligi kuchli bo'lib, biroq bu paytda kurashning shaklida biroz o'zgarish kuzatiladi. Ya'ni ommaviy namoyishlar va qo'zg'olonlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu asosan 1927-yilda Zarafshon oblastida kuzatiladi. 1928-1929-yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlarida yer-suv islohotining o'tkazilishi natijasida qo'zg'olonchilar namoyishlardan tashqari qurolli guruhlarni ham shakllantirgan, biroq bu keng xalq ommasini kurashga safarbar eta olmadi. Chunki bunga oblastlardagi og'ir iqtisodiy vaziyat va sovet hokimiyatining kuchaytirilgan jazo mexanizmi imkon bermas edi.

3. Yer-suv islohoti aholining turli ijtimoiy qatlamlari orasida adovatni ham kuchaytirdi. Masalan, boy va o'ziga to'q aholi qatlamlarining mol-mulki musodara qilinib, kambag'al va batraklarga berilishi ular orasida munosabatlarning buzilishiga olib keldi. Aholining barcha mulklarini musodara qilinishi yetmaganidek, ularning yashab turgan joylaridan majburiy ko'chirib yuborilishi dehqonlarning psixologiyasiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida bolsheviklar hokimiyatiga nisbatan norozilik kayfiyatini yanada kuchaytirdi.

4. Yer-suv islohoti arafasida O'zbekiston SSRdagi og'ir iqtisodiy va siyosiy vaziyat sovet hokimiyatiga qarshi kurashda asosan kambag'al va o'rtahol dehqonlar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa, islohot natijasida esa aholining o'ziga to'q va boy qatlamlari ham qurolli harakat safida faol qatnashishiga sabab bo'ldi.

5. O'zbekiston SSRda iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy omillar natijasida davom etib kelayotgan sovet hokimiyatiga qarshi kurash Zarafshon (keyinchalik Buxoro) oblastida 1931-yilgacha, Qashqadaryo oblastida 1932-yilgacha, Surxondaryo oblastida 1933-yilgacha, Farg'ona vodiysi va Xorazm vohasida esa 1934-yilgacha olib borildi.

6. Bu islohot mazmunan SSSRda qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida amalgam oshirilgan bo'lsa-da, biroq bu katta yo'qotishlarga ham sabab bo'ldi. Xususiy mulk yo'qotildi, erkin savdoga chek qo'yildi. Aholining o'ziga to'q va o'rta qatlamlari qattiq ta'qibga olindi.

Mazkur siyosat eng avvalo kambag'al va yersiz dehqonlarga yer berish shiori ostida amalgam oshirildi. Biroq butun SSSR bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil

qilinganda ham aholining eng quyi toifa vakillarining ijtimoiy ahvolida katta o‘zgarish yuz bermaganligini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar

1. “СОВЕРШЕННО СЕКРЕТНО”: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т.4. Ч.1. 1926 г. –Москва, 2001. – С. 82-83, 108-109, 158-159, 187, 249, 305-306.

3. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zbekiston MA), R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2461-ish, 285-varaq; Boboyev F.S. O‘zbekiston SSRda sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat (1925–1935 yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2018. –B. 15-16.

4. Rossiya davlat harbiy arxivi (RDHA), 25895-fond, 1-ro‘yxat, 1653-ish, 179-varaqning orqasi.

5. РДХА, 25895-фонд, 1-рўйхат, 1653-иш, 179-варақнинг орқаси. “СОВЕРШЕННО СЕКРЕТНО”: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т.4. Ч.1. 1926 г. –Москва, 2001. – С. 386.

6. “СОВЕРШЕННО СЕКРЕТНО”: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т.4. Ч.1. 1926 г. –Москва, 2001. – С. 612-613; Т.4. Ч.2. 1926 г. –Москва, 2001. – С. 722, 790.

7. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Mas’ul muharrir: M. Jo‘rayev. –Toshkent: “Sharq”, 2000. – B. 332-334.

8. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Mas’ul muharrir: M. Jo‘rayev. –Toshkent: “Sharq”, 2000. – B. 332-334.

9. Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O‘rta Osiyo respublikalari misolida). –Toshkent: Sharq, 2003. – B. 28.

10. “СОВЕРШЕННО СЕКРЕТНО”: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т.4. Ч.2. 1926 г. –Москва, 2001. – С. 790, 823.

11. O‘zbekiston PAA, 58-fond, 5-ro‘yxat, 473-ish, 22-varaq.

12. Rasulov B. O‘zbekistonda kollektivlashtirish jarayonidagi siyosiy qatag‘onlar va surgun qilingan dehqonlar ahvoli (1929 – 1959 yillar). –Tashkent: “Sharq”, 2012. – B. 164 – 165.

TALABALARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Akbarova S.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda ekologik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlanirish dolzarb muammo ekanligi va ularga qo‘yiladigan

talablar yoritilgan. Ularning nazariy, huquqiy hamda tarixiy asoslari tahlil etilgan, bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik kompetentlik, ekologik faoliyat, ekologik muhit, ekologik psixologiya, ijtimoiy faoliyat, ekologik bilim, atrof-muhit, tabiat, ekologik muammolar, tabiiy resurslar ekologik ta’lim, tarbiya, ekologik madaniyat

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Акбарова С.А. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье подчеркивается, что формирование и развитие экологического мировоззрения в нашей стране являются актуальной проблемой и предъявляются к ним требования. Проанализированы их теоретические, правовые и исторические основы, вопросы развития экологической компетентности будущих учителей.

Ключевые слова: экологическая компетентность, экологическая деятельность, экологическая среда, экологическая психология, социальная деятельность, экологические знания, окружающая среда, природа, экологические проблемы, природные ресурсы.

THEORETICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE IN STUDENTS

Akbarova S.A. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article emphasizes that the formation and development of an ecological worldview in our country is an urgent problem and requirements are imposed on them. Their theoretical, legal and historical foundations, issues of the development of the ecological competence of future teachers are analyzed.

Key words: ecological competence, ecological activity, ecological environment, ecological psychology, social activity, ecological knowledge, environment, nature, ecological problems, natural resources.

Mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati oliv ta’lim tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ta’lim-tarbiyaga yangicha

tizimli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining XI bob 50-moddasida “Fuqorolar atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar va XII bob 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simgilik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zahiralar umummiliy boyliklar, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”[3, 17-19-b] deb ta’kidlanadi. Shu bilan birga, tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish deb nomlangan 4-moddasida quyidagicha yoritilgan: “Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar va muassasalar, fermerlik va kooperativ xo‘jaliklar, shuningdek, ayrim shaxslar xo‘jalik boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak: ...barcha turdag'i ta’lim muassasalarida ekologiya o‘quvining majburiyligi”. [5. 160-b]

Mamlakatimizda ekologik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga mutasaddi davlat tashkilotlari, ommaviy institutlar, maxsus ekologik harakatlar faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida qaralmoqda. Respublikamizda ekologik vaziyatni sog‘lomlashtrish va shaxs ekologik dunyoqarashini ilmiy-pedagogik kompleksni shakllantirish masalalari kun tartibiga qo‘yilgan. “...Bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga dahldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”. Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash barchamizning burchimiz hisoblanadi, shuningdek “ekologiya sohasidagi ishlar ahvolini yaxshilash”[1.17-19-b] bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun yurtimizda shaxs ekologik dunyoqarashi va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikni ilmiy tadqiq etish, xalqaro ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzab masala qilib belgilangan[2. 570-b].

Bu borada, ekologik muommolarni hal qilishni, uni yechimi ishlab chiqish oldimizda turgan muhim masalardan biri hisoblanib kelinmoqda. Shu o‘rinda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 12-iyulda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’rurzasida, “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur”, deb ta’kidlagan edi.

Ekologik dunyoqarash shakllanishini o‘rganishning umumfalsafiy masalalari, sodda bo‘lishiga qaramay: qadimiy afsona, rivoyat, asotir, ertak, masal, qo‘sish, dostonlar va boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘z ifodasini topgan.

Keyinchalik tarixiy yozma manba “Avesto”da ular nisbatan sistemalashgan. Shu o‘rinda “Avesto” da ...yangi kanallar qazish, ariq-zovurlarni tozalash, yerlarni o‘z vaqtida ekishga tayyorlash mo‘l hosil olishning asosiy garovidir. Shuningdek, “cho‘lga suv chiqazib, yerning sho‘rini yuvib, zahini qochirib, yerga ishlov bergenlar” – eng mo‘tabar insonlar hisoblanadi. Hatto podshoh Jamshid Tangri Uzoq vaqt ishlov bermay va ekin ekilmay qolgan yer eng baxtsiz zamindir deb keltirib o‘tilgan. [6. 11-14-b] Shuningdek, islom dini manbalari “Qur’oni Karim” va “Hadisi sha’rif”dagi ilohiy o‘git va aqidalar ekologik dunyoqarash tadqiqotining ma’naviy ildizlarini, manbalarini tashkil qiladi. Ekologiya borasida sharq mutafakkirlari ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan. Jumladan, O‘rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq allomalaridan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘sghanlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o‘simpliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e’zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) asarlarida o‘simplik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo‘jalikdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, “Saydana”, “Mineralogiya”, “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida uchraydi. Olim “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” asarida Eronning turli tropik o‘simpliklari va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yilfasllarining almashinushi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarishini misollar bilan tushuntirgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)ning eng yirik asari “Boburnoma”dir. Unda shoirning ko‘rgan-kechirganlari, borgan joylarining tabiat, boyligi, odamlari, urf-odatlari, hayvonoti, o‘simpliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o‘ziga keragicha ma’lumot topa oladi. Asar muhim atamalar va toponimik manbalarga boy. Unda yer, suv, havo, turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so‘zları ko‘plab topiladi. “Boburnoma”ni o‘qigan va o‘rgangan har bir kishi uni tabiat va geografiyani yaxshi bilgan o‘lkashunos olim yozgan degan xulosaga keladi. Bobur o‘lkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, ularning qadriga yetgan va ular bilan hamisha maslahatlashgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) ham o‘z asarlarida ekologiya borasida fikrlarini bildirib o‘tgan. Xususan, “Tib qonunlari” asarida, kishi organizmiga tashqi muhit ta’siri muhimligini bilgan alloma ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikr bayon etgan, ya’ni u kasallikni yuqishi masalasini hal etishga yaqinlashgan edi. Bular moxov, qo‘tir, chechak, vabo isitmasi, yiringlagan yaralar kabi kasalliklardir. Xususan, bular odamlarning turar erlari tor bo‘lganda, ya’ni aholi

zich yashagan joylarda shuningdek, shamol va boshqalar orqali tarqaladi, deb aytib o‘tilgan.

Ekologik ta’lim respublikamizda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturiga kiritilgan o‘quv jarayonida ekologik tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish va boshqa ekologik ixtisosliklar bo‘yicha talaba yoshlarga bilim berilmoqda. Bu borada bir qator ilmiy ishlar bajarilib kelinmoqda.

Yu.Shodimetovning “Ijtimoiy ekologiyaga kirish” darsligi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy hamda tabiiy qarashlarning mohiyati, ijtimoiy ekologiyaning shakllanishi va rivojlanishi, inson-ekologiyasi ijtimoiy ekologiyaning mintaqaviy muammolari, ekologik siyosat kabilalar nazariy jihatdan ishlab chiqilgan[4. 5-b].

O‘zbekistonlik mutaxassis Sh. Avazovning fikriga ko‘ra, odamlar ekologik toza texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo‘lmasa, ekologik cheklovlar talablariga rioya qilishga intilmasa va faol ishtirok etsa, hech qanday texnik vositalar atrof-muhit holatini yaxshilay olmaydi va ijtimoiy va ekologik muammolarni amaliy hal etishga ko‘maklasholmaydi. Bunday o‘zgarishlar faqat jamoat ongini o‘zgartirish, ekologik g‘oyalar, bilimlar va majburiyatlarni jamiyat va har bir inson hayotiga kirib borish bilan amalga oshiriladi, bu bir qator davlat hujjatlarida ham qayd etilgan [5. 160-b]. A.Nig‘matovning “Ekologiya huquqi” darsligida ekologiya huquqining tushunchasi, rivojlanish bosqichlari,predmeti, ekologik-huquqiy munosabat va ekologik-huquqiy mexanizm,ekologiya huquqi manbalari, boshqaruv ekologik kadastr, nazorat va ekspertiza, javobgarlik, yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish, suv va suvdan foydalanishni ekologik-huquqiy tartibga solish, yer osti boyliklarini, o‘simlik dunyosini, o‘rmonlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish kabi masalalar nazariy jihatdan asoslangan[7].

Xulosa qilib, talabalarga ekologik ta’lim berishda biz tabiat bilan jamiyat orasidagi munosabatlarni ilmiy asoslab tushuntirib birgalikda olib borishimiz, ekologik muammolarni tahlil etish haqida kelajak avlodga bilim berishimizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimni takomillashtirishimizni talab etadi.

Adabiyotlar

3. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” Toshkent- “O‘zbekiston”- 2018. 17-19-b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 570-b

3. Mirziyoyev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston

Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. 2017 yil 12 iyul. <http://uza.uz>

4. Xo‘janazarov O‘.E., Sh.T.Yakubjonova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish T:2018. 3-b
5. Avazov Sh. Qishloq maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarini o‘lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiyalash. ped.fan.nomzod.diss. T; 1993. 160-b
6. A.To‘xtayev “Ekologiya” T: O‘qituvchi 1998. 11-14-b
7. A.Nig‘matov “ Ekologiya huquqi”(Akadimek-letsiy va kasb-hunar kollejlari uchun darslik).T:2003

TALABALAR KASBIY SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Almardanova S.B. – Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalar kasbiy shakllanishi psixologik jihatlari talqin etilgan bo‘lib, unda talabalar kasbiy shakllanishining muhim omillari, talabalarning kasbiy shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, talaba, kasb, kasbiy qiziqishlar, kasbiy shakllanish

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНОВЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Алмарданова С.Б. - преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация. В статье интерпретируются психологические аспекты профессионального становления студентов, описаны важные факторы профессионального становления студентов, факторы, препятствующие профессиональному становлению студентов, и пути их преодоления.

Ключевые слова: личность, студент, профессия, профессиональные интересы, профессиональное становление

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF STUDENT PROFESSIONAL FORMATION

Almardanova S.B. - Teacher at Termez State University

Annotation. In the article, the professional development of students is interpreted as a psychological problem, which describes the factors of professional development of students, factors that impede the professional development of students, and ways to overcome them

Key words: personality, student, profession, professional interests, professional development

Jamiyatda shaxsning barkamolligini belgilovchi mezonlar xilma-xildir. Jumladan, barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z Vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek, jamiyatning iktisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoyqiga ega bo'lgan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini tushunish mumkin. Shaxs barkamolligining yana bir muhim omili sifatida shaxsning kasbiy shakllanishini keltirish mumkin. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birlgilikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Kasbiy shakllanish - insonning o'z aqliy qobiliyatları, jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biror-bir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo'lib yetishishi tushuniladi.

Kasbiy shakllanish jarayoni insonning o'z aqliy qobiliyatları, jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biror-bir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo'lib yetishishini nazarda tutadi.

Kasbiy shakllanish shaxs faoliyatining uzoq muddatli davrini qamrab oladi va ijtimoiy mavqe, yashash tarzi va avlodlar o'rtasidagi an'analarning davom ettirilishi bilan ham tavsiflanadi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarining mutaxassis sifatida kamol topishida ularning shaxsiy hamda kasbiy shakllanishini ta'minlashga to'siq bo'luvchi bir qator omillar mavjud. Bular qatoriga:
1. Mutaxassislarga qo'yiladigan kasbiy va shaxsiy talabalarining o'sib borayotganligi;
2. Kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillarning davriy xususiyatga egaligi va kasblar to'g'risidagi ijtimoiy ideallarda yagona me'yorning mavjud emasligi; 3. O'spirin kasbiy tasavvurlarining ijtimoiy-iqtisodiy shart- sharoitlarga, bozor munosabatlariga hamohang o'zgarayotganligi hamda kasb-hunar va tegishli mutaxassislik yo'nalishlari o'rtasidagi tafovutning keskin ortayotganligi; 4. Yoshlarning mutaxassislik yo'nalishlarini tanlashlarida aniq tasavvurga, maqsadga, faoliyat yo'nalishiga, istiqbol rejalarini belgilash qobiliyatiga ega emasligi kabilardir.

Keltirilgan jihatlarning talaba kasbiy shakllanishiga ta'sirini psixologik tadqiq etish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biri ekanligiga shubha yo'q. Ammo zamonaviy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va boshqa o'zgarishlar talabalar kasbiy shakllanishida yangi muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Talabalar kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi tanlagan kasbini kengroq tasavvur qilish, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy kompitensiyalarni shakllantirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, talabalarning tanlagan kasbga moslashishi, unga o'zini ruhan, jismonan va ma'nан tayyorlashi jins va yosh omillariga qat'iy bog'liq bo'lmaydi, ya'ni u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi.

Talabalarni kasbiy shakllantirish xususida Sharq mutafakkirlari o'z mulohazalarini bayon etganlar. Sharqda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish, kasbiy shakllanishini nazorat qilish qadimiy an'analardan bo'lgan. Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga qay darajada e'tibor berishini ko'rsatuvchi turli-tuman naqllar, rivoyatlar va maqollarning asrlar osha to'planib kelganligi buning yaqqol isbotidir. Jumladan, "Ustozdan o'zmagan shogird, shogird emas", "Hunarli kishi xor bo'lmas" yoki "Bir yigitga yetmish hunar oz" kabi ko'plab hikmatli so'zlar borki, ular qadim-qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni ruhan va jismonan barkamol hamda o'ziga munosib biror-bir kasb-hunar egasi bo'lib yetishishlariga da'vat etib kelganlarining yaqqol isbotidir[1].

Sharq mutafakkirlari ta'limotida yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga ularni kasb-hunarga o'rgatish g'oyasi ham muhim o'rinni egallaydi. Jumladan, Abu Nasr Farobiy[2], Abu Rayxon Beruniy[3], Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Axmad Donish, Davoniy va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarda muammo atroflicha talqin qilingan. Jumladan, buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni bergen, ta'lim - so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligi, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko'rinish turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan.

Abu Nasr Farobiyning ta'kidlashicha, Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatlarni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirishdir.

Darhaqiqat, kasbiy shakllanish talaba faoliyatida muhim o'rinni tutadi. Agar talabalar kasbiy shakllanishi muammosi o'z vaqtida ko'rib chiqilsa, oliy ta'limning ilk bosqichidan oxirigacha zarur malaka va ko'nikmalarni o'z vaqtida egallahga e'tibor qaratadi. Zero, kasbiy shakllanish-bu talabaning cheksiz rivojlanishi imkoniyatini nazarda tutadigan uzoq muddatli jarayondir.

Kasbiy malaka oshirish muammosi o‘zbek ta’limini modernizatsiya qilish va yangi avlod o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartini joriy etish sharoitida talabalarning o‘rni va rolini tushunishning kaliti bo‘lishi zarur. Uning o‘ziga xos xususiyati ish beruvchilarning talablarini hisobga olish, shuningdek, bo‘lajak mutaxassisning malakasini shakllantirish va rivojlantirishda maqsadli natijani ta’minlashga ta’sir qiluvchi aniq shakllar, usullar, vositalar, texnologiyalarni tanlashdir.

Tadqiqotimizda “Talabalarning kasbiy-pedagogik yo‘nalganligi” so‘rovnomasidan foydalandik. So‘rovnoma 40 ta savoldan iborat bo‘lib, sinaluvchining har bir javobi tegishli mezonlar bo‘yicha baholanadi. Talabaning kasbiy pedagogik yo‘nalganligining xususiyatlari ifodasining namoyon bo‘lish darajasi:

1-11 gacha xususiyatlarning mavjud emasligi yoki to‘liq namoyon bo‘lmasligi.

12-17 gacha namoyon bo‘lishning past darajasi;

18- 24 gacha o‘rtadan past daraja;

25- 30 gacha o‘rta daraja;

31 – 36 gacha yaxshi ko‘rsatkich;


37- 40 gacha yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Bunda ko‘rsatkichlar quyidagi oltita shkala bo‘yicha baholandi:

1. Kasbiy va qadriyalar yo‘nalganligi;
2. O‘quv va kasbiy qiziqishlar;
3. O‘quv-kasbiy faoliyatiga bo‘lgan munosabat;
4. O‘quv-kasbiy faoliyatga tayyorlik;
5. O‘quv-kasbiy faoliyat motivlari;
6. Pedagogik yo‘nalganlik.

“Talabalarning kasbiy-pedagogik yo‘nalganligi” metodikasi bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishimizda talabalarda o‘quv va kasbiy qiziqishlar, o‘quv-kasbiy faoliyatga munosabat shkalalari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni kuzatildi.

1-rasm.



Hozirgi kunda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirish talabalar kasbiy shakllanishi uchun asosiy imkoniyat sifatida qaralmoqda. Talabalarning kasbiy malakasini shakllanishi muammosini chuqurroq o'rganish zarurati quyidagilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan bog'liq[4]:

- pedagogik jarayonning o'zida jiddiy o'zgarishsiz kasbiy ta'lim sifatini yaxshilashga bo'lgan munosabat;
- jamiyatning nostandard vaziyatlarda kasbiy faoliyatini amalga oshirishga tayyor va qobiliyatli, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim faoliyati mazmuni va usullarining yetarli darajada rivojlanmagan, malakali bitiruvchiga bo'lgan ehtiyoji;
- bo'lajak bitiruvchilarning amaliy kompetensiyalarni o'zlashtirishi zarurligi va kasbiy madaniyatni shakllantirish uchun maxsus sharoitlar ishlab chiqilmaganligi;
- turli mutaxassislik bo'yicha talabalarning kasbiy shakllanishini ta'minlaydigan amaliyotga yo'naltirilgan muhitning potensial imkoniyatlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalarning yo'qligi;
- amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitida talabaning kasbiy rivojlanishining ahamiyati va bu jarayonni basholash uchun mezon-instrumental bazaning yo'qligi

Adabiyotlar

1. Ajdodlar o'giti, hikoyalar, xikmatlar. / To'plovchi B.Axmedov. - T.: "O'qituvchi", 1990. -240-b.
2. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shaxri. - T.: A.Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -223-b.
3. Beruniy Abu Rayxon. Pamyatniki minuvshix pokoleniy. - T., 1997, t. 1. -S. 487.
4. Митина Л.М. Личностное и профессиональное развитие человека в новых социально-экономических условиях // Вопр. психологии. — 1997. — № 4. С. 28–38.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Ahmedov A.M. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchi o'quvchilarni o'qitishda turli xil interfaol metodlardan foydalanib o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli olib borishga qaratilgan. "SWOT-tahlil", "Xulosalash", "Insert" va "Tushunchalar tahlili" metodlari qo'llanilgan darslarda

o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikdagi o‘quv faoliyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: “SWOT-tahlil”, “Xulosalash”, “Insert” va “Tushunchalar tahlili” metodlari.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Ахмедов А.М. - преподаватель Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется развитию знаний и навыков учащихся с использованием различных интерактивных методов обучения учащихся, что делает обучение увлекательным. Уроки с использованием методов SWOT-анализа, резюме, вставки и концептуального анализа демонстрируют педагогическое сотрудничество между учеником и учителем.

Ключевые слова: SWOT-анализ, методы анализа Summary, Insert и Concept.

METHODOLOGY OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN SECONDARY EDUCATIONAL SCHOOL

Ahmedov A.M. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. In this article, the teacher uses a variety of interactive methods to teach students to develop students' knowledge and skills, and to make learning fun. Lessons using SWOT-Analysis, Summary, Insert, and Concept Analysis methods demonstrate pedagogical collaboration between student and teacher.

Key words: “SWOT-analysis”, “Summary”, “Insert” and “Concept analysis” methods.

Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasi - yangicha g‘oyalar, zamonaviy bilimlar va metodikalarga asoslangan holda darslarni olib boruvchi yuksak malakali kadrlarga bog‘liq. Kadrlarni tayyorlash esa avvalo o‘qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo‘lgan, zamonaviy o‘qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida

qaralib kelinmoqda. O‘qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta’lim mazmunini va zamonaviy o‘qitish metodikalarini mukammal egallagan bo‘lishlari zarur.

O‘qituvchi xodimlar o‘zlarining kasb-ko‘nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-sonli farmonida 2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalardan biri pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish ham eng muhim vazifalardan biri sifatida e‘tirof etilgan. Ushbu farmonda mazkur tizimda ta’lim sifati va samaradorligini kafolatlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri – malakali pedagog kadrlarni tayyorlash uchun, avvalo, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantirish masalasi o‘z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiritilgan.

Uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan umumiyl o‘rtalim maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish nafaqat ta’lim mazmuniga, balki kasblar haqida ma’lumot berish, mazkur kasb taqozo etadigan bilim, malaka va ko‘nikmalar, shuningdek, shaxsiy sifat va fazilatlarni shakllantirish nazarda tutiladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Respublika ta’lim xodimlari zimmasiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklaydi. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni o‘quvchilarni o‘qitishga yangicha yondashish, o‘qituvchilarni o‘z kasbiga va o‘zgalarga, yani ta’lim oluvchilarga o‘ta talabchanlik bilan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Umumiyl o‘rtalim maktablarida o‘quvchilarning mustaqil bilim olishi, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, o‘z bilimiga bo‘lgan ishonchini orttirish, zamonaviy texnik va texnologik vositalardan oqilona va ilm yo‘lida foydalanish, ularni kasbga yo‘naltirish masalasi o‘qituvchilarning asosiy diqqat markazida bo‘lishi kerak.

O‘quv mashg‘uloti jarayonida zamonaviy metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanib mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, baxs-munozara, suhbat, muammoli ta’lim darslarini tashkil etish, ularning muvaffaqiyatli hal etilishini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tatbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqarish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Pedagogik jarayonning mohiyati - o‘qituvchi hamda o‘quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o‘quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Bunday pedagogik yondashuv axborotlarni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, taqqoslash, kengashish, bartaraf etish, ilhomlantirish, qiziqtirish va xurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Pedagogik ilm va amaliyotda “pedagogik texnologiya”, “ta'limiy texnologiya”, “ta'lim berish texnologiyasi” kabi atamalar keng qo'llanilishi kuzatilmoqda. Avvalombor, bu tushunchalarning farqi va o'zaro bog'liqlik tomonlarini aniqlash lozim. “Texnologiya” yunoncha so'z bo'lib, “texne” - mahorat, san'at, malaka va “logos” - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Pedagogik texnologiya - pedagogik hodisa va ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo'llaniladigan tushuncha.

Ta'limiy texnologiya - ta'lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan xolda bilimlarni o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli hisoblanadi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalarni - majmuaviy integral (butun, bog'liq) tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plamdir.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan, yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asosini tashkil etuvchi metodlar interfaol (interaktiv) metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim berish - suhbatli ta'lim berish, bunda ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchi va kompyuterning o'zaro harakati amalga oshiriladi. Quyida interfaol metodlardan ba'zilarini keltiramiz:

1. “SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni


- mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard
- tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



2. Xulosalash metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakterdagi mavzularni o'rGANISHGA qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rGANILADI. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan o'quvchilarni dars jarayonlarida individual va juftliklardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni aalga oshirish tartibi:



3. "Insert" metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini

qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi,

shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ✓ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- ✓ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ✓ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar.

4. “Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod o‘quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ✓ ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ✓ o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- ✓ o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- ✓ belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- ✓ har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi. Interfaol metoddan foydalanish o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarga juda foydali bilim olish va bilim berishni kafolatlaydi.

Interfaol metoddan foydalanish jarayonida ta’lim beruvchi: 1) o‘qituvchi, boshqa o‘quvchilar, ma’muriyat bilan shaxsiy uchrashuv yo‘li bilan emas, balki ta’lim jarayonining barcha subyektlari bilan faol o‘zaro harakat qilishi mumkin;

2) multimediali obyektlarni tahlil qilish jarayonida ularning mazmuni, shakli, o‘lchovi va rangini o‘zgaruvchan boshqarish, ularni har tomonlama ko‘rib chiqish, shunga o‘xshash boshqa harakatlarni bajarish, eng ko‘p ko‘rgazmalilikka erishishda to‘xtatish va xohlagan joyida yana ishga tushirish mumkin.

3) ta’lim oluvchiga muammoni faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi.

Ta’lim oluvchilar esa interfaol usul qo’llanilgan o‘quv jarayoni natijasida quyidagilarga erishadilar:

- 1) xotiraga qabul qiladilar, anglaydilar, yig‘adilar, biroq xatosiz, ongi ravishda qayta tiklamaydilar;
- 2) bevosita ta’lim beruvchi boshchiligida tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, namuna bo‘yicha amaliy harakatlarni bajaradilar;
- 3) muammolarni yechish jarayonida mustaqil izlanadilar, kutilayotgan natijaga erishishning yo‘l va vositalarini mustaqil ravishda aniqlaydilar.

Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim berish jarayoni shuncha natijali bo‘ladi. O‘qitishning interfaol usullarini bilish kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalg qilingan va biladigan, o‘ylayotgan narsalarini tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar qo’llanilgan darslarda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik o‘quvchini dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga olib keladi, fanga bo‘lgan qiziqliklari doimiyligini ta’minlaydi. Bu holat dars unumdorligini oshirishi va o‘quvchiga samarali bilim berishga olib keladi. Umumiyl ma’noda darslar jarayonlarda turli xil metodlardan foydalananib o‘qitish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikdagi o‘quv faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish amalgalashirilayotgan ishlarning yanada samarador bo‘lishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-son O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 25. 01. 2020 - yil.
3. Yo‘ldoshev J, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T: O‘qituvchi, 2004.-102-b.
4. Azizzodjaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T, 2000.
5. Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных систем в непрерывной образовательной среде. eurasian education science and innovation journal, 1(22), 15-19.
6. Akhmedov, B. A, Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.

7. Akhmedov, B. A, Makhkamova, M. U, Aydarov, E. B, Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804.
8. Akhmedov, B. A, Majidov, J. M, Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. (2020). Active, interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79), 805-808.
9. Akhmedov, B. A., Eshnazarova, M. Yu, Rustamov, U. R, Xudoyberdiyev, R. F. (2020). Cluster method of using mobile applications in the education process. Экономика и социум, 12(79), 809-811.
10. Akhmedov, B. A, Kuchkarov, Sh. F, (2020). cluster methods of learning english using information technology. scientific progress, 1(2), 40-43.
12. www.lex.uz

OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR DESTRUksiYASI

Sharafutdinova X.G. – Termiz davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqola oila va oilaviy munosabatlar muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda oila buzilishiga, ajrimlarga, munosabatlarning yomonlashuviga olib keluvchi oilaviy munosabatlar destruktsiyasi, uning mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada shaxs destruktsiyasi va uni bartaraf etishning psixologik usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Oila, shaxslararo munosabat, destruktsiya, destruktiv munosabat, konstruktiv munosabat.

ДЕСТРУКЦИЯ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШНИЙ В СЕМЬЕ

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме деструкции межличностных отношений в семье, при которых происходит разрушение семейных отношений, их содержания и сущности, что приводит к распаду семьи, разводам, ухудшению отношений. В статье также рассматривается деструкция личности и психологические методы его устранения.

Ключевые слова. Семья, межличностные отношения, деструкция, деструктивное отношение, конструктивное отношение.

DESTRUCTION OF FAMILY INTERPERSONAL RELATIONSHIPS

Annotation. This article is devoted to the problem of the destruction of interpersonal relations in the family, in which the destruction of family relations, their

content and essence occurs, which leads to the disintegration of the family, divorce, and deterioration of relations. The article also examines the destruction of personality and psychological methods of its elimination.

Key words. Family, interpersonal relationships, destruction, destructive attitude, constructive attitude.

Mamlakatimizda “Sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni tashkil etish sohasida: oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish hamda sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat hamda jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini ta’minlash; notinch va muammoli oilalarni aniqlash, ularning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish, nizoli holatlarning oldini olish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va milliy mentalitetga zid bo‘lgan yot xavf-xatarlarga qarshi kurashish maqsadida ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashni tashkil etish; yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o‘rgatish, oilalarni mustahkamlash, erta nikoh va oilaviy ajralishlarning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilab qo‘yilganligi bugun O‘zbekistonda oila va oilaviy munosabatlar muammosi davlat siyosati darajasidagi masala ekanganligini ko‘rsatmoqda.

Jismoniy, ruhiy, ma’naviy, aqliy kamoloti me’yorida bo‘lgan, to‘g‘ri tarbiya ko‘rgan va bular ta’sirida jamiyatda uzoq taraqqiyot natijasida shakllangan, ajdodlarimizning aqli-shuuri mevasi bo‘lgan, insoniyatning hayotini tizimga solib turuvchi qoidalarni anglash, ularga amal qilishdek ijtimoiy mas’ullik xususiyati shakllanadi. Eng ahamiyatlisi bunday xislat bolalik davrida, oila qo‘ynida, oilaviy munosabatlar negizida asta sekinlik bilan tarkib topadi va kishining ijtimoiy xulqi darajasida namoyon bo‘ladi. O‘zaro munosabatlarda oila a’zolarining oilaparvarligi, o‘zaro bir birlarini tushunishi, qo‘llab-quvvatlashi, o‘zaro hurmat, o‘ziga xos individual xususiyatlari, saviyasi, ijtimoiy mavqeyi, kasbi, dunyoqarashi, oiladagi mavjud muammolarga munosabati, muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyati kabilar oila mustahkamligi va tinchligining garovidir. Hayotda aynan shu kabi jihatlar yaqqol namoyon bo‘lgan, oilaviy munosabatlari me’yorida bo‘lib, baxtli turmush qurib oilasiga, yurtining tinchligi va faravonligiga katta hissa qo‘sheyotgan oilalar ko‘p. Ammo, ayrim oilalarda alohida oila a’zosining xulq-atvorida destruktivlikning mavjudligi tufayli oilada sog‘lom psixologik munosabatlar o‘rniga munosabatlarning buzilishi, o‘zaro tushunmovchilik, aniqrog‘i tushunish istaginiyo‘qligi, bir so‘z bilan aytganda destruktiv munosabatlar kuzatilayotganligi haqiqatdir. Bunday

oilalardagi destruktiv munosabatlarning zamirida destruktiv shaxs yoki shaxslar turadi.

Destruktiv shaxs - bu faolligi ijtimoiy normalarni, qonunlarni buzishga yo‘naltirilgan kishi bo‘lib, oilaviy munosabatlarda vayronkorlik, zulmkorlik, tajovuz va shu kabi salbiy destruktiv xislatlarga moyil shaxsdir. Bunday shaxs jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi, chunki faqat boshqa kishilar bilan munosabatlarga kirishish orqali o‘zini namoyish qilish, o‘zini tasdiqlatish va o‘zini rivojlantirish usullarini topishga harakat qiladi.

Destruktiv shaxs – erkinlikdan qochuvchi agressiv tipga kirib, oila turmushining dastlabki yillari, hatto dastlabki oylaridayoq o‘zining salbiy xarakter xislati, muomala va munosabatlardagi nuqson tufayli o‘zaro munosabatlarning buzilishiga sababchi bo‘ladi. Bunda u destruktivlik yordamida o‘zini rivojlantirish imkoniyatini ko‘rsata olmasligi tufayli yuzaga keladigan noto‘kislik hissidan qutilishga harakat qiladi. Destruktiv harakatlari bilan boshqalarning axloqiy, jismoniy imkoniyatlarini yo‘qqa chiqaradi.

Destruktiv shaxs o‘zining xatti-harakatlarini adekvat baholay olmaydi, o‘zaro munosabatlarga, olamga g‘arazli qaraydi. Turmush o‘rtog‘ining, qaynona-qaynotasi va oilaning boshqa a’zolari tomonidan bildirilgan kichik tanbehni ham juda fojeali qabul qiladi. O‘zini xo‘rlangan, tahqirlangan, xatto o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik deb qabul qiladi va tezda bu xolatga negativ javob qaytarishga harakat qiladi.

Oilada shaxslararo munosabatlar destruktsiyasini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarimiz[11; 12-b.] asosida uning ham irsiy, ham ijtimoiy asoslarga egaligi haqida xulosaga keldik. O‘zbeklarda “qazisan qartasan asli naslingga tortasan.” kabi maqollar shaxs xarakterining irsiy shartlanganligini anglatsa, “Onasini ko‘rib qizini ol!” kabi maqollar esa ona tarbiyasining farzand xulqi va xarakteri shakllanishiga ijtimoiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bizning nazarimizda, destruktiv munosabatlar destruktiv shaxs tufayli kelib chiqadi. Destruktiv shaxsning shakllanishi esa chuqur ildizga ega bo‘ladi. Aniqroq aytganda, kishi bir zumda, bir yumalab destruktiv shaxsga aylana olmaydi. Destruktiv shaxs destruktiv individual munosabatlar stili sifatida shakllanadi.

Inson hayoti davomida hech bo‘lmaganda bir marta halokatli munosabatda bo‘lishi mumkin. Eng muhimi uning ta’siriga tushib qolmaslik hisoblanadi. Tushunmovchilik, azob-uqubatlar, xafagarchilik va bezovta qiluvchi fikrlarga kelib qolmaslik uchun vaziyatni to‘g‘ri idrok qilib pozitiv munosabatda bo‘lishga harakat qilish zarur. Oila sevgi asosida qurilganda er-xotin munosabatlari ijobiy bo‘lib, o‘zaro ishonch, hurmat, samimiylilik ustunlik qiladi. Ammo hamma sevishib turmush qurganlarda ham bunday munosabat bo‘lavermaydi. Chunki ayrimlarda destruktiv sevgi kuzatiladi. Destruktiv sevgi - bu hech qachon rivojlanmaydigan munosabatlar ustun bo‘lgan sevgi xisoblanadi. Chunki bu yerda barcha asosiy fikrlar davriy

ravishda takrorlanadi. Destruktiv sevgi munosabatlarida odam shaxs sifatida rivojlanmaydi, aksincha, asta-sekin “o‘zini yo‘qotadi”, o‘z xohish-istaklari va ehtiyojlarini unutadi, o‘zini o‘zi qadrlashi pasayadi va biror narsani o‘zgartirish uchun quvvati yo‘qoladi.

Destruktiv oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, oila a’zolarining hech biri oiladagi psixologik muhitdan mamnun emas, lekin hech kim vaziyatni yaxshi tomonga o‘zgartirishga qodir bo‘lgan harakatlarni qilishga tayyor ham emas.

Uzoq vaqt davomida destruktiv munosabatlarda bo‘lgan odamlar ko‘pincha psixosomatik kasalliklar bilan og‘riy boshlaydilar. Doimiy stress va keskin muhit er-xotinning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta’sir qiladi, shuningdek, oilada farzandlarining normal rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi.

Oilada shaxslararo konstruktiv va destruktiv munosabatlarning belgilari

Destruktiv munosabat	Konstruktiv munosabat
O‘zini past baholaydi	O‘zini adekvat baholaydi, er-xotin bir birlarining fikrlarini hurmat qiladi
G‘am chekish va xafagarchilik xos	Er-xotin o‘z muammolarini aytish va birgalikda hal etishdan qo‘rqmaydi
Oila a’zolaridan birining foydasiga o‘z istaklaridan voz kechish	Oilaning har bir a’zosi qiziqishlari hisobga olinadi
O‘z fikri va qarashlarini boshqanikidek ko‘rsatishga urinadi (proektsiya)	Oila a’zolari o‘z-o‘zlar bilan bo‘lishlari mumkin. Zarurat bo‘lgan hollardagina boshqaga yordam so‘rab murojaat qiladi
Destruktiv munosabatlар muammosi mavjudligini tan olmaydi	Destruktiv munosabatlarni tan olish va tahlil qilishni biladi
Frustratsiya, qo‘rquv, vahima, depressiya, qoniqmaganlik. O‘z hayotini yashamayotgandek his qiladi.	Munosabatlarning barcha jihatlaridan va oilaning salomatligidan qoniqish.
Sheriklar navbat bilan ta’qibchi va qurban, manipulyator va manipulyatsiya rolini sinab ko‘rishadi	Oilaning har bir a’zosi o‘z roli va majburiyatlariga ega
Umumiy hayotiy pozitsiyaga, orzu, reja va maqsadlarga ega emas.	Oila a’zolarining barchasida umumiylor zulari bor. Bunday munosabatlarning asosiy maqsadi oilaning har bir a’zosining faravonligidir.
Doimo bir-biridan norozi bo‘lishadi.	Sog‘lom va to‘laqonli munosabatlarni rivojlantiradi

Konstruktiv munosabatlarga ega bo‘lgan sheriklar, ular o‘rtasida yuzaga kelgan har qanday muammolarni ochiq muhokama qilishlari va oiladagi psixologik muhit uchun o‘z mas’uliyatlarini tan olishlari mumkin.

Oiladagi destruktiv munosabatlarni yaxshilashning psixologik usullari
“Umr yo‘ldoshingizni ayblamang!”

Erkak va ayol o‘rtasidagi barcha destruktiv munosabatlar, albatta, bitta o‘ziga xos xususiyat bilan birlashtirilgan. Har bir sherik munosabatlardagi barcha aybni muvaffaqiyatsizlik bilan bog‘lashga harakat qiladi, lekin ularning hech biri xato qilganini tan olishni istamaydi. Destruktiv munosabatlarning klassik namunasi: ichkilikbozlikdan aziyat chekadigan va oiladagi zo‘ravonlik namoyon bo‘lishiga moyil bo‘lgan er vaqtı-vaqtı bilan rafiqasiga tajovuzni kerakligini ta’kidlaydi. Xotin, o‘z navbatida, bu ahvoldan juda norozi, lekin er -xotinni buyuk sevgi birlashtirgani va har bir zo‘ravonlikdan keyin, er chin dildan pushaymon bo‘lgani uchun, munosabatlar davom etadi. Bunday munosabatlarning halokatli tomoni shundaki, turmush o‘rtog‘i qanchalik pushaymon bo‘lmasin, jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik holatlari qayta -qayta takrorlanadi. Buning sababi shundaki, er va xotin doimiy ravishda ta’qib qiluvchi va qurbanlik rolini o‘ynaydi va juda kamdan-kam hollarda sherik bo‘ladilar. Erkakning tajovuzkor hujumlari paytida u ta’qibchiga aylanadi va muvaffaqiyatsizligi uchun xotinini ayblaydi va pushaymon bo‘lganidan keyin, erkak xotinining e’tiborsizligi qurbaniga aylanadi, u erkakni “qayta o‘qitish” kerak deb qaror qiladi. “Oxir -oqibat, qurbanning pozitsiyasi turmush o‘rtog‘ini bezovta qiladi va u yana faol tajovuzkor harakatlarga murojaat qilib, ta’qibchiga aylanadi. Demak, destruktiv munosabatlardan qutilishi uchun oila a’zolari bir birlarini ayplashdan o‘zini tiyishlari kerak.

“Yashirin ehtiyojlarni tan oling!”

Destruktiv munosabatlardagi og‘riqli vaziyatdan chiqish yo‘lini topish uchun yashirin ehtiyojlariningizni tan olishi, ularni kamroq destruktiv yo‘llar bilan qondirishga harakat qilishi kerak. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilanishi uchun, har bir kishi hozirgi vaziyatda o‘z aybini tan olishii, to‘g‘ri fikrlashi va xulq-atvorini o‘zgartirishi lozim.

“Yangi konstruktiv munosabatlarni o‘rnating”

Destruktiv munosabatlar tugagandan so‘ng, hech qachon munosabatlarni boshlashga shoshilmaslik zarur. O‘tmishdagi munosabatlardan norozi bo‘lishga olib kelgan voqealarni qayta ko‘rib chiqishga harakat qilinishi lozim.

Siz yangi munosabatlarga kirsangiz, ruhiy shikastlangan emas, aksincha, ishonchli va boshqa odamga ishonuvchanlik bo‘lsin. Unutmang, ular hech qachon sizning ehtiyojlariningizni to‘liq qondira olmaydi. O‘zingizning ichki psixologik ehtiyojlariningizni boshqa, hatto eng yaqin odam hisobiga hal qilib bo‘lmaydi. Yana shuni unutmangki, siz alohida, mustaqil odamsiz va shaxsiy baxtingiz uchun to‘liq javobgarsiz. Toksik munosabatlardan chiqish - bu hayotning oxiri emas, balki oldinga qadam, tajriba va donolikka ega bo‘lish, shuningdek, munosib hayot kechirish imkoniyatidir. Oiladagi destruktiv xatti-harakatlardan qoching, chunki oilaviy

munosabatlarning asosiy maqsadi sheringizingizni barcha baxtsizliklar uchun ayblash emas, vaqtı-vaqtı bilan norozililingizni turli yo'llar bilan ifodalash emas, balki boshqa odam bilan baxtli bo'lishdir.

Xulosa qilib aytish joizki, oilalarda destruktiv munosabatlar oila buzilishiga, oila a'zolarining o'z turmushidan qoniqishning yo'qolishiga, ajrimlarga ba'zan esa jinoyatlarga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan oilaviy munosabatlar destruktsiyasini bartaraf etishda quyidagilarni tavsija qilamiz:

- turmush qurish yoshidagi yigit qizlarning xulq-atvovidagi destruktivlikni maxsus psixologik metodikalar yordamida o'rghanish;
- destruktsiyaga moyilligi (xarakter aktsentuatsiyasi) bo'lgan yoshlar bilan psixologik korrektcion ishlarni tashkil etish.

Adabiyotlar

1. Злоказов К.В. Деструктивное поведение в различных контекстах его проявления // Вестник Удмуртского университета. Серия «Философия. Психология. Педагогика». - 2016
2. Сатыбалова Е.В. Человеческая деструктивность: основания и формы проявления Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук Екатеринбург 2002, стр.17.
3. Шарафутдинова Х.Г. Destruktion of family pelations psychoprorkophylaxis family – neighborhood educational institution South Asian Academic Research Journals -ISSN: 2249-7137. Vol. 10 Issue 11, November 2020. р 1005-1012.
4. Шарафутдинова Х.Г. Ижобий кайфият ва инсон руҳияти хусусиятлари Республика илмий-амалий конференция материаллари то'плами Тошкент 2020 й. 25 май, 271-275 б.
5. Куликов В. Б., Злоказов К. В. Деструктивное поведение: теоретико-методологический аспект // Психопедагогика в правоохранительных органах/ – 2006

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ МЫШЛЕНИЯ

Ли Е.В. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье анализируются различные виды мышления личности, и в особенности, его актуальные формы, особенно востребованные в современном мире. Мысление, являясь одним из важнейших элементов

психики, чаще всего понимается как познавательная способность личности, которая так необходима человеку сегодня. Современный мир динамичный, технологичный, требующий новое мышление, способное анализировать, исследовать, созидать. Понятие мышление современными учеными исследуется и трактуется несколько шире, чем только как познавательная способность личности.

Ключевые слова: мышление, критическое мышление, дизайн-мышление, творческое, креативное мышление, инновационное мышление

AYRIM FIKRLASH TURLARINING FALSAFIY TAHLILI

Li Y.V. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy dunyo kishisidan talab etilayotgan shaxsiy fikrlashning ko‘rinishlari, uning o‘ziga xosliklari, tahlil qilinadi. Tafakkurlash psixikaning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda zarur bo‘lgan shaxsning bilish qobiliyati sifatida tushuniladi. Zamonaviy olimlar tomonidan fikrlash tushunchasi, shaxsning bilish qobiliyatiga qaraganda kengroq o‘rganilmoqda va izohlanmoqda.

Kalit so‘zlar: taffakur, tanqidiy taffakur, dizayn-ftaffakur, ijodiy, kreativ taffakur, innovatsion taffakur.

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF SOME KINDS OF THINKING

Li E.V. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article analyzes various types of personality thinking, and in particular, its current types, especially in demand in the modern world. Thinking, being one of the most important elements of the psyche, is most often understood as the cognitive ability of the person, which is so necessary for a person today. The modern world is dynamic, technological, requiring new thinking, capable of analyzing, exploring, creating. The concept of thinking by modern scientists is explored and interpreted somewhat more broadly than only as the cognitive ability of the individual.

Key words: thinking, critical thinking, design thinking, creative, creative thinking, innovative thinking.

Мышление является объектом научного интереса различных наук, в первую очередь психологии, философии, физиологии высшей нервной деятельности и др. «Мышление – это опосредованное – основанное на

раскрытии связей, отношений, опосредований - и обобщенное познание объективной реальности»[1]. Познавательная способность мышления указана во многих определениях психологов, философов и др.

Современные ученые исследуют различные виды мышления, поскольку оно необходимо личности для реализации свои способности, достижения успеха, конкурентоспособности в условиях жесткой конференции. Эта позиция схожа у исследователей различных специальностей и стран. Разнообразие исследований видов мышления широко представлено в зарубежных научных публикациях, некоторые из которых будут проанализированы в данной работе.

Одним из видов или типов мышления является критическое мышление, которое рассматривается в связи или соотношении с другими видами мышления, например, дизайн-мышлением, творческим и др.

К.Б. Шеффилдом описывается опыт формирования прикладного критического мышления в Рочестерском технологическом университете, результатами обучения обозначены: критическое мышление, глобальная взаимосвязь, этическое мышление, интегративная грамотность и инновационное/творческое мышление. Взаимосвязь критического, творческого и инновационного мышления представлена и в российских научных исследованиях. Автор подробно описывает историю формирования данного курса, связанных с ней множество трудностей и проблем, но к сожалению, не описывает результаты прикладного критического обучения. Лишь в выводах автор упоминает этическое мышление и перечисляются следующие добродетели: вежливость, храбрость, смиренение, честность, сочувствие, а также скептицизм, любопытство и готовность к критическому мышлению. Сочувствие также является первым шагом дизайнера мышления малазийского университета. На этапе сочувствия студенты формулируют проблемы и трудности, которые они могли бы решить с помощью их проектов. «Учащиеся могут проводить интервью и / опрос с членами общества, чтобы лучше понять проблемы...»[2]. Д.Д. Эриксон также отмечает сочувствие, эмпатию как этап дизайн-мышления[3].

К.Б. Шеффилд под критическим мышлением понимает способность рассматривать различные, конкурирующие точки зрения, их опровержение, делать умозаключения, используя доказательство и аргументацию. «Критическое мышление - это обучение дисциплинированному и оценочному мышлению, анализу и интерпретации процессов, с помощью которых делаются различные утверждения и делаются надежные выводы»[4].

Вводный курс критического мышления преподается на кафедре философии Рочестерского технологического университета, но в будущем может стать междисциплинарной. К сожалению, несмотря на то, что

критическое мышление связано со способностью анализировать, делать выводы, аргументировать, опровергать в нашем университете подобный курс преподают не на кафедре философии.

Авторский коллектив чилийских ученых так же под критическим мышлением понимает способность к аргументации, сопоставления аргументов, навыки выводного знания. «Это рассматривается как саморегулируемый процесс, который исходит из развития таких навыков, как интерпретация, анализ, оценка и объяснение; выходя за рамки технических навыков»[5].

Подчеркивая важную роль критического мышления Даяна Халперн утверждает, что: «Образование, рассчитанное на перспективу, должно строиться на основе двух неразлучных принципов: умения быстро ориентироваться в стремительно растущем потоке информации и находить нужное, и умения мыслить и применить полученную информацию»[6]. А.С.Боброва проводит анализ понятия критическое мышления и делает следующее заключение.

«Универсальное определение вряд ли возможно, так как к нему должен быть выдвинут такой набор требований, одновременное удовлетворение которых может реализоваться лишь в рамках чрезмерно пространной формулировки, то есть формулировки, практически полностью лишенной какой бы то ни было серьезной содержательной нагрузки»[7].

И все же, необходимо определиться с понятием критическое мышление. Критическое мышление связано с другими видами мышления, такими как продуктивное, проблемное, творческое, логическое, системное. Критическое мышление связано с проблемным, т.к. оно необходимо на этапе подведения итогов, решений задач, оценки результатов. Одним из свойств, критического мышления отмечают следующее: «Критичность мышления представляет умственную способность, направленную на нахождение оптимального способа решения задач»[8].

Американский психолог Д. Халперн использует следующее определение «... критическое мышление – это использование когнитивных техник или стратегий, которые увеличивают вероятность получения желаемого конечного результата»[6]. Автор отмечает, что характеристиками критического мышления являются: контролируемость, обоснованность, целенаправленность при решении задач, формулировании выводов, оценки и решении задач. Критическое мышление еще называют направленным мышлением, оно нацелено на получение желаемого результата.

Инновационное мышление часто ассоциируют с творческим мышлением. Тождественны ли они? Под творчеством понимают деятельность личности, создающую социально значимые ценности. Под инновациями

понимают введение новшества в практику, ее реализацию в общественную практику. Так, отмечает, что «...инновационное мышление характеризуется мотивацией, особенно мыследеятельностью, приводящей к созданию ментальной модели, и внешней предметной деятельностью по воплощению этой модели на практике»[9].

Инновационное мышление должно быть творческим, конструктивным, преобразующим, прагматичным и т.д. «Творческое мышление всегда приводит к субъективно новым результатам»[9]. Для данного определения больше подходит понятие креативность, под которой понимают творческую способность, имеющую субъективную значимость. «... истинное творчество всегда созидательно, научить творчеству невозможно, можно только овладеть приемами творения путем создания для студентов не только благоприятных условий-ситуаций, требующих внутренней гармонизации, но и борьбы с собой, со всеми недостатками, преодоления сомнений в себе и в своих возможностях»[8]. Творчество является общественно значимо, в том время инновации становятся инновациями, когда реализуются, получают общественное признание.

Н.И. Чернецкая проводит детальный анализ понятий творчество, креативность и творческое мышление. «Творчество является общенаучной категорией, а творческое мышление – психологическим состоянием. При этом использование термина «творчества» в сугубо психологическом контексте обозначает, скорее, всю, совокупность результатов творческого мышления, его условия, введение в практику продуктов творческого мышления»[10]. Отмечается отличие между понятиями креативность творческое мышление: «Если творческое мышление является психологическим процессом, то креативность – это особое качество, свойство личности, выраженная способность к творческому мышлению»[10]. Творческое мышление является высшей формой мышления, высший этап его развития, т.к. оно максимально синтетичное и обобщенное по отношению к конкретным образам чувственным переживаниям, невозможно без инсайта, прогнозирования, обобщенного охвата. Анализируя соотношение креативного и инновационного мышления, Е.В. Батоврина и М.С. Блохина находят существенные отличия. Авторы пишут, что главным отличием инновационного мышления от творческого (креативного) типа мышления является его прикладной характер, а также «... ориентация на результат, связь с профессиональной деятельностью субъекта инновационной активности и его профессиональной подготовки»[11]. В таблице разработанной авторами сделал подробный анализ о различиях между креативностью и инновационным мышлением. Авторы не делают различие между творчеством и креативностью. Креативность: создание нового, которому

характерно интуиция, иррациональность, спонтанность, ее результат неожиданный, непрогнозируемый, предпосылками формирования является воображение и фантазия. Главным стимулом для творца является сам процесс, а не его результат. Неужели композитору, художнику, ученому не важны результаты их творчества? Кроме того авторы утверждают, что для креативности не требуется специальная подготовка и она не связана с конкретным видом деятельности. Нельзя не согласиться, если иметь в виду, именно, креативность, а не творчество. Творчество, безусловно, требует подготовки профессиональной, есть ряд исключений, самородки, чье творчество свидетельствует о большом даре, таланте. Попробуйте создать шедевр, научное открытие, не имея профессиональной подготовки. Инновационному мышлению свойственно не только порождение нового, но и его внедрение, не только идеи, но и их реализация, интуиция и рациональность, pragmatичность.

Результат инновационного мышления, ожидаемый и прогнозируемый, но всегда ли внедрение инноваций приводит к ожидаемому эффекту, результату. Инновационное мышление требует специальной подготовки и связано с конкретным видом деятельности, разве не было инноваций, которые были результатом случайных действий? Главным стимулом является стремление к достижениям, а удовлетворение от результата инновационной деятельности.

Возможно, в этом есть сходство с критическим мышлением, но отличие в практической реализации инновационной деятельности. А.П. Усольцев и Т.Н. Шамало отмечают, что инновационному мышлению характерна научность, трудно представить современные инновации без научных исследований. Классификация инноваций разнообразна и не все, что связано с инновациями имеет тесную связь и наукой, но речь идет об общей тенденции. Социально-позитивный характер инновационного мышления означает, что оно направлено на созидание, в итоге повышение производительности труда, улучшения условия труда. Не все инновации носят позитивный характер, как пишет автор, но настаивает на необходимости подчеркивать благотворное влияние на жизнь людей.

Мышление, понимаемое как психологическая способность личности к познанию, несколько расширилось и умножилось в его видах или типах. Так, у всех на слуху такие понятия как критическое мышление, инновационное мышление, креативное мышление, дизайн-мышление и т.д. Каждый из видов мышления имеет свои особенности, которые гармонично дополняют друг друга. Естественно они не могут быть пропорционально развиты в каждой отдельной личности, но задачей современной педагогике является развивать

мышление учащихся с целью формирования высококвалифицированных и конкурентоспособных специалистов, создание благоприятных условий и обучения в них необходимых навыков.

Литература

1. Ефременко В.В., Мищенко В.И. Основы психологии и педагогики: учебно-методическое пособие – М.: Изд-во «Перо», 2017. – 232 с.- С.
2. Balamuralithara Balakrishman/ Exploring the impact of design thinking tool among design undergraduates: a study on creative skills and motivation to think creatively// International Journal of Technology and Design Education, 2021/ <https://doi.org/10.1007/s10798-021-09652-y>;
3. Jonatan D. Ericson/Mapping the Relationship Between Critical Thinking and Design Thinking// Journal of the Knowledge of Economy. 2021// <https://doi.org/10.1007/s13132-021-00733-w>
4. Clarrance Burton Sheffield Jr. Promoting Critical Thinking in Higher education: My Experiences as the Inaugural Eugene H. Fram Chair in Appliaed Critical Thinking at Rochester Institute of Technology// Topoi, 2018/ <https://doi.org/10.1007/s11245-016-9392-1> p. 158
5. Migel Nussbaum, Camila Barahona, Fernanda Rodrigues, Victiria Guentella, Felipe Lopez, Enrique Vazquez-Uscanda, Veronica Cabezas. Taking critical thinking and grit online// Education Tech Reseach Dev, 2020/ <https://doi.org/10.1007/s11423-020-09867-1>
6. Халперн Д. Психология критического мышления. – Санкт Петербург: Питер-С. 19; 20
7. Боброва А.С. Критическое мышление. Проблема определения// Рацио.ru, 2017. 18 (1) 26-36 с. с.- 36
8. Плотникова Н.Ф. Формирование критического мышления студентов вуза в условиях командной формы организации обучения: монография.- Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2015. 84 с. - с. 12; 11
- 9 Усольцев А.П., Шамало Т.Н. Формирование инновационного мышления школьников в учебном процессе./ образование и наука.2014 № 4 (113)- С. 20; 22
10. Чернецкая Н.И. К проблеме интеграции психологических теорий творческого мышления// Вестник Российского государственного университета им. И. Канта. 2009. Вып. 5. С. 45—50.- С . 46
11. Батоврина Е.В., Блохина М.С. Развитие инновационного мышления персонала в процессе профессиональной подготовки./ Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия: Социальные науки, 2017, № 4 (48), 126-134 с. – С. 128

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK JARAYONLARNI
TASHKIL QILISHNING MOHIYATI, HOLATI VA MUAMMOLARI**

**Muxammadiyeva X.K. – Toshkent davlat pedagogika universiteti
o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Maqolada ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini ochishb o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish va uning metodologiyasi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qitish metodi, ta’lim texnologiyalari, verbal muloqot, ta’lim jarayoni, shaxs, didaktika.

**СУТЬ, СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ
ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Мухаммадиева Х.К. - преподаватель Ташкентского
государственного педагогического университета**

Аннотация. В статье освещены место и значение использования дидактико-игровых образовательных педагогических технологий, а также методика их применения в процессе обучения природоведению в начальных классах.

Ключевые слова: метод обучения, образовательные методы, вербальное общение, процесс обучения, личность, дидактика.

**THE ESSENCE, CONDITION AND PROBLEMS IN ORGANIZING
DIDACTIC PROCESSES IN PRIMARY EDUCATION**

Muhammadiyeva Kh.K. - teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. In the article is lightened the place and importance of using didactic games educational pedagogical technologies, as well as methodology of using them in the teaching process of teaching nature studies in the primary classes

Key words: teaching methodology, educational methods, oral speech, teaching process, personality, didactics.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz ta’limi sohasida yangicha yondashuvlar faol joriy etilmoqda, yangi turdag'i ta’lim tashkilotlari, xususan, Prezident maktablari, ijod

maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Birgina 2020-yilda mamlakatimizda matematika fani bo‘yicha 56 ta, kimyo-biologiya fani bo‘yicha 28 ta, informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha 14 ta ana shunday maktablar tashkil etildi. Bu sohada jahon tajribasi o‘rganilib, yangi tartib-qoidalar, zamonaviy ta’lim usullari joriy etilmoqda. Nodavlat ta’lim maskanlari davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotgani tufayli hozirgi vaqtda ularning soni 195 taga yetdi. Bularning barchasi o‘z ijobjiy natijasini bermoqda. Buni 2017-2020-yillarda o‘quvchilarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 30 ta medalni qo‘lga kiritgani misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Davlat mustaqilligining 30-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqida: “Bugun yangilanayotgan O‘zbekistonda tarixan qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma’rifiy va madaniy muhit paydo bo‘ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor,-deb ta’kidlab, uzlusiz ta’limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida ahamiyat qaratish lozimligini uqtirdilar. Fikrlarini davom ettirib, hurmatli Prezidentimiz yoshlarni talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlargacha o‘rgatish uchun o‘tgan o‘quv yilida 339 ta kasb-hunar maktabi, 194 ta kollej va 195 ta texnikum faoliyati yo‘lga qo‘yilganligini hamda bugungi kunda islohotlarimiz talabi, hayotning o‘zi oliy ta’lim sohasini jadal rivojlantirishni taqozo etishi, shu bois yurtimizda so‘nggi 5 yilda 64 ta yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkazilganligini e’tirof etdilar.

Mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlangan mamlakatlar qatoridagi ta’lim tizimiga tenglashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida boshlang‘ich ta’limni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga Milliy dastur asosida zamonaviy ta’lim berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar hisoblanadi. Aynan, boshlang‘ich ta’limda didaktik jarayonlarni zamonaviy tashkil qilish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish muhim va zaruriy masala hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchi shaxsini sog‘lom va yetuk qilib tarbiyalash, mактабда o‘qishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish maqsadini ko‘zlagan holda yetti-o‘н yoshdan olib boriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchining individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta’minlovchi, uni uzlusiz ta’limning keyingi bosqichi – o‘rta konsentrda o‘qishini ta’minlovchi, har tomonlama maqsadli yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya jarayonidir.

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limni isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-

fevraldagi 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi[1], PF-4947-son, 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son, 2020-yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son, 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son qarorlarida ifoda etilgan ta’lim jarayonida, shu jumladan, boshlang‘ich ta’lim jarayonida insonparvarlik omilini ta’minlaydigan “shaxs manfaatlari va ta’lim ustuvorligi” g‘oyalarining muhim ahamiyati ko‘rsatib berilgan. O‘zbekistonda shaxs manfaatlari va ta’lim ustuvorligi mamlakatimizning ravnaqiga ravnaq qo‘suvchi davlat siyosati darajasidagi masaladir.

Ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz ta’lim tizimi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta’lim deganda – o‘quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta’lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlarining o‘zaro muvofiqligi, istiqbolga yo‘naltirilganligi tushuniladi[2].

2020-yil 23-sentyabrdan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-sonli Qonunining qabul qilishini mavzuning dolzarbligini belgilaydi[3].

Boshlang‘ich ta’limdagи pedagogik jarayon – ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, pedagogik faoliyat ta’sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan tizimdir.

Bu tizimni boshqarishda va uning sifatini yuqori pog‘onaga yuksaltirishda yangi yo‘llarni topish, ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’lim didaktik jarayonlarida o‘quvchining rivojlanishini ta’minlovchi shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirishda Milliy dasturlarni tahlil qilish, ularning sifatini oshirish, shu asosda o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakasini rivojlantirish, ularning kompetentligini muntazam rivojlantirish, ularning aqliy, jismoniy, ma’naviy, estetik rivojlanishlarini ta’minalash zarurdir.

Tadqiqot doirasida sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjalari, adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etildi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik sifatlarini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ilmiy-metodik asosida ta’lim berish

bugungi kundagi ta’lim tizimining islohoti davrida muhim vazifalardan biri ekanligi tavsiflangan. Ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini ochish zamonaviy ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogikasini tatbiq etish imkoniyatini berishi, umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida o‘tkazilayotgan monitoring mazmuni haqida fikr bayon etilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish ta’lim nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha hamdo‘stlik va xorijiy mamlakatlar olimlarining tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy pedagog o‘qituvchiga qo‘yilgan talablar va ta’lim jarayoni sifatini takomillashtirish bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilganiga guvoh bo‘ldik.

O‘z-o‘zini tashkil etishning konseptual hamda g‘oyaviy asoslari, shaxsning quvvatlari yordamida o‘z faoliyatini tashkil etish imkoniyatini tan olishga ko‘maklashishi, bunda u o‘zining ichki imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga erisha olishi Gataulina Olga Iosifovnaning “Педагогические условия эффективного сотрудничества учителя и учащихся в процессе развивающего обучения в начальной школе” (Moskva, 2018) mavzusidagi dissertatsiyasida o‘z ifodasini topgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish ta’lim nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha hamdo‘stlik va horijiy mamlakatlar olimlarining tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy pedagog o‘qituvchiga qo‘yilgan talablar va ta’lim jarayoni sifatini takomillashtirish bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilganiga guvoh bo‘ldik.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida rahbar xodimlarning faoliyatini baholash, ta’lim sifati, uni baholash va sifat menejmentiga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qiladi va boshlang‘ich tarbiya tashkilotlarida ta’limiy va tarbiyaviy sifat nazoratining ichki baholash mexanizmlarini takomillashtirish borasida ilmiy g‘oyalarni ilgari suradi[4].

Mualliflar mazkur yondashuv va texnologiyalar tahsil oluvchilarni axloqan va ma’nana yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishga xizmat qilishini ta’kidlashadi.

Tadqiqot mavzusi doirasidagi ilmiy ishlanmalar, dissertatsiyalar va monografiyalarni tahlil qilish natijasida quyidagi fikrlarni e’tirof etish mumkin: ta’lim jarayoni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladi,- deb.

Olib borilgan ilmiy tahlillar boshlang‘ich ta’limda quyidagi muammolar borligini ko‘rsatdi:

- boshlang‘ich ta’limda hanuzgacha o‘quvchiga manipulyativ yondashuv mavjud, ya’ni “Sen ham shunday qil!” shiori ustuvor ahamiyatga ega;
- dasturda berilgan muayyan bilim, ko‘nikmalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish, bu “maktab modelining frontal darslari” nusxasini anglatadi. Mehnatning ustuvor shakllari frontaldir. “O‘quvchini bilim, ko‘nikma bilan qurollantirish” bo‘yicha ko‘rsatma beriladi;
- o‘quvchi pedagogik tizim kuchlarini qo‘llash obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilar faoliyati tashqi tartib va rasmiy intizom evaziga bostiriladi;
- barcha uchun umumiy, yagona va majburiy psixik rivojlanish;
- tarbiya xatti-harakatlarini to‘g‘rilash yoki cheklovlar, “takliflar” orqali qoidalardan chetga chiqishning oldini olishga qaratilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi yagona jamoada “o‘rtacha” o‘quvchiga emas, balki har bir o‘quvchiga uning individual bilish imkoniyatlari, ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda yondashib, psixologik pedagogik tizim sharoitini yaratishdir.

Bizning fikrimizcha, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, o‘quvchilar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to‘planadigan ta’lim muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limdagi islohotlar avtoritar tizimdan pedagogik jarayonni qurishning shaxsga yo‘naltirilgan modeliga o‘tishni ko‘zlamoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar – pedagogning e’tiborini o‘quvchining ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas’uliyat hissini rivojlanirishga bo‘lgan e’tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan ruhiy shaxsni rivojlanirishga qaratiladi. Ta’limning asosiy qadriyatining bunday e’tirof etilishi shaxsning o‘ziga xos shakllanishidir. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar har bir o‘quvchiga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o‘zlarining rivojlanish yo‘llarini tanlash huquqini berish imkoniyatini kengaytiradi. Demak, o‘qitish jarayoni o‘quvchining individual rivojlanishini tezlashtiradi. Shu bilan birga, u o‘quvchining o‘rnatilgan tartibda individual rivojlanishi, umumiy genetik rivojlanishiga ham bog‘liqdir.

O‘qish umumiy va individual anglash shakllarini yaqinlashtiradi, individual faoliyatni umumiy anglash tizimiga yaqinlashtiradi, o‘quvchining shaxsiy tajribalari va o‘qish va o‘qitish davrida yuzaga kelgan tushunchalar orasidagi tafovutlarni chaqiradi. Bugungi kunda ilg‘or xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotga joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o‘quv-metodik adabiyotlar, o‘quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida

boshlang‘ich ta’limdagi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha masalalarni tadqiq etish ehtiyoji mavjud.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi qonuni □
2. Tojiyev M., Ziyomuhammadov B. Milliy pedagogik texnologiyani ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbig‘i va uni yoshlari intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o‘rni.T.:”MUMTOZ SO‘Z”, 2010.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 sonli Qonuni, 2020 yil 23 sentabr.
5. Berdiyeva O. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar. // “Xalq ta’limi” jurnali, 2003, 1-son. –16-b.
6. Zikiryayev A. va boshqalar. O‘quvchilar bilimini tekshirishda innovatsion texnologiyalar. // “Xalq ta’limi” jurnali, 2001, 6-son. –19-b.
7. Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va yechimlari. // “Pedagogik ta’lim” jurnali, 2000, 3-son. –11-b.
8. Норбутаев Х. Межпредметные связи при обучении природоведению. // “Начальная школа”. М., 2011, № 11. –С. 25.
9. Safarova R., Shermatov L. Pedagogikaning taraqqiyot yo‘li. // “Xalq ta’limi” jurali, 2002, 2-son. –14-b.
10. Xolmetov M. Tarbiyada didaktik o‘yinlarning ahamiyati. // “Ma’rifat”, 2002, 6-son. –16-b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI BOSQICHLARI

**Toshpulatova D.K. – Toshkent davlat pedagogika universiteti
o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modelining boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga joriy etilishi metodika yordamida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish muammosini hal etishning nazariy va amaliy tajribasiga tayanib, biz tomonimizdan integrativ yondashuvda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bosqichlari amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: Mantiqiy fikrlash, integrativ yondashuv, tayyorlov bosqich,

operatsion bosqich, umumlashtiruvchi bosqich, intellektual jarayon, emotsional jarayon.

ЭФФЕКТИВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Тошпулатова Д.К. - преподаватель Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. Внедрение интегрированной модели формирования и совершенствования логического мышления младших школьников в практику начального образования осуществляется с использованием методики. На основе теоретического и практического опыта решения проблемы формирования логического мышления у младших школьников нами проведены этапы развития навыков логического мышления у младших школьников в интегративном подходе.

Ключевые слова: логическое мышление, интегративный подход, подготовительный этап, операционный этап, этап обобщения, интеллектуальный процесс, эмоциональный процесс.

EFFECTIVE STAGES OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF PUPILS IN PRIMARY EDUCATION

Toshpulatova D.K. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The introduction of an integrated model of formation and improvement of logical thinking of pupils in primary school into the practice of primary education is carried out by using the methodology. Based on the theoretical and practical experience of solving the problem of formation of logical thinking of pupils in primary school, we have carried out stages of development of logical thinking skills in primary school students in an integrative approach.

Key words: Logical thinking, integrative approach, preparation stage, operational stage, generalization stage, intellectual process, emotional process.

Bu bizga modelni amalga oshirish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatlari tahlilini to'liqroq ifodalashga imkon berib, buning oqibatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllanganligi darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining amaliyotida modelni va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlarini samarali joriy etishni ta'minlaydi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun

boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayonining asosiy komponenti sifatida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tanlandi. Tajriba-sinovning 2019-2021-yillardagi shakllantiruvchi bosqichida 3-4 sinf o‘quvchilarining tajriba guruhlari o‘quv jarayoniga ishlab chiqilgan integrativ yondashuvda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish ishlarini joriy etish amalga oshirildi.

Nazorat guruhlarida (NG) mashg‘ulotlar an’anaviy o‘qitish doirasida amalga oshirildi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilmagan edi. Har bir tajriba guruhlarida ma’lum pedagogik sharoitlar amalga oshirildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishning quyidagi tayyorlov, umumlashtiruvchi bosqichlari mavjud.

Birinchi – tayyorlov bosqichi boshlang‘ich ta’limning birinchi yilidagi ta’limga mos edi. Mazkur bosqich boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini amalga oshiriladigan faoliyatga tayyorlik holatiga keltirishga qaratilgan edi. Mazkur bosqichda ikkita yo‘nalish amalga oshirildi: motivatsion va yo‘naltiruvchi. Motivatsion ish yo‘nalishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida amalga oshiriladigan faoliyat hamda uning mazmuniga ijobiy munosabatni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Yo‘naltiruvchi ish yo‘nalishi yo‘nalganlik va ko‘rsatmalar tizimini yaratish orqali amalga oshirilib, ularni inobatga olish egallanadigan xatti-harakatlarni bajarish uchun zarur edi (shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid, kommunikativ). Yo‘naltiruvchi asos sifatida quyidagilar xizmat qildi: xatti-harakatning yakuniy mahsuli namunasi, taqqoslashi, xatti-harakat predmetlari, qurollari, fikrashi.

Mazkur bosqich boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qo‘yilgan masalalarni yechishda o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan hamkorlikda-individual o‘zaro aloqlarining ustunligi bilan ifodalandi. Birinchi bosqich davomida turli predmetlarni o‘rganishda tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o‘quv xatti-harakatlarini bajarishning dastlabki tajribasi hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z xulqlari va faoliyatlarini taklif etilgan namuna va qoidalarga mos ravishda qurish, mantiqiy fikrlash bajariladigan xatti-harakatlarni rejalashtirish, nazorat qilish va tuzatish ko‘nikmalari shakllantirildi.

Ikkinchi – operatsion bosqich boshlang‘ich ta’limdagi keyingi bir yarim yilga mos keldi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qituvchi yoki sinfdoshlar bilan hamkorlikdagi tartibga solishda moddiy vositalarga tayanish bilan xatti-harakatlarning yangi usullarini qurish va to‘g‘ri bajarishlarini ko‘zda tutdi. Mazkur bosqichda hamkorlikdagi yechish uchun taklif etiladigan predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalarni asta-sekin murakkablashtirish, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan hamkorlikdagi ish shakllarining asta-sekin almashishi sodir bo‘ldi.

Topshiriqlarni bajarishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bir-birlarini

murojaat etish ehtiyoji yuzaga keldi, bu esa, o'quv vaziyati xususiyatining o'zgarganligi to'g'risida guvohlik berdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil harakat qiladi va o'qituvchiga savol berib, fikrlar almashadigan, bu bilan o'quv xatti-harakatlarining predmetli (masalani yechishni tashkil etuvchi harakatlar) va psixik (shakli, ixchamligi, vaqt bo'yicha harakatni o'zgartirish) tomonlarini takomillashtira boshladilar. Ikkinci bosqich yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilari predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalarni izchil hamkorlikda yechishga tayyor edilar.

Uchinchi – umumlashtiruvchi bosqich tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o'quv xatti-harakatlarini hamkorlikda yechish jarayonida predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalarni takomillashtirishni ko'zda tutdi va bir yil davom etdi. Mazkur bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatining funksional bo'g'inlarini amalga oshirishda o'quv hamkorliklaridagi mustaqillik darajalarining o'sishi kuzatildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qiyinchiliksiz hamkorlikdagi ishning predmetli sharoiti bilan belgilangan boshlang'ich xatti-harakatlar va operatsiyalarni taqsimladilar, xatti-harakat usullari bilan almashdilar, umumi faoliyat usullarini rejalashtirdilar, bu esa qo'yilgan vazifalarda hamkorlik – o'zaro aloqadorligini belgiladi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarini masalani yechishning butun jarayonini tashqi namoyon bo'lishisiz ayta boshlaganliklarini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish metodikasining har bir bosqichida barcha pedagogik sharoitlar amalga oshirildi.

Birinchi pedagogik sharoit sinfda umumi an'analarni shakllantirish, ahamiyatli hodisalarini jamoaviy boshdan kechirish vaziyatlarini yaratish, har bir o'quvchining sinf hayotiga emotsiyonal kirishishga intilishi, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatning innovatsion turlarida: tanlovlardan, bellashuvlardan, festivallardan, ijodiy loyihamdan va boshqalarda ishtirok etishlari bilan amalga oshirildi.

Ikkinci pedagogik sharoitni amalga oshirish predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalarni maqsadga muvofiq tanlash, ma'lum izchilligi va aniq ta'lim sohalari bilan bog'liqligini ko'zda tutdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga taklif etilgan masalalarni yechishlari shartlar bilan tanishish, yechish va nazorat kabi uchta ketma-ket bosqichlarda amalga oshirildi. Masalani o'quv hamkorligi sharoitlarida hamkorlikda yechishning barcha bosqichlari individual yechimiga nisbatan ma'lum o'ziga xoslikka ega edi, biroq individual yechimlarning o'z vaqtidagi va samarali nazorati alohida ahamiyatga ega edi.

Taklif etiladigan predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalar, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasining tashxis qilish vositasi sifatida

ham foydalanilganligini ta'kidlash lozim. O'qituvchi topshiriqlarni tanlashni mustaqil yoki boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy va ijodiy topshiriqlar hamda mashqlar talablariga rioya etildi. Mashg'ulotlarda foydalaniladigan topshiriqlar:

- 1) qiziqarli bo'lishi kerak (shakli, mazmuni, syujet va boshqalar bo'yicha; yechish usuli bo'yicha yoki natijaning kutilmaganligi);
- 2) murakkablik darajasi bilan farqlanishi, bir necha bajarish usullariga (va javoblar) ega bo'lishi kerak;
- 3) qiziqarli, tarbiyaviy, amaliy ahamiyatga ega bo'lган va fanlararo aloqador mazmunni tanlash kerak;
- 4) ularni bajarish ma'lum bilishga oid bilimlarni egallashsiz amalga oshirib bo'lmaydigan tarzda ifodalanishi kerak;

Yuqoridagilarni inobatga olib mantiqiy fikrlash uchun masalalar to'plami quyidagicha tuzildi:

1. 1, 2, 3, 4, 5, 6 sonlaridan bir marta foydalangan holda, 2 ta 3 xonali son tuzildi. Hosil bo'lган sonlar yig'indisi eng ko'pi bilan nechaga teng bo'lishi mumkin?
2. Arifmetik-sudokuda har bir qator va ustunda 1 dan 4 gacha bo'lган sonlar bir martadan ishtirok etadi. Bo'yalgan katakda qaysi raqam yashiringan?

1*1		1*3	
2*2	6-3		6-5
4-1	1+3	8-7	
9-7	2-1		

3. Sonlar ketma-ketligida birinchi had 7 ga va ikkinchi haddan boshlab har bir had oldingi hadga shu hadning tartib raqami ko'paytmasiga teng. Shu ketma-ketlikning nechanchi hadi 5040 ga teng?

4. Natural sonlar quyidagi tarzda bo'yalmoqda: 1-ko'k, 2-qizil, 3-yashil, 4-ko'k, 5-qizil, 6-yashil, va hokazo. Qizil va ko'k rangli sonlarning yig'indisi qanday rangda bo'ladi?

5. 3 ta egizak va ulardan 3 yoshga katta bo'lган akasi tug'ilgan kunini nishonlashmoqda. Ularning yoshlari yig'indisi nechaga teng bo'lishi mumkin?

6. O'yingohda bolalar o'yingoh tomonini o'chashdi. Natijalarga ko'ra, Jahongirda 15 qadam, Akmalda 17 qadam, Shahzodda 12 qadam va Murodda 14 qadam chiqdi. Kim kattaroq qadam tashlagan?

7. Faqat 1, 2 va 3 raqamlaridan tashkil topgan sonlarni “ajoyib sonlar” deymiz. (Raqamlar takrorlanishi mumkin) U holda 10 dan 32 gacha bo‘lgan oraliqda nechta “ajoyib son” bor?

8. Quyonlar oilasi karamlar va sabzilar bilan oziqlanadi. Har kuni ular 10 ta sabzi yoki 2 ta karam yeyishadi. o‘tgan hafta ular 6 ta karam yegan bo‘lsa, qolgan kunlari nechta sabzi yeyishgan?

9. Samandar va Inoyat bir binoda yashashadi. Samandar Inoyatdan 12 qavat yuqorida yashaydi. Bir kuni Inoyat Samandarni ko‘rish uchun yuqoriga chiqdi. Yo‘ning yarmiga kelganida 8-qavatda ekani ma’lum bo‘ldi. Inoyat nechanchi qavatda yashaydi? Uchinchi pedagogik sharoitni amalga oshirish o‘qituvchining boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan uning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari, o‘quv faoliyati jarayonida aniqlangan yutuqlari va qiyinchiliklari, sinfdoshlari va ota-onalari bilan munosabatlarini muhokama qilish orqali amalga oshirildi. Sanab o‘tilgan tavsiflarning hamkorlikdagi tahlili boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z xulqlari ko‘rsatkichlarini o‘zgartirishlariga yordam berdi. Mazkur pedagogik sharoitni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun “Shaxsiy yutuqlar kundaligi” dan foydalanildi, u to‘rt yil davomida har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining individual o‘sishini kuzatish imkonini berdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion-metodlardan foydalanilganligini ta’kidlash muhim bo‘lib, biz quyidagilardan foydalandik:

1) intellektual jarayonlar, ular fikrlash, mulohaza yuritish, asoslash, isbotlash holatlarini uyg‘otadi (analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash);

2) emotsional jarayonlar (muvaqqiyat, xursandchilik, o‘z yutuqlaridan faxrlanish, faoliyatdan qoniqishni boshdan kechirish);

3) tartibga soluvchi jarayonlar (kuchlarni jamlash sifatida irodaviy intilishlar, maqsadga yo‘nalganlik, qaror qabul qilish, tirishqoqlik, qat’iyatlilik, diqqat);

4) ijodiy jarayonlar, ular tasavvur, xayolot, yangi obrazlarni, modellarni yaratish va b.q.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni amalga oshirish pedagogik sharoitlarini joriy etish ma’lum fanlarni o‘zlashtirish doirasida darsda va darsdan tashqari vaqtida sodir bo‘lib, ular tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ma’lum imkoniyatlarni ochib berdi.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva B.S. Akademik litsey o‘quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida): Dis....ped.fan.nom.– Toshkent: TDPU,2002.

2. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent:

Iste'dod, 2008.

3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Dis. ... ped. fan. nom. – T.: Buxoro davlat universiteti, 2002.
4. Алексашина И.Й. Педагогическая идея: зарождение, осмысление, воплощение. – СПб., 2000.
5. Амонашвили Ш.А. Гуманно-личностный подход к детям. – М.: Изд-во Ин-та практ. психологии, 1998.
6. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2002.
7. Аспекты модернизации российской школы: науч.-метод. рекомендации к широко масштабному эксперименту по обновлению содержания и структуры общего среднего образования. – М.: ГУ ВШЭ, 2002.
8. Бабанский К. К. Интенсификация процесса обучения. – М.: Знание, 1987.
9. Белкин А.С. Диссертационный совет по педагогике (опыт, проблемы, перспективы): научное издание. – Екатеринбург, 2005.
10. Бесспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров. – М.: изд-во Москов. псих.-социал. института, 2002.

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLAR VOSITASIDA O'QUVCHILAR LUG'AT BOYLIGINI BOYITISH METODIKASI

Musurmonova A.A. - Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. O'quvchilarning nutqiy savodxonligini yozma ifodalashlarida, birinchi navbatda, to'g'ri yozish ko'nikmalar shakllantirilishi ko'zda tutiladi. To'g'ri yozuv avtomatlashadigan hodisa. To'g'ri yozuvga doir bilimlar sistematik mashqlar davomida ko'nikmaga, so'ng malakaga aylangan murakkab jarayon. Malaka til hodisalarini ongli egallash asosida o'zlashtiriladi, rivojlantiriladi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'atini boyitish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar, lug'at, mustaqil ishlar, lug'atini boyitish.

МЕТОДИКА ОБОГАЩЕНИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ РАБОТ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Мусурманова А.А. – магистрант Термезского государственного
университета**

Аннотация. В письменном выражении устной грамотности студентов, в первую очередь, предусмотрено формирование правильных письменных навыков. Правильное письмо - это автоматическое мероприятие. Знание правильного письма - сложный процесс, который при систематических упражнениях превращается в навык, а затем в умение. Навыки приобретаются и развиваются на основе осознанного овладения языковыми явлениями. В статье рассматриваются вопросы пополнения словарного запаса младших школьников.

Ключевые слова: начальная школа, ученики, словарь, самостоятельная работа, пополнение словарного запаса.

METHODOLOGY OF ENRICHING THE VOCABULARY OF LEARNERS THROUGH INDEPENDENT WORK IN NATIVE LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY CLASSES

Musurmonova A.A. - Master of Termez State University

Annotation. In the written expression of students' oral literacy, first of all, the formation of correct writing skills is provided. Correct writing is an automated event. Knowledge of correct writing is a complex process that becomes a skill during systematic exercises, and then a skill. Skills are mastered and developed on the basis of conscious mastery of language phenomena. The article deals with the issues of enriching the vocabulary of primary school students.

Key words: elementary school, students, dictionary, independent work, vocabulary enrichment

Uzluksiz ta'lismida ona tili ta'limi o'quvchilarning o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda ifodalash ko'nikmasini rivojlantirish uchun nutqini leksik birliklar bilan boyitish; adabiy va badiiy tilning grammatik shakllarini egallashlariga erishish; gapda so'zlarning grammatik qurilishini o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadini ko'zlaydi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun maxsus leksik-semantik mashqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning ko'rgazmalilik, muvofiqlik, izchillik, soddadan murakkabga qarab borish, onglilik, rivojlantiruvchi kabi tamoyillariga amal qilish taqozo etiladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limining bosh vazifasi turli usulda va mazmunda tashkil etiladigan mashqlar yordamida o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi. Bola maktabga kelgunga qadar oila muhitida, maktabgacha ta'lismuassasalarida qiziqishlari va ehtiyojlarini ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarni gap tarkibida turli shakllarda qo'llash namunasini o'zlashtirgan bo'ladi. Lekin uning nutqiy arsenali maktabda o'rganiladigan yangi tushunchalarni, fikrlarni, maktabga kelgan kunidagi hissiyotlarini ifodalashi uchun so'z zahirasi

yetishmaydi. Maktab oldida turgan eng asosiy vazifa o‘quvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish asosida o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, nutq va tafakkurini, mantiqiy fikrlashini o‘stirishdir.

Mantiqiy fikrlashning dastlabki usuli tahlildir. Til hodisalarini tahlil qila olish ko‘nikmasi maktabgacha davrdanoq shakllana boshlaydi. Boshlang‘ich sinflardan dastur asosida rivojlna boradi. Til ta’limida tahlil bilan sintez chambarchas bog‘langan bo‘lsa-da, mashq matnlari tahlili asosida o‘zlashtiriladigan bilimlarni umumlashtirish o‘quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug‘diradi. Sintez ta’lim amaliyotida kam uchraydi. Chunki mantiqiy tahlil, odatda, alohida emas, balki boshqa o‘quv-biluv faoliyatining (umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, xulosalarni shakllantirish) tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Tahlil va sintezning birlashtirilishi tushunchalarni ta’riflashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar “Alifbe” darsligidagi matnlarni o‘qishdan oldin rasmlarni kuzatadilar, tasvirlangan narsa, hodisa va xolatlar yuzasidan muayyan tasavvurga ega bo‘ladilar. So‘ng o‘qituvchi ularga rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish topshirig‘ini beradi.

Matn mazmuni yuzasidan beriladigan savollar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur ko‘nikmasini rivojlantiradi, o‘qishga bo‘lgan diqqati va kuzatuvchanligini oshiradi. Mazmun mohiyatiga ko‘ra “Alifbe”dagi matnlar, narsa-predmetlar tasvirlangan rasmlar savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarning nutqini boyitish manbai sanaladi. Ko‘pgina so‘zlar nafaqat savod o‘rgatish darslarida, balki boshqa predmet darslarida ham takrorlanadi va mustahkamlanadi. Shuning uchun nutq o‘stirish mashg‘ulotlari o‘quvchilarning leksikasini boyitishiga ko‘ra matematika, tasviriy san‘at, texnologiya, atrofimizdagi olam kabi boshqa predmet darslari bilan o‘zaro bog‘liqligi bois so‘z va so‘z birikmalari miqdorini bir necha marotaba ko‘paytirish lozim deb hisoblaymiz. Tajriba-sinov ishlari jarayonida savod o‘rgatish davrida bir darsda o‘quvchilarning og‘zaki nutqiga kiritish belgilangan 3-5 ta so‘z o‘rniga 6-7 ta so‘zni tavsiya qilish ijobiyligi samara berishi kuzatildi. Bu borada samaradorlikka erishish uchun barcha predmet darslarida takrorlash tizimini ishlab chiqish lozim. Kuzatishlar predmetlararo aloqa 2-yarim yillikda o‘quvchilarni ona tilini o‘rganishga intensiv tayyorlashga, dasturda ko‘zda tutilgan bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga zamin yaratishini ko‘rsatdi.

Matn ustida ishslash jarayonida undagi yetakchi g‘oyani aniqlash mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday ko‘nikmani egallamagan o‘quvchi nazariy masalalarni aniqlashtiruvchi misollarni, ma’lumot va sonlarni yodlab olish harakatiga tushadi. Natijada o‘quv materialini ongli o‘zlashtira olmaydi va ko‘p o‘tmay uni eslashga qiynaladi. Mazkur ko‘nikmani shakllantirishda quyidagilar talab qilinadi: 1) o‘quvchilarga matnda ifodalangan g‘oyaning mohiyatini tushuntirish; 2) mantiqiy fikrlash usullari bilan tanishtira borish; 3) ijodiy ishlarida

mantiqiy fikrlash usullarini qo'llashni talab qilish. Demak, matn asosidagi yetakchi g'oyani aniqlash quyi sinflardan boshlanadi.

Mavzu yuzasidan matn asosida umumlashtiriladigan ma'lumotlarni o'rghanish orqali nazariy xulosalar qilinsa (yakkadan umumga qarab borilsa), induktiv usul, agar xulosa ancha keng nuqtayi nazarni talab qilsa, deduktiv usul qo'llaniladi. Nazariy xulosalar o'quvchilarining yangi mavzuni to'la o'zlashtirishlarida muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ko'rindiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda til va tafakkur uyg'unligiga erishish muhim o'rinn tutadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "nutq" "tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasidir"[1], - deb ko'rsatiladi.

Nutq inson faoliyatining bir turi sifatida til vositalaridan foydalangan holda fikrni ifodalashdir. Til, tafakkur va nutq o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, odam o'layotganda fikrini so'zlar, jumlalar vositasida ichki nutqda ifoda etadi.

Boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limida o'quvchilarining nutqini o'stirish – ularda eshitish, anglash, gapirish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, demakdir. Shu asosda intellektual salohiyat oshiriladi, estetik va axloqiy tarbiya yo'lga qo'yiladi.

"Педагогический энциклопедический словарь"да nutqqa "insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo'lib, u fikrni ifodalash vositasi bo'lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi hamdir"[2] deb qayd etiladi.

O'quvchining nutqiy rivojlanishida tilning barcha sathlariga oid bilimlarga amal qilinadi. Til sathlarini o'zlashtirishning asosiy sharti tilning kommunikativ funksiyasidan foydalana olish ko'nikmasini egallashdir. Nutq o'stirish gap qurilishi va uning tarkibini tashkil etgan lug'at ustida ishlash bilan o'zaro bog'liq. Lug'at ustida ishlash o'quvchining lug'at boyligini oshirishdan iborat emas, o'quvchining diqqatini so'zning mazmuniga qaratish, so'zning semantikasini, ma'nosini aniqlashtirish, so'zning boshqa so'z bilan semantik bog'lanishini, aloqasini ochish, bog'lanishli nutqda har bir so'zning o'z ma'nosiga ko'ra boshqa so'zlar bilan bog'lanishini anglashlariga erishishdir. So'zlar orasida ma'noviy moslashish so'zlar bog'lanishining asosiy qoidasi bo'lib, leksik birlıklarning asosiy xususiyati gapda boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqasida ko'rindi. So'zning nutqda qanday shaklda qo'llanishini bilish qay darajada zarur bo'lsa, uning ma'nosini bilish xam shunchalik zarurdir. Inson nutqiy munosabatda zarur so'zlarni semantik ma'nosiga qarab tanlaydi va fikrini aniq ifodalashga intiladi.

So'z yakka holda hech qanday kommunikativ vazifa bajara olmaydi. Nutqni anglashning eng muhim sharti unda ifodalanayotgan fikr va mazmunni tushunishdir.

Fikrni ifodalashning turli usullari mavjud bo‘lib, ularda so‘zlar semantik ma’nosiga ko‘ra ishtirok etadi.

Ona tili darslari o‘quvchilarning aqliy, xususan, mantiqiy tafakkurining rivojlanishida boy materialga ega. Til va tafakkur chambarchas bog‘liq bo‘lib, til siz inson fikrlay olmaydi. Tafakkursiz tilning bo‘lishi mumkin emas.

O‘quvchining nutqiy qobiliyatini o‘stirishdan oldin uning fikrlash qobiliyatini o‘stirish talab qilinadi. Negaki nutqni tafakkurdan ajratib rivojlantirish mumkin emas.

Hayotdagি narsa-predmetlarning nomi va ular haqida fikr bildirish uchun o‘sha narsa-predmet anglanadi va unga munosabat bildiriladi. O‘qituvchi nutq ustida ishslash bilan bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning tafakkuri ustida ishlaydi, ularda tushunarli, aniq, izchil va asoslangan fikrlashni tarbiyalaydi.

Ona tili darslarida grammatik va orfografik tushunchalarni egallash jarayonida muayyan fikrlash faoliyatining yuz berishi bevosita mantiqiy tafakkur tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning muayyan darajada bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishlariga, nutq va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni didaktik maqsadi, mazmuni va murakkablik darajasi hamda ijodiy yondashilishiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Namuna asosidagi mustaqil ishlar.
2. Konstruktiv mustaqil ishlar.
3. Variativ mustaqil ishlar.
4. Ijodiy mustaqil ishlar.

Namuna asosidagi mustaqil ishlar o‘quvchilarni ona tili tahlimi bilan bog‘liq ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va mustahkamlash orqali mustaqil faoliyatga tayyorlaydi.

Konstruktiv mustaqil ishlar til hodisalarini nutq o‘stirish nuqtayi nazaridan tahlil qilish, bilishga doir metod va usullarni shakllantirish, bilishga bo‘lgan ichki motivlarni rivojlantirishda qulaylik yaratadi.

Variativ mustaqil ishlar topshiriqlarni to‘g‘ri bajarish orqali o‘quvchilarning so‘z zahirasini boyitishga doir ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Ijodiy mustaqil ishlar nutq va tafakkurni rivojlantirishga doir bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish malakalarini mustahkamlashi jihatidan ijodkorlikni shakllantiruvchi samarali vosita sanaladi.

Bilimlarni faollashtirishga yo‘naltirilgan mustaqil ishlarda yangi material ustida ishslash va mustahkamlash oldidan tayanch bilim va ko‘nikmalarni takrorlashga qaratilgan topshiriqlar namunaviy va konstruktiv-variativ xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Namunaviy xarakterdagi ishlar shartlari to‘liq berilgan ko‘p sonli mashqlardir. Bu ish turini o‘quvchilar tartib bilan berilgan ko‘rsatmalar asosida

bajaradilar. Konstruktiv-variativ xarakterdagи ishlar o‘quvchilardan oldin o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar yordamida har xil umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishni talab etadi. Bular, o‘z navbatida, o‘quvchilarning nutqini boyitadi, bilimlarini chuqurlashtiradi, fikrlash doirasini samarali faoliyat darajasiga ko‘taradi.

Yangi bilimlarni o‘zlashtirishga doir mustaqil ishlar mavzuning murakkabligi va o‘quvchilarning tayyorgarligiga bog‘liq bilish faolligi va nutqiy faolligining har xil darajasida namuna yoki batafsil ko‘rsatma asosida bajariladi. Rekonstruktiv-variativlik xarakteridagi ishlarda o‘quvchilarning nutq o‘stirishga doir tayanch bilim va ko‘nikmalarini tatbiq eta bilishi talab etiladi. Buning uchun tayyorlangan savoltopshiriqlar oldingi mustaqil ishlardan izlanish xarakterida bo‘lishi bilan farqlanadi. Tayyorlov mashqlari muhim rolg‘ o‘ynaydigan bu xildagi ishlar muammoni hal qilish, topshiriqni bajarish tartibini belgilash va umumlashtirishni taqozo etadi.

O‘rganilgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash hamda ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadiga yo‘naltirilgan mustaqil ishlarda nazariy tushunchalarni tizimlashtirish, umumlashtirish, bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llash, nutq o‘stirishga doir tushuncha va bilimlarni mustahkamlash - uzoq muddat davom etadigan jarayon bo‘lib, muayyan izchillikda bajariladigan topshiriqlar asosida o‘zlashtirilgan bilimlar yangi sharoitda tatbiq etiladi va oldin o‘rganilgan bilimlar doirasiga kiritiladi.

Bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilishga doir mustaqil ishlar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Nazoratning natijasi baholash bilan yakunlanadi. Bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash bosqichida mustaqil ishlar namuna va konstruktiv-variativ xarakterda bo‘ladi. Tahlim jarayonida, mustaqil ishlarning har xil turlarini amalda qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili tahlimida mustaqil ishlarning samaradorligi mustaqil ish tizimini rejorashtirish va tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish shartlariga bog‘liq. U o‘quv-tarbiyaviy jarayonda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish metodlari hamda ular egallagan bilim va ko‘nikmalarni boshqarish metodlarini parallel ishlatishga imkon beradi. Tabiiyki, bunday sharoitlarni yaratish o‘qituvchidan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini to‘g‘ri boshqarish metodlarining psixologik-pedagogik xususiyatlariga doir bilimlarni talab etadi.

Ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha quyidagicha metodik tavsiyalarni berish mumkin:

1. O‘quvchilarga beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkam bo‘lishiga yo‘naltirilgan mustaqil ishlarni tizimli tarzda tashkil qilish.
2. Mustaqil ishlarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi. Bu talabni bajarmaslik o‘quvchilarni topshiriqning maqsadini tushunmaslikka olib keladi.

Natijada ishni bajarish jarayonida o‘qituvchiga bir necha marta murojaat qilinadi. Bu esa vaqtning ko‘p sarflanishi va mustaqillik darajasining pasayishiga olib keladi.

3. Mustaqil ishlarning hajmi va mazmuni qat’iy belgilangan bo‘lishi, topshiriqni mas’uliyat bilan bajarishga qaratilishi.

4. Mustaqil ishlarning ko‘rgazmalilik xarakterida bo‘lishi.

5. Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqning bir qolipga tushgan va retsept asosida bajariladigan bo‘lmasligi, o‘quvchilarining bilimlarini yangi vaziyatda tatbiq eta oladigan bo‘lishi, bilish qobiliyati va tashabbusini shakllantirishi.

6. Mustaqil ish topshirig‘i o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi, turli vaqt oralig‘ida bajarilishining hisobga olinishi.

7. Mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarining turli darajada bo‘lishini hisobga olgan holda ularga differensial yondashilishi. (Ancha murakkab topshiriqlarni bajarayotgan o‘quvchilarga shu xildagi yangi topshiriqlarni tavsiya etish ularda tashabbuskorlikni oshiradi.)

Mustaqil ishlarni bajarishda xatoga yo‘l qo‘yilishi sabablari tushuntirib borilsa, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga zamin yaratiladi.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinflarning ona tili tahlimi jarayonida tashkil qilinadigan mustaqil ishlarda maqsad va topshiriqni bajarish tartibining aniqligi, o‘quvchilarining o‘quv imkoniyatlariga mos bo‘lishi, turli faoliyat uyg‘unlashishi, o‘quvchilarining bilish qobiliyatini rivojlantirishi muhim o‘rin tutadi. Boshqacha aytganda, shu jarayondagi ta’lim samaradorligi darsda o‘quvchilarining mustaqil ishlarni bajarishdagi individual imkoniyatlarining hisobga olinishiga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish bo‘yicha keyingi yillarda chop etilgan Sh. Sariyevning “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishslash orqali nutq o‘stirish” metodik qo‘llanmasida o‘qish darslarida badiiy matnni tahlil qilish bilan bog‘liq savollarga javob qaytarish, matn mazmuni yuzasidan reja tuzish, yod olish, bayon, insho, tavsifnomaga kabi turli mustaqil ish turlari nutq orqali amalga oshirilishi asoslangan va o‘qish darslarida matn ustida ishslash bilan bog‘liq nutq o‘stirish mazmuni va metodlari ishlab chiqilgan. G. Mamatova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarini shakllantirish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmasida adabiy tushunchalar haqida kichik yoshdagi o‘quvchilarga ma’lumot berish bilan birga, badiiy asar tilini o‘rganishga alohida to‘xtalgan. Uning fikricha, badiiy asar tilini o‘rganish o‘quvchilar nutqini adabiy atamalar, tasviriy vositalar, badiiy til elementlari bilan boyitish demakdir.

Adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –3-jild.687 b.

2. Педагогический энциклопедический словарь. Гл.ред. Б.М. Бим–Бад. 3-е издание, стереотипное. –Москва: Большая Российская энциклопедия. 2009. –528 с
3. Matchonov S. va b. O‘qish kitobi (4-sinf uchun darslik) – T.: Yangi yo‘l poligraf servis. 2017.
4. Masharipova U. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Ped.fan.nom.diss.-T.: 2017
5. Mamatova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. – T.: Istiqlol, 2010.
6. Пашковчкая Н.А. Развитие речи учащихся (пособия для учителя). – Киев: Радянская школа, 1983. -199 с.
7. Пидкастый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении. Теоретико-экспериментальное исследование. Москва: Высшая школа, 1985. -63 с

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING “YULDUZNING YO‘LI” QISSASIDA RUHIYAT TALQINI

Nizomov F.M. – Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning “Yulduzning yo‘li” qissasi tahlilga tortilgan. Asarda yoshlar ruhiyati va qahramon kechinmalarining uyg‘un ravishda ifodalanishiga oid mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: detal, leymotiv, janr, ruhiyat, matn, portret, obraz

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПСИХИКИ В ПОВЕСТИ АБДУКАЮМА ЮЛДАШЕВА “YULDUZ”NING YO‘LI”

**Низамов Ф.М. - преподаватель Навайского государственного
педагогического института**

Аннотация. В статье анализируется повесть А. Юлдашева “Yulduz”ning yo‘li”. Повесть с научной точки зрения основана на гармоничном выражении психики молодых людей и переживаний главного героя.

Ключевые слова: деталь, лейтмотив, жанр, дух, текст, портрет, образ.

INTERPRETATION OF PSYCHE IN THE STORY “THE WAY OF THE STAR” BY ABDUQAYUM YULDOSHEV

Nizamov F.M. - Teacher of Navoi State Pedagogical Institute

Annotation. The article analyzes the story of A. Yuldashev “The Way of the Star”. The play is scientifically based on the harmonious expression of the psyche of young people and the experiences of the protagonist.

Key words: detail, leitmotif, genre, spirit, text, portrait, image.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida yaratilayotgan badiiy asarlarda yangi olam, yangi dunyoqarashning odamlar ruhiyatiga ta’siri, ularning ko‘nglidagi turfa holatlarni aks ettirishga alohada e’tibor qaratib kelmoqda. Mualliflar o‘zlari yaratayotgan asarlarida turfa xil poetik talqin xususiyatini, kutilmagan tasvir, o‘ziga xos badiiy ifodasini yuzaga chiqarishga intilib kelmoqda. Kitobxon diqqatini asar matnida aks etadigan asosiy emotsiyonal ruh – leytmotivga yo‘naltirishmoqda. So‘nggi yillarda yaratilayotgan adabiyot insoniy fazilatlar bilan uzviylikda, uning ruhiyati, his-tuyg‘ulari, qalb qaridagi istiroblar talqiniga jiddiy e’tibor qaratmoqda.

Bugungi o‘zbek nasrining taraqqiyotida iste’dodli adib Abduqayum Yo‘ldoshevning o‘ziga xos uslubi, talqin yo‘nalishi mavjudligini alohida qayd etish lozim. Adibning “Yoshlik” jurnalining 2008-yil 5-sonida nashr etilgan “Yulduz”ning yo‘li” qissasidagi mavjud qahramonlar talqini, ularning xatti-harakatlari, qilayotgan ishlari, xayoliy kelajak haqidagi qarashlari, orzu-umidlari beixtiyor o‘quvchi qalbini hayratga soladi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov qayd qilib o‘tganidek: “Adabiyot – ma’naviyat ko‘zgusi. Bu ko‘zguda kishilarimiz hayotidagi, ruhiyatidagi, binobarin, ma’naviyatdagi jamiyki o‘zgarishlar baralla namoyon bo‘lishi”da aks etadi[1; 4-b.]. Qayd qilingan tushunchalar zamirida, insonni anglashga bo‘lgan intilish turfa xil usullar asosida yondoshishni talab etsa-da, ammo badiiy xarakterlar, ularning olami, kitobxonga ma’naviy ozuqa bera olishi bilan ham izohlanishini kuzatish mumkin. Ayni ushbu holat qissada bir biriga o‘xshamagan, turfa dunyoqarashdagi Sadriddin, Samad, Komila, Nafisa, Lobarxon kabi obrazlar misolida yoshlar ongidagi turfa xil holat, orzu, kelajak to‘g‘risidagi o‘ylari badiiy jihatdan mukammal talqin etilgan.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev qayd qilganidek: “Adabiyot – abadiyatga da’vogar. Adib betizgin vaqtini tizginlashga urinadigan zot. U tarixchidan farqli o‘laroq, zamon haqida axborot, ma’lumot bermaydi. Bil’aks, vaqtini, odam umrining biror qismini hissiyotu sezimlari bilan tasvirga muhirlab, to‘xtatib qo‘yadi”. Asosli ta’kidlanganidek, insonning orzu-umidlarini ijodkor talqin etar ekan, uning eng avvola qalb qa’ridagi quvonchu istiroblari bilan uzviy birlikda talqin etishga harakat qiladi. Chunki inson ruhiyati uning xarakter xususiyatlarini yoritishga asos bo‘ladi.

Asar bosh qahramoni mashhur hofiz bo‘lishni, ya’ni Sadriddin Mehriddinov bo‘lishni orzu qiladi. “...men hali mashhur artist bo‘lib ketaman! Yulduz bo‘lib ketaman!”[2; 5-b.] jumlalari bilan boshlan asar, insonning qadrini, uning

insoniyligini vaqt o'tishi bilan anglab etishi zarurligiga ham urg'u beradi. Bir qarashda sodda, xalq tiliga yaqin bu so'zlar bosh qahramoni tilidan ba'zi leksik o'zgarishlarga uchragan holda yetti marotaba takrorlanadi. Bu qaytarishlar qissa qahramonining hayotni, odamlarni anglash, o'z maqsadiga yetish manzilini tadrijiy rivojlanishini ifoda etadi. Sinfdosh do'sti Samadning tug'ilgan kuniga doirachi o'rtog'i bilan borgan Sadriddin jonli ijroda qo'shiq kuylaydi. Ovoz u darajada yaxshi emas, ammo u kuylashdan sira to'xtamaydi. Qo'liga tor ushlagan hofiz, yonida doira chalayotgan sherigi talabalarning pichinglariga (Komilaning "qo'shiq aytishni yaqinda o'rgandingizmi uka?", "nohorgi oshga keldim deb o'ylayapti chog'i" kabi) e'tibor bermasdan qo'shiq ijro etishadiki, ammo tinglovchini qalbini, borlig'ini o'ziga rom eta olmaydi. Sho'x davraga teskari bo'lgan hazin qo'shiqlarni ijro etadi. Insonni anglashga ema, o'zini ko'z-ko'z qilishga, intilish holati yetakchilik qiladi.

Muallif o'z qahramonini qanday bo'lsa, shunday aks ettiradi, undagi talant, nuqsonlarni harakatlari, so'zları orqali talqin etishga harakat qiladi. O'z orzulariga yengil qaraydigan, keljak uchun kurashda bardoshsiz, hayotda osonlikcha yutuqqa erishishni ko'zlaydigan yoshlari qismati, ularning tinimsiz mehnat emas, oson yo'l orqali shon-shuhratga erishish yo'lidan borishi, aksincha, fojialar sari eltishini unitib qo'ygan hayotiy insonlar qismati bilan uzviylikda namoyon bo'ladi. Sadriddinning uch marotaba televizorda chiqsam bo'ldi, hammaga mashhur bo'lib ketaman deyishi, uni yonidagi musiqa chaladigan yigitlar, Lobarxonning (raqqosa) ko'p pul to'laydigan davralarga intilishi, oddiy "birrov"lik qo'shiqchilarini nazarga ilmasligi qayd qilingan mulohazalarini yuzaga chiqishiga imkon yaratdi. Sadriddin Mehriddinov obrazida maqsadi yo'lida hech narsadan ta'b tortmasliklikni gap-so'zları, harakatlaridan, ruhiyatidagi o'zgarishlaridan sezilib turadi. Davrada uni hech kim tinglamasa ham, u qo'shiq aytishdan to'xtamaydi. Shu onda Nafisa ismli bir qiz uning yaxshi qo'shiq aytganini aytib, yosh bolalarcha qarsak chalib yuboradi. Nafisa bir tomonidan soddaligi yigitlarga rahmi kelgandan shunday qilgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan hofiz bilan bir joydan ekanligi uchun shunday mulohaza yuritishga majbur bo'ladi.

Ammo yillar o'tib, unga qilingan e'zozning qanchalik darajada qimmatga tushishini anglab etmagan edi. Ketishga shaylangan ikki qo'shiqchini Nafisa hech bo'lmasa, ovqatlanib keyin ketingizlarlar deyishi ularga xush yoqadi, biroq Sadriddin xuddi shuni kutganday qo'llarini ko'ksiga qo'yib javob so'raydi:

“– Endi bizga ruxsat singlim. – Voy o'tiribsizlar-da... – Rahmat, singlim. Hali boradigan joylarimiz ko'p”[2; 7-b.]. Aslida boradigan tayinli joyi yo'q, “artist”ning ushbu gaplari ham Nafisani shoshirib qo'yadi. Keyinchalik Sadriddin uni o'zining yakkaxon konsert dasturiga taklif qiladi. Beixtiyor qiziqish va ko'ngilchanlik bilan otlangan Nafisa hofizga gul taqdim etadi. Bugungi kundagi

“fonogramma” orqali qo’shiq kuylash, qanday avj olganligi ayni shu qissada mahorat bilan tasvirlab beradi.

Yillar shamoliga bardosh bera olamgan insonning qismati, taqdiri fojialar girdobida qolishi, tabiiydir. Yozuvchi bosh qahramon, ya’ni hofizning xarakter va ruhiyatini ochish orqali bu jarayonni badiiylashtiradi. “Sadriddinning yakka o’zi bitta tor bilan qo’shiq aytayotgani holda musiqada g‘ijjag-u, doiradan tortib dutor-u nayga qadar bo’lgan asboblarning chalinayotgani eshitilardi. Buning ustiga, fonogrammadan foydalanayotgan bo’lsa-da, bechora Sadriddinning bo‘yin tomirlari o‘qlog‘day bo‘rtib kuchanayotgani g‘alati ko‘rinardi”[2; 7-b.]. Bu porterit tasvirlari asosida, asar qahramoning ruhiyati, uning noinsoniy fazilatlari tranroq yoritilish uchun asos bo‘ladi. Deyarli hech kim eshitmagan qarsaklar ham yangramagan bu “konsert”da, qiz hofizga hurmatu e’zoz bilan gul taqdim etadi. Ayni shu paytda, mashhur yevropa qo’shiqchilariga o‘xshab Sadriddin Mehridinov qizning yuzlaridan bo‘sса oladi. Zalda qiy chuv, qarsaklar eshitiladi. Nechta aytilgan qo’shiqqa e’tiborsiz muxlislar, uning xatti-harakatlaridan zovqlanib ketadi. Ayni shu jarayonda yozuvchi ba’zi yoshlarning ehtiros va xayollarga beriluvchanligini, hayotni yengil-yelpi deb tasavvur qilishlarini, hissiy ehtiyojning o-zlari anglamagan holda, uning qurbaniga aylanish holatlarini talqin etgan. Ammo ma’naviy ehtiyoj, dunyoqarash, tafakkur qilish, inson va olamga teranroq nazar solish zarurligini uqtiradi.

Hozir yonimizdagи yoshlarning hissiyotga moyil ekanligi, jamiyatimizdagи illat-u nuqsonlar, fikr va tuyg‘uning uyg‘un emasligi, aql va qalb qarama-qarshiligi, davrning og‘riqli muammolari Sadriddin va Nafisa obrazlarida mujassamlashgan. Yozuvchi “Har bir qahramonini voqealarning tabiiy oqimi bag‘rida shaxsiyatining o‘ziga xosligiga zug‘um qilmagan tarzda tasvirlay bilgan. Abduqayum Yo‘ldosh har bir qahramon qiyofasini chizishda uning ruhiyatiga mos voqeadan foydalangan. Bu o‘quvchiga obraz bilan yuzma-yuz bo‘lish imkonini beradi”[3; 387-b.].

Xususan, konsertdagи gul berish voqeasidan so‘ng hofiz Nafisani bugungi muvaffaqiyatning “besh” bo‘lganligini yuvamiz, o‘zim yotoqxonayizga tashlab qo‘yaman, Samad ham keladi deb aldab, o‘zi ijara da turgan uyg‘a olib keladi. Uyda esa ikkovidan boshqa hech kim yo‘qligini bilgan Nafisa istirobga tusha boshlaydi. O‘zida yo‘q xursand Sadriddin goh “men juda mashhur bo‘lib ketaman”, goh “sizni katta-katta restoranlarga taklif etaman”, “hali hamma meni qo’shiqlarimga zor bo‘ladi”, “birrovga odamlar meni to‘yga aytishga navbatda turadi” kabi uzuq-yuluq gaplar bilan o‘zini-o‘zi aldardi. Ammo buning sabablarini hali oddiygina Nafisa anglab etmaydi. Muhabbat atalmish qalb gavhari eng pokiza, eng go‘zal tuyg‘u bo‘lib kelganligini unitadi.

Sadriddin timsolida o‘z maqsadlarini amalga oshirishda hech narsani ayamaydigan, yaqin kishilarini qurban qilishga jur’at etadigan ma’nан qashshoq insonlar qiyofasini turfa xil voqealar silsilasi asosida ko‘z o‘ngimizda jonlantiradi.

Asardagi voqealar rivojiga nazar solar ekanmiz, insonning insoniyligi, uning pok qalb egasi bo‘lishi, hatto san’atga oshna qalbdan bu kabi vahshiyliklar yuzaga chiqishini kitobxon anglab ulgurmeydi. Faqatgina ”oson” hayot yo‘lini tanlashga intilayotgan yoshlarning qismati fojia bilan tugashini his etadi.

Qissa davomida yozuvchi tabiat manzaralari, insonning yashash joyi va kundalik hayotini uyg‘un holda tasvirlaydi. Badiiy asardagi qahramon ruhiyatini, asl dunyoqarashini ochib berishda ochqich vazifasini o‘taydi. Sadriddin yashayotgan makon holati, talabalar yotoqxonasi tasviri, to‘ydagи davra ta’riflari aks etgan o‘rinlarda shu hodisotlarning tasdig‘ini ko‘rish mumkin. Talqin etilganidek, “To‘qqiz qavatli uyning yettinchi qavatidagi bir xonalik kvartira. Ham yotoqxona, ham ijodxona, ham mehmonxona vazifasini o‘taydigan yagona xona kambag‘allik va g‘ariblikning timsoliday edi. Polda arzon palos, devorlarda ranggi o‘chgan, ba’zi joylari ko‘chib ham qolgan gulqog‘ozlar... O‘rtada xontaxta. Chekkada shalog‘i chiqib ketgan televizor. Chap devorga taqab qo‘ygan shifoner. Katalakdekkina oshxona. Dog‘ bosgan gaz plitasi. Krandan sovuq suv oqib turibdi”[2 9-b.]. Makoniy tasvir asosida badiiy qahramonning ruhiy-ma’naviy qiyofasi o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlanadi. Hayotda kimgadir ishonishni bilmagan inson qiyofasiga tushib qolgan asar qahramoning keyingi taqdiri esa yana ham og‘riqli, faqat fojialar girdobini anglab yetmagan inson qiyafasi tanazzul sari qadam tashlashidan dalolat beradi.

Shuningdek, qissa davomida bir nechta o‘z hayot tutimiga ega ayollar obrazi uchraydi. Uzoq yillardan beri raqs tushib kelayotgan Lobarxon ismli raqqosaning mardligi, haqiqatni ayta olishi, afsuslari juda ishonarli tarzda aks etgan. Yozuvchi ushbu obrazlar (Nafisa va Lobarxon) orqali “Millat axloqida yuz bergan fojialarning bir ko‘rinishini ayol obrazi orqali ochib beradi. Sharqona axloqdan, hayodan voz kechib, tamom bir begona hayot ostonasiga qadam qo‘yish va bu g‘ayriilmiy odatlarga “ko‘nikib ketish” eng katta fojia sifatida talqin etiladi”[4; 48-b.]. Qayd qilinganidek, ba’zi yoshlarning “havoyi” hayot yo‘lini tanlashi, yillar o‘tib esa hayotning mohiyatini anglaganda juda kech bo‘lishiga urg‘u berilmoqda.

Nafisadagi oq ko‘ngillik, ishonuvchanlik, odamlarni ajrata olmaslik, o‘ta soddalik kabi fazilatlar kutilmagan tashvishlarni, fojialarni yuzaga chiqargan bo‘lsa, Lobarxonda esa yaxshi oilada tarbiya topmaslik, qaysidir yovuzlik tufayli emas, balki shunchaki e’tiborsizlik, hafsalasizlik yotganligini voqealar rivojidan anglash mumkin. Asardagi Komila obrazi orqali esa, insonning kim ekanligini, uning xatti-harakatlarini ochiq aytishi, haqiqatni qayd eta olishi, uning jasurligini, mardligini va insoniy fazilatlar egasi ekanligidan dalolat beradi. “Besh qo‘l barobar bo‘lmagani” kabi turfa xarakterlar mavjudligini ham anglab olish mumkin.

Mazkur qissadagi har bir obraz o‘z qismati, taqdiri, tutumlari, hayot tashvishlaridagi xatti-harakatlariga ko‘ra alohida o‘rin tutadi. Asar qahramonlari orqali, bugungi yoshlarni hayotga olam va borliqa teranroq nazar solishga undaydi.

Qissadagi qahramonlar ruhiyati, ularning xarakter qirralari juda go‘zal tarza talqin etilganligini o‘ziyoq, kitobxonni hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi.

Adabiyotlar

- 1.Normatov U. “Umidbaxsh tamoyillar”. T.: “Ma’naviyat”. 2004. 182 bet.
- 2.Yo‘ldoshev A. “Yulduz”ning yo‘li”. “Yoshlik” jurnali. 2008-yil 5-son.
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Adabiy o‘ylar. – Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006. – 548 b.
- 4.Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2018. 504 bet.

ОБРАЗОВАНИЕ В ВОУ В ВЕК ЦИФРОВИЗАЦИИ

Хисматова Х.Ф. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы о современном образовании. Онлайн-обучение имеет огромный потенциал для повышения качества образования. Так как основная часть высшего образования будет организована как смешанное обучение, следовательно, методы обучения необходимо изменить. Необходимо сместить акцент с содержания обучения на развитие компетенций. Важно дать учащимся возможность научиться управлять информацией, преобразовывая ее в знания.

Ключевые слова: современное образование, качество образования, современные условия, цифровизация, методы обучения, онлайн-обучение, технологии.

RAQAMLASHTIRISH ASRIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM OLISH

Xismatova X.F. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim masalalari ko‘rib chiqiladi. Ta’lim sifatini oshirishda onlayn-ta’lim ulkan imkoniyatlarga ega. Bunda o‘qitishning asosiy qismi gibrid ta’lim shaklida tashkil qilinib, ta’lim berish metodlariga o‘zgartirish kiritishni taqozo etadi. Shuningdek, ta’lim mazmunini kompetensiyalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan holda olib borish kerak. O‘quvchilarga axborotlarni qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘li bilan axborotlarni boshqarishga o‘rgatish, ularni bilimga aylantirish imkoniyatini yaratish lozim.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, ta’lim sifati, zamonaviy shart-sharoit, raqamlashtirish, ta’lim metodlari, onlayn-ta’lim, texnologiyalar.

EDUCATION IN HIGHER EDUCATION IN THE AGE OF DIGITALIZATION

Khismatova K.F. - teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article deals with the issues of modern education. Online learning has tremendous potential to improve the quality of education. Since the bulk of higher education will be organized as blended learning, teaching methods need to be changed. It is necessary to shift the emphasis from the content of training to the development of competencies. It is important to give students the opportunity to learn how to manage information, transforming it into knowledge.

Key words: modern education, quality of education, modern conditions, digitalization, teaching methods, online learning, technologies.

В мире, в котором мы живем, технологии повсюду, и нынешней молодежи намного легче к ним адаптироваться. Системы обучения обучающихся постоянно подвергаются всевозможным корректировкам, и в частности, это происходит по причине регулярных открытий [6]. В отличие от преподавателей, студенты развиваются в цифровом мире. Для обучающихся всех возрастов совершенно естественно использовать технологии во всех сферах своей жизни. В результате цифровые инструменты становятся все более важными. Традиционные методы обучения уже претерпевают трансформацию, чтобы приспособиться к потребностям студентов XI века и улучшить профессиональную практику учителей[1]. Цифровое будущее происходит буквально сейчас. Разнообразие цифровых ресурсов позволяет нам проявлять творческий подход и разрабатывать новые подходы в сфере образования, адаптированные к современным ученикам, их динамике и потребностям. Контент распространяется, дополняется и создается[3].

Цифровой интеллект необходимо приобретать через обучение. Всемирный экономический форум использует цифровой интеллект как набор социальных, эмоциональных и когнитивных способностей, которые позволяют людям преодолевать трудности и адаптироваться к требованиям цифровой жизни.

Вопросы о том, следует ли и когда использовать технологии в обучении, больше не задаются. Единственный вопрос, который сейчас задают преподаватели, - как его использовать. Через социальные каналы можно

достичь целей цифрового интеллекта, пробудить любопытство в студентах и поощрить их участие, что привело к лучшему обучению и пониманию.

С цифровизацией образования в нашей стране созданы условия для того, чтобы студент был субъектом образовательного процесса. Треугольник «учитель-ученик-обучающий материал» изменился с развитием образовательной технологии и теперь состоит из «учитель-ученик-образовательная технология». В XI веке существует постоянное образование, что означает, что человек учится, совершенствуется и приобретает знания на протяжении всей своей жизни. Вот почему студенту очень важно овладеть техникой обучения, уметь пользоваться образовательными технологиями, находить информацию в Интернете, отделять важное от несущественного и применять все это на практике.

С помощью цифровизации образование соединяется с жизнью и становится более интересной для обучающихся, так как они получают знания лучше и эффективнее, благодаря окружению компьютерами, мобильными телефонами и телевизором дома. Студенты привыкли получать мультимедийные знания, а это значит, что задействованы все органы чувств (текст, музыка, изображение). Также важна интерактивность, обеспечиваемая цифровым контентом[2]. Таким образом, обучающиеся добиваются большего внимания и концентрации и более эффективно усваивают материал. Если применить этот материал к практическим примерам в повседневной жизни, можно сказать, что они приобрели функциональные знания. Это стало возможным благодаря появлению в нашей стране электронных учебников, а также многочисленных цифровых материалов, которые можно найти в Интернете. Здесь очень важно отметить, что с раннего возраста учеников следует учить использовать компьютеры и смартфоны в положительных целях, как источники знаний.

Роль преподавателей также меняется в обучении XI века. Он больше не просто лектор и оценщик, но также становится организатором, координатором, планировщиком и мотиватором в обучении. Таким образом, ученик и учитель вместе проходят процесс приобретения знаний, но теперь преподаватель больше помогает студенту открывать новые знания и применять их. Мы не должны забывать о его образовательной роли, когда он должен развивать в студентах реальные жизненные ценности в соответствии с современными временами. Обучающимся необходимо развивать внутреннюю мотивацию, любопытство, стремление к постоянному обучению, общению и обмену идеями и мнениями, чтобы быть готовыми с раннего возраста к постоянным изменениям, которые приносит XI век. Лектор должен постоянно давать студенту обратную связь об уровне его знаний и способах их освоения. Таким образом, обучающийся получает реальную картину своих знаний.

Именно размещение студентов в субъективной позиции в образовательном процессе способствует укреплению личности каждого из них - он развивает свой потенциал, но также и свой характер посредством обучения, и становится разносторонним, образованным человеком; он думает, исследует, практически применяет знания, представляет свои идеи, мнения, отношения, принимает различия и уважает их, у него развиваются сильные личностные качества, которые формируют отношения и знания, с которыми он может справиться со всем, что требует современный мир.

Оцифровка изменила роли преподавателей и студентов, но процесс обучения стал более интересным. Будущие специалисты с удовольствием приходят на занятия, развиваются любопытство и внутреннюю мотивацию, связывают обучение с жизнью и таким образом приобретают функциональные знания.

Студент должен активно участвовать в процессе обучения, находя информацию в Интернете вместе с преподавателем, связывая их с уже полученными знаниями по разным предметам, формируя систему понятий и обучаясь применять полученные знания в повседневной жизни. Таким образом, образовательные технологии помогают вузам быть связанными с жизнью, а студентам активно приобретать знания, в связи с окружением современных технологий за пределами образовательных учреждений.

Ресурсы, которые мы можем использовать, - это аудио- и видеозаписи, фотографии, текстовые корпуса и их цифровые эквиваленты. Цифровые инструменты предоставляют студентам возможности: практиковаться в соответствии с их скоростью и уровнем, общаться и сотрудничать, а также творчески работать в реальном мире. Нет сомнений в том, что технологии могут вдохновлять и мотивировать студентов, но они также могут создавать проблемы. Вот почему так важно научиться использовать возможности, предоставляемые цифровыми инструментами и ресурсами, и подготовиться к проблемам, связанным с использованием технологий. Сегодня доступно множество цифровых инструментов, которые помогают нам оценивать знания и прогресс, получать отзывы и улучшать навыки. Каждый учитель может превратить обычное занятие в незабываемое приключение для себя и своих учеников. Сегодня это сделать намного проще: нужно задавать вопросы, общаться, вовлекать, сотрудничать, обмениваться идеями и учиться.

Методы обучения могут быть диалогическими, текстовыми, графическими, иллюстративными, показательными, логическими, игровыми, компьютерными и решающими.

Из учебных пособий можно использовать электронные учебники, презентации, викторины, развивающие логику и мышление игры. Кроме того, время от времени студентам следует давать исследовательские задания. Практические задания должны быть неотъемлемой частью обучения.

Из форм работы следует использовать парную работу, групповую или индивидуальную работы и как можно меньше фронтальной формы работы. Работая в парах или группах, студенты учатся сотрудничеству, сочувствию, терпимости, солидарности, а также принятию и уважению разнообразия.

Основная цель учебного процесса в вузе - дать студентам возможность получить диплом, который будет признанным всеми европейскими и мировыми учебными заведениями и который позволит студентам найти подходящее трудоустройство или автоматически продолжить дальнейшее образование в рамках магистерской программы по химии.

Из всех естественных и технических наук только высшие представляют интерес для студентов, занимающихся информационными технологиями, в основном благодаря хорошим возможностям трудоустройства в профессиях, связанных со сферами ИТ[4].

Такой интерес у молодежи наблюдается во всем мире. По всей Европе наблюдается серьезное снижение интереса к естественным и техническим наукам, а также к художественным дисциплинам. Фундаментальные исследования на нашем континенте показали возможность остаться без экспертов, которые будут и дальше развивать научные достижения, покорять новые горизонты, изобретать различные новые способы решения жизненных проблем [5]

Учитывая вышесказанное, предлагается платформа для создания итогов портфолио студента.

Seesaw - это платформа для вовлечения студентов во время дистанционного обучения, которая предоставляет информацию об их успеваемости в режиме реального времени. Инструмент также применим для учеников начальной и средней школы. Обеспечивает их активное участие в обучении с помощью видео, фотографий, рисунков, текстовых материалов, обмена цифровыми ресурсами в виде ссылок или документов. Это инструмент, который объединяет преподавателей и студентов, а в случае средних учебных заведений - учителей, учеников и родителей в процессе обучения.

При переходе на онлайн-режим рекомендуется включать тесты и инструмента «Quizizz» («Викторина») в свои обычные занятия.

Он работает, гарантируя, что каждому студенту в группе во время включения будет показан другой набор вопросов, который меняется с каждой дополнительной попыткой. Кроме того, после раунда вопросов каждый обучающийся получает вопросы как новые, так и неправильно заданные в предыдущем раунде. В результате такого подхода становится возможным индивидуальное обучение, и с каждой новой попыткой обеспечивается осмысленное и персонализированное обучение.

Чтобы активировать эту опцию, необходимо сначала выбрать тест, который вы хотите отправить студентам. Вы можете создать тест самостоятельно или найти его в библиотеке викторины. Кроме того, вы можете

использовать функцию «Телепорт» - она появляется, когда вы начинаете создавать викторину, и позволяет комбинировать несколько викторин, чтобы получить большую викторину, подходящую для «Адаптивного обучения» и подходящую для каждого обучающегося.

На следующем этапе вам нужно выбрать режим, который вы хотите использовать (классический, командный или тестовый). После этого необходимо произвести определенные настройки в разделе «Адаптивное обучение». Это будет означать, прежде всего, выбор количества вопросов, которые вы хотите включать в каждую попытку. Максимальное количество вопросов, которые вы можете включить, - 20, но рекомендуется задавать 10 вопросов за попытку.

Чтобы продемонстрировать важность этой расширенной функции, начнем с предположения, что пять студентов попробуют пройти тест со 100 вопросами. При настройке функции «Адаптивное обучение» каждая новая попытка учащихся решить викторину дает им новый набор вопросов. Кроме того, каждая попытка включает в себя сочетание новых вопросов и вопросов, которые были неправильно заданы в предыдущих попытках.

Применение этой функции отключает копирование онлайн-тестов, но также обеспечивает целенаправленное индивидуальное обучение.

Таким образом, общая цель состоит в том, чтобы научиться эффективно интегрировать технологии в образовательный процесс, затем применять их и, в конечном итоге, дать обучающимся возможность стать создателями технологий, а не только их потребителями.

Литература

1. Ахромеева Т.С., Малинецкий Г.Г., Посашков С.А. Смыслы и ценности цифровой реальности//Философские науки , 2017 № 6 С. 104.
2. Буданов В.Г. Новый цифровой жизненный техноуклад- перспективы и риски трансформаций антропосферы //Философские науки, 2016 № 6 С. 47.
3. Дубровский Д.И. Электронная культура. Кто против? //Философские науки, 2017 № 2 С. 50.
4. Иванова В.П., Еременко В.В. Интеллектуальная культура цифрового общества//сборник научных статей под общей редакцией Р.В. Ершовой. Коломна Государственный социально-гуманитарный университет, 2016 С.35
5. Ракитов А.И. Человек в оцифрованном мире//Философские науки, 2016 № 6 С. 32.
6. Алимова Ф.А. Информационные технологии при обучении химии, как фактор формирования ключевых компетенций «Научный вестник» Научно-теоретический журнал Ташкентского государственного педагогического университета. 2020 г.№6 С. 7-11

DUNYOLARGA TARQAB KETGAN TO‘QSON OLTI URUG‘IMSAN

Xolmirzayev X.D. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Dunyoda millat ko‘p, xalq ko‘p goxo millat haqida so‘z ketganda ularning soniga qarab baho beramiz, aslida shu tariqa mulohaza yuritish to‘g‘rimikin? Shu tarzda fikr yuritish, mantiqan to‘g‘rimi degan savolga o‘zbek millati misolida javob izlaymiz. Hozirda, O‘zbekiston, nafaqat siyosat va iqtisodiyotda, balki ilm-fan, ijtimoiy, madaniy va boshqa ko‘plab sohalarda dunyo bilan integratsiyalashmoqda. Xususan, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish uchun “Vatandoshlar” jamoat fondini tashkil etilishi chin ma’nodagi tolerantlik, bag‘rikenlikni dalolatidir.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, tolerantlik, bag‘rikenlik, millat, madaniyat, ma’naviyat, tarix, etnos, millatlararo munosabat, vatandosh, uzviylik.

ТЫ ДЕВЯНОСТО ШЕСТЬ СЕМЯН, РАЗБРОСАННЫХ ПО МИРАМ

Холмирзаев Х.Д. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В мире много наций, много людей, и иногда, когда мы говорим о нации, мы оцениваем ее численностью, собственно, правильно ли так думать? Мы ищем ответ на вопрос, логично ли так думать на примере узбекской нации. Сегодня Узбекистан интегрируется с миром не только в политике и экономике, но также в науке, социальной, культурной и многих других областях.

В частности, создание Общественного фонда «Ватандошлар» для развития тесного сотрудничества с соотечественниками, проживающими за рубежом, является признаком подлинной толерантности.

Ключевые слова: интеграция, толерантность, толерантность, нация, культура, духовность, история, этнос, межнациональные отношения, патриотизм, членство.

YOU ARE MY NINETY-SIX SEEDS SPREAD ALL OVER THE WORLD

Kholmirzaev Kh.D. - Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University

Annotation There are many nations, many people in the world, and sometimes, when we talk about a nation, we estimate its number, in fact, is it correct

to think so? We are looking for an answer to the question whether it is logical to think so on the example of the Uzbek nation. Today Uzbekistan is integrating with the world not only in politics and economy, but also in science, social, cultural and many other areas. In particular, the creation of the “Vatandoshlar” Public Fund for the development of close cooperation with compatriots living abroad is a sign of genuine tolerance.

Key words: integration, tolerance, nation, culture, spirituality, history, ethnics, interethnic relations, patriotism, membership.

Kirish: 2021-yil 26-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi[1.].

Mazkur Qarorga ko‘ra, bu sohada olib borilayotgan ishlarga qaramay, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘sinq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Shu sababdan Qarorda jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Xususan, Qarorda oliv ta’lim muassasalarida bakalavriat bosqichida “Ma’naviyatshunoslik” va magistratura bosqichida esa “Kasbiy ma’naviyat” fanlari joriy etiladi. Shuningdek, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning u兹viyligini ta’minalash, bosh maqsad qilib belgilandi.

Jamiyatda el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilandi.

Shaxs kamolotida ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning o‘rni. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma’naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqoza etadi. Ma’naviyatning vazifasi shaxsda o‘z o‘zini anglab, bilimdonlik va qalbi tozalik kabi insoniy tuyg‘ularni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu haqida Sh.M.Mirziyoyev “Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir”-degan edi[2.].

Mohiyatdan ma’naviyat ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi zoxiriy va yashirin, ichki ruhiy-botiniy tomonlarini ham qamrab oladi. Bunga sabab “Ma’naviyat” tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa ekanligidir. Demak, ma’naviyat, ma’rifat va madaniyat tushunchalari o‘zaro bir-biri bilan u兹viy tarzda insonga xos eng ezgu xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Madaniyat-jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlar tarixiy taraqqiyotining muayyan darjası. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boylik-larda ifodalanadi. “Madaniyat”- atamasi tor ma’noda kishilarning faqat ma’naviy hayoti sohasiga nisbatan ham ishlatiladi. Yevropada “Madaniyat” deyilganda dastlab insonning tabiatga ko‘rsatadigan maqsadga muvofiq ta’siri, shuningdek, insonga ta’lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. cultura - yerni ishslash, parvarishlash; ruschadagi “kultura” so‘zi ham shundan olingan)[3.].

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan ya’ni bilim bilan uyg‘un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg‘unligiga erisha olsakkina yoshlarimizning ma’naviy barkamol, iymon-e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo‘lib tarbiya topishlariga erisha olamiz. Bu haqda Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy quyidagi fikrlarni bildirgan edi: Gumroh kishilar “Ilm bo‘lgach, amalga hojat yo‘q qablida fikr qiladilar. Bunday fikrlar ilmning o‘zi bilan kifoyalanib, shariatni inkor etuvchilar e’tiqodi bo‘lib, ular uchun ilm hosil bo‘lsa-yu, amal bo‘lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo‘qligini bilishmaydi. Holbuki o‘qib o‘rgangan ilmgaga amal qilmagan kishining qiyomat kuni dagi azobi ikki hissadir”[4.].

Ma’naviy, ma’rifiy va madaniy qashshoqlik bilan hech bir millat, u yashayotgan mamlakat hech qachon iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning yuksak cho‘qqilariga erisha olmaydi. Ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatni egallash masalasiga yondashuvga hadislarda aytilgan “Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unitmang” degan mazmundagi naqlini hech qachon esdan chiqarmasligimiz zarur. Chunki tarix va hayot tajribasi dunyoviy va diniy qadriyatlar, ilmma’rifat doimo bir-birini to‘ldirib, boyitib kelganligi shu asosda kishilar ma’naviy kamolot cho‘qqilariga erishganligidan dalolat beradi.

Ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatni har doim ma’rifat bilan ya’ni bilim bilan uyg‘un holda rivojlanib boradi. Har uchalasining uyg‘unligiga erisha olsakkina yoshlarimizning ma’naviy barkamol, iymon-e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo‘lib tarbiya topishlariga erisha olamiz.

Shuningdek, milliy madaniyat, urf-odat, an’analarni saqlash va ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish sari jadal odimlash, iqtisodiy-ijtimoy jihatdan taraqqiy etish, yer yuzida istiqomat qilayotgan yetti milliarddan ziyod kishilarning umumiy istagidir.

Insoniyat o‘tmishida ko‘plab bo‘hton, urushlar va haq-nohaq qon to‘kishlarga guvoh bo‘ldi. Aql-zakovat sohibi bo‘lgan inson oldida bugungi globallashuv davrida o‘tmish ajdoddlardan meros bo‘lgan madaniy-ma’naviy boyliklarni kelajak avlod uchun bus-butun saqlab qolish vazifasi ko‘ndalang turibdi.

Biroq jahon, globallashuv davrida ro‘y berayotgan turli voqealari, hodisa va jarayonlar tufayli o‘z tarixiy vatani, isteqomat qilayotgan yurtini tashlab chiqishga majbur bo‘lmoqda. Tinch va osoyishtalik ilinjida o‘zga yurt, hududlarni makon

tutishga majbur bo‘layotganlarni soni ortgandan-ortishi, bu insonlarning oilalari shu tariqa milliy o‘zligi, tarixi va madaniyatidan mahrum bo‘ladi.

Tabiiy fanlarda “Assimilyatsiya tushunchasi tirilikning eng asosiy xususiyati bo‘lib, assimilyatsiyadan organizmning o‘sib, rivojlanishi va yangilanishida energiya manbai vazifasini o‘tab, foydali moddalarning to‘planishini ta’minlaydi. Tirik organizmda uni tashkil etuvchi qismlarning yangilanib, parchalanishi esa “dissimilyatsiya” hodisasi hisoblanadi.

Agar assimilyatsiya va dissimilyatsiya tushunchasini madaniyatshunoslik faniga tatbiq etsak, ma’lum bir xalq, millatning o‘z tarixiy makonida o‘zaro birdamlikda istiqomat qilishi, ularning etnik madaniyatini taraqqiy etishi, madaniy assimilyatsiya sifatida baholash mumkin. Lekin, taqdir taqozosi bilan o‘zga yurtni makon tutganlar esa milliy o‘zlik va milliy madaniyatini boy berishini esa madaniy dissimilyatsiyaga qiyoslash mumkin.

O‘zbekiston, mintaqa davlatlari ichida eng ko‘p millatlik mamlakat bo‘lib, 130 ortiq millat vakillari emin-erkin isteqomat qiladi. Yurtimiz maktablarda nafaqat o‘zbek, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman va qoraqalpoq tillarida ta’lim beriladi, balki oliy ta’lim muassalarida ham shu tillarda ta’lim va tarbiya olish imkoniyati yaratilgan, teleradio va bosma nashrlar ham chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.

18-moddasida esa “O‘bekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdir”lar[5.].

Mustaqillikning ilk yillaridan millatlararo munosabatlarda tolerantlik, bag‘rikenlik va insonparvarlikni rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlik, jamiyatda fuqarolarning totuvligini mustahkamlash, kam sonli millatlarni ham o‘z tarixi, tili, urf-odat va an’analarni asrab avaylashi uchun madaniy markazlar tashkil etildi.

2017-yil 19-mayda qabul qilingan PF-5046-sonli farmon ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika baynalmilal madaniyat markazi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqlari qo‘mitasi tashkil etildi.

Qo‘mitaning asosiy vazifasi jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do‘stlik va ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usi muhitini mustah-kamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Yangi O‘zbekiston kelajagini yaratuvchi turli til, din va millatga mansub fuqarolarimiz yurt istiqboli uchun muttasil qayg‘urayotgan bir paytda “globallashuv” jarayonida tolerantlik, bag‘rikenglik niqobi ostida namoyon bo‘lib, milliy

madaniyatni izdan chiqaruvchi, ma’naviyatini yemiruvchi har qanday yot ta’sirlardan aholimizni himoya qilishimiz lozim. Dunyoda kechayotgan turli ko‘rinishdagi axborot tahdidiga qarshi yoshlarimizda sog‘lom immunitetni shakllantirish, ogohlikni bir daqiqa bo‘lsin qo‘ldan boy bermaslik, muhim zaruratga aylangan. Globallizm davrida madaniyat va manfaatlarning to‘qnashuvi natijasida millat, xalqlar o‘rtasida turli ixtilof va urushlar kelib chiqadi.

O‘zbeklar ikki dengiz (Qora va O‘rta yer dengizi) bo‘yida joylashgan podshohliklar sultonlarining doimiy e’tiborida bo‘lishgan. Aslida aksariyat sultonlarning kelib chiqishi qipchoq (o‘zbek) diyordan edi. Masalan, Misr sultoni Zohir Beybars o‘zbeklar bilan ittifoq tuzishga intilardi. 1261-1263-yillari Baraka Xon bilan o‘zaro bordi-keldi va sovg‘a-salom yuborishni yo‘lga qo‘yan edi.

Abbosiylar xalifaligi davrida asli buxorolik Ahmad ibn Tulun oilasi Misrda mustaqil davlat barpo etib, 868 -(254 hijriy) yili Tuluniya davlatiga asos soldi. Bu oila Misrda o‘ttiz sakkiz yil hukmronlik qildi. Bu yillar Misr tarixida yorqin iz qoldirgan davr hisoblanadi. Ibn Tulun o‘tkir siyosatchi, mohir rahbar, harbiy sohada ham bilag‘on mutaxassis edi. U boshqargan yillar Misrda tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘ldi, odamlar xotirjam va to‘q hayot kechirishdi.

Usmoniyalar davrida ham Misrda o‘zbeklar mavjud edi. Usmoniyalar davridagi arxiv hujjatlaridan Qohiradagi O‘zbek takya (mahalla)si O‘rta Osiyodan kelgan barcha o‘zbeklarni yaxshi kutib olgani ma’lum bo‘ladi. Usmoniyalar davlati ularga Sultonlar vaqfi (maxsus hisobi)dan infoq-ehson qilgan, mahallalarini obodonlashtirish va tuzatishga alohida e’tibor qaratgan, u yerda yashovchilarining oziq-ovqati va ilm olishlari uchun yetarli mablag‘ ajratgan, ularning ehtiyojiga ko‘ra kitoblar chop etishga ruxsat bergen.

Qohiraning Darbul Ahmar mahallasidagi Mag‘ribiyalar ko‘chasida joylashgan, bu jome’ buzilib ketgan bo‘lsa-da, darvozalari saqlanib qolgan. Sayfiddin O‘zbek Yusufiy barpo etgan “O‘zbek istirohat bog‘i” hozir ham qohiraliklarning sevimli maskanidir[6].

Hozirgi paytda ham Qohirada bir qancha o‘zbek oilalari yashaydi. Shoshlik, buxorolik, farg‘onalik va tarozlik oilalar bor, ular yurtlari nomiga nisbat berilgan ismlarini hamon saqlab kelishyapti.

Falastin markazi-Quddusi sharifning eski shahar qismida, Masjidul Aqsoning hovlisiga tutashib ketgan kichik bir hududda XVI asrdan beri o‘zbeklarga qarashli ekanligi aytiladigan bir dargoh bor. U yer hozir bir maqbara, kichik muzey, kutubxona va to‘rt kichik xonadan iborat tarixiy yodgorlik sifatida saqlanmoqda. Bu atrofda bir necha asrlardan beri oz sonli o‘zbek oilalar yashaydi, ular tarixiy vatanlari O‘zbekiston ekanini aytishadi. Mahalliy xalq orasida bu joy “al-Zaviya al-O‘zbekiyya” nomi bilan ma’lum [7].

Sobiq Ittifoq davrida taqdir taqazosi bilan vatandan yiroq bo‘lgan insonlarga nisbatan ayricha qarash shakllangan edi. Endilikda shu kabi eskicha qarash va xato fikrlashga barham berish maqsadida “Vatandoshlar” jamoat fondi tashkil etildi. Mustaqillik bergen inson erki tufayli, dunyoning 100 ga yaqin mamlakatlarida

istiqomat qilayotgan 10 milliondan ortiq vatandoshlar tomonidan tashkil etilgan 170 dan ortiq madaniy markazlar bilan aloqalar yo‘lga qo‘yiladi.

Tarixchi olim, professor Shodmon Hayitovning ilmiy xulosalariga ko‘ra, o‘rta osiyoliklarning muhojirlik tarixi 1917-yildan 1945-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Oktabr inqilobidan so‘ng avval mulkiy, keyinroq esa mafkuraviy ziddiyatlar sabab, millionlab O‘rta osiyoliklar vatanini tark etgan[8.].

Jumladan, Eronning shimoli-sharqida mahalliy forslar “Turkman-Sahra” deb nomlovchi kenglik bor. Bu yerdagi o‘ndan ortiq shahar va yuzlab qishloqlarda O‘rta osiyolik turkiy xalqlar, jumladan, turkman, qozoq va juda oz sonli o‘zbek hamda qoraqalpoqlar yashaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Eron aholisining taxminan 25 foizini turkiy xalqlar tashkil qiladi.

Ular orasida eng ko‘p sonlisi turkmanlar, ularning soni 2,5 million-dan 3 milliongacha. Uchinchi guruh avshar, xajar, qoraqalpoq, qozoq va o‘zbeklardan iborat turkiy xalqlar yashaydi[9.].

Sovet hukumatining siyosati va mafkurasini qabul qilmagan o‘zbeklar ikkinchi vatan sifatida avval Afg‘oniston, Xitoy (Sharqiy Turkiston) va Eron davlatlarini tanlashgan. Biroq u yerlarda ham tinch hayotga erisha olmagani sabab, ikkinchi marotaba muhojirlikka yuzlanib, Saudiya Arabis-toni, Turkiya, AQSH va Yevropa davlatlariga tarqalib ketishgan. Tarixiy madaniy, shuningdek, jo‘g‘rofiy yaqinlik tufayli 1925-1930-yillarda turkman, qozoq va o‘zbeklarning ko‘p sonli jamoalari Afg‘oniston va Eronning chegara hududlariga borib joylashgan.

Turkiyaning Suriya bilan chegaradosh uzoq Hatay viloyatining O‘vakent qishlog‘ida ham 6 mingga yaqin o‘zbeklar istiqomad qiladi. Ammo, bu o‘zbeklarning ajdodlari O‘zbekistonni kecha yoki bugun emas, XX asrning birinchi yarmida tark etishgan. Ular, vatandan yiroqda musofirlikda dunyoga kelganlar, O‘zbekiston haqida bobo va buvilaridan eshitishgan ammo, hech qachon ko‘rishmagan. Lekin, ular hali hanuz O‘zbekistonni vatan deb bilishadi, ota makon to‘g‘risida faqatgina Turkiyadagi “Osiyo” radiosи kabi va xorijiy radio eshittirishdan vatan haqida boxabar bo‘lishadi.

Vatandan tashqarida yashovchilar imkon qadar o‘z avlodiga milliy qadriyat, urf-odat va an’analarni o‘qtirish, saqlashga harakat qilishadi, chunki, o‘zbek tilini oila kattalaridan eshitib o‘rganishadi. Qayerda yashasalar o‘sha hudud tilida savod chiqarishadi, ular “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” va “Kuntug‘mish” dostonini eshitgan ammo gohida “Asli va Karim” bilan yanglishtiradi. Yurt sog‘inchi armoni bilan vaqt qazoda ham rihlat bilan yuzlashgan ajdodlarini tez-tez yodga olishadi. Shu bois bo‘lsa kerak, ular ota maskani Yevropaning Parij, Rim va London kabi ko‘hna va hammisha navqiron maskanlaridan ham ustivor qo‘yishadi. Shu kezda beixtiyor shoir Muhammad Yusufning quyidagi o‘lmas va betakror satrlari dildan kechadi.

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,

Onam deymi,
Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o‘zing mehri-
Ilig‘imsan, Vatanim.
Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin - Kurdistonda,
Boburing- Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig‘ deb,
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim...

Adabiyot

1. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g“risida”gi qaror. “Xalq so‘zi” gazetasi № 63 27.03.2021.
2. Uch buyuk qadriyat: Ma’naviyat, axloq-odob, ma’rifat. @iQUIZ
3. Umarov E. Madaniyatshunoslik.-T.: 2003.
4. Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy, “Oxiratnama”. Buxoro, 1992
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: Adolat,-1998.
6. Rahimov K. “Hidoyat sari” j.-T.: 2008, № 5, -33-35 bet.
7. Ikromov Sh. O‘rtta Osiyoliklarning muhojirlilik tarixiga nazar. mahbantour.com.
8. Shamsutdinov R. “Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, qulqlash-tirish, surgun O‘rtta Osiyo respublikalari misolida. –T.: Sharq 2003. 33 bet.
9. Hayitov Sh.A. XX asr o‘zbek muhojirligi tarixi. t.f.d. darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: 2009. S. 32-33.
10. Türel Yilmaz. Iran’da unutulmuş bir toplum: Türkmen sahra Türkmenleri. Akademik Orta Dogu . 2007, Vol. 1 Issue 2, p205-216. 12p.

SHAXSDA O‘ZINI O‘ZI BILISH RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Xidoyxodjaeva X.T. - Toshkent davlat pedagogika universiteti
tadqiqotchisi**

Annotatsiya. Maqolada shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri o‘zini o‘zi bilish hodisasining mazmun, mohiyati ochib berilgan. Ayniqsa, o‘zini o‘zi bilish muammosiga nisbatan xorij olimlarining yondashuvlari ham keltirib o‘tilgan. Shuningdek, shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o‘zini o‘zi bilish hodisasining namoyon bo‘lish omillari, xususiyatlari, mezonlari izohlanilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, o‘zini o‘zi bilish, o‘zini o‘zi anglash, diqqat, sabr-toqat, qat’iyatlilik, o‘smirlilik davri, ixtiyoriy harakat, ichki muloqot, muvaffaqiyat, kognitiv komponent, emotsional komponent, tasavvur, refleksivlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ САМОПОЗНАНИЯ У ЛИЧНОСТИ

Хидойходжаева Х.Т. - научный сотрудник Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье раскрывается содержание и сущность феномена самопознания, одного из важнейших факторов развития личности. Также упоминаются взгляды зарубежных ученых на проблему самопознания. Также объясняются факторы, особенности и критерии проявления феномена самопознания на разных этапах развития личности.

Ключевые слова: личность, самопознание, самосознание, внимание, терпение, настойчивость, подростковый возраст, произвольные действия, внутреннее общение, успех, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, воображение, рефлексивность.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF SELF-KNOWLEDGE IN PERSON

Khidoykhodjaeva H.T. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article reveals the content and essence of the phenomenon of self-knowledge, one of the most important factors in the development of the individual. The views of foreign scholars on the problem of self-knowledge are also mentioned. It also explains the factors, features and criteria for the manifestation of the phenomenon of self-knowledge at different stages of personal development.

Key words: personality, self-knowledge, self-awareness, attention, patience, perseverance, adolescence, voluntary action, internal communication, success, cognitive component, emotional component, imagination, reflexivity.

O‘zini o‘zi bilish bu odamning o‘z hayoti va shaxsi haqidagi g‘oyalarni anglash va to‘plash jarayonidir. O‘zini o‘zi bilish insonning atrofdagi olamni bilish jarayoniga kiradi va bu dunyo bilan munosabatlar o‘rnatishning muhim shartidir. Qadim zamonlarda ma’badning tosh ustuniga “O‘zingni bil” uyib yozilgani

ajablanarli emas. Lekin har doim ham bir qarashda tushunarli bo‘lgan bunday fikr insonning kundalik hayotida o‘z ifodasini topavermaydi. J.Lokkning ta’kidlashicha, o‘zini o‘zi anglash qobiliyati hayotiy tajribadan kelib chiqadi: faqat voyaga yetganidan keyin va tashqi dunyo haqida bilimlarga ega bo‘lganidan so‘ng, odamlar “ichida nima bo‘layotgani haqida jiddiy o‘ylay boshlaydilar; va ba’zilari deyarli o‘ylamaydilar” [4; 283-b.]. Darhaqiqat, falsafada ham, psixologiyada ham o‘zini o‘zi bilish istagi va qobiliyati an’anaviy ravishda hech bo‘lmaganda o‘smirlidandan oldin emas, balki kattalar bilan bog‘liq. Ammo har bir yetuk odam o‘zini o‘zi bilishga qaratilgan kundalik ichki muloqotni o‘tkazishga moyil emas. Bolalar bundan buyon hech qanday ehtiyoj sezmaydilar. Keling, o‘sib borayotgan odam uchun o‘zini o‘zi bilish zarurligini ko‘rsatadigan asoslarni shakllantirishga harakat qilaylik.

O‘zini o‘zi bilish ularning faoliyatini mustaqil tashkil etish uchun zarurdir. Agar odam faoliyatida qiyinchiliklarga duch kelsa, bu shuni anglatadiki, kerakli harakatlarni bajarish uchun unga yaxshi o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar, yoki diqqat, sabr-toqat, qat’iyatlilik va boshqalar yetishmaydi. Ba’zilar bunday vaziyatda boshqa ishlardan voz kechishadi, xususan, muammoni hal qilish, yordam yoki maslahat kutishadi. Boshqalar bahslasha boshlaydilar: nima uchun muammo hal bo‘lmayapti, uni hal qilish uchun qanday bilim, ko‘nikmalar yetarli emas; ular o‘zlar bu qiyinchilikni yengishning yo‘llari va usullarini topa oladimi, deb hayron bo‘lishadi (shartlarni diqqat bilan o‘qing, vaqtingizni oling, sabrli bo‘ling va hokazo). Shubhasiz, o‘z imkoniyatlarini yaxshi biladigan, qiyin vaziyatlarda o‘z kuch va qobiliyatiga e’tibor qaratishga odatlangan, tugallangan va bo‘lajak harakatlarni tahlil qila oladigan, hayotning har qanday sohasida ancha muvaffaqiyatli va samaraliroq bo‘ladi.

O‘zini o‘zi bilish xatti-harakatlarning ixtiyoriy o‘zini o‘zi boshqarish shartidir. I.S.Konning ta’kidlashicha, xatti-harakatlarini o‘zini o‘zi tartibga solishi, shaxsning o‘zi haqida ma’lum ma’lumotlarga ega bo‘lishini ham nazarda tutadi[3]. Insondagi iroda tashqi yoki ichki to‘siqlarni yengib, biror harakatni amalga oshirish yoki uni ushlab turish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Tashqi to‘siqlar, qoida tariqasida, ravshan va tushunarli (masalan, o‘quvchi topshiriqni darsda bajarsa va sherigi uni chalg‘itsa, ikkinchisiga iltimos bilan murojaat qilish oson). Bu ichki to‘siqlar bilan yanada qiyin. Shuningdek, ta’lim vazifalarini bajarishda beparvolik, dangasalik, qiziqroq faoliyat va boshqalar to‘siq bo‘lishi mumkin. Bu to‘siqlardan hamma ham, ayniqsa, bola ham xabardor emas. Bu shunday holatlarda irodani namoyon etishni imkonsiz qiladi. Har qanday ixtiyoriy harakat, paydo bo‘lgan to‘siqni yengib o‘tish bilan bog‘liq ongli motivni, ba’zan esa o‘z-o‘ziga ishonish yoki o‘z-o‘zini tartibga solishni o‘z ichiga olgan jiddiy ichki muloqotni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi bilish inson o‘z yutuqlari va shaxsiy fazilatlarini munosib baholashi uchun zarurdir. Hamma o‘smirlik davridagi bolaning o‘zini o‘zi qadrlashi

o‘ziga nisbatan umumiyligi ijobjiy munosabat hukmronligi bilan tavsiflanadi, bu esa o‘zi bilan yetarli darajada aloqa o‘rnatishga imkon bermaydi. Ba’zi hollarda, o‘ziga bo‘lgan “cheksiz muhabbat” tufayli bola o‘z muvaffaqiyatsizligi haqidagi ma’lumotni sezmaydi. Bunday bola haqida aytishimiz mumkinki, u o‘zini o‘zi qadrlashini yetarli darajada baholamaydi. Bu xususiyat ta’lim faoliyatiga ham, bolaning sinfdoshlari bilan munosabatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zini yuqori baholagan maktab o‘quvchilari o‘z muvaffaqiyatsizliklarini tashqi sharoitlar bilan izohlaydilar, o‘zlariga tanqidiy munosabatda bo‘lmaydilar, lekin ular o‘z o‘rtoqlarini xatolari uchun tanqid qilishadi. Maktab o‘quvchilarida o‘zini o‘zi qadrlashining yetishmasligini bartaraf etish, faqat ularning o‘zini o‘zi qadrlashini kognitiv komponenti-o‘zini o‘zi bilish orqali mumkin bo‘ladi. A.V. Zaxarova, boshlang‘ich maktab yoshida, “o‘zini o‘zi qadrlashning kognitiv komponenti, bolaning o‘ziga bo‘lgan munosabatini intellektualizatsiya qilish, kattalar tomonidan uning o‘zini o‘zi qadrlashiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirini yengish uchun qulay sharoitlar yaratilgan”[1; 13-b.].

O‘zingiz, sizning faoliyattingiz va shaxsingizning o‘ziga xos xususiyatlari haqida obyektiv bilimlarning to‘planishi sizga nafaqat o‘z xatolaringizni ko‘rish va qabul qilish, balki o‘zingizning kuchli tomonlaringizni anglash, imkoniyatlaringizni tushunish va xatolarni tuzatish va muvaffaqiyatga erishish yo‘llari haqida o‘ylash imkonini beradi.

O‘zini o‘zi bilish boshqa odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatish uchun zarurdir. Inson hayotining birinchi kunlaridanoq boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishadi. Birinchidan, uni qanday bo‘lsa, shunday qabul qiladigan eng yaqinlari bilan. Keyinchalik, uyg‘un munosabatlar uchun, insondan ma’lum qoidalar va qonunlarga rioya qilish talab qilinadi: axloqiy, ma’naviy va boshqalar. Buni qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin, odam muloqot sheriklaridan yoki o‘zini o‘zi kuzatish orqali o‘rganadi. O‘zining xulq -atvorida yoki boshqalarga bo‘lgan munosabatida biror narsani tuzatish zarur bo‘lganda, odam muloqotdagi muvaffaqiyatsizlikni sherigiga, uning noto‘g‘ri xulq-atvoriga yoki shaxsning salbiy xususiyatlariga bog‘lashi mumkin. O‘zini atrofdagilarga bo‘lgan munosabatini ko‘zdan kechirish odati va o‘z xulq-atvorini to‘g‘rilashga va shu tariqa kommunikativ vaziyatni boshqarishga yordam beradi.

O‘zini o‘zi bilish shaxsni rivojlantirishning muhim shartidir. I.Kant shunday deb yozgan edi: “Inson o‘zi haqida tasavvurga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoit, uni cheksiz ravishda yer yuzida yashovchi barcha mavjudotlardan ustun qo‘yadi. Buning evaziga u inson...”[2; 357-b.].

Shaxsning turli sohalarda rivojlanishi tabiiy shartlarga muvofiq kamolotga yetishi hamda uni atrof-muhit va odamlar ta’siri ostida amalga oshirishi mumkin. Ammo shaxsning haqiqiy rivojlanishi - bu odamning o‘ziga xos munosabati va maqsadlari bilan belgilanadi. Albatta, bu maqsadlar inson qonunlariga zid bo‘lmasligi

va jamiyatning axloqiy va ma’naviy qadriyatlari bilan bog‘liqligi muhim. Shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish maqsadlarini qo‘yishi va ularni muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda amalga oshirish yo‘llarini tushunishi, faqat o‘zini o‘zi bilishning yuqori darajasi bilan mumkin bo‘ladi.

O‘zini o‘zi bilish insonning kasbiy va shaxsiy taqdirini belgilashda zarurdir. Voyaga etish bosqichida odam ongli yoki ongsiz ravishda uning keyingi shaxsiy rivojlanishini belgilaydigan kasbiy yo‘lni tanlaydi. Agar bu ongsiz ravishda sodir bo‘lsa, noto‘g‘ri tanlov qilish xavfi katta. Ammo o‘smir qanday kasb tanlashni va qaerga o‘qishni o‘ylab topsa ham, har doim ham bunday qiyin qarorga asos topa olmaydi. “Men kim bo‘lishim kerak?” degan savollarga javob bera olsagina o‘z imkoniyat va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zi uchun kerakli kasbni tanlashi, hayot rejalarini tuzishi, aniq maqsadlar qo‘ya oladigan, ularga erishish yo‘llari va usullarini ko‘ra oladigan, rivojlangan o‘zini o‘zi biladigan inson bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, o‘zini o‘zi bilish insonga muhim hayotiy savollarga javob berish imkonini beradi “Men kimman?”, “Men nima?”, “Mendan nima istaysiz va men nima haqida orzu qilasiz?”, “Qanday qilib menining faoliyatim atrofimdagи odamlar bilan bog‘liq?”, “Men nima qila olaman?”, “Men kim va nima bo‘lishni istayman?”, va hokazo. O‘zingizni bilsangiz, hayotingizni boshqarishingiz mumkin. Bu insonning o‘z hayotini mustaqil tashkil etishga tayyorligi.

Shaxs o‘zini o‘zi bilish muammosi doirasida olib borilgan tadqiqotlar [5; 6-b.] shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich mакtab yoshida bolalar bu savollar haqida o‘ylay boshlaydilar. Bu birinchi navbatda eng oddiy darajada sodir bo‘ladi. O‘zlari haqida mulohaza yuritib, ular o‘zlariga kerakli narsalarni, oila a’zolarini, do’stlarini, uy hayvonlarini, shaxsiy va tarjimai hol ma’lumotlarini sanab o‘tadilar, u yoki bu amaliy faoliyatni tasvirlaydilar va hokazo. Ba’zida ular moddiy va ijtimoiy narsalarga bo‘lgan munosabatini anglaydilar (menga yoqadi, yoqadi).

Asta-sekinlik bilan, o‘zini o‘zi bilish ichki mazmunga o‘tadi: o‘rganish va har xil faoliyatda muvaffaqiyat qozonish motivlari, kelajakda jozibali kasbga ega bo‘lish xohishi, yaxshiroq bo‘lish istagi, kelajakda shaxsning ijobiy fazilatlarini egallash. Bu mulohaza talabalarning o‘z xususiyatlarini, hayotining turli tomonlarini, intilishlarini, ehtiyojlari va motivlarini sinchkovlik bilan, aniq emas, balki ba’zida va tanqidiy tarzda anglash qobiliyatini ochib beradi.

Maktab o‘quvchilarining o‘zini o‘zi bilishi shaxsning turli sohalarida turlicha davom etadi. Axloqiy, kommunikativ, intellektual va irodaviy sohalarda o‘zlari haqidagi hukmlarining refleksivlik va tanqidiylik darajalarini taqqoslaganda, biz ko‘pincha bolalar o‘z shaxsi, irodaviy sifatlari haqida fikr yuritishga moyilligini aniqladik. Bu ixtiyoriy xatti -harakatlar haqida ko‘proq xabardorlik bilan bog‘liq.

Kamdan kam hollarda, maktab o‘quvchilari o‘zini o‘zi bilish refleksivligini, o‘ziga xos axloqiy fazilatlarni tan olishda ehtiyyotkorlikni namoyon etishadi. Ular

hozirgi paytda o‘zlarida mavjudligi yoki yo‘qligini, shuningdek, kelajakda sotib olish imkoniyatini aniq belgilaydilar. Talabalar irodaviy va intellektual sohalarda o‘zlarining shaxsiy xususiyatlarni tanqidiy idrok etadilar. Bundan tashqari, ba’zi talabalar kelajakda bu fazilatlarni egallash mumkinligiga shubha bildirishdi. Bu sohalarda o‘ziga bo‘lgan bunday norozilik bolalarni boshqarishga, tuzatishga va o‘zini o‘zi rivojlantirishga undashi mumkin. Yosh maktab o‘quvchilari kelajakda aqlii, diqqatli, sabrli va hokazo bo‘lishi istagi haqida fikrlashmoqdalar. O‘smirlar va o‘rta maktab o‘quvchilari his-tuyg‘ularni jilovlashi, g‘azablanmasligi, maqsadlariga qat’iyat bilan erishishi va boshqalarni o‘rganishni xohlaydilar.

Ayrim hollarda, bolalar axloqiy va kommunikativ sohalarda o‘zlarining salbiy xususiyatlarni sezadilar. Yosh maktab o‘quvchilari deyarli hech qachon “yomon” yoki “yomon do’st” kabi o‘ziga xos xususiyatlarni tanlamaydilar. O‘smirlar va hatto o‘rta maktab o‘quvchilarining o‘zini o‘zi ta’riflashida, ularning axloqiy fazilatlari yoki harakatlari to‘g‘risida tanqidiy fikrlar ham kamdan-kam uchraydi. Bu o‘zini o‘zi ifodalashning ijtimoiy istagi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Maktab o‘quvchilari boshqalarning nazarida axloqiy muloqot qilish va o‘zini tuta oladigan qilib ko‘rinishni xohlashadi. Bu, albatta, o‘zini o‘zi anglashga ta’sir qiladi. Va ularning nazarida axloqiy va boshqalar bilan muloqot qila oladigan ko‘rinishga ega bo‘lishni xohlashadi. Shunday qilib, maktab o‘quvchilarining o‘zini o‘zi bilish xususiyatlari ular shaxsini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bola o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini qanchalik yaxshi bilishi, hayoti va shaxsining turli jihatlarini tahlil qila olishi, kamchiliklari va rivojlanishining mumkin bo‘lgan yo‘llarini ko‘ra olishi, kundalik hayoti, faoliyati va boshqalar bilan muloqotini belgilashi, yangi hayotiy maqsadlarni qo‘yishi va ularni amalga oshirishga intilishi ortadi.

Adabiyotlar

1. Захарова А.В. Генезис самооценки. Тула: Изд-во Тул. гос. ун-та им. Л.Н. Толстого, 1998.
2. Кант И. Сочинениуа: в 6 т. Т. 1. М., 1993.
3. Кон И.С. Открытие Ya. M. : Политиздат, 1998.
4. Локк Д. Избранные философские произведения: в 2 т. М. : Соцэкгиз, 1990. Т. 1.
5. Спиридонова С.Б. Исследование возрастных особенностей самопознаниуа школников // Изв. Волгогр. гос. пед. ун-та. Сериуа “Педагогические науки”. 2008. № 9 (33). С. 237–240.
6. Спиридонова С.Б. Исследование индивидуально-типологических особенностей самопознаниуа школников // Психологическая наука: теоретические и прикладные аспекты исследований: материалы Междунар. науч. конф. Карачаевск: КЧГУ. 2009. С. 222–227.

**ZAMONAVIY SHAROITDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI
MODERNIZATSIYALASH**

**Tashmetova Sh.X. - Toshkent davlat pedagogika universiteti katta
o'qituvchisi**

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lif muassasasining o'quv va tarbiya jarayonini zamonaviy sharoitda modernizatsiya qilish haqida so'z boradi. Pedagogika universitetining malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha asosiy vazifasi keltirilgan.

Kirish so'zlar: oliy ta'lif muassasasi, pedagogika, talaba, o'qituvchi, modernizatsiya, zamonaviy sharoit, o'qitish va tarbiya jarayoni, tayyorlash, kadrlar.

**МОДЕРНИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА
В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ**

**Ташметова Ш.Х. - старший преподаватель Ташкентского
государственного педагогического университета**

Аннотация. В статье речь идёт о модернизации учебно-воспитательного процесса вуза в современных условиях. Названа основная задача педагогического университета по подготовке квалифицированных кадров.

Ключевые слова: вуз, педагогика, студент, преподаватель, модернизация, современные условия, процесс обучения и воспитания, подготовка, кадры.

**MODERNIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS
IN MODERN CONDITIONS**

**Tashmetova Sh.X. - senior lecturer of Tashkent state pedagogical
university**

Annotation. The article deals with the modernization of the educational process of the university in modern conditions. The main task of the pedagogical university for the training of qualified personnel is named.

Key words: university, pedagogy, student, teacher, modernization, modern conditions, the process of teaching and upbringing, training, personnel.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni muvaffaqiyatli isloh qilishning eng muhim sharti universitetda mutaxassislar tayyorlash mazmunini yanada

takomillashtirishdir. Yangilangan tarkibni ishlab chiqishning uslubiy asoslari respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy qudratini mustahkamlashning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolariga bag‘ishlangan asarlarida bayon etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy g‘oyalari bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, milliy madaniyat, ilm-fan va ta’limni demokratlashtirish tamoyillarini rivojlantirishga katta e’tibor berilishi kerak. Bunday sharoitda, davlatimiz rahbari bir necha bor ta’kidlaganidek, yangi tafakkurni shakllantirish, ijodiy faoliyat, ularni yoshlarda madaniyat va ta’lim yutuqlari asosida tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Dunyoda sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar inson hayoti va faoliyatining turli sohalarida namoyon bo‘ladi: moliyaviy-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik. Shaxslar, odamlar guruhlari, millatlar, xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar, kattalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, turli yosh guruhlari va avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarib bormoqda. Shu munosabat bilan ta’lim makonida o‘zgarishlar yuz bermoqda.

Jamiyatning ko‘rsatilgan rivojlanish jarayonlarining umumiy fonida ajralmas shaxsni shakllantirish, uning o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi rivojlanish, o‘zini namoyon qilish, faol ijodiy ehtiyojni shakllantirish uchun favqulodda ehtiyoj tug‘iladi. Dunyoning o‘zgarishi, inson o‘zining yaqin atrof-muhitini uyg‘unlashtirishi, shaxsiy mavqeい va hayotda o‘z o‘rnini topishga intilishi. Shundan kelib chiqib, bu asrning ikkinchi o‘n yilligi ta’lim tarixiga butun umr davomida insoniyatni va har bir insonni alohida-alohida turlicha qoldirmagan davr sifatida milliy va jahon umrbod ta’lim tizimlarini yaratish davri sifatida kiradi.

Axborot oqimi va erishilgan amaliy natijalar umrbod ta’lim nazariyasi va amaliyotida katta yutuqlarga yordam berdi. Hayotiy ta’lim tizimining paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy omili ilmiy izlanishlar rivojlanishining tezlashishi, xalq xo‘jaligi sohasidagi texnologik jarayonlarning tez o‘zgarishi bo‘lib, bu qo‘srimcha kasbiy bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Ushbu nazariy pozitsiyaning haqiqiyligi umrbod ta’limning rivojlanishiga ta’sirini saqlaydigan postulatga aylandi.

Shu sababli, hozirgi asrda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi global omillardan biri – bu davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosi, dunyo miqyosida tan olingan barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishning asosi ekanligi insoniyat va umuman sivilizatsiya bilan bog‘liqdir.

Tez rivojlanayotgan bilimlar iqtisodiyoti va yangiliklarni o‘zlashtirish imkoniyatlari, ilm-fanning global tendensiyalari, xususan, milliy manfaatlar va imkoniyatlar mavjud ta’lim tizimlarini sozlash zarurligini keltirib chiqardi.

O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 23-iyundagi “Yangi O‘zbekiston universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonida yangi O‘zbekistonda har tomonlama rivojlangan davlat va jamiyat qurish va uning poydevorini yaratish kabi oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlarimiz ta’kidlangan. “Uchinchi Uyg‘onish davri

mamlakatda umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga asoslangan zamonaviy bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirgan texnologiya yuqori salohiyatga ega, xalqaro mehnat bozorida, ilm-fan sohasida va raqobatbardoshligi yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar kadrlarni tayyorlashning innovatsion tizimini shakllantirish bo'yicha ishlarni yanada sifatli kuchaytirishni talab qiladi”[1].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, universitetlarning, shu jumladan, Toshkent davlat pedagogika universitetining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ta'lism dasturlari asosida yuqori kasbiy mahorat va malakalarga ega istiqbolli kadrlarni tayyorlash, talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish va buning uchun har tomonlama qulay muhit yaratish.

Pedagogika fanini modernizatsiya qilish uchun ushbu vazifalar alohida ahamiyatga ega. Chunki yangi g'oyalar va turmush tarzi talabalarning rejalariga, shuningdek, ko'proq turli xil ma'lumotlarga to'lib-toshgan, universitetda o'qish davrining ajralmas qismi bo'lgan ta'lism yo'nalishlariga o'zlarining tuzatishlarini kiritadilar.

Pedagogik universitetning asosiy vazifasi – har bir bo'lajak o'qituvchiga uning qobiliyatları va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq sifatli ta'lism berish, mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda raqobatbardosh o'qituvchilarni tayyorlash.

Ta'limni isloh qilishning maqsadi talaba yoshlarni o'qitish va tarbiya qilish tizimini jamiyat ehtiyojlari va iqtisodiyotning sanoat va innovatsion rivojlanishiga mos ravishda modernizatsiya qilish, uning insoniyat individualligi borgan sari muhim rol o'ynashi bilan uni jahon ta'lism makoniga qo'shilishidir[2]. Axborot-texnik o'zgarishlar birlashgan axborot makonlarini (iqtisodiy, ilmiy, madaniy, ma'rifiy va boshqalarni) yaratdi va inson hayoti makonida tubdan o'zgarishga olib keldi.

Bu ta'lism oldiga maxsus davlat va jamoat instituti sifatida katta mas'uliyat va fan, texnika, madaniyat va texnikaning zamonaviy yutuqlari asosida shaxsni rivojlantirishning strategik vazifasini qo'yadi.

Bundan tashqari, zamonaviy o'zgarishlarni hisobga olgan holda, ta'lism sohasi tubdan o'zgarib bormoqda, uning ajralmas qismi pedagogik faoliyat, shuningdek, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, uning pedagogik mahorat darajasiga qo'yiladigan talablar. Ular o'quv jarayoniga zamonaviy tendentsiyalar va talablarni his qilish qobiliyati va o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish va tarbiyalashni optimallashtirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyorligida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, o'quv jarayonining innovatsion faoliyati bu davrimizning berilgan talablariga javob beradigan tizimli yondashuvdir. Shu sababli, ta'limni modernizatsiya qilish doirasida ta'lism muassasalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ta'lism muassasasining butun o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan aniq yangiliklarni yaratish va rivojlantirish bo'yicha faoliyat sifatida innovatsion faoliyatdir.

Ta’limdagi innovatsion jarayonlarning aksariyat tadqiqotchilari ma’lum bir ta’lim muassasasida o’zlashtirilgan har qanday yangi, nostandard, g‘ayrioddiylikni innovatsion faoliyat bilan tushunadilar. Ushbu yondashuvga asoslanib, umuman olganda, ilmiy foydalanishda innovatsion faoliyat odatda o‘z ta’lim muassasasini yangilash jarayonida ishtirok etadigan barcha subyektlarning ko‘p funksiyali faoliyati sifatida talqin etiladi, bu uning harakatchanligini ta’minlashni anglatadi.

So‘nggi yillarda dunyoning boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik chegaralarini kengaytirib, O‘zbekistonni rivojlanirishning yangi tendensiyalari tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Bugun har qachongidan ham ko‘proq tarixiy vaqtning ushbu yangi manbasini anglash, pedagogika fani oldimizda ochib beradigan yangi imkoniyatlarni ko‘rish, muammolarni hal qilish yo‘llarini izlash muhimdir.

Jahon amaliyotida iqtisodiy yangiliklarning o‘sish vaqtiz bizga bir vaqtning o‘zida hodisaning barcha qirralarini ko‘rish va yechimlarini topish imkonini beradigan samarali yondashuvlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda zamонавија та’лим modelining alohida o‘rni respublikадаги ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ta’sir qiladi. Shu sababli, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o‘tishi jamiyatni innovatsion iqtisodiyotni qurish tendensiyasiga yo‘naltirdi.

Shu bilan birga, ushbu ta’lim modelining asosiy strategik yo‘nalishi o‘quv jarayoni ishtirokchilarining mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlanirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga tayyorlash va ularning o‘zlarining o‘rnini belgilashdir.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun o‘quv muassasalarida o‘qituvchilarning malakasini oshirish, mahorat darslari, seminarlar, videokonferensiylar, veb-seminarlar, turli oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining tajribalari almashinushi tashkil etiladi.

Ta’limning har qanday turining samaradorligi quyidagilarga bog‘liq: 1) o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali o‘zaro bog‘liqlik; talabalar o‘zaro, ularning kognitiv ijodiy faoliyat jarayonida hamkorligi; 2) amaliy pedagogik texnologiyalar; 3) o‘quv materiallarining mavjudligi va sifati.

“Ustoz-shogird” an’anasiga asoslangan holda hayotni davom ettirish tizimidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish – bu hozirgi kunda jamiyat tomonidan ongli harakat xususiyatlarini tobora ko‘proq egallab kelayotgan yana bir muhim rivojlanish tendensiyasidir.

Talabalar o‘rtasida bilim qatlarni shakllantirish nafaqat respublika ilmiy jamoatchiligi, balki kamdan kam darajada davlat qurilishi va boshqaruvi, madaniyat va ta’lim sohalari vakillari oldida turgan vazifadir. Shu nuqtayi nazardan ta’kidlash kerakki, universitet ta’limining ahamiyati va biz haqiqatimizni qay darajada o‘zgartirishga, unga yangi ma’naviy-axloqiy ma’nolarni kiritishga tayyormiz, bizning

kelajagimiz, asosan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi yaqin hamkorlikka, subyekt-subyekt munosabatlariiga asoslangan.

Bugungi kunda O‘zbekiston ajralmas milliy innovatsion tizimning muhim qismlariga ega: ilmiy va ta’lim muassasalari, innovatsiyalarga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish korxonalari, turli darajadagi innovatsiyalar va ijodkorlik infratuzilmasi.

Jahon raqobati va ochiq iqtisodiyot sharoitida rivojlangan mamlakatlar darajasiga farovonlik va samaradorlik nuqtayi nazaridan milliy iqtisodiyotning global iqtisodiy tizimga ixtisoslashuvini belgilaydigan tarmoqlarining ilg‘or rivojlanishini ta’milamay turib erishish mumkin emas va milliy raqobatbardosh ustunliklarni maksimal darajada ro‘yobga chiqarish.

Zamonaviy ta’lim tadqiqotlarida integratsiya o‘quv jarayoni, ta’lim tizimlari va butun umrbod ta’lim tizimining yaxlitligini ta’minalashga qaratilgan eng muhim uslubiy toifadir. Shu bilan birga, O‘zbekistonning ta’lim siyosatining asosiy strategiyasi – bu butun jamiyatning va har bir insonning alohida ehtiyojlarini hisobga olgan holda, unga innovatsion xususiyat va e’tiborni berib, yuqori sifatli ta’lim olish uchun maqbul sharoitlarni yaratishdir.

Zamonaviy ta’limda dolzarb bo‘lib qolgan pedagogika o‘z tarixiga, ushbu sohada mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lib, bu jamiyatda mustaqil yo‘nalish sifatida ushbu fanning yangi tizimli namoyishi va asos yaratishda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu faoliyatni yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda amalga oshirish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash kerak.

Ta’limda pedagogikaning rivojlanishi, agar mutaxassislar uchun maxsus ishlab chiqilgan malaka talablari va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni o‘quv-uslubiy ta’mnoti asosida amalga oshirilsa, to‘laqonli bo‘lishi mumkin. Shubhasiz, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida insonparvarlik demokratik munosabatlarni o‘rnatishning muhim omillaridan biri o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari va kasbiy mahorati deb qaralishi kerak. Shu sababli o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash markazida insonparvarlik yo‘naltirilgan fazilatlar va qadriyatlarni shakllantirish bo‘lib, u o‘quv jarayonini gumanistik talqin qilishdan kelib chiqadi, unga ko‘ra u ikki jihatni o‘z ichiga oladi: yangi ma’lumotlarni olish va buning shaxsiy ma’nosini aniqlash talaba uchun ma’lumot. Bu shuni anglatadiki, o‘z-o‘zini universal o‘zgartirish tizimida o‘qituvchi bir xil bo‘lishi kerak, ya’ni u nafaqat pedagogik jarayonni, balki o‘zining rivojlanishini ham loyihalashtirishi va qurishi kerak. Bu o‘qituvchilar tarkibi uchun har xil ta’lim faoliyatida umrbod ta’lim tizimining yangi ta’lim vertikalini yaratadi.

Adabiyotlar

1. https://www.google.com/search?rlz=1C1GGRV_enUZ751UZ751&q
2. https://news.mail.ru/politics/47546963/?frommail=1&exp_id=828

3. Jalolov J., Ikramov J. Matn mutolaasi didaktikasi//j. Xalq ta’limi.– 1993.–1-son.–B.14-19.

4. Джалаев Д.Д. Текст как объект и продукт обучения//Оптимизация обучения иностранному языку в педагогическом вузе: Сборник научных статей. – Ташкент: ТГПИ, 1989. – С.27- 38.

5. Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь. – М.: Астрель: ACT: Хранитель, 2007. – 746, [6] с.; [150] фот.

6. Asqar Zunnunov. Pedagogika nazariyasi Toshkent «Aloqachi» — 2006

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “ELEKTR TEXNIK MATERIALLAR” FANINI O‘QITISHDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Xalilova F.A. - Farg‘ona politexnika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida elektr texnik materiallar fanini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning zamonaviy usullari, axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’lim sifatini oshirish, ishlanmalarini qisqa vaqtda va yuqori aniqlikda tekshirish imkonini berishligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Amaliy mashg‘ulot, samaradorlik, axborot texnologiyasi, dasturiy ta’milot, S++ Builder dasturi.

ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ “ЭЛЕКТРОТЕХНИЧЕСКИЕ МАТЕРИАЛЫ” В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Халилова Ф.А. - преподаватель Ферганского политехнического института

Аннотация. В статье рассматриваются современные методы организации практических занятий по преподаванию дисциплины “Электротехнические материалы” в высших образовательных учреждениях, использование информационных технологий для повышения качества обучения, проверки их освоения с высокой точностью в короткие сроки.

Ключевые слова: практические занятия, эффективность, информационные технологии, программное обеспечение, программа С ++ Builder.

EFFECTIVE ORGANIZATION OF PRACTICAL TRAINING ON THE SUBJECT OF "ELECTRICAL MATERIALS" IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Khalilova F.A. - lecturer at the Fergana Polytechnic Institute

Annotation. The article discusses modern methods of organizing practical classes on teaching the discipline electrical materials in higher educational institutions, the use of information technologies to improve the quality of education, checking their development in a short time and with high accuracy.

Key words: practical training, efficiency, information technology, software, C++ Builder program.

Xalqaro miqyosda texnika fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish, fanning nazariy asoslarini axborot texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda ta’lim tizimida o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish, o‘qitish intensivligi va samaradorligini oshirish, ularni jahon andozalariga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta’limi sohasiga zamонавиу axborotkommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish”[1] vazifalari belgilangan. Bu borada iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladigan yangi elektr texnik materiallarni ishlab chiqish, ularning tarkibi, tuzilishi hamda xossalari o‘rganish, ma’lum sohalarda qo’llash zamонавиу texnikaning dolzarb muammolari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamонавиу bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg‘or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta’minalash kiradi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zaruriyati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Uzluksiz ta’lim chuqur, har taraflama asosli ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, uslub, vosita, usul va yo‘nalishlarining mukammal uyg‘unligidan iboratdir. Uzluksiz ta’lim sifatini turli komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorligi, muayyan uslublar va usullarni ta’lim jarayoniga oqilona tatbiq etilishini ta’minalaydi. Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim

ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g‘oyalar tarzida namoyon bo‘ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o‘zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

Subyektiv yangilik ma’lum obyektning o‘zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingan obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta’minlovchi ma’lum elementlarning yig‘indisini yoritishga xizmat qiladi.

Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiyligi pedagogik va didaktik talab talabalarining dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishslash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlash, o‘quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagog texnologiyalarining talaba – yoshlarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishslashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda[2].

Ta’limning bugungi vazifasi talaba - yoshlarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun, ularga uzlusiz ravishda mustaqil ishslash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Zamonaviy o‘quv jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanishga ko‘p e’tibor qaratilmoqda. Barcha oliy ta’lim muassasalarida kompyuter texnikasi mavjud bo‘lib, dars jarayonida ulardan foydalanishga imkoniyat ortmoqda. Bunday texnika va texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayoni sifatini oshiradi, talabalar qiziqishiga sababchi bo‘ladi. Shuni unutmaslik lozimki, darsda kompyuterdan foydalandi, degani talabaning bilimi ortdi degani emas, balki undan oqilona foydalanish zarur bo‘ladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida foydalaniladigan juda ko‘plab elektron qurilmalar tayyorlangan. Zamonaviy elektron qurilmalar dasturlashtirilgan. Mashg‘ulotda axborot texnologiyalaridan foydalanish elektr texnik materiallarni o‘rganishni osonlashtiradi. Bu talabalarni o‘rganayotgan mavzusini o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Bundan tashqari, bu jarayon o‘qituvchiga talabalarning o‘zlashtirish darajasiga qarab, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan qo‘srimcha savollarni shakllantirishga yordam beradi[4].

Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan ta’lim olish usulidan biri hisoblangan masofali ta’lim

mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi.

Ta’limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o‘qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta’limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta’lim tizimi oldida turgan muammolar katta qismni hal etishi kerak. Xorijiy davlatlar ta’lim tizimlarida masofali o‘qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o‘rganishda ta’lim muassasalarida masofali o‘qitishni amaliy tashkil qilishning turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta’limni didaktik ta’minlash vositalarini tahlil qilishga e’tiborni qaratish zarur.

Masofali ta’lim - masofadan turib o‘quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta’lim muhiti yordamida ta’lim xizmatlari to‘plamidan iborat. Masofali ta’lim axborot - ta’lim muhiti foydalanuvchilar ta’lim olish ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan ma’lumotlar uzatish vositalari axborot resurslari o‘zaro aloqalar bayonnomalari apparat - dasturli va tashkiliy - uslubiy ta’minotlar tizimli - tashkiliy to‘plamidan iborat. Masofali ta’lim - o‘qituvchilarga o‘rganilayotgan material asosiy hajmini yetkazib berishni o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar va talabalarning interfaol o‘zaro aloqalarini, talabalarga o‘rganilayotgan materialni mustaqil o‘zlashtirish bo‘yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o‘qish jarayonida ularning olgan bilimi va ko‘nikma va malakalarini baholashni ta’minlovchi axborot texnologiyalari to‘plamidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari yordamida turli shakldagi energetika ta’limi bo‘yicha elektron resurslar yaratishning keng imkoniyatlari mavjud. Bunda Power Point, Macromedia DreamWeaver, Microsoft FrontPage, Microsoft Word, Adobe Photoshop, CorelDraw, Acrobat Reader, Director, Macromedia Flash kabi dasturiy vositalarning imkoniyatlari katta hisoblanadi. Masalan, S++ Builder dastur bunga misol bo‘ladi. Bu dasturdan foydalanib talabalar uchun hisob ishlarini amalga oshirish, amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar berish, materiallarning parametrлari va singdiruvchanliklarini hisoblash dasturi tayyorlandi.

Talabalar fanni mukammal o‘rganish uchun, elektr texnika materiallarining klassifikatsiyalari xaqidagi tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishlari, unda o‘rgangan bilimlarini elektr texnikasida qo‘llay bilishlari zarur. Shuning uchun ularga bilim berish jarayonida yangi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini olib borib zarur. Chunki, ushbu fan hozirda birinchi bosqich talabalariga olib borilishi sababli, ularni fanga qiziqtira ola bilish, o‘zlashtirishlari uchun qulay bo‘lish yo‘llarini qo‘llagan holda dars mashg‘ulotlarini olib borish kerak.

Elektr texnik materiallar fanini o‘qitishda axborot texnologiyasidan foydalanish mashg‘ulot samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. “Elektr texnik materiallar” faniga oid mavzular o‘quv mashg‘ulotidagi elektr texnik

materiallar, ularni elektr o‘tkazuvchanligi, parametrlarini hisoblashda anan’aviy usullarda mashg‘ulot olib borilganda mavzularni talabalar tomonidan qiyin o‘zlashtirilishi pedagogik tajriba-sinov jarayonida ma’lum bo‘lgan. Shuning uchun mazkur mavzularni o‘qitishda axborot texnologiyasini joriy qilishga oid dasturiy ta’midot ishlab chiqildi.

Kompyuter mashg‘ulotini yaratishda, eng avvalo, elektr texnik materiallar, magnit materiallarni parametrlari va magnit singdiruvchanligini hisoblash darsturi amalga oshirildi. Magnit materiallar yordamida magnit oqimi keskin kuchaytiriladi. Magnit oqimidan past kuchlanishli toklarga yuqori kuchlanishli toklarga yoki elektr energiyasini mexanik energiyaga aylantirishda va elektr energiyasini shunga o‘xshash tarzda generatsiyalashda foydalaniladi. Tashqi magnit maydoni ta’sirida magnitlanish xossasiga ega materiallar magnit materiallari deb ataladi. Magnit materiallarga texnikada ko‘p ishlatiladigan ferromagnetiklar va ferritlar kiradi. Ularni magnit o‘tkazuvchanligi juda yuqori (1,5.10⁶ gacha) va tashqi magnit maydoni kuchlanishiga hamda haroratga bog‘liq.

Ferromagnit materiallarning magnit singdiruvchanligi haroratga bog‘liq bo‘lib Kyuri nuqtasiga yaqin qiymatlarda (r o‘zining yuqori qiymatiga erishadi). Kyuri nuqtasidan yuqori haroratlarda spontan magnitlanish sohasida issiqlik harakati buzilib, materiallarning magnit xossasi yo‘qoladi. Cho‘lg‘amda magnit o‘zak bo‘lmaganda magnit induksiya qiymati undan o‘tayotgan tok hisobiga sodir bo‘ladi. Agar cho‘lg‘amga magnit o‘zak kirlitsak, elektr toki hisobiga sodir bo‘ladigan magnit maydoni o‘zakni yanada magnitlab, qo‘srimcha kuch chiziqlari hosil bo‘lishi natijasida magnit induksiyasining yoki magnit oqimining keskin oshishiga olib keladi. O‘zak kesim yuzasidan hosil bo‘ladigan qo‘srimcha kuch chiziqlari qayta magnitlanish deyiladi va i bilan belgilanadi.

Magnit materiallarning xarakteristikasini aniqlash mavzusidagi amaliy mashg‘ulotida, magnit materiallarni parametrlarini va magnit singdiruvchanligini hisoblashda an’anaviy hamda S++ Builder dasturi asosidagi hisoblashlarni ko‘rib chiqamiz.


Dasturiy ta’mindan dars mashg‘ulotlarida foydalanishning bir qancha afzallik va kamchiliklari mavjud. Dasturiy ta’mindan afzalliklari quyidagilar:

Dasturiy ta’mindan foydalanganda hisob ishlarida aniqlik yuqori bo‘ladi;

Dasturiy ta’mindan foydalanganda hisob ishlari uchun ketadigan vaqtidan yutish imkonii bo‘ladi;

Talabalarda darsdan tashqari paytda mustaqil o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratiladi;

Masofaviy ta’lim jarayonida foydalanish talabalarga tushunishini osonlashtiradi;



- O'qituvchilar uchun talabalarning ishlanmalarini qisqa vaqtida va yuqori aniqlikda tekshirish imkonini beradi;

- Talabaga virtuallikni yaratish imkonini beradi;

- Dasturiy ta'minotdan dars mashg'ulotida foydalanganda quyidagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi:

- Dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun ma'lum bilim va ko'nikma talab qiladi;
- Dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun kompyuter bo'lishi lozim;
- Dasturiy ta'minot misollarning to'liq yechilish yo'lini ko'rsatmaydi.

Bu kamchiliklarga qaramay Dasturiy ta'minotdan foydalanish dars mashg'ulotlarida samaradorlikni oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, elektrtexnik materiallarni o'qitishda dasturiy ta'minotdan foydalanish talabalarda o'zlashtirishni yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-soni Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-soni, 29.04.2019-y.

2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: qo'llanma.– T.: O'qituvchi, 2004.- 104 b.

3. A.SH.Axmedov, Elektr texnik materiallar fanidan o'quv qo'llanma, ToshDTU. Toshkent 2004.

4. Xalilova F.A. Elektr texnik materiallar fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy usullari. NamDU ilmiy axborotnomasi - 2021 yil 7-soni, 469-473 b.

MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Xasanov A.A. – Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Pedagogik oliy ta’lim muassasasida chet tilini o‘rganishning mazmuni nafaqat bilim, ko‘nikmalarni egallashdan, balki o‘zini, hayotdagi o‘rnini anglashdan, bilimlar, tilga muhabbatga asoslangan kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Ma’lumki tilni o‘rgatib bo‘lmaydi, ammo uni o‘rganish mumkindir. Shu sababli o‘qitish predmeti (vositasi) sifatida urg‘u tildan tilni o‘rganishda talaba shaxsiga ko‘chiriladi. Bu shaxs qanchalik ko‘p qirrali bo‘lsa, uning erishadigan natijasi ham shunchalik ahamiyatli bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: muloqot kompetensiyasi, lingvistik, ijtimoiy-madaniy, komponent, motivatsion, faoliyatli, kognitiv, bilim, ko‘nikma.

**ПУТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАЦИОННОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ**

Хасанов А.А. - старший преподаватель Узбекско - Финского педагогического института Самаркандского государственного университета

Аннотация. Целью изучения иностранного языка в педагогическом вузе является не только получение знаний и умений, но и понимание себя, своего места в жизни, развитие качеств профессионально важного человека на основе знания и любви к языку. Конечно, языку нельзя научить, но его можно выучить. Таким образом, при изучении языка акцент как предмет (инструмент) переносится с языка на личность студента. Чем многограннее этот человек, тем важнее будет его результат.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, языковая, социокультурная, компонентная, мотивационная, активная, когнитивная, знания, умение.

WAYS TO DEVELOP COMMUNICATION COMPETENCE

**Khasanov A.A. - Senior Lecturer, Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,
Samarkand State University**

Annotation. The purpose of learning a foreign language in a pedagogical higher education institution is not only to acquire knowledge and skills, but also to understand oneself, one's place in life, to develop the qualities of a professionally

important person based on knowledge and love of language. Of course, language cannot be taught, but it can be learned. Therefore, the emphasis as a subject (tool) is transferred from the language to the student in the study of the language. The more multifaceted this person is, the more important his or her outcome will be.

Key words: communication competence, linguistic, socio-cultural, component, motivational, active, cognitive, knowledge, skill.

Chet tilini o‘rganish ta’lim oluvchining dunyoqarashiga, uning psixikasiga ta’sir ko‘rsatishi, uni til to‘g‘risidagi va til vositasida yangi bilimlar bilan boyitishi ma’lumdir. Ta’kidlash lozimki, chet tilini bilish bu tilda muvaffaqiyatli muloqot (o‘zaro aloqalar)ni kafolatlamaydi, uning yo‘lida noto‘liq tushunish, etnik stereotiplar, xurofotlar, o‘zining va xorijiy madaniyatning o‘xhashligini yuqori baholash, ularning individual anglash darajasidagi qarama-qarshiligi yuzaga kelishi mumkindir, shuning uchun ham chet tilini o‘qitish jarayonida, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda uning shaxsini rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiluvchi muloqot kompetensiyasini maqsadga muvofiq rivojlantirish va takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy bosqichda jamiyatimizda chet tilining roli ayniqsa muhim hisoblanadi. Talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovnama natijalariga asosan, chet tilini egallah zamonaviy inson uchun juda muhim va zarur ish hisoblanishini ta’kidlash mumkin. Ammo talabalar obro‘li ta’lim olish, mutaxassislikni muvaffaqiyatli egallah, xorijiy madaniyat vakillari bilan muloqot va hamkorlik orqali o‘z bilimlarini takomillashtirish, o‘z shaxsini rivojlantirish sharti sifatida, hech bo‘lmasa bir chet tilini egallahda shaxsiy zaruratni anglamaydilar. Zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy hayotda subyektiv omil rolini oshirish umuman ta’lim maqsadlarini hamda xususan o‘qitish maqsadlarini o‘zgartiradi.

Oliy ta’lim muassasasida, jumladan pedagogik yo‘nalishlarda chet tilini o‘rganish, avvalgidek amaliy – muloqot qilishga o‘rgatish, shaxsning gumanitar va insonparvarlik rivojlanishini nazarda tutuvchi, lingvistik, filologik va umumiyl dunyoqarashni kengaytirishni ko‘zda tutuvchi rivojlantiruvchi maqsadlarni va ta’lim oluvchilarda bilishga oid faollikni, chet tilida muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantirish va o‘zga madaniyatga hurmatni tarbiyalashga yo‘naltirilgan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan. Odatiy ifodalashda bu amaliy, tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal etishga kompleks yondashuvni ko‘zda tutadi, mohiyatan esa –bu muloqot kompetensiyasining qator asosiy komponentlarini shakllantirishdir. Shu tariqa, pedagogik oliy ta’lim muassasasi nofilologik fakultetlarida chet tilini o‘qitishning asosiy strategik maqsadi integrativlik hisoblanadi, o‘quv jarayonini talaba shaxsiga - bo‘lajak o‘qituvchiga yo‘naltirishda uni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz.

Birlashtiruvchi g‘oya sifatida biz talaba shaxsini chet tilini o‘zlashtirishi orqali rivojlantirish g‘oyasini qabul qilamiz, u quyidagicha talqin etiladi:

- 1) rivojlantirish harakat, samarali o‘zgarish timsoli sifatida tushuniladi;
- 2) rivojlanish o‘quv jarayonida sodir bo‘luvchining umumiy formulasi, interpretasiya prinsipidir;
- 3) rivojlanish o‘qitishda talaba shaxsiga umumiy talab hisoblanadi;
- 4) rivojlanish talabaning o‘rganilayotgan tilga munosabatining asosiy tavsifi hisoblanadi.

Biz pedagogik oliy ta’lim muassasasida “chet tili” fani kasbiy tayyorgarlik jarayonida ahamiyatli element hisoblanadi, nafaqat bilimlar va ko‘nikmalarni egallashni ta’minlaydi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning ishlari va kasbiy hamjamiyatdagi hamkorliklari uchun zarur bo‘lgan shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi deb hisoblaymiz.

Asos sifatida muloqot instrumenti sifatida tilni pragmatik tushunishni qabul qilish lozim. Agar ixtiyoriy boshqa fanni o‘qitish sharoitlarida muloqot funksiyasi ta’lim oluvchilarning predmetli faoliyatlarini tashkil etish bo‘lsa, chet tilini o‘rgatishda esa bevosita predmetli faoliyat didaktik jarayon ishtirokchilarining muloqoti uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydi, muloqot esa bir vaqtida maqsad va vosita hisoblanadi, shuning uchun muloqot faoliyati samaradorligi, ya’ni talabalar hamda o‘qituvchi uchun chet tilini o‘qitishning samaradorligini ta’minlovchi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasasida chet tilini o‘qitish tizimida talaba shaxsini rivojlantirish ostida avvalo unda fikrini ifodalash usulini egallash jarayoni tushuniladi, uning shaxsini rivojlantirish vositasi esa chet tilida muloqot jarayoni hisoblanadi. Chet tilini o‘qitishda biz talabalarga ularning shaxsini rivojlantirishning o‘zgacha usulini taklif etamiz. Ya’ni, pedagogik oliy ta’lim muassasasi nofilologik fakultetlari talabalarida chet tili vositalari bilan muloqot kompetensiyasini rivojlantirib ularning shaxsiy imkoniyatlarini oshiramiz.

Nofilologik fakultetlarda chet tilini o‘qitish jarayonida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, ya’ni talabalarni mos muloqotni amalga oshirishga tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi, bu ularni jahon ta’lim hamjamiyatining teng huquqli, ma’lumotli ishtirokchilariga aylantiradi.

Biz uning shakllanganligini belgilovchi motivatsion, mazmunli va xulqiy komponentlar majmui, talabaning muloqotga tayyorligi darajasini belgilaydi deb hisoblaymiz. Shunga ko‘ra, muloqotga tayyorgarlikni muloqot vaziyatlarida faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi, talabada tilga oid, ijtimoiy-madaniy, predmetli, psixologik-pedagogik bilimlar, chet tilini qo’llashning amaliy ko‘nikma va malakalarining mavjudligi sifatida tushunamiz.

Motivatsion, mazmunli va xulqiy komponentlar dialektik o‘zaro aloqadorlikka ega. Muloqot vaziyati jarayonidagi bilimlar asosida talabada muloqot malakalari shakllanadi; alohida, avtomatizm darajasidagi ko‘nikmalar muloqot malakalariga aylanadi va aksincha malakalarning kombinatsiyasi asosida yangi muloqot ko‘nikmalari shakllanishi sodir bo‘ladi. Boshqa tomondan, muloqot vaziyati talabaning muloqot tajribasini shakllantiradi, u yangi muloqot bilimlarda ifodalanadi. Motivatsion komponent talabani doimiy bilimlarini to‘ldirishga, muloqot ko‘nikmasi va malakalar repertuarini kengaytirishga, ya’ni muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga undaydi.

Shu tariqa, pedagogik oliy ta’lim muassasasi nofilologik fakultetlarida talabalarga chet tilini o‘qitish davomida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining mazmuni quyidagi zaruriy komponentlarni kiritishi kerak: mazmunli (yoki kognitiv), xulqiy (yoki faoliyatli) va motivatsion (yoki shaxsiy).

Biz pedagogik oliy ta’lim muassasasi talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqdik. Mazkur komponentlarning mazmunini ko‘rib chiqamiz.

Kognitiv komponent talabaning kognitiv sohasining o‘zgarishlari bilan bog‘liq, uning muloqotning umumiy qonunlari, chet tilida muloqot qonuniyatlariga, shaxs rivojlanishining zamonaviy konsepsiylariga taalluqli bilimlarini (lingvistik, ijtimoiy-madaniy, predmetli, psixologik-pedagogik) chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Kognitiv komponent o‘ziga quyidagi bilimlarni kiritadi:

- o‘rganilayotgan til semantikasi bilan leksik-grammatik bilimlar va malakalar;

- umumfoydalaniladigan leksikani, grammatic tuzilmalar va toifalarni bilish;

- ijtimoiy-madaniy, tarixiy-madaniy, etno-madaniy vaziyatni bilish;

- atamalarni (mutaxassislik tilini tashkil etuvchilarini) bilish;

- samarali muloqot strategiyasi va taktikasini bilish;

-shaxs rivojlanishining zamonaviy nazariyalarini bilish (A. Maslou, K. Rodjersning insonparvarlik nazariyalari).

Faoliyatli komponent talabalarda muloqot faoliyatining turli xil usullarini rivojlantirishga, muloqot vazifalarini yechish davomida talaba shaxsining yaxlit o‘zini o‘zi aniqlashi va o‘zinio‘zi ifodalashiga yo‘naltirilgan. Mazkur komponent bo‘lajak pedagogning kasbiy rivojlanishi xususiyatini hamda uning hayotiy istiqbolini belgilaydi.

Mazkur komponent malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Malakalar ostida talabalar shaxsiy tajribasida shakllangan bilimlar asosidagi ma’lum faoliyatni bajarish qobiliyatini tushunamiz. Tadqiqot ishimizda bu muloqot ko‘nikmalleri, til

vositalarini nutqiy xulq me'yorlari bilan bog'lash qobiliyatiga, ma'lum vaziyatlar va vaziyatli masalalarga mos bo'lgan muloqotni amalga oshirishga taalluqlidir.

Faoliyatli komponent o'z ichiga quyidagilarni kiritadi:

- madaniyat tashuvchilari bilan madaniy o'zaro tushunishga erishish uchun muloqot vaziyatlarida bilimlarni (lingvistik, ijtimoiy-madaniy, predmetli, psixologik-pedagogik) qo'llash ko'nikmalari;

- muloqot vaziyatlarida mamlakatshunoslik leksikasini to'g'ri qo'llash qobiliyati (frazeologizmlarni qo'llash ko'nikmasi);

- dolzarb kasbiy ahamiyatli mavzu doirasida nutqni qurish ko'nikmasi (nofilologik fakultetlar uchun chet tillari bo'yicha dasturda ko'zda tutilgan [91]);

- etnomadaniyatda qabul qilingan muloqot texnikasidan foydalanib, ijtimoiy-madaniy bog'liq ssenariylar, milliy-o'ziga xos xulq modellarini egallaganlik;

- samarali muloqot strategiyasi va taktikasini amalga oshirish qobiliyati.

Motivatsion komponentning maqsadi talabaga kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan, bo'lajak pedagogning kasbiy ahamiyatli shaxsiy va muloqot sifatlarini anglashda yordam ko'rsatish, kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish motivatsiyasini rivojlantirishdan iborat.

An'anaviy ravishda chet tilini o'qitishda tizim hosil qiluvchi komponent sifatida axborot, kognitiv komponentlar ko'rsatiladi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasasida chet tilini o'qitish davomida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida motivatsion komponentni tizim hosil qiluvchi deb hisoblash lozim, chunki aynan u muloqotni amalga oshirishga ko'p jihatdan yordam beradi va kasbiy tayyorgarlik davomida bo'lajak pedagog shaxsini kasbiy rivojlantirish jarayoni bilan bog'liq.

Mazkur komponent talaba shaxsining chuqur qatlamlarini: shaxsiy qadriyatlar, ustakovkalar, ishonchlari tizimi, motivatsion sohasini qamrab oladi.

Motivatsion komponent o'z ichiga quyidagilarni kiritadi:

- talabalar ehtiyojlarining iyerarxik tizimini hisobga olish;
- chet tilini o'rganishga qiziqish;
- shaxsiy yo'nalghanlik;
- insonparvarlik yo'nalghanligi.

Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish (kognitiv komponent), muloqot malakalari repertuarini kengaytirish (faoliyatli komponent) ularning motivatsion sohasining o'zgarishiga olib keladi (motivatsion komponent) va talabalar uchun bo'lajak kasbiy faoliyatini va uning asosida yotuvchi motivlar, mazmunlar, qadriyatlarni anglashlarini ta'minlaydi deb hisoblaymiz.

Shu tariqa, muloqot kompetensiyalarni takomillashtirish jarayoni talabalarning kasbiy shaxsiy rivojlanishlariga bevosita ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, chet tili

bo‘yicha mashg‘ulotlarda faol va samarali faoliyatni amalga oshirishda o‘zining amaliy ifodasini topadi.

Zamonaviy bosqichda oliy ta’lim muassasasi ta’limi talabaning bir yetakchi faoliyat turidan (o‘quv) boshqasiga (kasbiy) faoliyat predmeti, motivlari, maqsadlari, vositalari, usullari va natijalarining mos o‘zgarishi bilan tabiiy o‘tishini ta’minlaydigan o‘qitishni tashkil etish vazifasini qo‘yadi. Mazkur jarayon bo‘lajak kasbiy faoliyatning predmetli va ijtimoiy mazmunlarini aks ettirishi, shu tariqa oliy ta’lim muassasasi pedagogik ta’limining rivojlantiruvchi xususiyatini kuchaytirishi kerak.

Muloqot kompetensiyalarni rivojlantirishga taalluqli bo‘lgan Yevropa Kengashining asosiy nazariy tavsiyasi quyidagi qoidalar hisoblanadi: 1) chet tilini o‘rganish avvalo aqlni mashq qilishga emas, balki xalqlarning o‘zaro muloqoti va o‘zaro tushunishiga ko‘maklashishi kerak; 2) o‘qitish jarayoni boshqa mamlakatning madaniyatini o‘rganish bilan chet tilining “chegara darjasini” ni egallahsga yo‘nalgan bo‘lishi kerak, bu o‘zaro tushunish imkoniyatini ta’minlaydi [133, 146]. O‘qitish metodlari va vositalarini tanlashda aynan o‘qituvchilarga ahamiyatli rol tegishlidir.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlardagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida). Ped.fan.dokt...diss. avtoref.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // ped.fan.dokt. ilmiy dar.uchun diss.. -T.: 2007. - 305 b.
3. Breuse, E. Rapport au Conseil de l'Europe I E. Breuse II Cahiers Pédagogiques. - 1991. -№ 290. - 182 p.
4. Council for Cultural Cooperation. Education Committee. “Language Learning for European Citizenship”. European Language Portfolio. Proposals for Development. - Strasbourg, 1997. - P. 243-328.
5. Лебедев, А.Ю. Развивающая функция обучения иностранному языку студентов-филологов младших курсов: Автореф. дис. ... канд. пед. наук / А.Ю. Лебедев. - М., 1995. - 18 с.
6. Маслоу, А. Самоактуализация. Психология личности: Тексты / А. Маслоу. - М., 1982. - 274 с.
7. Роджерс, К.Р. К науке о личности: История зарубежной психологии / К.Р. Роджерс. -М.: Моск. гос. ун-та, 1986. - С. 17-25.

ZOOLOGIYA FANINING VAZIFALARI VA O'QITILISHINING AHAMIYATI

**Sharipova A.M. - Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi
o'qituvchisi**

Annotatsiya. Zoologiya - bu hayvonot olamini va umuman hayvonot dunyosini o'r ganadigan biologiya bo'limi. Bu alohida hayvonlarni va ularning tarkibiy qismlarini, hatto molekulyar darajadagi tadqiqotlarni ham, hayvonlar populyatsiyasini, butun faunani, hayvonlarning bir-biriga, o'simliklarga va tirik bo'lmanan muhitga bo'lgan munosabatlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada, zoologiya fanining vazifalari va mакtabda o'qitilishining ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: zoologiya, fanning vazifalari, evolyutsiya, anatomiya, fiziologiya.

ЗАДАЧИ ЗООЛОГИИ И ВАЖНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ

Шарипова А.М. - Преподаватель Республиканской специализированной школы дизайна.

Аннотация. Зоология - это изучение животного мира и животного мира в целом. Сюда входят исследования отдельных животных и их компонентов, даже на молекулярном уровне, популяций животных, всей фауны и взаимоотношений животных друг с другом, с растениями и с неживой средой. В этой статье обсуждается роль зоологии и важность школьного обучения.

Ключевые слова: зоология, задачи науки, эволюция, анатомия, физиология.

TASKS OF ZOOLOGY AND THE IMPORTANCE OF TEACHING

Sharipova A.M. - Teacher of the Republican Specialized Design School

Annotation. Zoology is the branch of biology that studies the animal kingdom and the animal kingdom in general. This includes research on individual animals and their components, even at the molecular level, animal populations, entire fauna, and the relationship of animals to each other, to plants, and to non-living environments. This article discusses the role of zoology and the importance of school teaching.

Key words: zoology, tasks of science, evolution, anatomy, physiology.

Nima uchun hayotingizda zoologiyani o'r ganish muhim? Zoologiya hayvonlar va odamlarning evolyutsiyasi, anatomiysi, fiziologiyasi, xulq-atvori,

yashash joylari va sog‘lig‘ini ilmiy o‘rganish orqali bizning dunyomizga katta ta’sir ko‘rsatadi. Hayvonlarni o‘rganish orqali biz o‘zimiz, atrofimizdagi dunyo bilan qanday ishlashimiz va o‘zaro munosabatimizni yaxshiroq tushunamiz. Nima uchun hayvonlarni o‘rganish muhim? Tadqiqotchilar tirik organizmlar qanday ishlashi va kasalliklarning organizmga qanday ta’sir qilishini bilish uchun hayvonlarni o‘rganadilar. Bu topilmalar odamlarga ham, hayvonlarga ham yordam beradi. Tadqiqotchilar, shuningdek, hayvonlarni turli muhitlarga qanday moslashishini tushunish uchun ham o‘rganadilar. Bu yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yoki yo‘qolib borayotgan turlarga yordam berishi mumkin. Shuningdek, u aniq ish vazifalari, shuningdek, potensial ta’lim yo‘llari va maoshlari haqida ma’lumot beradi. Zoologlar - hayotshunos olimlar, ular hayvonlarni laboratoriyada va tabiiy yashash joylarida kuzatadilar[1]. Ular turlarning kelib chiqishi va rivojlanishini, odatlari, xulq-atvori va o‘zaro ta’sirini o‘rganadilar.

Tarixdan oldingi odamning ovchi sifatida omon qolishi uning oziq-ovqat va xavf manbai bo‘lgan boshqa hayvonlarga bo‘lgan munosabatini aniqladi. Insonning madaniy merosi rivojlanib borgan sari, hayvonlar odamlarning folkloriga va falsafiy ongiga turli xil tirik mavjudotlar sifatida kiritilgan. Hayvonlarning uy sharoitida yashashi odamni hayvonlar hayotiga tizimli va o‘lchovli nuqtayi nazar bilan qarashga majbur qildi, ayniqsa, urbanizatsiyadan keyin hayvonot mahsulotlarini doimiy va ko‘p miqdorda yetkazib berishni talab qildi. Qadimgi yunonlar hayvonot dunyosini o‘rganish, Gippokrat tomonidan, tana a’zolarining uyg‘un ishlamasligi natijasida, kasallikning sababi - jinlar deb hisoblanganidan keyin, zamonaviy ma’noda, ilmiy ma’noda, yanada oqilona bo‘la boshladi. Hayvonlarni tizimli o‘rganishga Aristotelning tirik mavjudotlar haqidagi keng ta’riflari, uning tabiatdagi tartib to‘g‘risidagi yunon konsepsiyasini aks ettiruvchi va tabiatga idealizatsiyalangan qat’iylik bilan bog‘liqligi sabab bo‘ldi.

Zoologiya bizga atrofimizdagi go‘zal tabiatni tushunishga yordam beradi. Siz zoologiyani o‘rganganingizda, o‘rgatilmagan yovvoyi hayvonlarning go‘zal go‘zalligi va ularning har biriga nisbatan “bo‘ysundirilgan” tabiatni sirlari oshkor bo‘ladi. Mavzuning sechlari ona tabiatning sehrini ochishga yordam beradi. Tabiatda birga yashaydigan hayotiy sikllarni bilganingizdan so‘ng, tinchlik nima ekanligini bilib olasiz va hayvonlarning axloqi biznikidan ancha yuqori ekanligini tushunasiz. Zoologiya darslari sizga hayvonlar va hayvonlar hayotining rivojlanish, biologik va xulq-atvor xususiyatlari haqida o‘rgatadi.

Zoologiya sohasi hayvonot bog‘idan odam anatomiyasigacha bo‘lgan hamma narsani o‘z ichiga oladi va tibbiyat, veterinariya va stomatologiya matabiga o‘qishga kirgan talabalar uchun amal qiladi. Darslarga hujayra biologiyasi, qiyosiy anatomiya, fiziologiya va genetika kiradi. Shuningdek, siz hayvonlarning turli tasniflarining hujayra tuzilishi va biologiyasi haqida bilib olasiz va vaqt o‘tishi bilan turlar boshidan kechirgan genetik o‘zgarishlarning sabablarini o‘rganasiz.

Hujayra konsepsiysi ko‘plab biologik fanlarga, shu jumladan, embriologiyaga ta’sir ko‘rsatdi, bunda hujayralar urug‘lantirilgan tuxumning yangi organizmga aylanishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Harvey epigenez deb atalgan bu hodisalarning rivojlanishini turli ishchilar, xususan, nemislar o‘qitgan qiyosiy embrionolog Karl fon Baer tasvirlab bergen, u tuxumdonda sute Mizuvchi tuxumni birinchi bo‘lib kuzatgan[2]. Boshqa nemis o‘qituvchisi-embriolog Kristian Geynrix Pander 1817-yilda embriologiyaga mikrob yoki to‘qima qatlamlari tushunchasini kiritdi. XIX-asrning ikkinchi yarmida mikroskopning yaxshilanishi va gemiloksilin kabi anilinli bo‘yoqlar yordamida bo‘yashning yaxshiroq texnikasi ichki hujayra tuzilishini o‘rganishga turtki bo‘ldi.

Bu vaqtga kelib, Darvindagi turlarning biologik o‘zgarishi tabiiy tanlanish jarayonida sodir bo‘ladi degan nazariyasi bilan insonning tabiat haqidagi qarashlarini to‘liq qayta ko‘rib chiqish zarur edi. Evolyutsiya nazariyasi - organizmlar doimiy ravishda juda moslashgan shakllarga aylanib bormoqda - barcha turlar, ayniqsa, yaratilgan deb turg‘un qarashni rad etishni va turlar haqidagi Linna konsepsiyasini buzishni talab qildi. Darwin evolyutsiya qanday ishlashini tushunish uchun irsiyat tamoyillari ma’lum bo‘lishi kerakligini tan oldi; Ammo, irsiy omillar konsepsiysi o‘sha paytgacha Mendel tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, Darwin 1900-yilda qayta kashf qilinmaguncha yo‘qolgan asari haqida hech qachon eshitmagan.

Genetika XX asrda rivojlangan va hozirda u turli biologik fanlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Genning hayotning barcha shakllari uchun boshqaruvchi irsiy omil sifatida kashf etilishi zamonaviy biologiyaning katta yutug‘i bo‘ldi. Shuningdek, organizmlarning atrof -muhit bilan o‘zaro ta’siri haqida aniqroq tushuncha paydo bo‘ldi. Bunday ekologik tadqiqotlar nafaqat organizmlarning uchta katta guruhi - o‘simliklarning ishlab chiqaruvchi sifatida o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatishga yordam beradi; hayvonlar, iste’molchi sifatida; va qo‘ziqorinlar va ko‘plab bakteriyalar, parchalovchi sifatida - lekin ular insonning atrof-muhitni boshqarishi va oxir-oqibat uning Yerda omon qolishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni beradi. Bu ekologiyani o‘rganish bilan hayvonlarning xulq-atvori yoki etologiyasini o‘rganish chambarchas bog‘liq. Bunday tadqiqotlar odatda intizomga bog‘liq, chunki ekologiya, fiziologiya, genetika, rivojlanish va evolyutsiyaning kombinatsiyasi odam organizmi nima uchun o‘zini shunday tutishini tushunishga harakat qiladi[3].

Parazit organizmlar va ular odam, hayvon va o‘simliklarda keltirib chiqaradigan kasalliklar parazitologiya obyektiga aylandi. Parazitologiyaning alohida bo‘limi gelmintologiya bo‘lib, uning mavzusi parazit yassi va yumaloq qurtlardir. Tuproq zoologiyasi tuproq faunasi bilan shug‘ullanadi (asosan umurtqasizlar). Umurtqali hayvonlar madaniyatidagi fanlar: ixtiologiya, baliq va baliqlarga o‘xshash turlarni, gerpetologiyani, sudralib yuruvchilar va amfibiyalarni, ornitologiyani, qushlarni va termologiyani, sute Mizuvchilarni o‘rganadi. Antropologiyaning vazifalari - inson evolyutsiyasini va uning hayvonot dunyosi tizimidagi o‘rnini

o‘rganishdir. Garchi odamlar har doim o‘z atroflarida ko‘rgan hayvonlarning tabiiy tarixi bilan qiziqishgan va bu bilimlardan ma’lum turlarni uy hayvonlari sifatida ishlatishgan bo‘lsa-da, zoologiyani rasmiy o‘rganish Aristoteldan kelib chiqqan deb aytish mumkin. U hayvonlarga tirik organizm sifatida qaragan, ularning tuzilishi va rivojlanishini o‘rgangan, ularning atrof-muhitga moslashishi va uning qismlari vazifasini ko‘rib chiqqan. Yunon shifokori Galen inson anatomiyasini o‘rgangan va qadimgi dunyoning eng buyuk jarrohlaridan biri bo‘lgan, lekin G‘arbiy Rim imperiyasi qulashi va O‘rta asrlar boshlanishi bilan G‘arbda yunonlarning tibbiyot va ilmiy tadqiqotlar an’anasi pasayib ketdi. Yevropa, garchi u o‘rta asrlar islom dunyosida davom etgan bo‘lsa ham. Zamonaviy zoologiyaning kelib chiqishi uyg‘onish va erta zamonaviy davrda, Karl Linney, Antoni van Liuvenxuk, Robert Xuk, Charlz Darvin, Gregor Mendel va boshqalarning mehnatlari mavjud. Hayvonlarni o‘rganish asosan shakli va funksiyasi, moslashuvi, guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar, xulq-atvor va ekologiya bilan bog‘liq. Zoologiya tobora tasnif, fiziologiya, biokimyo va evolyutsiya kabi fanlarga bo‘linib ketdi.

Agar siz hayvonlar yoki biologiya haqida hech narsa bilmasangiz, tabiat shunchaki tartibsizlikka o‘xshaydi. Hamma narsa tasodifan sodir bo‘lganga o‘xshaydi. Ammo hayot sikllari va oziq-ovqat zanjirini o‘rganganingizdan so‘ng, tabiat hodisalari yaxshiroq tushuna boshlanadi. Dars jarayonida mavzular orqali nima uchun hayvonlarning bunday yoki bunday yo‘l tutishini o‘quvchilar bilib oladi. Zoologiyaning muhimligining sababi shundaki, u sizga tabiatni aslida nima ekanligini ko‘rish imkoniyatini beradi. Tasodifiy tartibsizlik emas, balki bir-birlari bilan ajoyib tarzda o‘zaro ta’sir qiladigan turli xil hayot shakllari hisoblanadi. Hayvonlarni tushunish, ularning yashash muhiti haqida tasavvurga ega bo‘lish aslida juda muhim. Boisi biz ham aynan shu tabiatning bir bo‘lagimiz.

Zoologiyani o‘rganish hayvonlarning xulq-atvori haqida ko‘proq ma’lumot olish imkonini beradi. Masalan, yo‘lbarslar va akulalar odatda aqlsiz qotillar deb o‘ylashadi. Ammo agar siz ularning tabiatini va yashash joylarini hisobga olsangiz, ular o‘z faoliyatiga odamlar aralashgan taqdirdagina tahdidiga aylanishi aniq bo‘ladi. Bu masalani o‘rganish ko‘plab afsonalarni ham yo‘q qiladi. Ba’zilar haligacha qotil kitlar odamlarga hujum qilishadi, aslida ular tinchliksevar jonzotlar ekaniga ishonishadi. Hamma ilonlar zaharli degan tushuncha hali ham keng tarqalgan. Demak, zoologiyaning muhimligining sabablaridan biri shundaki, u bilimni oshiradi va jaholatni ketkazadi. Agar biz biror narsadan bexabar bo‘lsak, bu qo‘rquv va noaniqlikni keltirib chiqaradi. Bilim bilan biz yanada mas’uliyatli harakat qila olamiz. Bu ham hayvonot olami bilan yaxshi munosabatlarga olib keladi. Hayvonlar haqidagi faktlar va raqamlarni o‘rganish - bu ma’lumotni faqat boshingizda saqlash emas. Bu, shuningdek, nima uchun tabiatni asrash va muvozanatlash, odamlarning omon qolishi uchun muhimligini tushunishga yordam beradi.

Hayvonlar hayotini o'rganganingizda, ularning odatlari, ovqatlari va xulq-atvorini bilib olasiz. Siz ularning barchasi birlashtirilganligini ko'rasiz. Bir tur yo'q qilinganida, boshqalari zarar ko'radi. Shunday qilib, nima uchun bu hayvonlar va ularning yashash muhitini saqlash muhim ekanligi aniq bo'ladi.

Zoologiya nima uchun muhimligini tushuntirish uchun, shuni ta'kidlash kerakki, bu tabiatni yaxshiroq tushunishga olib keladi. Insonning tabiatdagi rolini bilish, ya'ni iqtisodiy taraqqiyotda hech qanday yomonlik yo'q. Lekin bu yomg'irli o'rmonlarni yo'q qilish yoki butun turlarni yo'q qilish evaziga bo'lmasisligi kerak. Qachonki, biz tabiatga zarar yetkazsak, albatta buning javobi bo'ladi. Daraxtlarni kesib, o'rmon yovvoyi tabiatini yo'q qiling, suv toshqini sodir bo'ladi. Hayvonlarni uylaridan haydab chiqaring, ular vaboga aylanadi. Tabiiy ofatlar sodir bo'lganda, moddiy xususiyatlar va hayvonlar o'ldiriladigan narsalar yo'q qilinadi. Qisqasi, ko'proq muammolar paydo bo'ladi. Faqat siz hayvonlar haqidagi faktlarni tushunganingizda, bu muammo va boshqalar shunga o'xshash muammo aniq bo'ladi. Siz mohir bo'lishingiz shart emas, lekin nega zoologiya muhimligini bilish hamma uchun yaxshi xizmat qiladi. Mavzu haqida bilib, nima uchun tabiiy o'sish bilan iqtisodiy o'sishni muvozanatlash juda muhim ekanligi ayon bo'ladi.

Zoologiya - bu har xil sohadir, lekin, ehtimol, bu siz izlayotgan mavzu emas. Agar sizga ba'zi jihatlar yoqsa, boshqalari yoqmasa, zoologiya darajasiga ko'plab alternativalar mavjud, ular ham boy imkoniyatlarni taqdim etadi:

Hayvonlar haqidagi fanlar: Zoologiya singari, bu mavzu hayvonlarga qaratilgan, lekin odamlar tomonidan ishlatiladigan uy hayvonlari. Odatda, hayvonot fanlari bitiruvchilari qishloq xo'jaligi sohasida ishlashadi.

Hayot fanlari: Ko'pgina universitetlar "Hayot fanlari" deb nomlangan ilmiy darajalarni taklif qilishadi va bu ko'pincha biologiya bilan bog'liq bo'lgan turli xil fanlar uchun keng atama hisoblanadi.

Ekologiya: Turli xil organizmlarning bir -biri bilan va ularning atrof -muhit bilan o'zaro ta'sirini bilib oling.

Atrof -muhitni boshqarish: yashash joylarining o'zgarishini kuzating va boshqaring, tabiiy muhitni muhofaza qilish va optimallashtirishni ta'minlang.

Veterinariya tibbiyoti: Hayvonlarga ta'sir qiladigan barcha kasalliklar, kasalliklar va kasalliklarni davolash va boshqarishdir.

Bu yondashuvga hozirda katta e'tibor qaratilmoqda, chunki u insonning biologik merosi, ya'ni insoniy bo'lmagan shakllardan tarixiy kelib chiqishi haqida foydali ma'lumot beradi.

Zoologyaning ilmiy tasnifi - bu zoologlar organizmlarni biologik turiga, masalan, tur yoki turga qarab guruhlash va tasniflash usuli. Biologik tasnif - bu ilmiy taksonomiyaning bir shakli. Zamонавиъ biologik tasnif turlarini umumiyoj jismoniy xususiyatlarga ko'ra guruhlagan Karl Linneyning ishidan kelib chiqadi. O'shandan

beri bu guruuhlar darvinning umumiy kelib chiqish prinsipiiga muvofiqligini yaxshilash uchun qayta ko'rib chiqildi. Ma'lumot sifatida nuklein kislotasi ketma-ketligini ishlataligani molekulyar filogenetika ko'plab so'nggi tahrirlarni keltirib chiqardi va shunday davom etishi mumkin. Biologik tasnif zoologik sistematika faniga tegishli.

Umurtqali hayvonlar zoologiyasi - bu umurtqali hayvonlarni, ya'ni umurtqali hayvonlar, masalan, baliqlar, amfibiyalar, sudralib yuruvchilar, qushlar va sutemizuvchilarni o'rganishdan iborat biologik fan. Mammologiya, biologik antropologiya, gerpetologiya, ornitologiya va ixtiologiya kabi turli xil taksonomik yo'naltirilgan fanlar turlarni aniqlash va tasniflashga, shu guruhlarga xos tuzilish va mexanizmlarni o'rganishga intiladi. Qolgan hayvonot olamiga umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi, gubkalar, echinodermlar, tunikatlar, qurtlar, mollyuskalar, artropodlar va boshqa ko'plab hayvonlarni o'z ichiga oladigan hayvonlarning keng va xilma-xil guruhi kiradi, lekin odatda bitta hujayrali organizmlar yoki protistlar kiritilmaydi.

Fiziologiya tirik organizmlarning mexanik, fizik va biokimyoviy jarayonlarini o'rganadi, barcha tuzilmalar umuman qanday ishlashini tushunishga harakat qiladi. "Funksional tuzilish" mavzusi biologiyaning markaziy qismidir. Fiziologik tadqiqotlar an'anaviy ravishda o'simlik fiziologiyasi va hayvonlar fiziologiyasiga bo'linadi, lekin qaysi fiziologiya o'rganilsa ham, fiziologiyaning ba'zi prinsiplari universaldir. Masalan, xamirturush hujayralari fiziologiyasi haqida o'rganilganlar inson hujayralariga ham tegishli bo'lishi mumkin. Hayvonlar fiziologiyasi sohasi inson fiziologiyasining vositalari va usullarini inson bo'lмаган turlarga ham kengaytiradi. Fiziologiya, masalan, asab, immun, endokrin, nafas olish va qon aylanish tizimlarining qanday ishlashi va o'zaro ta'sirini o'rganadi.

Hujayra biologiyasi hujayralarning tuzilishi va fiziologik xususiyatlarini, shu jumladan ularning xatti -harakati, o'zaro ta'siri va atrof -muhitini o'rganadi. Bu bir hujayrali organizmlar uchun ham mikroskopik, ham molekulyar darajada, shuningdek, odamlar kabi ko'p hujayrali organizmlarning maxsus hujayralarida amalga oshiriladi. Hujayralarning tuzilishi va funksiyasini tushunish barcha biologiya fanlari uchun asosiy hisoblanadi. Hujayralar turlarining o'xshashligi va farqlari, ayniqsa, molekulyar biologiyaga tegishli.

Anatomiya organlar va organlar tizimlari kabi makroskopik tuzilishlarning shakllarini ko'rib chiqadi. Odamlar va hayvonlar tanasida organlar va organlar tizimi qanday ishlashiga, shuningdek mustaqil ishlashiga e'tibor qaratiladi. Anatomiya va hujayra biologiyasi bir -biri bilan chambarchas bog'liq bo'lган ikkita tadqiqot bo'lib, ularni "tizimli" tadqiqotlar toifasiga kiritish mumkin. Qiyosiy anatomiya - bu turli guruhlarning anatomiyasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganuvchi fan.

Hayvonlar biologiyasining paydo bo'lishi klassik zoologiyaga ikkita alohida ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, zoologiyaga alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida e'tibor kamaygan; masalan, ishchilar o'zlarini o'simlik materiallarini emas, balki hayvonlarni o'rganadigan genetik, ekolog yoki fiziolog deb o'yashadi. Ular

ko‘pincha o‘zlarining intellektual didlariga mos keladigan muammoni tanlaydilar, bunda ular faqat foydali eksperimental materialni taqdim etadigan darajada muhim[4].

Zamonaviy zoologiya, shuning uchun ko‘p jihatdan biologik hayvonlar materiallari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ishlarning yig‘indisidir. Ikkinchidan, hayot fanlariga konseptual yondashuvga e’tibor kuchaymoqda. Bu 19-asr oxiri - 20-asr boshlarida paydo bo‘lgan tushunchalardan kelib chiqdi: hujayra nazariyasi; tabiiy tanlanish va evolyutsiya; ichki muhitning barqarorligi; barcha tirik organizmlardagi genetik materialning asosiy o‘xshashligi va ekotizim orqali materiya va energiya oqimi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtida mikroblar, o‘simgiliklar va hayvonlarning hayotiga nazariy modellar qo‘llanilib, ular avvalgi davrlarda tez-tez cheklangan empirizmga amal qilinmaydi. Bu, ayniqsa, biologiyani kimyo bilan integratsiyalashuvi tirik tizimlarni tahlil qilish uchun fizika fanining texnikasi va miqdoriy ta’kidlanishidan samarali foydalanishga imkon beradigan molekulyar tadqiqotlar uchun to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, zoologiya fanining mакtabda o‘tilishi o‘quvchilar tasavvurida yovvoyi tabiat, hayvonlar, ularning tuzilishi, yashash muhiti kabi ko‘plab ma’lumotlarni o‘rganishlarida yordam beradi. Bundan tashqari, bu orqali kelajakda bir nechta zoologiyaga oid sohalarning rivojlanishiga ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi esa hayvonlar ham bu tabiatning, ya’ni hayotimizning bir bo‘lagi sanaladi. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida ham ular salmoqli o‘rnlarni egallaydi.

Adabiyotlar

1. Alexander RMcN (1981). Profile No. 1. Zoology. In: Campbell PN, ed. Biology in Profile: A Guide to the Many Branches of Biology. Pergamon Press, Oxford, UK, pp.3–5.
2. Bennett N (2008). The aims and scope of the Journal of Zoology. Journal of Zoology 274, 1.
3. Boyd IL (2007). Zoology: A search for pattern in form and function. Journal of Zoology 271, 1–2.
4. <https://www.britannica.com/science/zoology>
5. <https://www.mvorganizing.org/why-is-the-study-of-zoology-important-in-your-life/>
6. <https://www.quora.com/What-is-the-importance-of-zoology-in-agriculture>
7. “Importance of zoology in our daily life”
<http://importanceofstuff.com/zoology>

**MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY TARBIYA
MASHG'ULOTLARIDA GIGIYENIK OMILLARNING SAMARADORLIGI**

**Raxmatova D.N. - O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport
universiteti dotsenti**

**O'razova M.Y. - O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport
universiteti magistranti**

Annotatsiya. Maqolada maktab o'quvchilarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida gigiyenik omillarning samaradorligiga oid maxsus mashg'ulotlar tashkil etish uslubiyati ochib berilgan. Shuningdek o'quvchilarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida gigiyenik omillarning samaradorligida vositalarni tanlash, sog'lomlashtirish tadbirlarini ishlab chiqish, ularning umumiy va shaxsiy gigiyenasini rivojlantirish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabda ta'lim tarbiya jarayoni, Jismoniy tarbiya darsi, gigiyenik omillar, harakat faolligi, harakat tezkorligi, pedagogik jarayon.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГИГИЕНИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В
ФИЗИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ШКОЛЬНИКОВ**

**Рахматова Д.Н. - доцент Узбекского государственного университета
физической культуры и спорта**

**Оразова М.Ю. - магистр Узбекского государственного университета
физической культуры и спорта**

Аннотация. В статье раскрывается методика организации специальной подготовки школьников по вопросам эффективности гигиенических факторов на занятиях физической культурой. Также освещается вопрос выбора средств в эффективности гигиенических факторов на занятиях физкультурой учащихся, разработки оздоровительных мероприятий, развития общей и личной гигиены.

Ключевые слова: обучение в школе, воспитательный процесс, урок физкультуры, гигиенические факторы, двигательная активность, быстрота движений, педагогический процесс.

**EFFICIENCY OF HYGIENIC FACTORS IN PHYSICAL
EDUCATION OF SCHOOL STUDENTS**

**Raxmatova D.N. - Associate Professor of the Uzbek State University of
Physical Culture and Sports**

Orazova M.Y. - Master of the Uzbek State University of Physical Culture and Sports

Annotatsiya. The article reveals the method of organizing special classes for schoolchildren on the effectiveness of hygienic factors in physical education. Also, the choice of means for the effectiveness of hygienic factors in the physical education of students, the development of health-improving measures, the development of their general and personal hygiene are covered.

Key words: Education in school is a process of upbringing, a lesson in Physical Education, hygienic factors, activity, speed of movement, a pedagogical process.

Jismoniy tarbiya va sport mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaro uchun umumiy madaniyatning ajralmas bir qismiga aylanishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishda gigiyena talablarini bajarish katta ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya va sportni gigiyenik vositalar orqali ommalashtirish, katta sportda sportchilar tomonidan mashg‘ulot, dam olish, ovqatlanish rejimlariga amal qilmaslik masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni imzolagan №5924 PF - sonli “O‘zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bunga asos vazifasida xizmat qiladi hamda sohaga oid umumiy gigiyena bilan sport gigiyena qoidalarini tartiblashtirish imkonini beradi(2)

Umumiyligi ta’lim maktablaridagi ta’lim jarayoni umumiy va maxsus ta’lim ahamiyatiga ega. Jismoniy tarbiya faqatgina sport turlari , gimnastika va boshqa harakatli o‘yinlardagi jismoniy mashqlar bilan cheklanib qolmay ijtimoiy va shaxsiy gigiyenani ham qamrab olmog‘i, tashqi muhitning tabiiy kuchlardan to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulot va dam olish rejimidan foydalanmog‘i kerak.

Maktablarda agar jismoniy mashqlar ochiq havoda o‘tkazilsa, ularning umumiy sog‘lomlashtiruvchi samarasi oshadi, agar mashqlar ancha salqin havoda o‘tkazilsa chiniqtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchilarning ko‘krak qafasi ekskursiyasi o‘pkaning hayotiy sig‘imi, qo‘l kaftining siqish kuchi kabi ko‘rsatkichlar oshadi.

O‘quvchilarni jismoniy tarbiyalashning asosiy shakli jismoniy tarbiya darslari hisoblanadi.

Unga hamma sinflar uchun haftasiga 2 soatdan ajratiladi. Darslar astasekinlik, izchilik va muntazamlilik prinsiplariga asoslanib o‘tkaziladi, o‘quvchilarning uyg‘un ravishda jismoniy rivojlanishni taminlaydigan turli-tuman mashqlar kiritiladi. Kichik mifik yoshida harakat aktivligini oshirish va

takomillashga qaratilgan har xil mashqlarni keng qo'llash zarur, bir xil xarakatlar qilishdan qochish va yurak-tomir sistemasiga yomon ta'sir ko'rsatadigan og'ir ishlarni qilmaslik zarur. (3.4)

O'sib kelayotgan yosh avlod jismoniy tarbiyasida muhim muammalardan biri, bolalar harakat faoliyatini jadal rivojlantirishga yordam beruvchi samarali vosita va uslublar izlab topish hisoblanadi. Shunga ko'ra jismoniy mashqlar darsi asosan gimnastika zallarida va kamroq ochiq havoda o'tkaziladi. So'ngi yillarda bu darslarni va boshqa jismoniy mashqlarni yilning barcha fasllarda o'tkazish qo'llanilmoqda.

Ochiq havoda mashq qilish, yuqorida qayd qilingandek xonada o'tkazilgan mashqqa nisbatan ko'proq o'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlaydi. (3,5,6)

Kuzatishlar natijasida yil bo'yli ochiq havoda jismoniy tarbiya mashqlarini o'tkazganda o'quvchilar umumiy sog'lig'ining yaxshilanishi, shamollah va yuqumli kassaliklar bilan kamroq og'rish har tamonlama yaxshiroq jismoniy tayyorlanishni ko'rsatadi.

Tadqiqodning maqsadi: Maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida gigiyenik omillarning samaradorligini aniqlash va ilmiy asoslash.

Maktab o'quvchilarini mashg'ulot jarayonida gigiyena qoidalarini amalga oshirishda umumiy shaxsiy me'yorlarni optimal tarzda me'yorlash va ularning organizm xususiyatlaridan kelib chiqib o'quv mashg'ulot jarayonini olib borish, ularning sport ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tajribani tashkil etish-Tajriba o'tkazish maqsadida Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi 283-sonli umumiy ta'lim maktabi tanlab olindi. Maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida gigiyenik omillarning samararasini aniqlash uchun (60 nafar 9-10 yoshli maktab o'quvchilari) pedagogik tajriba o'tkazildi.

Nazorat guruhidagi mashg'ulotlar jismoniy tarbiya o'qtuvchisi bilan an'anaviy jismoniy tarbiya dasturi bo'yicha o'tkazildi. Tajriba guruhidida o'quvchilar esa darsni ochiq havoda o'tkazishdi.

Ishlab chiqilgan usuliyat asosan o'quv mashg'ulot protsessini tuzishda asosiy gigiyenik prinsiplar ya'ni ochiq havoda.

1. Mashg'ulot darslarini muntazam olib borish va jismoniy mashqlarni qayta-qayta bajarish.
2. Jismoniy yuklamani to'xtovsiz oshirib borish.
3. Dam olish va ishlashni almashtirib olib boorish.
4. Har tamonlama tayyorgarlik.

Mazkur usuliyatni qo'llash davomiyligi haftasiga 2 darsdan 8 hafta davom etadi. Tajriba boshlangunga qadar o'quvchilar tekshiruvdan o'tkaziladi va baholash

uchun darsning yengil atletika turidan foydalangan holda ularda testlardan foydalanildi.

1-Jadval Pedagogik tajriba boshida tekshirilayotgan guruxdagi bolalar ko'rsatkichlarining qiyosiy taxlili n=60

Nazorat me'yorlari	N G	T G	P
30 m yugurish (sek)	$6,7 \pm 0,21$	$6,5 \pm 0,11$	< 0,05
60 m yugurish (sek)	$11,2 \pm 0,24$	$11,7 \pm 0,28$	< 0,05
Turgan joydan uzunlikka sakrash	$135,1 \pm 8,20$	$137,2 \pm 7,30$	< 0,05
Arg'amchida sakrash	$9,24 \pm 1,7$	$10,1 \pm 1,6$	< 0,05

Tadqiqot natijalari –Olingan natijalarga statistik ishlov berilgandan keyin maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlari gigiyenik vositalar ya'ni ochiq havoda o'tkazish samaradorligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, tajriba boshlanishidan oldin nazorat va tajriba guruhi o'quvchilari orasida jismoniy tayyorgarlik nuqtayi nazardan hech qanday tafovutlar kuzatilmagan ($p=0,05$).

Butun pedagogik tajriba davomida maktab o'quvchilari bilan o'tkazilgan nazorat avvalgi mashqlar kompleksi ancha sodda va yengil bo'lishi kerak, mashqlarni bajarishga ketgan vaqt mashqlar orasidagi harakatlar koordinatsiyasi va jismoniy tayyorgarlik yaxshilanib borgan sari mashg'ulotlar zichligi orta boradi va bir muncha intensiv hamda murakkab mashqlar qo'shiladi. Bu esa o'z o'rnida 9-10 yoshli o'quvchilarni ochiq havoda sport zalga nisbatan ozgina ustun kechishini yana bir bor isbotladi.

2-jadval. Pedagogik tajriba oxirida tekshirilayotgan bolalar ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili n=60.

Nazorat me'yorlari	N G	T G	P
30 m yugurish (sek)	$6,1 \pm 0,31$	$5,7 \pm 0,12$	< 0,05
60 m yugurish (sek)	$10,1 \pm 0,26$	$9,7 \pm 0,21$	< 0,05
Turgan joydan uzunlikka sakrash	$140,3 \pm 7,17$	$145,6 \pm 6,45$	< 0,05
Arg'amchida sakrash	$11 \pm 1,6$	$17 \pm 1,3$	< 0,05
.			

Xulosa: Pedagogik tajribada tekshirilayotgan ishtirokchilarni testlash natijalari taklif etilgan usuliyat maktab amaliyotida qo'llanilayotgan dasturga qaraganda ancha yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi va maktab o'quvchilarning ochiq xavoda gigiyenik omillarning samaradorligi uchun uning qo'llanilishi katta foyda berishini tasdiqladi.

Unga ko‘ra maktab o‘quvchilari nafas olishga katta e’tibor berishlari kerak. Ammo ko‘p o‘quvchilar nafas olishni boshqara olmaydilar. Jismoniy mashqlar nafas olishni boshqara olmaydilar. Jismoniy mashqlar nafas olish apparatini mustahkamlaydi erkin chuqur nafas olishga o‘rganishda adashmaslikka harakat qilish kerak. Unga ko‘ra esa asosan ochiq havoda gigiyena qoidalarga rioya qilgan holda o‘ziga qulay havo o‘tkazadigan paxta matosidan tikilgan, sintetik matosi kam sport kiyimlarida ochiq mashg‘ulotlarni olib borish nisbatan ozgina ustun kechishini yana bir bor isbotladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport” to‘g‘risidagi qonuni (yangi tahrir). - T., 2000. 26-may.
3. Raximov M.M. Osobennosti metodiki provedeniya urokov fizicheskoi kulituri na otkritom vozduxe v usloviyakh jarkogo klimata v mladshix klassaya obsheobrazovatelinoj shkoli.: Avtoref. dis. .kand.ped.nauk.-M, 1989. — 22 s.
4. Salomov R.S. Sport mashqlarida qo‘llaniladigan usullar. T.: o‘zavtotrannstexnika, 1991.— 31.b.
5. Usmonxujaev T.S. Jismoniy tarbiya dars materiallari (I-II sinf uchun). — T.: O‘qituvchi, 1995.— 175 b.
6. Usmonxujaev T.S. Jismoniy tarbiyadan umumiy o‘rtta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (I-IX sinflar uchun) — T: Shark, 1999.-B. 187- 287.
7. Usmonxujaev T.S. Jismoniy tarbiyadan umumiy o‘rtta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (I-IV sinflar uchun) — T.: Shark, 1999.— B. 319- * 372.
8. O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim mакtablarining 1-4 sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya dasturi.- T., 1997. - 46 b.
9. A. A. Minx, I. I. Malisheva, Umumiy va sport gigiyenasi asoslari 1981.

PEDAGOGIKA OLIY O‘QUV YURTI TALABALARINING IJODIY QOBILIYATLARINI O‘QUV FAOLIYATIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Mamatqulova M.V. - Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika oliy o‘quv yurti talabalarining ijodkorlik qobiliyatları va ularni rivojlantirishga oid tajriba sinov natijalari tahlili

bayon etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini dasturlashtirish kursini o‘rganish davomida rivojlantirish metodikasini oldindan nazariy asoslagan, ma’lum pedagogik sharoitlarda aprobatsiyadan o‘tkazish natijasida olingan xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: determinatsiya, motivatsiya, intellekt, sintetik konsepsiylar, muammolilik tamoyili, kontekst, intellekt birligi, ijodiy qobiliyat, illyustratsiyalash, reproduktiv, muammoli bayon, evristik, motivatsion soha, namunaviy kechinmalar, ijodiy harakatlar, ijodiy faoliyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Маматкулова М.В. - преподаватель Кокандского государственного педагогического института

Аннотация. В статье представлен анализ результатов экспериментальных тестов творческих способностей студентов педагогических вузов и их развития. При изучении курса программирования творческих способностей будущих учителей представлены выводы, полученные в результате применения предтеоретических методик развития, апробации в определенных педагогических условиях.

Ключевые слова: детерминация, мотивация, интеллект, синтетические концепции, проблемный принцип, контекст, единство интеллекта, творческие способности, иллюстрация, репродуктивная, постановка проблемы, эвристика, мотивационное поле, модельные переживания, творческие действия, творческая деятельность.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE TALENTS OF STUDENTS OF A PEDAGOGICAL UNIVERSITY IN TEACHING PROCESS

Mamatkulova M.V. - Lecturer at the Kokand State Pedagogical Institute

Annotations. The article presents an analysis of the results of experimental tests of creative abilities of students of pedagogical universities and their development. When studying the programming course, the creative abilities of future teachers are presented the conclusions obtained as a result of the application of pretheoretical development methods, approbation in certain pedagogical conditions.

Key words: determination, motivation, intelligence, synthetic concepts, problem principle, context, intelligence unity, creativity, illustration, reproductive, problem statement, heuristics, motivational field, model experiences, creative actions, creative activity.

Ijodkorlik qobiliyatlari va ularni rivojlantirishga oid ishlarning ko‘pligiga qaramay, oliv o‘quv yurtlarining real o‘quv faoliyatida ko‘rsatilgan umumnazariy tasavvurlarni amalga oshirishda ma’lum qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Ijodkorlik qibiliyatlar va ularni rivojlantirish imkoniyatlari tushunchasiga asosiy yondoshuvni dastlabki tanlab olish jarayoni murakkabdir. Ishlab chiqilgan modellar, dasturlar, texnologiyalarni, tizimlarni joriy etish ularning o‘ziga xosligi yoki o‘qitishning yangi turi sifatidagi globalligi sababli qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. O‘quv faoliyatida shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslarini amalga joriy qilishning pedagogik shart—sharoitlari adabiyotlarda yetarlicha to‘liq ifodalab berilmagan. Bundan tashqari, bo‘lajak mutaxassisning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni kasbiy ma’noga ega bo‘lishi kerakligini hisobga olish zarur.

Ma’lumki, ijodiy qibiliyatlarni, istalgan boshqa qibiliyatlar kabi rivojlantirish quyi darajadan yuqoriga tomon spiral bo‘yicha amalga oshirilishi kerak. Ko‘rib chiqilgan metodika bu yo‘lda ma’lum rivojlanishni ta’minkaydi. Tabiiyki, metodika natijalari shaxsiy planda har bir talabaning ijodiy qibiliyatlarini shakllanganlik darajasiga bog‘liq.

Pedagogika oliv o‘quv yurti talabalarining ijodiy qobiliyatlarini o‘quv faoliyatida rivojlantirish sistemasi modelini yaratish bo‘yicha ish asosini tashkil qilgan nazariy asoslar “Programmalashtirish” kursini o‘rganish jarayonida talabalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasida o‘z aksini topdi.

Ishning maqsadi pedagogika oliv o‘quv yurti talabalarining ijodiy qibiliyatlarini o‘quv faoliyatida rivojlantirish jarayonini takomillashtirishdan iborat bo‘ldi. Maqsadga erishish uchun modelda belgilangan vazifalar hal etildi.

Modelda keltirilgan omillar ijodiy qibiliyatlar rivojlanish qonuniyatlarini harakatlantiruvchi kuch bo‘ladi, deb taxmin qildik va pedagogik faoliyatni tashkil qilishga qo‘yiladigan talablarga amal qildik. Ijodiy qibiliyatlarni rivojlantirishning har bir tamoyiliga metodikada ma’lum rol ajratildi. Muammolilik tamoyili markaziy sanaladi. Ijodiy malakalar shakllanishi va ijodiy faoliyat mexanizmlari o‘zlashtirilishini ta’minalash, ijodiy qibiliyatlarni rivojlantirishdan ularni o‘z - o‘zida rivojlantirishga asta - sekin o‘tish ijodiy qibiliyatlarni rivojlantirish yo‘nalishlarida aks etgan. Ajratilgan yo‘nalishlarda optimal natijaga erishishni ta’minlovchi tamoyillar: rivojlanishning ijtimoiy - madaniy kontekstining yetakchi roli, effekt va

intellekt birligi, ijodiy qobiliyatlar erishilgan darajasini hisobga olish asosida individuallashtirish sanaladi.

Ish mazmuni modelning mazmun komponentiga muvofiq bo'ldi. Bundan tashqari optimallashtiruvchi jihatlarga: pedagogika oliy o'quv yurti talabasi shaxsining ijodiy qobiliyatlarni riaojlantirishni o'z ichiga oladigan kasbiy o'z - o'zini takomillashtirishga qat'iy yo'nalanligini anglash; maqbul emotsiyal muhitni yaratish; individual yondashuvga e'tibor qaratildi.

Ta'limning asosiy shakllari: ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlari, bundan tashqari, konsultatsiyalar o'tkazildi, yuqori kurslarda kurs va BMI ni yozish ko'zda tutildi. Ta'lim metodlari: tushuntirish illyustratsiyalash; reproduktiv; muammoli bayon; evristik; tadqiqotchilik metodlari. Ta'lim vositalari: o'quv adabiyotlari, tarqatma materiallar, jadvallar, raqamli proyektor, kompyuterlar, telekommunikatsiya tarmoqlari.

Ish natijasi talabalarning ijodiy qobiliyatlar rivojlanishining yuqori darajasiga erishgani bo'lib, bu talabalar ijodiy qobiliyatlari shakllanganlik darjasini o'zgarish dinamikasini o'rganishda ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifati ijodiy tarkibiy qismni kuchaytirish hisobiga ortdi.

Modelda ijodiy qibiliyatlarni rivojlanirish jarayonini realiza-siyalash samaradorligini pedagogik: motivatsion, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ sharoitlar kompleksi bilan ta'minlash ko'zda tutildi.

Eksperimental ishimizda o'rin tutgan pedagogik sharoitlar kompleksini ko'rib chiqamiz.

Shaxs - ijtimoiy tushuncha, uning rivojlanishi alohida olingan shaxsnigina emas, balki jamiyatning ham manfaatlari uchun xizmat qiladi. Axir aynan jamiyatda shaxs o'zini namoyon qiladi. Shaxsning rivojlanishi uning yo'nalanligi bilan belgilanadi. Bu sistema hosil qiluvchi xossalda uning voqealikning turli tomonlariga munosabatlari, motivlari, maqsadlari ifodalanadi. Motiv shaxsning jamiyatdagi holati bilan vositalangan ehtiyojlarning subyektiv aksi sanaladi. Ehtiyojli – motivatsion soha shaxsning hayotiy maqsadlari poydevori sanaladi. Hayotiy maqsad alohida faoliyatlar bilan bog'liq barcha xususiy maqsadlarning integratoridir.

Motivatsiya shaxsning o'z-o'zini realizatsiyalashga intilishi bilan belgilanadi. Talabalik yoshi uchun o'z-o'zini realizatsiyalash imkoniyati ularning bo'lajak kasbiy faoliyati, qandaydir global muammolarni hal qilish bilan belgilanadi. Demak, ijodiy qibiliyatlarni rivojlanirish talaba uchun kundalik zaruratga aylanishi uchun quyidagi motivatsion sharoitlarni yaratish zarur: ijodning pedagog kasbiy faoliyatidagi roli va o'rmini asoslash; muammoni hal qilish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lishini anglash.

Ijodning pedagog kasbiy faoliyatidagi roli va o'rmini asoslash eksperiment davomida quyidagilarni ko'zda tutdi:

- ✓ pedagogik ijod mohiyati, xususiyatlari va darajalarini tushuntirish;
- ✓ pedagogik ijod, mashhur pedagoglar haqida hikoyalari;
- ✓ pedagogika ideologlari fikrlarini keltirish, masalan, shartni realizatsiyalash: muammoni hal qilish uchun yangi imkoniyat paydo bo‘lganini anglash o‘qituvchi harakatlarining ma’lum ketma - ketligini ko‘zda tutadi.

Talabalarda muammoga qiziqishni shakllantirish “Psixologiya – qiziqishlarni inson o‘z idroki va harakatida ko‘proq ahamiyatli deb bilganiga, fikriy yo‘nalganlik sifatida qaraydi”[1]. Talabalar qiziqishlari ham shaxsiy ham ijtimoiy yo‘nalganlikka ega. Muammoda yangi mazmunni izlash, muammoni qayta formulirovkalash yoki talabalar tomonidan yangi muammoning qo‘yilishiga to‘sinqilik qilmaslik kerak. Bu hollarda talabaning predmetga shaxsiy munosabati, ularning shaxsiy pozitsiyasi “tinglanadi”. Shuningdek, hal etilmagan ilmiy muammolarning qo‘yilishiga qiziqish uyg‘otadi.

Talabalarda o‘z qobiliyatlaridan qoniqmaslik hissining yuzaga kelishi. Istalgan muammo intellektual qiyinchilik holati yuzaga kelishi bilan bog‘liq, biroq qiyinchilik darjasini turlicha bo‘lishi mumkin. Bizning holatimizda muammoni hozir hal qilish mumkin bo‘lmagani sababli uning yechimini kechiktirishga to‘g‘ri kelgani yaxshiroq.

Talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ishni tashkil qilish. Pedagogik ishlar modelda belgilangan yo‘nalishlar doirasida olib boriladi.

Hal qilinmagan muammoga qaytish (ba’zan bir necha marta qaytishga to‘g‘ri keladi). Agar muammo hal etilsa, ijobiy “namunaviy kechinmalar” ta’mindandi. Bu o‘rinda amalga oshirilgan ijodiy jarayon refleksiyasini kuzatish: hal qilishda talab qilingan, egallangan ijodiy faoliyatga daxldor bilim va malakalarni ajratish muhim. Bu holda talabalar o‘z ijodiy qobiliyatları o‘sganini, demak, mos ravishda muammoni hal qilish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lganini anglab yetadi. Motivlar o‘quv foliyatini rag‘batlaydi, tashkil qiladi, yo‘naltiradi.

O‘quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga oriyentirlangan o‘qitish didaktik sistemaning barcha o‘zaro bog‘liq elementlari asosiga qurilishi kerak, bunda o‘quv materiali mazmuni tayanch element sanaladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarida bazaviy mavzularni o‘rganish ijodiy darajadagi masalalarning mantiqiy ketma–ketligi sifatida quriladi (algoritmik tavsiyalarni ishlab chiqishga oid masalalar; kichik masalalarga bo‘lishni talab qiladigan masalalar; ziddiyatni aniqlash va muammoni shakllantirishga oid masalalar; bir necha yechimli masalalar; axborot korrekt berilmagan masalalar; masalali vaziyatni qurishga oid masalalar). Bilimlar muammoni bayon qilingan ma’ruzalarda g‘oyalarni ilgari surish bosqichida qaysidir ijodiy operatsiyani qo‘llashga oid kichik masalalar ajratildi.

Ijodiy harakatlar darajasi.

Bu daraja masalalari nostandard. Ular qandaydir ma'lum operatsiyani qo'llashni ko'zda tutadi. Ularni yechishni keng ko'chirish xossasiga ega, masalalarning konkret tipiga bog'lanmagan evristik tavsiyalar bilan osonlashtirish mumkin bo'lardi.

Dasturlashtirish bo'yicha masalalarni yechishda turli bosqichlarda tamomila turlicha xarakterdagи muammolar va turli evristik tavsiyalar yuzaga keladi. Buni e'tiborga oldik va masalalar murakkabligini asta-sekin orttirdik, yangi-yangi evristik tavsiyalar qo'shib bordik.

Ijodiy faoliyat darajasi.

"O'qitish – xulosalarni, ular qanchalik qiyinchilik bilan erishilgan va adekvat bo'lmasin, keltirish san'ati emas. Hech bir o'qituvchi talaba propriumiga zo'r lash yo'li bilan kira olmaydi va funksional avtonom motivni joriy qila olmaydi. Yaxshi holatda u tajriba kanallarini osonlashtirishi, o'zining obiter dicta si vositasida ba'zida talabaga bu tajribaning qadriyatli potensialini ko'rishga yordam berishi mumkin"[2]. Ushbu ijodiy daraja masalalari amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, talabaning bilish qiziqishlariga mos kelishi, ijodiy qobiliyatlar shakllanganlik darajasini hisobga olgan holda ma'lum murakkablik darajasiga ega bo'lishi kerak. Eng optimal variant: masalani talabaning o'zi tanlashi. Agar masala juda murakkab bo'lib chiqsa, biror kichik masalani yechish bilan kifoyalanish mumkin.

O'quv faoliyatining talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida tegishlicha o'quv-metodik ta'minoti o'quv adabiyotlari (ijod, ijodiy faoliyat mexanizmlari, masala yechish strategiyalariga oid pedagogik adabiyotlar; olimpiada xarakteridagi masalalar to'plami); ijodning turli darajalariga oid masalalar to'plami; predmet xarakteridagi muammolarni hal qilish bo'yicha evristik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy holatlar ham anchagina muhim ahamiyatga ega. Talabalar ijodiy qibiliyatlarini o'quv faoliyatida rivojlantirish bo'yicha pedagogik ish jarayonida ta'limning umum tomonidan qabul qilingan metod va shakllari ma'lum ijodiy bo'yoq dorlik kasb etishi lozim. Shu sababli tashkiliy sharoitni yaratish zarur: o'quv - ijodiy faoliyatni tashkil qilish metod va shakllaridan foydalanish.

Ta'lim shakllariga ijodiy xarakterni qo'llanadigan metodlar (ma'ruza – evristik suhbat, bilimlar muammoli bayon qilingan ma'ruza, g'oyalar generatsiyasiga bag'ishlangan mashg'ulot), konkret ijodiy operatsiyalarni qo'llashga yo'nalganlik (bitta topshiriq mashg'uloti, masala tuzish mashg'uloti, prognostik mashg'ulotlar, mashg'ulot - fantaziya); mustaqil ijodiy faoliyatga kirishish (ijodiy ishlar bajarish, ijodiy ishlar himoyasi, ijodiy ishlarni taqrizlash) baxsh etadi.

Taqdim qilinadigan masalalar murakkablik darjasini va talabaning ijodiy qibiliyatlarini shakllanganlik darajasiga muvofiq yordam adaptasiyalansa, ijodiy qibiliyatlarni individual rivojlantirish optimallashadi. 'Real ijodiy jarayonni

optimallashtirish uchun har bir o‘quvchi uchun individual zona – ijodiy rivojlanish vaziyatini shakllantirish zarur”[3; 4-b.]. Bunga ta’limni tashkil qilishning individual va guruhda ish shakllaridan foydalanib erishish mumkin.

Demak, eksperimental guruhi talabalariga nisbatan ahamiyatli ijodiy qobiliyatlar rivojlanganlik darajasiga ega bo‘lganini bilib olamiz. Shunday qilib, pedagogika oliy o‘quv yurti talabalarini ijodiy qobiliyatlarini o‘quv faoliyatida rivojlantirishning yaratilgan modeli to‘g‘riligi tasdiqlanadi. Bu sistemani Oliy o‘quv yurti real o‘quv faoliyatida joriy qilib, ijobjiy natija olish uchun quyidagi pedagogik sharoitlarni yaratish zarur:

- ✓ motivatsion pedagogining kasbiy faoliyatida ijodning o‘rni va rolini asoslash;
- ✓ muammolar yechimi uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishini anglab yetish;
- ✓ konstruktiv talabalarga ijodiy faoliyat mexanizmlari haqida bilim berish;
- ✓ ta’lim mazmuniga ijodiy xarakterdagи topshiriqlarni kiritish; tegishli metodik ta’minot;
- ✓ tashkiliy o‘quv - ijodiy faoliyatni tashkil qilish metod va shakllaridan foydalanish;
- ✓ ta’limni tashkil qilishning guruhi, individual shakllaridan foydalanish;
- ✓ kommunikativ - o‘qituvchi kommunikativ madaniyati ancha yuqori darajada shakllanganligi;
- ✓ o‘qituvchi va talabalarning subyekt – subyekt o‘zaro hamkorligi sifatida dialogdan foydalanish.

Demak, tadqiqotning nazorat bosqichi vazifalari to‘laligicha bajarildi:

- ✓ eksperimental va nazorat guruhi talabalarining ijodiy qibiliyatlarini shakllanganligining yakuniy darjasini aniqlandi;
- ✓ tajriba – eksperimental ish natijalari miqdor va sifat tahlili amalga oshirildi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy qibiliyatlarini dasturlashtirish kursini o‘rganish davomida rivojlantirish metodikasini oldindan nazariy asoslangan, ma’lum pedagogik sharoitlarda aprobatsiyadan o‘tkazdik:

- ✓ motivatsion (pedagogining kasbiy faoliyatida ijodning o‘rni va rolini asoslash; muammolar yechimi uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishini anglab yetish);
- ✓ konstruktiv (talabalarga ijodiy faoliyat mexanizmlari haqida bilim berish; ta’lim mazmuniga ijodiy xarakterdagи topshiriqlarni kiritish; tegishli metodik ta’minot);
- ✓ tashkiliy (o‘quv - ijodiy faoliyatni tashkil qilish metod va shakllaridan foydalanish; ta’limni tashkil qilishning guruhi, individual shakllaridan foydalanish);

✓ kommunikativ (o‘qituvchi kommunikativ madaniyati ancha yuqori darajada shakllanganligi; o‘qituvchi va talabalarning subyekt – subyekt o‘zaro hamkorligi sifatida dialogdan foydalanish).

Ushbu pedagogik sharoitlar gipotetik variant bilan asosan mos keladi. Faqat konstruktiv blok aniqlashtirildi.

Shakllantiruvchi eksperiment tugallanganidan keyin eksperimental va nazorat guruh talabalari ijodiy qobiliyatlar holati qiyosiy tahlilida eksperimental guruh talabalarining ijodiy qibiliyatları darajasi nazorat guruhi talabalarinikiga nisbatan ahamiyatli ortgani kuzatildi. Bu bilan pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari ijodiy qibiliyatlarini o‘quv faoliyatida rivojlantirish sistemasining modeliga asoslangan metodika amaliyligi tasdiqlandi. Shuningdek, taqdim etilgan pedagogik sharoitlar kompleksi ham o‘z tasdig‘ini topdi.

Adabiyotlar

1. Богоявленская Д.Б. О предмете и методе исследования творческих способностей // Психологический журнал. Т. 16 - №5 - С.49-58
2. Решетников П.Е. Нетрадиционная система подготовки учителей: Рождение мастера: Кн. Для преп. Высш. И средн. Пед. Учеб. Заведений. -М.: ВЛАДОС, 2000. 304 с.
3. Кормен Т., Лейзерсон Ч., Ривест Р. Алгоритмы: Построение и анализ. -М.: МЦНМО, 2001. 960 с
4. Дроздикова Ж.Н. Творческая самореализация старшеклассников в условиях системно-целевой дифференциации обучения// Дисс. кандпед. наук. Казань, 1998. - 194 с.

YOSH VOLEYBOLCHILARNING TEZKORLIK SIFATINI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Davronov N.K.- Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada yosh voleybolchilar uchun o‘yin va boshqa sharoitlarda imkon qadar voleybol o‘yini bilan bog‘liq bo‘lgan texnik-taktik harakatlarni qisqa vaqt ichida bajarishni takomillashtiradigan harakatli o‘yinlar, voleybol mashg‘ulotlarida maxsus tezkorlikni rivojlantiruvchi eng samarali harakatli o‘yinlarning nazariy asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Yosh voleybolchilar, maxsus tezkorlik, harakatli o‘yinlar, oddiy reaksiya tezligi, murakkab reaksiya tezligi, texnik-taktik harakatlar.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КАЧЕСТВА
СКОРОСТИ ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ С ПОМОЩЬЮ
ПОДВИЖНЫХ ИГР**

**Давронов Н.К. - магистр Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. В статье рассматриваются наиболее эффективные подвижные игры для юных волейболистов, которые в кратчайшие сроки совершенствуют технико-тактические действия, связанные с игрой в волейбол, в игре и других условиях, развивают особую скорость в волейбольной тренировке, раскрываются теоретические основы.

Ключевые слова: юные волейболисты, особая скорость, подвижные игры, простая скорость реакции, сложная скорость реакции, технико-тактические действия.

**THEORETICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING THE
QUALITY OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS THROUGH
MOVING GAMES**

Davronov N.K. - Master of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article discusses the most effective movement games for young volleyball players, which improve the technical and tactical actions associated with the game of volleyball in the game and other conditions as soon as possible, developing special speed in volleyball training, theoretical foundations are covered.

Key words. Young volleyball players, special speed, movement games, simple reaction speed, complex reaction speed, technical-tactical movements.

Yosh voleybolchilarni tayyorlashda harakatli o‘yinlardan tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Buning sababi shundaki, yangi shug‘ullanuvchilar asosiy texnikani tezda o‘zlashtira olmaydilar, voleybol o‘ynash ular uchun dastlab chidab bo‘lmas mashg‘ulotdir. Natijada, shug‘ullanuvchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishi pasayadi. Jismoniy fazilatlarni rivojlantirish va texnika elementlarini takomillashtirishga qaratilgan ochiq o‘yinlar bebahodir. Ular bolalarni faollashtiradi, mashg‘ulotlarga qiziqishini oshiradi. Shug‘ullanuvchilarni to‘psiz bajariladigan harakatli o‘yinlar va estafetalar zeriktirib qo‘yadi. Shuning uchun bu o‘yinlarni to‘plar bilan bajargan ma’qul. Shu boisdan yosh voleybolchilarni tarbiyalashda harakatli o‘yinlardan foydalanish, voleybolchilarning jismoniy sifatlarini

rivojlantirishning to‘laqonli amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi fikrlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, yosh voleybolchilarni tezkorlik sifatini rivojlantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanishning nazariy-amaliy va harakatli o‘yinlarning samarali turlaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar orqali tezkorlik sifatini rivojlantirishning ahamiyati hali to‘laqonli o‘rganilmagan masaladir. Yosh voleybolchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanish ko‘pgina ilmiy va o‘quv adabiyotlarida azaldan o‘z ifodasini topib kelgan (Pulatov A.A, Usmanxodjayev T.Svabosh). Ushbu tadqiqotchi olimlar o‘zlarining yirik ilmiy va o‘quv asarlarida yosh voleybolchilarni tarbiyalashda harakatli o‘yinlardan foydalanishni atroflicha tahlil qilib bergenlar. Voleybol bo‘yicha mavjud ilmiy, uslubiy va o‘quv adabiyotlarda yosh voleybolchilarni tayyorlashda harakatli o‘yinlarni qo‘llash o‘ta muhim shartlardan biri ekanligi ta’kidlab o‘tilgan[1].

Mutaxassis olimlarning fikriga ko‘ra (Гарипов А.Т, Клещев Ю.Ю) voleybolni bolalikdan boshlab rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa harakatli o‘yinlardan unumli foydalanish lozimligiga urg‘u berishadi. Shu bilan bir qatorda muayyan yoshli bolalarda voleybol sport turiga xos harakatli o‘yinlarni tanlab olish yoki ularni moslashtirish orqaligina yosh voleybolchilarni jismoniy sifatlarini va harakat malakalarini yanada samarali shakllantirish mumkin[2].

Yuqoridagi muammolar va hali o‘rganilmagan bo‘sliqlardan foydalanib ushbu maqolada yosh voleybolchilarni mashg‘ulot jarayonida tezkorlik sifatini harakatli o‘yinlarning samarali turlari, mashg‘ulotning samarali uslub va vositalarini qo‘llash orqali rivojlantirishning nazariy ahamiyatini maqsad qilib olish mumkin.

Voleybolchilar uchun tezkorlik o‘yin va boshqa sharoitlarda imkon qadar voleybol o‘yini bilan bog‘liq bo‘lgan texnik-taktik harakatlarni qisqa vaqt ichida bajarishi uchun juda muhim sifat hisoblanadi. Bunda yosh voleybolchilarni tezkorlik sifatini rivojlantirish uchun eng qulay davrlar, texnik-taktik harakatlar bilan bog‘liq tezkorlikni mashg‘ulotlarining qismlariga e’tibor bergen holda, bajarilgan mashqlarni to‘g‘ri hisobga olib borgan holda va harakatli o‘yinlarning eng samarali turlarini qo‘llash orqali rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Voleybolda harakat tezligi juda muhim rol o‘ynaydi, uning rivojlanish darajasi asosan o‘yin davomida voleybolchilarning hujum va mudofaa harakatlarining samaradorligini belgilaydi.

Maxsus tezkorlik. Voleybolchining maxsus tezkorligi uni qisqa muddat ichida maydon bo‘ylab harakatlanishi va o‘yin malakalarini vaziyat talabiga mos ravishda samarali ijro etishi bilan belgilanadi. Tezkorlik voleybolda 3 xil shaklda namoyon bo‘ladi:

- turli ishora va vaziyatni fahmlash tezligi (jamoadoshining ishorasi, o‘yin vaziyatini o‘zgarishi va uni baholash, raqib o‘yinchining joylashishi va hokazo);
- ushbu vaziyatlarga nisbatan tezkor va maqsadga muvofiq harakat qilish;

- harakatlanish yoki bir necha harakatlarni ko‘p martalab ijro etish tezligi[3].

Voleybolda ayrim sport mashqlarini yaxlit bajarishda o‘rganilgan texnikani oqilona qo‘llashga yordam beradigan harakatli o‘yinlar katta ahamiyatga ega. Ular sport o‘yinlarini o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulot paytida, texnik xatolarni tuzatish ahamiyatsiz bo‘lganida, o‘yin texnikasi yaxshiroq qabul qilinadi va mashg‘ulotlarda voleybol elementlari bilan bog‘liq harakatli o‘yinlar va o‘yin harakatlariga taqlid qiluvchi mashqlar qo‘llaniladi. Talabalar asosiy texnikalarni tezda o‘zlashtira olmasa, ularning qiziqishi pasayadi. Jismoniy fazilatlarni rivojlantirish va texnik elementlarni takomillashtirishga qaratilgan harakatli o‘yinlar shug‘ullanuvchilarni faollashtiradi va mashg‘ulotlarga qiziqishni oshiradi.

Yosh voleybolchilarning dastlabki tayyorgarlik bosqichida beriladigan harakatli o‘yinlar bolaning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, uning g‘oyalari doirasi, uning kuzatuvchanligi va ixtirochilagini rivojlanadir, o‘yin jarayonida bolalar o‘rganadilar ko‘rganlarini tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish qobiliyati rivojlanadi[4].

Quyida yosh voleybolchilar uchun tezkorlik sifatini rivojlanishda qo‘llaniladigan harakatli o‘yinlarning eng samarali turlari keltirilgan:

Voleybolchilar estafetasi. O‘yining tavsifi. O‘yin ishtirokchilari o‘zaro teng ikki jamoaga bo‘linadilar. Ikkala jamoa o‘yinchilari ikkitadan bo‘lib, oralaridan bir oz joy qoldirib o‘zaro parallel ikki qatorga saflanadilar. Oldinda turganlarning oyoqlari uchi oldidan chiziq o‘tkaziladi. Bu chiziqdandan 10-15 qadam narida unga parallel qilib ikkinchi chiziq tortiladi. Qatorlar boshida turgan har qaysi juft o‘yinchining biriga bittadan to‘p beriladi. Oldinda turgan har qaysi juft o‘yinchilar rahbar signal berishi bilan oldinga qarab yugurib, yo‘lda to‘pni kaftlari bilan yuqoriga urib bir-birlariga qaytaradilar. Ular ikkinchi chiziqqacha yugurib borib, yana shu yo‘ldan o‘z qatorlariga qaytadilar, to‘pni so‘nggi marta urib navbatdagi juft o‘yinchilarga uzatib, o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar. Navbatdagi o‘yinchilar, uchib kelgan to‘pni ilib olmasdan, kaftlari bilan urib bir-birlariga qaytarib oldinga yugurib ketadilar. O‘yin har bir jamoaning hamma juft o‘yinchilari shu tarzda to‘pni urib-urib bir-birlariga qaytarib yugurib bo‘lgunlaricha davom ettiriladi. Navbat yana birinchi juft o‘yinchilarga kelganda ulardan biri to‘pni qo‘lga olib yuqoriga ko‘taradi va shu bilan jamoa yugurishni tamomlaganligini bildiradi. Yugurishni birinchi bo‘lib tamomlagan jamoa g‘alaba qozonadi.


O‘yining qoidalari. 1. Agar har juft o‘yinchilardan birontasi to‘pni yerga tushirib yuborsa, uning o‘zi to‘pni yerdan olishi va shu joyning o‘zida uni urib uzatishni davom ettirishi kerak. 2. Navbatdagi juft o‘yinchilar o‘zlariga to‘p berilgunicha chiziqni bosib oldinga o‘tmasliklari lozim. 3. Navbatdagi juft o‘yinchi to‘pni urib uzatib, yugurib ketganidan so‘ng butun qator bir qadam oldinga; suriladi,

yugurib ketgan juft orqasida turgan o‘yinchilar esa yugurish boshlanadigan chiziqdalarib turadilar.

Eslatma. Yugurib kelayotgan o‘yinchilar o‘z qatoriga yaqin kelganda yugurib ketadigan navbatdagi juft o‘yinchilarga yo‘l berish uchun orqaga tislanib, bir-biridan uzoqlashishi kerakligini o‘quvchilarga tayinlab qo‘yish lozim. Bu o‘yinni 7-sinfdan boshlab o‘tkazish tavsiya qilinadi.


Mazkur tezkorlik shakllantirishga mo‘ljallangan o‘yin mashqlari:

To‘sinqm qo‘yish-6 nafar shug‘ullanuvchilardan iborat guruh 2 jamoaga bo‘linadi va o‘z maydonlaridagi 1, 6, 5 zonalarda joylashib, har xil harakatlarni (o‘tirish-turish, o‘z atrofida sakrab o‘ng va chap tomonlarga sakrash, to‘pni pastdan va yuqoridan ikki qo‘llab qabul qilish va uzatish, to‘sinq qo‘yish va zarba taqlidlari) ketma-ket bajarib turadilar. Boshlovchi (trener) zona nomerini e’lon qilgan zahoti, ikki tomondagi shu zonalarda joylashgan o‘yinchilar maksimal tezlikda yugurib 2, 3, 4, zonalardan ketma-ket to‘sinq qo‘yish taqlidini ijro etadi. Birinchi bo‘lib sifatli bajarganlar e’tiborga olinadi. Birinchi kelganga har bir zona uchun bir ochkodan, sifatli bajarganga ikki balldan beriladi. Kech qolganlarga nol ochko, sifatsiz bajarganlarga nol ball beriladi. Eng ko‘p ochko va ball to‘plagan jamoa g‘olib deb topiladi.




1-rasm.

Birinchi zarba – bir jamoa a’zolarining 3 tasi ikkinchi jamoaga, ikkinchi jamoadan 3 tasi birinchi jamoaga o‘tkaziladi va barcha ishtirokchilar orqa chiziq ortida erkin joylashadi[1]. Boshlovchi signal berishi bilan ishtirokchilar 2, 3, 4, zonalarda chizilgan aylanaga tezlik bilan joylashib, zarba berish taqlidini bajaradi. Birinchi bo‘lib bajarganlarga 2 ochkodan beriladi. O‘yin 3 marta takrorlanadi. Eng ko‘p ochko to‘plagan jamoa g‘olib deb topiladi (2-rasm).



2-rasm

Nishonga to‘p otish –ishtirokchilar devordan 3 m oraliqda devorga nisbatan yon tomon bilan bir qator bo‘lib saflanadi[2,3.]. Ulardan 3m oraliqda trener to‘p bilan joylashadi. Trener to‘pni yuqoridan birinchi turgan ishtirokchiga yuqoridan ikki qo‘llab uzatishi bilan u shu to‘pni yuqoridan devorga burilib, yerdan 4m balandda devorga chizilgan diametric 40 smli aylanaga yuqorida ikki qo‘llabaniq uzatadi. Har bir ishtirokchi ushbu mashqni 5 marta takrorlaydi. Eng ko‘p marta aniq uzatgan ishtirokchi g‘olib deb topiladi. Bir yoki undan ko‘p o‘yinchi bir xil aniqlikda to‘p uzatsa final musobaqasi o‘tkaziladi (4-rasm).



4-rasm

Maqolaga doir o‘quv va ilmiy adabiyotlar, yuqorida keltirilgan namunaviy harakatli o‘yinlarning nazariy tahlili quyidagi xulosalarni e’tirof etish imkonini yaratadi:

1. Harakatli o‘yinlar orqali voleybolga xos harakatlanish tezkorligi va maxsus tezkorlik zamonaviy musobaqa o‘yinlarida foydali natijani ta’minlovchi ustuvor omillar tarkibiga mansub bo‘lib, ushbu sifatlarning shakllanishi boshqa jismoniy sifatlarni shakllanishiga va uyg‘un rivojlanishiga bog‘liqligini aniqlash mumkin.

2. Voleybol bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘p yillik sport mashg‘ulotlari davomida hujumga xos o‘yin usullari taqdirini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega harakatlanish tezkorligi va maxsus tezkorlikni shakllantirishga ustuvorlik berish aniqlandi.

3. Yuqoridagi harakatli o‘yinlarni yosh voleybolchilarga dastlabki tayyorgarlik bosqichidan boshlab mashqlarni to‘g‘ri hisobga olib borish orqali qo‘llash o‘ta yuksak natijaga olib kelishi mumkin.

4. Agar mashg‘ulotlarda o‘yinlarni amaliy tajribamizda sinovdan o‘tkazilgan va yuksak samaradorligi aniqlangan maxsus o‘yin mashqlari muntazam qo‘llanilib borilsa, kutiladigan natija yanada salmoqli bo‘lishini asoslash mumkin[4].

Adabiyotlar

1.Usmanxodjayev T.S, Isroilov Sh.X, Pulatov A.A, Pulatov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar. Darslik. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2015, 268 b.

2.ГариповА.Т, КлещевЮ.Ю, ФоминЭ.В. Скоростно-силовая подготовка Юных волейболисток. Методические рекомендации. -М.:ВФВ. 2009, 45 с.

3. KhidirovaM.A, PulatovA.L, UmmatovA.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. -T.: “Fan va texnologiya”, 2018, 480 b.

4. Швалёва Т. А, Корыткова З. А, Шутова Т. Н. Влияние подвижных игр на развитие координационных способностей юных волейболистов 2015. Литературный обзор, 4 с.

АКТУАЛИЗАЦИЯ ФЕНОМЕНА ЖИЗНЕСТОЙКОСТИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

**Файзиева Г.У. - студентка Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. В статье рассмотрены современная концепция жизнестойкости, критерии этого феномена и условия формирования. Приведены результаты некоторых эмпирических исследований.

Ключевые слова: сложные жизненные ситуации, психологическое здоровье, психологические возможности, жизнестойкие установки, жизнестойкое отношение, жизнестойкое поведение.

HOZIRGI ZAMONDA HAYOTCHANLIK FENOMENI AHAMIYATINI OSHIRISH

Fayzieva G.U. - Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy moslashuvchanlik konsepsiysi, bu hodisaning mezonlari va uning shakllanish shartlari muhokama qilingan. Ba’zi empirik tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qiyin hayotiy vaziyatlar, psixologik salomatlik, psixologik imkoniyatlar, moslashuvchan o‘rnatishlar, qat’iy munosabat, moslashuvchan xatti – harakatlar.

UPDATING THE PHENOMENON OF LIFE RESISTANCE IN MODERN WORLD

Fayzieva G.U. - Student of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article discusses the modern concept of resilience, the criteria for this phenomenon and the conditions for its formation. The results of some empirical studies are presented.

Key words: Difficult life situations, psychological health, psychological capabilities, resilient attitudes, resilient attitude, resilient behavior.

*Какой тоской душа ни сразжена,
Быть стойким заставляют времена.
Уильям Шекспир, «Король Лир»*

*Стойкость — это не просто способность выносить трудности, но и умение обратить их в успех.
Джек Конфилд(американский писатель, мотивационный спикер)*

Информационная революция радикально расширила наши возможности, нои существенно изменила картину мира.Процесс изменений оказался столь же сжатым во времени, сколь широким по пространственному охвату: перемены затронули все без исключения страны и территории, вошли в каждый дом.Изменился ритм жизни и характер взаимодействия людей, захлестываемых мощными потоками информации, ориентироваться в которых обычному человеку становится всё труднее. “Виртуальная” реальностьидёт рука об руку сповседневной, “настоящей” жизнью. Человечество живет в “смешанной реальности”,где причудливо сплетены правда иложь, реальные факты и вымысел. На смену неприкосновенности частной жизни приходит тотальный контроль. Интерпретируя “цифровые следы”нашего пребывания в Интернете,информационные гиганты и социальные сети получили возможность манипулирования потребителским и социальным поведением людей.

Картину сегодняшнего мира дополняют растущее социальное неравенство, политические и идеологические противоречия, военные конфликты, терроризм, массовая миграция, нестабильность мировой экономики. Все чаще случаются техногенные и климатические катастрофы, нарастают экологические проблемы. Негативные последствия происходящего многократно усилила длящаяся уже почти два года пандемия COVID-19.

Человечество переживает этап болезненного, но неизбежного перехода нашего мира в качественно иное состояние. Значимость этого перехода, его истинную суть ещё предстоит осмыслить и понять, но, с точки зрения психологической науки, последствия переходного этапа очевидны. Это — нарастание частоты сложных жизненных ситуаций, с которыми сталкиваются люди. Такие ситуации провоцируют стрессы, становящиеся причиной неврозов, неадекватного поведения, депрессивных состояний и даже новых фобий, таких, например, как *тропофобия* (боязнь изменений), *неофобия* (боязнь нового и неизвестного), *технофобия* (страх перед неудержимым техническим прогрессом) и еще множества других.

Но на сегодняшний день накоплено достаточно свидетельств того, что кроме негативных последствий сложные жизненные ситуации могут оказывать и положительный эффект. Такие ситуации заставляют человека развиваться, но при условии его готовности их прожить и пережить. Только сталкиваясь с трудностями и преодолевая их, человек способен подняться над собой и приобрести новые полезные черты. Поэтому в условиях нынешней глобальной неопределенности проблема психологической устойчивости перед лицом трудностей актуализируется, а со стороны исследователей растёт интерес к изучению феномена жизнестойкости человека. Но покамест вопросы формирования, развития и особенностей проявления этого феномена в современном мире людьми различных возрастов, профессий и социального статуса всё ещё остаются открытыми.

Впервые термин *hardiness* (выносливость, устойчивость, закалённость) ввели в научный оборот американские психологи Сьюзен Кобайса и Сальватор Мадди в начале 80-х годов прошлого века. Под этим термином они подразумевали *паттерн* (pattern — образец, шаблон, система) преодоления трудностей и трансформации негативного потенциала в потенциал развития. Это личностное качество, позволяющее эффективно решать проблемы, используя трудности как стимул для роста и дальнейшего развития на более высокой ступени [1; 2]. В 2000 году российский психолог Д.А. Леонтьев предложил переводить термин *hardiness*, как «жизнестойкость» и представил её как систему убеждений о себе, о мире, об отношениях с миром. Суть жизнестойкости состоит в способности человека оптимально реализовать свои

психологические возможности в неблагоприятных жизненных ситуациях, или, иначе говоря, в «психологической живучести», «расширенной эффективности» в стрессовых ситуациях[3].

Это неадаптация к стрессу, некопинг-стратегии (coping strategy), представляющие из себя поведенческие стратегии совладания со стрессами и психологически трудными ситуациями. В отличие от копинг-стратегий жизнестойкость это не способы и алгоритмы действия, а *черта личности, установка на выживаемость*. Coping strategy могут принимать и непродуктивную форму, тогда как hardness позволяет справляться с дистрессом эффективно и только в направлении личностного роста. Вместе с тем, между копинг-стратегиями и жизнестойкостью была выявлена и определённая корреляция[4]. При исследовании феномена жизнестойкости необходимо также разграничить термины *hardiness* и *resilience* (резилентность, гибкость, упругость, эластичность), а также термины *жизнестойкость* и *жизнеспособность*. Под *резилентностью* понимают *врождённое динамическое* свойство личности, способность «гнуться, но не ломаться»[5], тогда как жизнестойкость – это *гипотетически* выстроенный конструкт, логически подтверждаемый и достоверно не опровергаемый. До сих пор нет и чёткой, единой позиции по степени широты понятия *жизнеспособность*. Пока эти моменты ещё не полностью прояснены в научной литературе, а отсутствие единой, общепризнанной терминологической базы приводит к определённой путанице и смешению понятий. Однако такое положение является естественным для любого нового направления исследований, открывая широкое поле для научных дискуссий и плодотворных поисков истины.

Первое и наиболее известное исследование жизнестойкости было проведено С.Мадди, профессором Калифорнийского университета в 1975 году. Как эксперт-психолог, он был приглашен в Иллинойскую телефонную компанию (IBT) для того, чтобы помочь команде управленцев справиться с трудностями перехода компании к работе в условиях свободного рынка. Законы рынка вынудили компанию радикально изменить прежние подходы к работе – от методов организации труда до критериев его оценки. Многим сотрудникам грозило сокращение. Столь радикальные изменения персонала компании переносились очень тяжело – эффективность работы падала, участились случаи заболеваний вследствие дистресса (стресс, вызванный длительными негативными воздействиями).

С.Мадди обнаружил, что примерно две трети из 450 участников его исследования при переходе на новые условия работы испытывали сильный стресс, у них появились проблемы со здоровьем и эффективность труда в целом снизилась. Однако остальная треть сотрудников в тех же самых условиях не

чувствовал никакого дискомфорта и продолжала работать достаточно эффективно. Убедительно объяснить происходящее позволила концепция жизнестойкости, сформулированная по итогам исследования. Концепция предполагала, что жизнестойкость обуславливается личностными системами ценностей и убеждений, лежащих в основе представлений о себе, о мире, взаимовлияниях личности и окружающего мира. Жизнестойкость прямо связана с выраженностью каждого из её компонентов. Таких компонентов было выделено три: жизнестойкие установки, жизнестойкое отношение, жизнестойкое поведение.

Жизнестойкие установки характеризуют восприятие мира и взаимоотношения человека с миром, когда мир рассматривается либо как источник опасности, либо как источник возможностей. В конструкте (оценочной системе) жизнестойкости С.Мадди выделил три ключевые составляющие [2]:

–*Вовлеченность* (commitment) – уверенность в том, что даже в трудных, психологически дискомфортных ситуациях наилучшим решением будет оставаться вовлеченным в события, быть их действующим лицом, находящимся в тесном контакте с окружающими. Лучше бороться, а не прятаться или бежать. Лучше работать на пределе, осознавая неизбежность перемен и через это преодолевая стресс;

–*Контроль* (control) – убежденность в том, что свобода выбора есть всегда, что человек способен, вправе и обязан влиять на происходящее. Психологическая суть стресса состоит в потере контроля и предсказуемости, когда человек переживает состояние *беспомощности*;

–*Принятие риска* (challenge) – понимание того, что перемены и связанные с ними стрессы – это естественная часть нашей жизни. Помимо негативных переживаний они дают еще и ценный духовный опыт. Разумный риск оправдан. В противном случае человек будет жить с постоянным ощущением угрозы.

Исследование С.Мадди показало, что при условии развитости *всех* трёх факторов жизнестойкости, вероятность заболевания по причине трудной жизненной ситуации составляет 1,1%, а при слабой выраженности *всех* этих факторов риск заболевания составляет 92,5%

Жизнестойкое отношение – второй компонент структуры жизнестойкости. Это – проявление жизнестойких установок в отношениях с людьми. Жизнестойким людям в любых условиях свойственно строить отношения на основе взаимопомощи и взаимоподдержки. Но для большинства людей в ситуациях стресса характерны сокращение круга общения, минимизация контактов с другими людьми. Длительный стресс делает их более

эгоистичными и агрессивными. Им попросту не хватает ресурсов для общения, которые отнимаются внутренними переживаниями. Однако сохранение социальных контактов, возможность получать от других людей помочь и эмоциональную поддержку позволяют гораздо эффективнее справляться со стрессом и быстрее возвращаться в комфортное состояние. Речь может идти как об эмоциональной поддержке близких людей, так и профессиональной помощи психологов, юристов, врачей – всех тех, кто может поделиться своими знаниями и навыками и помочь быстро найти выход из затруднительной ситуации.

Давид Серван-Шрейбер — профессор клинической психиатрии, руководитель медицинского центра при Питтсбургском университете, полагал, что эмоциональная связь с другими людьми сама по себе обладает функциональным воздействием, сравнимым с лекарством. Связано это с тем, что выбирая сотрудничество, эмоциональный мозг задает направление желаемым положительным переживаниям, а когнитивный мозг ведет по этому пути наиболее правильным способом [6].

Жизнестойкое поведение – третий компонент структуры жизнестойкости, суть которого составляет умение применять эффективные копинг-стратегии. Обычно человек использует 2-3 привычные модели поведения и часто делает это неосознанно. Поэтому не все модели поведения помогают нам справляться с ситуацией, зачастую усугубляя её или затягивая. Это – неэффективные копинг-стратегии. Необходимо уметь построить своё поведение таким образом, чтобы оно приводило к желаемому разрешению ситуации. Эффективное поведение подразумевает не только способность избежать развития стресса. Оно предполагает также усвоение и осмысливание имеющегося успешного опыта, который можно будет использовать в дальнейшем, одновременно повышая собственную самооценку и укрепляя веру в себя.

Жизнестойким индивидам свойственны такие важные качества, как умение принимать действительность во всём её разнообразии и убежденность в том, что жизнь *a priori* (т.е. этому не требуется никаких доказательств) имеет смысл. Основу такой убежденности составляет приверженность значимым ценностям, например, религии. При этом жизнестойкие люди умеют замечательно импровизировать и находить нетривиальные решения в, казалось бы, неразрешимых ситуациях [7].

В качестве проявлений жизнестойкости все исследователи единодушно выделяют активное долголетие; стрессоустойчивость; адаптивность; выраженные навыки самоактуализации, саморегуляции и самоорганизации; умение легко преодолевать житейские и профессиональные

кризисы. Жизнестойкость — это интегральное свойство, зависящее от совокупности факторов внешней среды, специфики взаимодействия человека с этой средой, характера внутренних психологических процессов и индивидуальных особенностей психики. У каждого человека сочетание этих факторов уникально и, поэтому, может как способствовать, так и препятствовать развитию и проявлению жизнестойкости.

Наиболее динамичным периодом формирования жизнестойкости является ранний этап *онтогенеза* (индивидуального развития организма), а решающим фактором её развития выступают детско-родительские отношения. Многие исследования указывают на существование некоторых типологических особенностей жизнестойких людей в различные периоды их жизни. Наблюдения жизнестойких детей, например, выявили у них пять общих качеств: высокую адаптивность, уверенность в себе, независимость, стремление к достижениям, ограниченность контактов[8].

Проблема жизнестойкости находит своё отражение в работах многих авторов и круг исследователей постоянно расширяется. Это свидетельствует о том значении, которое придаётся этому феномену в настоящее время. По нашему мнению, упор в проводимых исследованиях должен быть сделан на понимании причин несформированности жизнестойкости и выявление факторов, способствующих её формированию. Результаты таких исследований могли бы стать научной основой для создания благоприятной психолого-педагогической среды, в которой будет закладываться фундамент жизнестойкости как разумной системы убеждений о себе, о мире и о наших взаимоотношениях с этим миром.

Литературы

1. KobasaS. C. (1979). Stressful life events, personality, and health: an inquiry into hardiness. *Journal of personality and social psychology*, 37(1), 1–11.n - Mode of access:<https://doi.org/10.1037//0022-3514.37.1.1>- Date of access: 31.08.2021.
2. Maddi, S.R. (2005) On Hardiness and Other Pathways to Resilience. *American Psychology*, 60, 261-262. - Mode of access: <https://dx.doi.org/10.1037/0003-066X.60.3.261> - Date of access: 31.08.2021.
3. Леонтьев Д. А., Рассказова Е. А. Тест жизнестойкости. М.: Смысл, 2006.- 63 с.
4. Williams, P. G., Wiebe, D. J., & Smith, T. W. (1992). Coping processes as mediators of the relationship between hardiness and health. *Journal of behavioral medicine*, 15(3), 237–255. - Mode of access:<https://doi.org/10.1007/BF00845354> - Date of access: 05.09.2021.

5. Bonanno G. A. (2004). Loss, trauma, and human resilience: have we underestimated the human capacity to thrive after extremely aversive events? The American psychologist, 59(1), 20–28. - Mode of access:<https://doi.org/10.1037/0003-066X.59.1.20> - Date of access: 02.09.2021.

6. Серван-ШрейберДавид. Антистресс. Как победить стресс, тревогу и депрессию без лекарств и психоанализа / Д. Серван-Шрейбер; [пер. с англ. Э. А. Болдиной].— М.: РИПОЛ-КЛАССИК, 2013. — 352 с. — (Серия: Новыйобразжизни).

7. Adshead G., Ferris S. Treatment of victims of trauma. Advances in Psychiatric Treatment (2007), vol. 13. — P. 358-368. - Mode of access:<http://apt.rcpsych.org/> - Dateofaccess: 04.09.2021.

8. Татьянченко Н.П. Развитие психологических знаний о феномене жизнестойкости в трудах отечественных и зарубежных авторов // Вестник Московского университета МВД России. 2013. №5. -URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiye-psihologicheskikh-znaniy-o-fenomene-zhiznestoykosti-v-trudakh-otечestvennyh-i-zarubezhnyh-avtorov> - Датаобращения: 05.09.2021.

HARBIY XODIMLARDAGI MARDLIK FENOMENLARINING PROFESIOGRAMMASIDAGI O'RNI

**Jo'rayeva S.N. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti
Karimova M.H. - Jamoat xavfsizligi universiteti psixologi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy xizmatchi xodimlarning jangovar tayyorgarligi, tahlika va tahdid tug'ilganda mardlik ko'rsatish fazilatlari borasida so'z yuritiladi. Harbiy xizmatchilarining jangovarlik darajasini rivojlantirishda buyuk sarkardalarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar va harbiylarimizning mardlik fenomenlarining profesiogrammasi to'g'risida tahliliy fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, mardlik, jangovarlik, qahramonlik, profesiogramma, fenomen.

РОЛЬ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В ПРОФЕССИОГРАММЕ ФЕНОМЕНА МУЖЕСТВА

**Джораева С.Н. - доцент Ташкентского государственного
педагогического университета**

**Каримова М.Х. - психолог Университета общественной
безопасности**

Аннотация. В статье рассматриваются типичные качества военнослужащих храбрость перед лицом угроз и угроз боевой готовности.

Приведены аналитические взгляды на формирование уровня боевой готовности военнослужащих на примере наших великих командиров и профессиограмма явлений мужества наших военнослужащих.

Ключевые слова: военнослужащий, отвага, бой, геройзм, профессиограмма, явление.

THE ROLE OF MILITARY PERSONNEL IN THE PROFESIOGRAM OF THE PHENOMENA OF COURAGE

Jorayeva S.N. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University

Karimova M.H. - Psychologist of the University of Public Security

Annotation. The article examines the typical qualities of military personnel - courage in the face of threats and threats to combat readiness. Analytical views on the formation of the level of combat readiness of servicemen are given on the example of our great commanders and a profesiogram of the manifestations of courage of our servicemen.

Key words: soldier, courage, battle, heroism, profesiogram, phenomenon.

O‘zbekiston milliy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan doktrinasini qabul qildi, unga muvofiq harbiy xodimlar tayyorlash borasida yangicha yondashuvni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu tadbirlar avallambor harbiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalarga, ularning tayyorgarlik va ta’minlash darajasiga mos bo‘lishi zarur. Biz uchun boradigan yakuniy mezon-amaliy natija, butun e’tiborni Qurolli kuchlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligini real oshirishga, ularning yuqori darajada uyushqoqligi va samarali hamkorligiga qaratishdan iborat. Demak, jangovarlik va mardlik fazilatlarini shakllantirish harbiy xodimlar profesiogrammasida asosiy o‘rinda turadi.

Jangovarlik va mardlik bir-biriga dialektik bog‘liq fazilatlardir. Jangovarlik mohiyatiga ko‘ra, tahdidni bartaraf etishga yo‘naltirilgan jismoniy, harbiy tayyorgarlikning ifodasi hissoblanadi. Buyuk bobomiz, sohibqiron Amur Temur lashkaridagi jangovarlikni oshirib borishga katta e’tibor bergan, qo‘sishnlarini vaziyatga, jang holatiga qarab joylashtirgan. Jangda mardlik ko‘rsatgan jangchilarni alohida taqdirlagan, ularning oilasidan xabar olib ma’naviy – ruhiy dalda bergen. Shuning uchun ham u qirq yil olib borgan yurushlarining birortasida ham mag‘lubiyatga uchramagan, shu tarzda shon-sharaf topgan. Ammo, bugun vaziyat va tahdidlar, jang olib borish taktikasi mutlaq boshqacha, u harbiy xodimdan harbiy-texnik bilim va jangovarlik, mardlik kabi fazilatlarni taqozo etadi.

Jangovarlik, asosan, harbiy xodimlarga xos fazilat deb hisoblanadi. Bu yondashuv aslida to‘g‘ri, tahdidiga qarshi turish, uni zarur bo‘lsa, quroq yordamida bartaraf etish harbiylarga burch qilib yuklatilgan. Tahdidlar, ayniqsa tashqi tahdidlar o‘zining beshafqatliligi, yovuzligi, tinch aholini o‘ziga qaram etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu tahdidni harbiy quroq kuchisiz to‘xtatib bo‘lmaydi. Harbiy xodimlardagi jangovarlik shunday tahdidlarni bartaraf etishga qaratiladi. Biroq jangovarlik harbiy xatti-harakat emas, u harbiy bilim, jang olib borish taktikasidan xabardorlik, qurollarga oid bilimlarga ega bo‘lish, yon-atroflarni, jo‘g‘rofiy muhitni o‘rganish, unda bemalol harakat qilish uchun zarur ma’lumotlardan foydalanish kabilardan ham iboratdir.

Dushman harbiy rejasidan xabardorlik, unda qo‘rquv va ikkilanishni uyg‘otish, unga kutilmaganda zarba berish hiylasidan foydalanish ham o‘sha bilimlar qatoriga kiradi. Jangovarlik harbiy quroq dushmanini bilish, yengish haqidagi bilimlar majmuasiga tayanadigan fazilatdir. Shuning uchun ham harbiy xodim professiogarammasida mazkur bilimlar majmuasi, ya’ni kadrlarni harbiy quroq, dushmani bilish, yengish san’atiga o‘rgatish muhim o‘rin tutadi.

Sharqda, ayniqsa, Xitoyda bu majmua “strategema” deb ataladi. “Kimda kim dushman ustidan g‘olib kelmoqchi bo‘lsa, u to‘g‘ridan to‘g‘ri jang olib boradi, ham manyovr, ham quroq qo‘llaydi,”- deyiladi qadimgi Xitoy manbalarida. Manyovr dushmani, bilish va yengish san’atini anglatadi.

“Mardlik” etikaga oid tushuncha bo‘lib, uning negizida tahdidga qarshi chiqish, ikkilanmasdan, hatto o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa-da, xavf-xatarni, hujumni, yovuzlik va zo‘ravonlikni to‘xtatishga qaratilgan dadil xatti-harakat yotadi. Mardlik shaxs qalbida, ongida shakllangan hayotiy pozisiya, barqaror qadriyatga aylangan ideal, yashash va fikrlash tarzi ifodasidir. Hech kim mard, jasur, botir bulib tug‘ilmaydi, bu fazilatlar ijtimoiy-tarbiyaviy ta’sirlar mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun, harbiy xodimlar mardlikni shakllantirish kadrlar taylorlashdagi asosiy vazifalar qatoriga kiradi. Mardlik – oliyjanob, axloqiy fazilat. U mudom alturizmni, ya’ni boshqalarni xavf-xatardan xalos qilish, ular hayotini, tinch-osoyishta yashashni asrashga qaratiladi. Undagi mazkur fidoyilik boshqa fazilatlarning ahamiyatini pasaytirmaydi, balki ularning yig‘ma mohiyati, kvintessensiya sifatida keladi. Mardlik har onda, har bir harakatda sodir etiladigan fazilat emas, u mudom ochiq, alturistik harakatda urunish beradi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Mardlik fenomenning sinonimi sifatida ham qo‘llaniladi. Maxsus tadqiqotlar ko‘rsatadiki, qahramonlik – noyob hodisa. Ammo uni kundalik hayotda ham namoyon etish mumkin. Masalan, harbiy xodimlarning kundalik hayoti va faoliyati (chevara xizmatchilarini eslang) mardlik va alturistik xususiyatga ega. O‘rganilgan auditorianing fikriga ko‘ra, mardlik va qahramonlikni asosan harbiy sohada (79%) va ichki ishlarda (54%) ko‘rsatish mumkin. Demak,

ijtimoiy fikrda harbiylar faoliyatini mardlik va qahramonlik bilan bog‘lash an’anasi shakllangan.

Harbiy xodimlar professiogrammasida maxsus o‘rganishni taqozo etadigan mavzu. Bu borada ma’lum bir qarashlar, fikrlar uchrasada, u hali ilmiy eksperimental asoslangan emas. U yoki bu sohadagi taxminiy – nazariy qarashlarni harbiy xodimlar professiogrammasiga ko‘chirish har doim ham to‘g‘ri xulosa chiqarishga olib kelavermaydi. Milliy harbiy doktrinamiz o‘zbek harbiy kadrlarning professiogrammasini maxsus tadqiq etishni, uning o‘ziga xos mental va kasbkor xususiyatlarini aniqlashni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, harbiy xodimlar professiogrammasi quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq qilsa, zarur, obyektiv holat aniqlanadi:

- maxsus bilimlar;
- maxsus tayyorgarlik – ko‘nikmalar;
- umumnazariy bilimlar;
- g‘oyaviy – ma’naviy bilimlar
- ijtimoiy – axloqiy fazilatlar;

Mazkur yo‘nalishlarning har biri yana kichik yo‘nalishlarga bo‘linadi. Masalan, maxsus bilimlarga harbiy ishlar tarixi va nazariyasi, harbiy psixologiya va pedagogika, harbiy sosologiya, harbiy geografiya, harbiy taktika, harbiy informatika kabi fan sohalari va nazariyalar kirishi mumkin. Ushbu kichik yo‘nalishlar umumiy fan - harbiy ish nazariyasi va tarixini to‘ldirishga, boyitishga yo‘naltiriladi. Bo‘lg‘usi harbiy kadrlar yuqoridagi fanlar sohalari va nazariyalari orqali o‘zida maxsus bilimlarni shakllantiradilar. Jangovarlik va mardlik harbiy xodimlarda vatanga, el-yurt osoyishtaligini ta’minlashga, mustaqillikni asrashga, xizmat qilish fazilatlari mohiyatan vatanga sadoqat belgisi, tinch va osoyishta yashayotgan, yaratuvchilik bilan shug‘ullanayotgan xalq, millatga xizmat qilish ramzidir. Shuning uchun, jangovarlik va mardlik harbiy xodimlar professiogrammasida markaziy o‘rinda turuvchi, kadrlar kasbiy mahoratini belgilovchi fazilatlardir.

Mustaqillikning dastlabki yillarda mahalliy harbiy kadrlar harbiy xizmatchilar umumiy sonining 0,6 foizini tashkil etardi, xolos. Ofiser kadrlar tayyorlash uchta harbiy bilim yurtida va uchta harbiy sohada tayyorlangan. Respublikamiz prezidenti va oliy bosh qo‘mondoni sh.m.mirziyoyev ta’kidlaganidek, qisqa davr ichida o‘zbekistonda “harbiy kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimi prinsipial jihatdan mutlaqo yangi asosga o‘tkazildi”. 1995-yili qurolli kuchlar akademiyasi, 2001-yilda serjantlar tayyorlash maktablari, 2017-yilda milliy gvardiya harbiy texnika instituti tashkil etildi. Sh.m.mirziyoyev ta’kidlaganidek “bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o‘g‘lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz shu yo‘lda erishgan eng katta yutug‘imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdagi

barcha ota-onalar, butun xalqimiz g‘ururi bilan, minnatdorlik bilan e’tirof etmoqda”. Ammo, bu degani harbiy xodimlarda jangovarlik va mardlik fazilatlari o‘zidan o‘zi, mexanik tarzda shakllanadi, degani emas. Ular avvalo, maxsus maktablar va o‘quv yurtlarida, poligonlardagi amaliy mashqlar va harbiy taktik mashg‘ulotlar paytida shakllantiriladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, harbiy xodimlar prfessiogrammasida g‘oyaviy ma’naviy va ijtimoiy fazilatlar muhim o‘rin egallaydi. Harbiy xodim ham jamiyat a’zosi, oilasida yashaydi, farzandlar tarbiyalaydi, qonunda qaror topgan qadriyatlarga, ijtimoiy normalar va axloqiy imperativlarga rioya etadi. Bu aloqalar uni jamiyat tomonidan yuklatilatilgan burch va vazifalarni to‘la-to‘kis bajarishga undaydi. Bugun ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish va olivjanoblashtirish asosiy maqsadga aylanayotganda harbiy xodimlarni tayyorlash ushbu maqsaddan chekkada qolishi mumkin emas. Yuksak harbiy bilim va ko‘nikmani shakllantirish pedtexnologiyasini yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash bilan uyg‘unlashtirish, ular o‘rtasida dialektik uzviy bog‘liqlikni ta’minalash harbiy pedagogika va psixologiya oldiga qator vazifalar qo‘yadi.

-birinchidan, harbiy tarbiyaning o‘zagini saqlagan holda unga gumanistik merosdagi insonparvar g‘oyalarni tatbiq, etish;

Ikkinchidan, ezgulik va yovuzlikni farqlash ko‘nikmasini shakllantiruvchi psixologik tajribalardan foydalanish;

Uchinchidan, harbiy professionalizmni oshirishni izchil olib borilishi, u vatanzarvarlik tuyg‘usi bilan uyg‘unlashtirilishi darkor.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev sh.m. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- tom. – toshkent: “o‘zbekiston” nmiu, 2017.
2. Temur tuzuklari – toshkent: yozuvchi, 1993-y
3. Sun – szi. Iskusstvo – Moskva: eksmo; spb: midgrad, 2007 g
4. Замилова р.р. герои и героическое: этико- философский анализ. Ташкент: ношир, 2003г.

SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI MUSTAQIL TA’LIM VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART - SHAROITLARI

Sarimsakova D.M. -Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyalarini mustaqil ta’lim jarayonida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, sotsiolingvistik kompetensiya, mustaqil ta’lim, pedagogik shart-sharoitlar, pedagogik tamoyillar, pedagogik omillar, ta’lim vositalari.

PEDAGOGICAL CONDITIONS IN TERMS OF DEVELOPING SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE THROUGH INDEPENDENT LEARNING

Sarimsakova D.M. -doctoral student of Namangan State University

Annotation. This article analyzes the pedagogical conditions in terms of developing sociolinguistic competencies of future English teachers in the process of independent study.

Key words: future English teacher, sociolinguistic competence, independent learning, pedagogical conditions, pedagogical principles, pedagogical factors, teaching aids.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

**Саримсакова Д.М. - докторант Наманганского государственного
университета**

Аннотация. В статье анализируются педагогические условия с точки зрения развития социолингвистических компетенций будущих учителей английского языка в процессе самостоятельного обучения.

Ключевые слова: будущий учитель английского языка, социолингвистическая компетентность, самостоятельное обучение, педагогические условия, педагогические принципы, педагогические факторы, учебные пособия.

Ma'lumki, so‘nggi o‘n yillikda xorijiy tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholashga qo‘yilgan malaka talablari ijtimoiy-siyosiy omillar tufayli takomillashtirilmoqda. Yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishi natijasida chet tili didaktikasida kommunikativ burlish, ya’ni chet tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiya tushunchasi asosiy konsepsiaga aylandi va natijada o‘qituvchining roli bilimlar vositachisi sifatida emas, aksincha u yordamchi, (fasilitator, instruktor, mentor) sherik va maslahatchiga aylandi. Kommunikativ yondashuvga asoslangan chet tilini o‘qitish shaxsga (talabaga) yo‘naltirilgan (learner-centered) til kompetensiyalarini egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida tashkil etiladi va bu jarayonda talaba axborot sohibi (kognizant) maqomida nutqiy va

madaniy malakalari (kompetensiyalar)ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida egallagan bilim, ko'nikmalarini kengaytiradi hamda mustahkamlaydi. "Bu yondashuv g'arb lingvodidaktikasida madaniyatlararo yondashuv nomi bilan yuritilib, kognitologiya, konseptologiya, lingvokulturologiya va boshqa zamonaviy fanlarning so'nggi yutuqlari asosida mazkur metodik nazariya shakllangan bo'lib, keng ko'lamda amaliyotda joriy etilmoqda"[7:40-41].

Bir jumla bilan ifodalaganda, chet tili va madaniyat yaxlit (integratsiyalashgan) holda o'rgatilmoqda. Mazkur metodik qoida doirasida chet til o'qitish maqsadi va mazmuni belgilanadi. "Chet tili o'qitish maqsadi: amaliy (practical goal), madaniy (cultural goal), ta'limiylarbiyaviy (educational goal) va rivojlantiruvchi (developmental goal) to'rtta maqsadlarni amalga oshiradi"[3; 21-29].

Amaliy va madaniy maqsad doirasida talabalarning lisoniy dunyoqarashini va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning dunyo haqidagi bilimlarini tili o'rganilayotgan xalqlarning hayoti, urf-odatlari va an'analari bilan tanishish, ularning ijodiy, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, real va pedagogik muloqot jarayonda talabaning o'ziga va boshqalarga nisbatan ijodiy va tanqidiy munosabatini, turli xarakter, qarashlar, e'tiqodlar, axloqiy-estetik va hissiy tajriba, motivatsiya, hamkorlik qilish va ijtimoiylashish istagini rivojlantirish; madaniy an'analarni saqlash, hurmat qilish, turli madaniyatlarni taqqoslash kabi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ingliz tilini o'rganishning ta'limiylarbiyaviy maqsadi talabalarning xotirasini, mantiqiy tafakkurini, mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Rivojlantiruvchi maqsad (G. V. Rogova va I. N. Vereshagina tomonidan kiritilgan) esa talabalarda ijodkorlik, aqliy va intellektual, xotirani yaxshilash, oldindan sezish, bashorat qilish, taxmin qilish qobiliyatlarini, mantiqiy tafakkur, tashabbuskorlik kabi qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi[4: 34-37].

Demak, ingliz tilini o'qitishning amaliy, madaniy, ta'limiylarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur maqsadlarni chet tili o'qitish tizimida muvaffaqiyatli amalga oshirishda chet tili o'qituvchilar komunikativ kompetensiyalarga (linistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik) va zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari vazifalarini qo'yadi.

